


*D.Rahmatullayeva,  
U.Xodjayeva, F.Ataxanova*

# LIBOS TARIXI



**D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova**

# **LIBOS TARIXI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

**“Sano-standart” nashriyoti  
Toshkent – 2015**

**Libos tarixi** / darslik: D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva,  
F.Ataxanova. -T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2015-yil. – 336 bet.

*Respublikada amalga oshirilayotgan ta'limga dasturini hayotga tadbiq etish maqsadida badiiy ta'limga yo'nalişlaridagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Libos (kostyum) tarixi" fanidan birinchi bor o'zbek tilida yaratilgan darslikda libos tarixi, rivojlanish tamoyillari, jahon xalqlari kostyumlari tarixi, libos shakllarining rivojlanish davrlari va tamoyillari, turli mamlakatlardagi tarixiy libos bichimlari, qo'llanilgan matolari va ularning bezak elementlari, XX asr zamonaviy modasi rivojlanishining o'ziga xosligi, kutyurye tushunchasi, shu davrda paydo bo'lgan va rivojlangan zamonaviy kiyim modasidagi uslublar o'z aksini topgan. E'tiboringizga taqdim etilayotgan ushbu darslik libos tarixining barcha jabhalarini o'z ichiga olganki, unda jahon xalqlarining ibtidoiy liboslari rivojlanishi va shakllanishi, moda tushunchasining paydo bo'lishi va Yevropa kostyuming moda ta'siri ostida o'zgarib borishi, XX asrdagi moda industriyasi ta'sirida paydo bo'lgan uslub va oqimlar, shuningdek o'zbek milliy va an'anaviy libosi hamda uning o'ziga xos rivojlanishi huduqlar bo'yicha ajratilib ko'rib chiqilgan.*

*Darslik mundarijasidagi libos tarixi, turli mamlakatlardagi tarixiy liboslar bichimi, matolar, ularning bezak elementlari, XX asr modasi, kutyuryelar uslublarining o'ziga xosliklari singari ma'lumotlarning kiritilishi undan foydalanish mumkin bo'lgan ta'limga yo'nalişlari sonini ko'paytirdi. Qolaversa, tilga olingan yo'nalişlarda birinchi bor o'zbek tilida yozilayotgan ushbu darslik nafaqat o'quv jarayoni uchun zarur, shuningdek keng kitobxonalar ommasi uchun ham qiziqarli.*

*Olingen ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida har bir bob ichidagi mavzuga o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar berilgan.*

*Darslik 6 bobdan iborat bo'lib, uning Kirish, Qadimgi davr liboslari, Yevropa liboslari, O'zbek liboslari qismlari san'atshunoslik fanlari doktori Dilfuza Rahmatullayeva, Osiyo liboslari, Markaziy Osiyo liboslari qismlari Umida Xodjayeva, XX va XXI asr liboslari qismlari Feruza Ataxanova lar tomonidan tayyorlangan.*

Taqrizchilar:

I.R.Abdurahmonov

Kamoliddin Behzod nomli MRDI "Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi"  
kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi

U.S.Raxmatullayeva

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti "Libos dizayni"  
kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

UO'K:687.016(09)(075)

KBK: 63.5ya722

ISBN 978-9943-348-84-4

© D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova., 2015  
© «Sano-standart» nashriyoti, 2015



# **KIRISH**

## **JAMIYAT HAYOTIDA LIBOSNING O'RNI.**

### **KIYIM VA LIBOS TUSHUNCHALARI**

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqidir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an'analari, yashash tarzi haqida kattagina ma'lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyligi, quvонchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomondan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma'lum bir moddiy qiymatga ega bo'lib, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir. Me'moriy inshootlar, mehnat va turmush qurollari singari kiyim ham ma'lum bir tarixiy davr, mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, xalqning milliy o'ziga xosliklari va uning go'zallik haqidagi tasavvuri haqida ma'lumot beradi.

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatdan bir-biri bilan mushtarak ko'rinsa-da, ushbu tushunchalar o'rtasida birmuncha farqlar ham mavjud.

Kiyim deganda, avvalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun zarur bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlaridan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi. Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim, ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyabzal, bosh kiyimlari.

Mana shu predmetlar turli vazifalarni bajaruvchi aksessuarlar, bezaklar, soch turmagi, pardoz bilan birga libosni tashkil etadi.

Aynan libos insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, yoshi, jinsi, xarakteri va estetik didini namoyon etadi.

**Liboslarning asosiy turlari va shakli.** Ba'zi bir tadqiqotchilar kiyim uyalish hissiyoti sabab paydo bo'lgan desa, boshqasi o'z tanasini bezash niyati sabab deydi, uchinchi birlari esa inson sovuqdan himoyalanish uchun kiyimga ehtiyoj sezgan deb javob beradi. Darhaqiqat, kiyim qachon paydo bo'lgan degan savol ko'pchilikni qiziqtirsa kerak. Insoniyat unga nima sabab ehtiyoj sezgan? Bu va bu kabi savollarga javob berish uchun qadimshunoslik fani yordamga keladi. Qadimshunoslik (arxeologik) qazilmalari kiyim insoniyat taraqqiyotining eng qadim davrlarida (40-25 ming yil ilgari) paydo bo'lganini ko'rsatadi. Poyabzal birmuncha keyingi davrlarda paydo bo'lgan bo'lib, libosning boshqa elementlaridan ko'ra birmuncha kam tarqalgan.

Kiyim nafaqat tabiiy ehtiyojni ta'minlovchi bir vosita, shu bilan birga u amaliy san'at namunasi hamdir. U amaliy san'atning barcha namunalari singari go'zallik hamda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi. Tanani turli tashqi ta'sirlardan, xususan, issiq va sovuqdan saqlashdek amaliy vazifani bajarish bilan birga, u bezak, chiroy singari estetik funksiyalarga ham ega. Shu sababli ham jamiyat taraqqiy etib borgan sari, insonlar estetik didi oshib borgan sari kiyimlarning bezagiga, asosiysi takrorlanmasligiga e'tibor ortib boraveradi.

Ma'lumki, dastlabki davrlarda inson tabiatning turli ta'sirlari, shuningdek, hayvon va hashoratlarning chaqishidan o'zini himoyalash maqsadida tanasiga tuproq, loy, moy surtib yurgan. Keyinchalik bu surtmalarga o'simlik bo'yoqlari qo'shilib, inson tanasini turli shakl va ranglar bilan bezash urf bo'lgan. Galda tanaga tatuirovkalar (teri ostiga turli bo'yoqlarni kiritish) chizish orqali himoya qobig'ining vaqtini uzaytirish odat tusiga kirgan. Har xil qushlar patlari, o'ldirilgan hayvonlar tishlari, suyaklar, sochlar turli ramziy vazifalarni bajarish bilan birga tanani himoyalagan ham. Vaqt o'tgan sari tanasining qanchalik katta qismi ma'lum bir yopinchiq bilan berkitila borgan sari inson turli ramzlarni mavhumlash maqsadida qulqoq, burun, lab, dahanda sun'iy mahkamlovchi usullar o'ylab topgan va ulardan bezak sifatida foydalana boshlagan.

Aynan mana shu hozir biz tilga olgan tanani bo'yash, tatuirovkalar kiyimning dastlabki shakllari bo'lib, matodan qilingan kiyimlar paydo bo'lgach ham, ular e'tibordan qolmadı. Endi ular libosning ma'lum bir elementi sifatida namoyon bo'lib, unga ko'rк va estetik qiymat berish vazifasini bajargan.

Oradan vaqt o'tib, insoniyat ip yigirish va undan mato to'qishni o'ylab topgan, tanaga tushurilgan tatuirovkalar matolarga ko'chib, undagi bezak vazifasini o'tay boshlagan.

Tarixiy liboslarda bezaklar nafaqat o'z egasining ijtimoiy kelib chiqishi, ya'ni tabaqasini anglatgan, shuningdek, majoziy ma'no kasb etish bilan birga, kishilarning estetik didini ham ifodalagan. U vaqt o'tgan sari takomillashib, ularning turlari ko'payib, shakllari murakkablashib bordi. Xususan, ularning yechib kiyiladigan, tanaga mahkamlanadigan (bilakuzuklar, uzuklar, ziraklar, matoga mahkamlangan yoxud tushurilgan (kashtalar, bosma rasmlar, bo'rtma bezakli) turlari paydo bo'ldi.

Kiyib yechiladigan bezaklar shakliga inson tanasi shakli ham ta'sir etgan. Aynan mana shu holat sabab barmoq va bo'yinga taqiladigan bezaklar aylanasi mon shaklni olgan.

Shunday qilib, liboslardagi shakllarning paydo bo'lishi va mukammallahib borishiga tarixiy omillar – tashqi muhit, iqlim, fasllar va boshqalar; ijtimoiy-iqtisodiy omillar – tarixiy taraqqiyot, etnik kelib chiqishi, din, turmush tarzi, fan-texnika rivoji va boshqalar; inson omili – jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psixologiyasi va boshqalar ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda har bir xalqning rivojlanish bosqichlari kishilar liboslarda o'z izini qoldiradi. Bu holat libos davr va uslubga monand o'zgarib turishini ham ko'rsatadi.

"Libos tarixi" nomli darslik 6 bobdan iborat bo'lib, 1-, 2-, 3-boblardagi mavzular Yevropa libosining rivojlanish va shakllanishini aks ettiruvchi xronologik tartibda joylashtirilgan. Lekin shakllanish davri birmuncha qadimiy bo'lgan fors, arab, hind, xitoy, yapon liboslari geografik joylashuviga ko'ra alohida 4-bobdan o'rin olgan.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, beshinchchi bobda Markaziy Osiyo xalqlari liboslari, 6-bobda esa hududlar bo'yicha o'zbek liboslarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

## BIRINCHI BOB

### QADIMGI DAVR LIBOSI IBTIDOY JAMOA TUZUMI DAVRIDA KIYIMLARNING ASOSIY TURLARI

Inson tanasining shakli va yashash tarzi dastlabki kiyimlarning ko‘rinishini belgilagan.

Dastlabki davrlar, ya’ni ibtidoiy tuzumda hayvon terisi yoki o’simlik navdalarini to‘qish asosida muayyan bir shaklga keltirilishi oqibatida tayyorlangan mato inson tanasinining ma’lum bir qismlarini berkitishga xizmat qilgan. Bunda to‘g’ri to‘rtburchak mato yelkaga yoxud bo‘ksaga tashlanib, tana atrofiga diogonal yoki aylana bo‘yicha gorizontal holatda bog‘langan. Bog‘lanish joyiga ko‘ra ular bir-biridan farqalangan. Shu usulda ikki xil: yelka va belga bog‘lanadigan kiyim turlari paydo bo‘lgan.



*1-rasm*

Ularning eng qadimi shakli burmalanadigan kiyimdir. U tanani o‘rab, unga turli bog‘ichlar, belbog‘ va kamarlar yordamida mah-kamlangan. Vaqt o‘tib, kiyimning yangi – yelkaga tashlanadigan shakli paydo bo‘lgan. U tuzilishiga ko‘ra bir necha turda bo‘lgan. Xususan, oldi ochiq turida yelka va ikki yoni tikilgan bo‘lsa, ikkinchi turi oldi yopiq bo‘lib, faqat yelka va yoni tikilib, bosh qismi va qo‘l kirishi uchun yiriq bor.

**ANTIK DAVR LIBOSI**  
**QADIMGI MISR LIBOSI**  
**(mil.avv.3000-milodiy 2000-y.y.)**

Misr dunyo tarixida eng qadimgi davlat sanaladi. Ushbu mamlakat insoniyatning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib, uning tarixi quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi:

- a) qadimgi podshohlik (mil. avv. 3000-2400 yy);
- b) o'rta podshohlik (mil. avv. 2400-1710 yy.);
- v) yangi podshohlik (mil. avv. 1580-1090 yy.).

Qadimgi misrliklar asosan dehqonchilik, yilqichilik va hunarmandchilik (kulollik, zargarlik, to'quvchilik, shisha ishlab chiqarish) bilan shug'ullanishgan. Qadimgi Misr turli tabaqalar, ya'ni quldorlar, shaharliklar (hunarmandlar va mirzalar), ozod qullar va qullardan iborat edi.

Miloddan avvalgi uch ming yillikning boshida Qadimiy Misr yirik quldorlik davlati bo'lib, uni cheksiz hukmronlikka ega bo'lgan fir'avn boshqargan. Misrliklar fir'avnni xudoning yerdagi soyasi, deya sig'inishgan. Ayniqsa, din ruhoniylari bo'l mish kohinlarning fir'avnning cheksiz huquqlarini himoya qilib turishlari ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratgan.

Qadimda misrliklar nechog'liq boy tabiiy va madaniy boyliklarga ega bo'lib, ularni o'zlashtirgan bo'lmasinlar, ular tabiat hodisalari oldida ojiz edilar. Bu holat ularning tabiat kuchlariga sig'inishlariga olib kelgandi. Odamlar quyoshga, yerga, oyga, suvgaga, hatto hayvonlar (xususan timsoh, chiyabo'ri, sigir, kalxat, ilon va b.ga), o'simliklarga sig'inishgan. Din mamlakat hayotining turli tomonlariga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Xususan, san'atda u alohida o'rin tutgan. Illohiylashtirilgan narsalarda ma'lum bir ramziy, shartli ma'no yetakchilik qilgan. Xususan, ilon saltanat ramzi bo'lsa, moviy nilufar abadiylik va serhosillik timsoli hisoblangan.


Qadimgi Misr san'atida inson tasviri o'ta shartli xarakterda ifodalangan. Devoriy tasvirlar, haykallarda ularning qomati va harakatlari ma'lum bir mezonlar asosida tasvirlangan. Ularning holatlari va harakatlari shartli xarakterga ega. Shakl va hajmda ijtimoiy kelib chiqishiga katta e'tibor berilgan.

Qadimiy Misr haykallari, devoriy suratlari ushbu davlat madaniyati, xususan, uning nafosat va go'zallik haqidagi qarashlari

haqida katta ma'lumot beradi. Qat'iylik va shartlilik ortida qadimgi misrliklarning estetik ideali belgilari ko'zga tashlanadi. Bular - baland bo'y, keng yelkalar, tor bel va bo'ksa, katta-katta yuz belgilari. Ayniqsa, Qadimiy Misrda ayollar go'zalligi haqidagi qarashlarning zamonaviy qarashlar bilan hamohangligi e'tiborni tortadi. O'sha davrda ham tikqomat, yuzdagi belgilarning aniqligi va nozikligi, bodomko'zlar (Rannai haykali, Nefertiti byusti, ilovadagi 1,-2-rasmlar) qadrlangan.

Matolar, rang va bezaklar. Ma'lumki, qadimdan Misr zig'ir vatani hisoblanadi. Bunga sabab Nil daryosi bo'ylarining zig'irni yetishtirish uchun tabiiy qulay sharoitidir. Zig'ir tolalaridan mato to'qishda misrliklar katta mahoratga ega bo'lganlar. Saqlangan mato namunalari Misr to'quvchilari mahoratidan dalolat beradi. Quyidagi dalil ular erishgan natijalar haqida aniq tasavvur beradi. Ushbu davrda tayyorlangan matoning 1 sm<sup>2</sup> 84 tanda va 60 arqoq iplari o'tkazilgan. 240 metr uzunlidagi ko'z deyarli ilg'amaydigan ip bor yo'g'i 1 grammni tashkil qilgan. To'quvchi bunday ipni faqat barmoqlari orqali sezgan. Misrning zig'ir tolalaridan tayyorlangan mato o'zining nafisligi bilan tabiiy ipak matolaridan qolishmagan. Ushbu matodan besh qavat qilib kiyim tikilganda ham undan inson tanasi aniq ko'rinish turgan. Matoning fakturasi ham har xil bo'lgan. Ayniqsa, yangi podshohlik davridagi gazmollar fakturasi e'tiborli. Setkasimon qilib to'qilgan gazmollar oltin iplar va undan tayyorlangan turli shakklardagi bezaklar, yaltiroq munchoqlar, turli kashtalar bilan bezaklangan. Bu davrda shuningdek, to'rsimon matolar e'tiborda bo'lgan. Oq va oq matoning turli ko'rinishlari, ayniqsa, urf bo'lgan. Shuningdek, gulli matolar ham ishlab chiqarilgan. Bunda oq yoki to'q rangli asosga ko'k, havorang, jigarrang, sariq, yashil rangli tasvirlar tushurish urf bo'lgan. Qora rang motam ramzi bo'lмаган.

Matolarning butun yuzasiga geometrik shakklar (yo'l-yo'l, to'lqinsimon chiziqlar) tasviri tushirilgan. Ular atrofi gullar, xususan, nilufar gulining bargi va umumiy ko'rinishi, palma, qamish, turli o'simliklar barglari bilan bezashgan. Zodaganlar kiyimlari hayvonlar tasviri, xususan, ko'zoynakli ilon - ureus, go'ng qo'ng'izi, qanotlarini yozib turgan lochin kabilar bilan bezalgan (1-rasm).



*1-rasm*

Marosim liboslari uchun zig‘ir matolardan tashqari teri va mo‘ynadan ham foydalanilgan.

### **Liboslarning asosiy turlari va shakli**

Qadimiylar Misr liboslarining shaklida taxlama (drapirovska) asosiy o‘rin tutadi. Burmalar kiyimning asosan old tomonida bo‘lib, libosning orqa qismi yengil burmalanib, tanaga yopishib turgan. Kiyimning orqa qismi uzaytirilmagan.

Qadimiylar imperiya davrida erkaklar asosan «sxenti», ya’ni peshband kiyganlar. Sxentilar shaklan to‘rburchak, yoki trapetsiyasimon bo‘lib, turli xil o‘chlamlarda bo‘lgan. Sxenti belga ingichka charm belbog‘ bilan bog‘lab, mahkamlab qo‘yilgan. Sxentining ustidan yoki tananing ustidan to‘rburchak shaklidagi peshband kiyilgan (2-rasm).

Ayollar libosi tananing ko‘krak qismidan to boldirgacha qismini bekitib turadigan chodirsimon matodan iborat bo‘lib, u bir yoki ikki tasma ila yelkadan o‘tkazilib kiyilgan. Kalaziris deb ataluvchi ushbu sarafanni eslatuvchi kiyim ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, u xoh malika bo‘lsin, xoh kanizak, barcha ayollar uchun bir xil shaklda bo‘lgan. Ayollar kiyimi faqat matoning sifati va qimmati bilan farqlangan (3-rasm).



*2-rasm*



*3-rasm*

O'rta podshohlik davriga kelib Misr ayolining libosida o'zgarish sodir bo'la boshladi. U biroz murakkablashib, hajmi bir necha qavat kiyilgan kiyimlar hisobiga kattalashdi. Kiyimning silueti pastga tomon kengayib, piramidalar shaklini ola boshladi. Plisselar, ya'ni mayda taxlamalar keng qo'llanila boshladi.

Erkaklar libosi bir necha qavat qilib kiyiladigan sxentilardan iborat bo'lib, ular ustma-ust kiyilgan.

Ayollar libosi katta o'zgarishlarga uchramagan. Faqat aslzoda ayollar liboslarida bezaklar turi ko'paygan. Kiyimlar insonlarning ijtimoiy kelib chiqishini bildirib turgan, ya'ni tabaqalarga ko'ra farq qilgan. Agar boylar zig'ir tolali matolardan tikilgan kiyimlarni kiyishgan bo'lsa, qullarning kiyimi dag'al teridan qilingan. Eng yuqori tabaqa kishilar, xususan, fir'avn, vazirlar, kohinlar, yirik yersuv egalarining kiyimlarigina bezaklangan. O'rta podshohlik davriga kelibgina misrliklar kiyimlarining shakli birmuncha o'zgargan. Natijada u bir paytning o'zida ustma-ust kiyiladigan bir necha kiyimlar ko'rinishiga kelgan. Kiyim silueti etakka tomon kengayib, piramidasimon ko'rinishga keldi. Plessirovkalar keng qo'llaniladigan bo'ldi. Erkaklar kiyimi bir necha yupqa sxentilardan iborat bo'lib, ustma-ust kiyilgan. Ayollar kiyimi ko'rinishini unchalik o'zgartirmadi. Faqatgina zodagon ayollar liboslarini bezash yanada ko'paydi. Kiyim kompozitsiyasida qoracha rangli terining mato ostidan aniq ko'rinish turishiga ahamiyat berildi. Yoqa o'mida yelkani yopib turuvchi turi shisha munchoq va qimmatbaho toshlar bilan bezaklangan bezak urfga aylangan.

Yangi podshohlik davrida (mil. avv. 1580-1090 yy.) kiyimlarda sinfiy tafovut yanada ko'proq sezila boshladi. Aslzodalarning kiyimlariga ishlataladigan matolar o'zining harirligi, bezakdorligi, bezakda tilladan foydalanilishi bilan farqlanadi. Ushbu matolar asosan ip va zig'irdan tayyorlangan. Sidonlik qul ayollar bo'yalgan matolarni kashtalar bilan bezaganlar. Ushbu matolardan tikiladigan kiyimlarning tikilishiga serburmalilik xos bo'lib, ularda plisselardan ko'p foydalanilgan. Plisselar kiyimning butun bo'yi barobar qo'llanila boshlagan. Biroq misrliklar plisselarni bir necha joydan mahkamlab qo'yanliklari sababli harakatga monelik qilgan.

Kiyimlar shaklan katta o'zgarishga uchramagan. Hatto o'ta burmalangan kiyimlarda ham tanaga mos bichim berishga intilish seziladi. Bunday bichimdagi kiyimlar erkin harakatga birmuncha

xalaqit bergani sabab odamlar yurayotganda harakatlar yo'rgaklangandek taassurot uyg'otadi.

Bu davrda erkak va ayollar kiyimi bir-biriga birmuncha o'xshash. Erkaklar kiyimi plissirovka qilingan yubka va yopinchiqdan iborat. Turli bezak va qimmatbaho toshlar va marjonlar bilan bezaklangan katta doira shakldagi yoqalarni nafaqat fir'avn va uning oila a'zolari, shuningdek zodagon xonadonlar vakillari ham kiya boshlaganlar. Marosim kiyimlarida sxenti, uch burchakli peshband saqlangan. Quyi qatlam kiyimi oddiyligicha qolgan. Ayollar ko'ylagi kalaziris saqlanib qolgan.

Misrliklar Suriyani bosib olgach, kiyinish madaniyatida birmuncha o'zgarish ko'zga tashlanadi. Xususan, Suriyadan yopinchiq, plash-naramnik kirib keldi. Uni nafaqat erkaklar, shuningdek ayollar ham kiya boshlaganlar. U to'rtburchak shakldagi matoni ikkiga buklanib, ikki yoni tikilgan, boshning kirib chiqishi uchun bo'yni kesilgan uzun kiyim edi. Ayollar charmli peshband va ko'krakpech kiyishgan.

**Oqinlar** an'anaviy kiyimlarni, xususan sxentini saqlab qoldilar. Uchburchak old peshband ustidan bir yelkaga sher terisi tashlab olingan. Harbiylar peshband va teridan ko'krakband kiyishgan. Qishloq va shahar kambag'allarining kiyimida o'zgarish kuzatilmaydi.

**Bezaklar, bosh kiyimlar, soch turmagi, poyabzal va ulardagi bezak elementlari.** Qadimiy devoriy suratlar – freskalarda misrliklar asosan oyoqyalang tasvirlangan. Palma barglari, papirus, galda teridan qilingan sandallarni fir'avn, shuningdek uning atrofidagilargina kiyishgan. Sandallar oddiy ko'rinishda bo'lib, ular qo'njsiz va to'piqsiz, tagi yuqoriga buklab ko'tarilgan, bir necha ensiz tasmalardan iborat bo'lgan. Tagcharmlarga turli xil maishiy va harbiy ko'rinishlar timsoli chizilgan. Misrliklar poyabzali oddiy shaklda bo'lib, u charm yoxud qamishdan ishlangan shippak ko'rinishida edi.

Misrliklar libosida taqinchoqlar, xususan, qo'l va oyoq bilakuzuklari, uzuklar, marjonlar, sirg'alar, tillaqoshlar va boshqalar alohida o'rin tutadi. Yuqori tabaqaga mansub kishilar qimmatbaho metalldan yasalib, toshlar bilan bezaklangan zargarlik buyumlari taqqan bo'lsa, quyi tabaqa vakillari pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni taqib yurishgan.

Bosh kiyimlar shakli turlicha bo'lib, ular egasining ijtimoiy kelib chiqishini bildirib turgan. Qadimgi davrdagi fir'avnlarning bosh kiyimi old tomonida hukmdorlik ramzi - ko'zoynakli ilon ila bezaklangan toj va ikki qavatlari yo'l-yo'l (ko'k va sariq, oltin rang), uch burchak tarzida buklangan katta ro'mol shaklida bo'lgan (4-rasm).

Fir'avnning ayoli koshun yoki nilufar gul ramzi tushurilgan qalpoqcha kiygan. Kohinlar marosim paytida timsoh, lochin, ho'kiz tasviri tushurilgan niqoblar kiyishgan.

Ayollar ham, erkaklar ham o'simlik tolasi yoxud echki yungidan qilingan pariklar taqishgan. Zodagonlar pariklari mayda soch o'rimgani yoki eshilgan arqon shaklidagi soch o'rimgalaridan iborat bo'lgan. Qullar va dehqonlar kichik pariklar yoki zig'ir matosidan qalpoqlar kiyishgan. Erkaklar soqollarini qirib yurishgan. Odatda ular echki yungidan tayyorlangan sun'iy soqolni lak bilan qotirib, metal iplar ila o'rab taqib yurishgan. Fir'avnning qudrati kub yoki uchburchak shaklidagi oltin soqol bo'lgan. Soqol bog'ichlar yordamida zamnaviy ko'zoynaklardagi singari dujka yordamida culoqqa mahkamlangan.

Ayollar yuziga pushti-qizil yog' upa surtib, kiprik va qoshlarini qoraga bo'yashgan bo'lsa, erkaklar kipriklarini yashil rangga bo'yaganlar. Qo'l va oyoq tirnoqlari maxsus o'simlik - xina bilan qizg'ish sariq rangga bo'yalgan. Misr liboslari galda boshqa xalqlar madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, uning elementlari qator xalqlar liboslarida bo'y ko'rsatgan.



4-rasm



Qadimgi podshohlik mill.avv. 3000 y.



**O‘rta podshohlik mill.avv. 2100 y.**



**Yangi podshohlik mill.avv. 1600-1100 y.y.**

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Libos va kiyim tushunchalariga ta’rif bering.
2. Kiyim qanday paydo bo‘lganligiga tushuncha bering.
3. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kiyimning asosiy turlari haqida nimalar bilasiz?
4. Qadimgi Misr san’ati va madaniyatiga ta’rif bering.
5. Qadimgi Misr liboslarining asosiy turlari va shakli haqida nimalar bilasiz?
6. Bezaklar, bosh kiyimlar, soch turmagi, poyabzal qanday shakl va ko‘rinishga ega, kiyimlardagi tasvirlarni ta’riflab bering.
7. Yangi podshohlik davrida kiyimlarda qanday o‘zgarishlar sezila boshladi?

## QADIMIY YUNON LIBOSI

Mil. avv. VII-I asrlarda Bolqon yarim orolida Qadim Yunonistonning o‘ziga xos ajoyib madaniyati gullab-yashnadi. Yunonistonning qulay tabiiy iqlimi - iliq dengiz havosi, unumdor yerlar, boy qazilma boyliklar yerli xalqning asosiy ish faoliyatini belgilab berdi. Yunonistonning siyosiy jamiyat boshqaruvi qattiqko‘llilikka asoslangan sharq mamlakatlaridan keskin farq qilardi. Uning asosi demokratiya hamda quldorlikka asoslangan jamiyat qurilishi edi.

Yunon san’ati realistik xarakterga ega bo‘lib, inson shaxsi go‘zalligi, uning cheksiz qobiliyatga ega ekanligiga ishonch, badiiy tilining oddiy va yorqinligi hayot haqiqatiga asoslanganligi – bularning bari Yunon san’atining asosiy tamoyillari bo‘lib, qadim antik madaniyati, butun Yevropa madaniyati va uning kelajagi uchun katta ahamiyat kasb etdi.

**Go‘zallik tushunchasi.** Qadim yunon madaniyatida ruh va tana go‘zalligining uyg‘unligiga alohida e’tibor berildi. Vatanparvarlik, yuksak fuqarolik burchi, aqliy dunyoqarash va axloqiy poklik uning jisman go‘zalligi bilan uyg‘un bo‘lishi lozim deb qaraldi.

Inson tanasi go‘zalligi, undagi a’zolarning mutanosibligi – bularning bari alohida ahamiyat kasb etardi. Yunon musavviri Polikletning «Dorifor» (“Nayza irg‘ituvchi”) haykalida inson tana go‘zalligi aks ettirilgan. Ushbu haykaltaroshning «Qanon» nazariy traktatida inson go‘zalligi, unga qo‘yiladigan talablarga alohida o‘rin berilgan. Traktatda o‘lchov birligi sifatida inson tanasi olingan bo‘lib, tana o‘lchamlarida ham alohida mezonlar mavjud. Xususan, kalla inson tanasining yettidan bir qismiga teng bo‘lishi kerak degan qarash tan olingan.

Yunon ayolining o‘rnı jamiyatda nechog‘liq cheklanganligiga qaramay, qadim Yunoniston san’atida ayol tasvirida ham sog‘lom, har tomonlama barkamol taraqqiy etgan, maqsadli shaxs qiyofasini aks ettirishga intilish kuchli. Xususan, Venera Milosskaya nomi bilan mashhur Afrodita haykali fikrimizni isbotlaydi. Ilohaning yuz tuzilishi, xususan, to‘g‘ri chiziqli burun va dahan, uncha keng bo‘limgan manglay, biroz to‘lqinsimon sochlari, yoysimon qoshlar

bilan chegaralangan katta bo'rtib turgan ko'zlar – bularning bari hozirgacha ayollar go'zalligining ramzi hisoblanadi.


Qadim haykallar rangi va adabiy asarlardagi tasvirlardan ma'lum bo'lishicha, yunonlar yorqin ranglarni - oltin sochlar, moviy ko'zlar, oppoq terini yuqori qo'yib, qadrlashgan. Biroq garmonik rivojlangan shaxslarga qo'yiladigan talablar asosan yuqori tabaqa vakillarigagina xos bo'lib, quyi qatlam, xususan, hunarmandlar va nullarga bu aloqador emasdi.

Yunon liboslari jamiyat estetik qarashlarning in'ikosi bo'lib, jamiyat idealini o'zida aks ettirgan. Salobatli va oddiy, jisman mashq qilingan tana uchun harakat va erkinlik tug'dirish - burmalangan qadim yunon libosi uchun asos rolini bajargan.

Turli o'lchamdag'i to'g'ri to'rtburchak shaklidagi mato turfa xil buklamalar va taxlamlar ila burmalanib, tananing go'zalligini namoyon ettirishga xizmat qilgan. Yunonlar o'z liboslari uchun yumshoq, to'kilib turadigan, yaxshi burmalanadigan matolarni tanlashgan. Matolar bu davrda qo'lda to'qilib, ularning eni 2 metrgacha bo'lgan. To'quvchilik kasbi juda qadrlangan. Qadim yunon mifologiyasiga ko'ra Olimp xudolarining bari mohir to'quvchi bo'lib, bir-birlari ila ushbu hunarda musobaqalashishgan.


Matolar asosan junli va zig'ir tolalaridan to'qilgan. Paxta tolasini birinchi bor Aleksandr Makedonskiyning yurishlari davrida Hindistonda ko'rgan yunonlar hayratlanib, unga «jun daraxti» deya nom berishgan. Yunonlarni libosning shakliy tuzilishi emas, balki ko'proq uning badiiy plastik xususiyatlari qiziqtirgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarga kelib, avvalgi davrlarda keng tarqalgan turli rasmlangan matolar o'rmini sidirg'a, ko'k, qizil, binafsha, yashil, sariq, jigarrang va ayniqsa oq rangdagi matolar egalladi. Yunon liboslarda qora rang ishlatilmagan. Kul rang va jigarrang motam ranglari hisoblangan.

Sidirg'a matolar, turli shaklagi kashta, applikatsiya rasmlar ila hoshiyalangan. Bezaklar ornamentlari geometrik yoki o'simliksimon xarakterga ega. Bular – meandr, to'lqinsimon, palmetta. Liboslardagi vertikal buklamalar ularning aniq va yorqinligini oshirib, go'zalligini va plastik harakatlar erkinligini ta'minlagan (1-rasm).



*1-rasm*

**Erkaklar libosi.** Erkaklar libosi ikki qismdan: ya’ni xiton va gimatiydan iborat bo‘lgan. Xiton bizning tasavvurimizdagi ich kiyim bo‘lib, u asosan zig‘ir yoki junli toladan to‘qilgan matodan tayyorlangan. Xitonning yelka qismi tikilishi, yoxud fibula deb ataluvchi to‘qalar ila mahkamlangan. Xitonning ikki yonboshi tikilgan, ba’zan bir yonboshi ochiq qoldirilgan. Xitonning uzunligi turlichcha bo‘lsa-da, asosan tizzagacha bo‘lgan shakli keng tarqalgan (2-rasm).



*2-rasm*

Eng keng tarqalgan ustki kiyim, ya'ni yopinchiquylar gimatiy deb atalgan. Gimatiylarning o'lchami 1,7 x 4 metr bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklidadir. Gimatiylar inson tanasiga turli usulda o'ralib, burmalanib, tashlanib mustahkamlanadigan yopinchiquylardir. Matoning taxlanish, burmalanish, mustahkamlanish va o'ralish uslubiga ko'ra gimatiylar turli xil ko'rinishda yaratilgan. Yelkaga tashlangan uchi sirg'alib ketmasligi uchun unga bir bo'lak og'ir metall mahkamlanib, ilib qo'yilgan. Spartada jun matosidan qilingan gimatiylar tanaga xitonsiz kiyilgan (3-rasm).



3-rasm

Ustki kiyimning yana bir shakli xlamidalar bo'lib, yelkaga tashlab olingen xlamidalar ko'krak qismida yoki yelkada fibula, ya'ni to'g'nog'ich bilan mahkamlangan. Xlamidalar ham shaklan to'g'ri to'rtburchak matodan qilingan bo'lib, ular gimatiyga nisbatan biroz kalta bo'lgan.

Odatda jun matodan tayyorlangan xlamidalar o'zining vertikal holatdagi ko'p burmalari bilan ajralib turadi. Harbiylar metalldan peshband, uning ustida kalta xitonning ustidan «kirasa» deb nom olgan sovut kiyishgan. Ularning ustki kiyimi binafsha rangdagi xlamidalar bo'lib, boshlariga dubulg'a kiyishgan. Ularning boldirlari «knemidis» bilan himoyalangan. Hunarmandlar va kosiblar asosan dag'al jun tolasidan qilingan yengsiz, ba'zan kalta yengli xitonlar kiyishgan bo'lsa, qullar kiyimi o'ng tomoni ochiq «ekzomida» yoki belga bog'langan peshbanddangina iborat bo'lgan.

Yunonlar moyabzalining shakli oyoq kaftini takrorlab, asosan probka daraxti yoki arqondan tayyorlangan taglikdan iborat bo'lib, u arqon yoki charm tasmalar yordamida oyoq to'piqlari yoki boldirga mahkamlanib, kiyib yurilgan. Qadim dunyoning boshqa davlatlari singari Yunonistonda ham moyabzalni faqat yuqori tabaqa vakillarigina kiygan. Sandallarning bezaklari asosan turli rangda ishlovlangan teri, undagi chizgilar, turli metall to'qalar va duru marvarid bezaklar bilan bezaklangan.


Bosh kiyimlar asosan yog‘in-sochinli ob-havo sharoitida yoxud sayohatlar paytidagina kiyilgan. Fetrdan tayyorlangan keng soyabonli, tepe qismi past shlyapalar kam bo‘lsa-da mavjud bosh kiyimlaridir. Uni, shuningdek, yelkaga tashlab qo‘yiladigan tasma bog‘lag‘ichlar bilan kiyishgan.

Ushbu davrda erkaklar kalta soch, yarimyo shaklidagi soqol, mo‘ylov qo‘yishgan. Yigitlar soqol, mo‘ylovini qirtishlab olishgan, uzun sochlarni esa uzuksimon moslama bilan birlashtirib yurishgan. Yunonlar soqolni erkakning rutbasi deb hisobilashgan. Haykaltaroshlar buyuk shaxslarni navqiron qiyofada tasvirlab, yoshini soqoli ila ifodalashgan. Aynan soqol tasvir etilayotgan shaxsnинг yoshini anglatgan.

**Ayollar libosi.** Yunonistonda ayollarning o‘rni va haq-huquqlari erkaklarnikidan past bo‘lsa-da, biroq jamiyatdagi go‘zallik va nafosat tarbiyasida, xususan, avlodlar tarbiyasida ularning alohida o‘rni bo‘lgan. Bu ularning liboslari bichimiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ayollar libosi ham xiton va gimatiydan iborat bo‘lib, ular o‘zining bezagi va turli tumanligi ila erkaklarnikidan ajralib turgan. Ayollar xitoni o‘z tuzilishiga ko‘ra erkaklarnikidan farqlangan. Bu asosan ulardagi burmalarning ko‘pligi, shuningdek, bezakdorligida ko‘zga tashlanadi.

Ayollar xitonining o‘ziga xosligi yuqori qismidagi qaytar-malaridir. Diploidalar deb nom olgan bu qaytarmalar libosda bezak o‘rmini bosib, u boshqa rangdagi matodan qilingan, turli tuman kashtalar, applikatsiyalar, bezakli detallar bilan bezaklangan. Qaytarmaning uzunligi turlicha bo‘lgan. Xususan, ular ko‘krakkacha, bo‘ksagacha, tizzagacha bo‘lishi mumkin edi. Xuddi erkaklar xitonlari singari ayollarniki ham yelkaga fibula-to‘g‘nog‘ichlar ila mahkamlanib, belda kolpos deb nom olgan belbog‘ bilan mahkamlanib, ayol tanasi go‘zalligini bo‘rttirib turgan. Kolposlar odatda belga bog‘lansa-da, uni ko‘krak pastidan yoki bo‘ksadan bog‘lash keng tarqalgan. Kolposlar enlik belbog‘lar bo‘lib, ularni odatda tugun qilib bog‘langach, qolgan qismi uzun qilib tashlab qo‘yilgan (4-rasm).



4-rasm

Vaqt o'tgan sari xitonlar yanada mayinroq matolardan qilina boshlagach, ularga kolpos deb nomlangan bog'ichlar bilan shakliy ko'rinish berilgan. Kolposlar nafaqat belda, shuningdek bo'ksadan yoki ko'krak qismida xochsimon (krestsimon) shaklda bog'lanib, ular yeng shaklini bera boshlagan (5-rasm).

Ayollar ustki kiyimi – gimatiylar ham turli usulda burmalangan. Ayollar gimatiylari shaklan erkaklarnikidan kichikroq bo'lsa-da, o'zining bezakdorligi bilan ularnikidan ajralib turardi.

Ayollar sandalining shakliy ko'rinishi turlicha bo'lib, u o'zining bezakdorligi, yorqin ranglardagi teridan qilinib, oltin va kumush ila ziynatlangu bilan farqlanadi.

Ayollar bosh kiyimni juda kam kiyishgan. Yog'in-sochinli sharoitlarda asosan, gimatiy va xitonlarning yuqori tomoni ila o'zlarini muhofazalashgan.

Ayollar soch turmag'i turlicha bo'lib, bu davrda uzun va kalta soch birdek ko'p uchragan. Bu davrda uzun, oltinrang, jingalak sochlari alohida qadrlangan. Shu bilan birga ularni turmaklashga alohida ahamiyat qaratilgan. Yunon tuguni deb nom olgan turmaklash usuli hozirgi kungacha uchraydi. Bu davrda keng urf bo'lgan peshona bo'ylab taralgan sochlarni, boshning orqa qismidan yuqoriga ko'tarib turmaklash usuli «korimbos» hozirgi kungacha uchraydi.

Kalta sochlari chambarak yoki tasmalar bilan bezaklangan. Sochni bezashda shuningdek, oltin tasmalar, tillaqosh-diademalar, soch to'g'nog'ichlardan keng foydalaniilgan.


Libosga qo'shimcha qilib, soyabon va yoysimon yelpig'ichlardan ham foydalanilgan.

Qadim Yunonistonda zargarlik san'ati ham keng taraqqiy etgan. Zargarlik buyumlari orasida ziraklar, bo'yinga taqiladigan zebziyatlar, intalyalar, kameyyalar, to'g'nog'ich, to'qalar, bilakuzuklar, uzuklar, tillaqoshlarning bir qator turlari uchraydi. Ular asosan oltin va kumush singari qimmatbaho metallardan ishlangan. Ushbu buyumlar metallga ishlov berilib, turli naqshlar ila bezak berilib tayyorlangan.

Past tabaqa ayollarining libosi shaklan zodagonlarnikini takrorlasa-da, biroq ular arzon matolardan qilinishi, shaklan kichik hajmdaligi, shuningdek qimmat bo'lмаган bezaklar ila bezaklanganligi bilan farqlangan.

Yunon ayollari pardozga alohida e'tibor berishgan. Ular bronza oynalardan foydalanishgan. Yuz, lab, kiprik va qoshlariga alohida ranglar bilan pardoz berishgan. Xushbo'y hidli atirlardan foydalanishgan. Atirlar saqlanadigan flakonlar, ya'ni lekiflarning o'zi ham haqiqiy san'at namunasi darajasida bo'lgan.

Yunon libosidagi asosiy elementlar - plastik shabl, burma va taxlamalarning mutanosibliklari gal dagi madaniyatlar rivojida alohida ahamiyat kasb etdi va kishilik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida Yevropa madaniyatining rivojida alohida o'rinn tutdi.



5-rasm

## **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Qadimgi Yunon san'ati va madaniyatiga ta'rif bering.
2. Yunon matolari qanday xususiyatlarga ega, ularga qanday bezaklar berilgan?
3. Qadim Yunonistonda go'zallik tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?
4. Qadimgi yunon erkaklar kiyimining turlari haqida tushuncha bering, ularning farqi nimada?
5. Qadimgi Yunon ayollarning erkaklar libosidan farqi nimalarda ko'rildi, ayollarning asosiy kiyim turlari, kiyinish uslubi qanday edi?
6. Yunon ayollarining soch turmagining turlari haqida nima bilasiz?

## QADIMIY RIM LIBOSI

Rim quldorlik davlatining harbiy xarakteri bir necha asr orasida shahar davlat bo‘lgan Rimni Yevropa, Kichik Osiyo, Misri o‘z ichiga olgan kuchli hukmron mamlakatga aylanishiga sabab bo‘ldi. Bosqinchilik urushlari, kuchli sinfiy tafovutlar, bir tomonda boylik va to‘kinlikdan zerikkan zodagonlar, ikkinchi tomonda kambag‘allarning ko‘pligi sabab tabaqalar o‘rtasidagi tafovut Rim jamiyatini antik davr Yunonistonidan farqlaydi.

Rim san’atini shartli ravishda Respublika davri (mil. avv. IV-I asrlar) va imperiya davriga (milodiy I-Vasrlar) bo‘lish mumkin.

Respublika davrida (mil. II asrlar) Rim Yunonistonna bosib oldi. Shu davrdan boshlab Rim madaniyatiga Yunoniston madaniyati va san’atining kuchli ta’siri sezila boshladи.

Qadimiy rimliklar matonatli, kuchli kishilar sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Agar Yunonistonda gavda tuzilishida ma’lum bir proporsiyalar, ularning uyg‘unligi asosidagi go‘zal atletik gavda ideal hisoblansa, Rim davlatining dastlabki yillarda kuchlilik, har qanday sharoitga moslashuvchanlik, qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, qat’iyat va oddiylik - mana shu xususiyatlar bu davr ideal shaxs timsolini belgilaydi.

Yunon va rimlik ayollar tashqi ko‘rinishida o‘xshashdirilar. Rimlik ayollar Qadimiy Yunoniston ayollaridan ko‘ra jamiyatda kattaroq huquq va e’tiborga ega edilar. Rim ayollarida kiborlik, sokinlik va ma’lum bir ma’noda adl qomat ideal ayol qiyofasini belgilaydi. Bu davrda rimliklar to‘liq yelkalar, keng bo‘ksa va tekis ko‘kraklarni ideal figura sifatda tan olishgan. Oqish rangdagi teri e’tiborli bo‘lgan. Sochlarni oltin rangga bo‘yash, shu rangdagi pariklar taqish odat edi.

**Matolar, rang, bezaklar.** Rim san’ati kabi liboslar ham to‘lig‘icha Yunon an’analari ta’sirida edi. Bu nafaqat liboslarga ishlatiladigan matolarda, shuningdek ikki uch kiyimni bir vaqtning o‘zida kiyishda ham ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga bir xil tarkib va rangdagi matolarning ishlatilishida ham bu o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi.


Biroq rimliklar liboslari aynijsa imperiya davrida yunon liboslaridan bir muncha farq qila boshlaydi. Xuddi Yunonistondagi singari Rimda ham matolar qo‘lda to‘qilgan. Matolar uchun echki yungi, zig‘ir tolasi asosiy xomashyo hisoblangan. Imperiya davrida

sharqdan shuningdek ipak matolari ham olib kelina boshladi. Ipak matolarining narxi juda yuqori bo'lib, ularning bir funti, shuncha og'irlikdagi oltinga baholangan. Yupqa va nafis matolar bilan birga bu davrda og'ir va qalin zarbof ham borgan sari e'tiborga tusha boshlagan. Og'ir va qalin matolarga o'ta boshlash o'z-o'zidan liboslar shaklidagi burmalilik va taxlama (skladka)lardan voz kechilishiga, ya'ni qobiqsimon, tekis kiyimlarga o'tilishiga olib keldi.

Rim liboslarida, asosan, yorqin, go'zal ranglar yetakchilik qiladi. Binafsha, jigarrang va sariq ranglar asosiy ranglar hisoblanadi. Imperiya davrida ranglar murakkab, hashamador xarakter kasb etib, ranglarni birikuvda qo'llash yetakchilik qila boshladi: och yashil va havorang oq bilan, yorqin binafsharang sariq bilan, kulrang havorang ila, pushti va och binafsha ranglar birgalikda qo'llana boshladi.

Rim matolari galda g'uncha, to'rtbarg, dub bargi, lavr yaprog'i yoki gullar shodasi bilan naqshinlangan geometrik shakliy bezaklar - doiralalar, aylanalar, romblar bilan bezaklana boshladi. Naqshlar bir necha ranglar uyg'unligida tikilgan yoki to'qilgan bo'lib, ularning tilla rangdagi iplar bilan jilolanishi matoga yanada ko'rк va dabdabalilik bergen (1-rasm).

**Erkaklar libosi.** Respublika davrining dastlabki yillarida inson tanasi go'zalligini bo'rttirib ko'rsatuvchi burmali, aksariyat hollarda inson tanasining ba'zi qismlari ochiq qolgan liboslar yetakchilik qilgan (2-rasm).



I-rasm



2-rasm

Bu davr liboslari orasida tunika yetakchilik qilgan. Tunika o‘zining qo‘llanilishiga va vazifasiga ko‘ra xitonga o‘xshashdir. Biroq ular shaklan bir-biridan farq qiladi. Agar xitonga o‘ralib olinsa, tunikaning yelka qismi tikilib, uni bosh orqali kiyib olingan. Shu ma’noda, tunika kiyiladigan kiyimdir. Rim tarixida tunikaning shakli va uzunligi o‘zgarib borgan. Lekin boldirning o‘rtasiga yetadigan tunikalar mumtoz hisoblangan. Egasi qanchalik boy va mansabdor bo‘lsa, tunikaning bezagi ham shunga yarasha bo‘lgan. Bezaklar ma’lum ramziy ma’nolarni bildirgan. Masalan, senatorlar va chavandozlar tunikasining old qismida binafsha rang yo‘llar soni va kengligi jihatdan bir-biridan farqlangan. G‘olib sarkardaning tunikasi oltin palma shoxi bilan tikib bezaklangan. Rimliklar ustki kiyim bo‘lgan togaga chuqur ramziy ma’no bergenlar. Chet elliklar va qullar toga kiyish huquqiga ega emasdilar.

Tunikalarning qator turlari bo‘lib, ularning asosiyları – kolobium, talaris va dalmatikadir.

**Kolobium** – keng bo‘limgan, belidan bog‘lanadigan yengi kalta tunikadir.

**Dalmatika** – keng yengli, ancha uzun, yoyilgan holatda kreatni eslatuvchi kiyim. Bu kiyimni asosan rimlik xristianlar (I asr boshiga kelib Rimga xristian dini kirib kela boshladı. Dastlab ezilgan sinflarni qamrab olgan ushbu din vaqt o‘tib, yuqori sinflar doirasida ham tarqala boshladı) kiyishgan.

Triumfator (g‘olib, yetakchi) sarkardalar kiyadigan tunikalar, ayniqsa, juda hashamdar bo‘lgan. U binafsha rang matodan tikilib, oltin palmetlar ila bezaklangan. Senatorlar tunikasi bo‘yiga qizil rang chiziq (hoshiya) bilan bezaklangan.

Sovuq kunlarda rimliklar bir necha qavat tunika kiyib yurishgan. Qadimgi qo‘lyozmalarda imperator Avgust bir vaqtning o‘zida to‘rtta tunika kiyib yurgani xususida ma’lumotlar mavjud. Ko‘cha va jamoatchilik orasida tunikada yurish odobdan hisoblanmagan.

Bu davrda Rimda urf bo‘lgan tunika va toga o‘zining badiiy va shakliy tuzilishiga ko‘ra yunonlarning xiton va gimatiyasidan farq qilsa-da, biroq ularning umumiy jihatlari ham yo‘q emas edi.



3-rasm

O'zining bo'yи va eni, yengining uzun-qisqaligiga ko'ra tunikalarning turli xillari mavjud edi. Libos egasi qanchalik boy va e'tiborli bo'lsa, uning bezagi ham shunga yarasha bo'lardi. Liboslardagi bezaklar (kashta, yo'llar, bezaklar) ham tabaqa, lavozim xarakteriga ega edi. Ular asosan to'q qizil, binafsha, ko'k rangda bo'lib, rang ma'lum bir ramziy ma'noga ega edi. Xususan, tunikaning old qismidagi vertikal binafsha rang yo'llarning soni va kengligi bilan ajralib turgan. Yo'l-yo'l tunikalarni rimlik senatorlar va chavandozlar kiyishgan.

Rimliklarning ustki kiyimi plash bo'lib, ular orasida toga alohida ajralib turadi. Toga ustki kiyimi chuqur ramziy ma'noga ega bo'lgan. Chet elliklar va qullar toga kiyish huquqiga ega emasdilar. Toga sirk, teatr, sud majlisi, triumfatorlar, hukmdor qabuliga borishda asosiy atributlardan biri bo'lgan. (4- rasm).

Toga katta bo'lak mato bo'lib, u to'rtburchak yoki ellips shaklida bo'lgan. Togalarning razmeri taxminan  $6 \times 1,8$  m bo'lgani sababli, uni kiyib olish birmuncha mushkul bo'lgan. Odatda, ushbu libosni qullar xo'jalariga kiydirib qo'yishgan. Rimliklar oyna oldida turishni xush ko'rishgan. Odatda, ular oyna oldida bir soatdan ortiq turishga, va bunda yurish, turish pozalarini va nutqlarini ifoda etishni mashq qilganlar. Masalan, turli yodnomalarda o'z davrining mashhur notig'i Goratenziy o'z chiqishlaridan oldin to'rt soatlab oyna oldida turib mashq qilishi haqida ma'lumotlar bor.

4-rasm

Togalarni o'rashning bir necha usuli bo'lgan. Xususan, matoning uchdan bir qismi o'ng yelka orqali chap yelkaga tashlangan. Toganing bu qismi chap yelka va gavdaning chap tomonini yergacha berkitgan. Matoning qolgan qismi tananing orqa qismini yopib, o'ng qo'lning pastidan oldinga tortilgan.



Togalarning husni ularning qordek oqligi va burmalarning nozikligida edi. Burmalar an'analar asosida shakllangan bo'lib, qonun bilan mustahkamlangan edi. Burmalar matoga maxsus tarkibli moddani shimdirish orqali mustahkamlangan.

Keyingi davrlarga kelib og'ir va katta togalar o'z o'rnini yunon xlamidalariga o'xhash yengil plashlarga bo'shatib berdi. Ularni tunikaning rangiga moslab tanlab, ikki yelkani yopib, ko'krak oldida birlashtirib, fibula yordamida mahkamlab yurishgan.

Rimliklar ust kiyimi – plashning yana bir ko'rinishi penula bo'lib, uning andozasini o'rta asrlarda va hatto bugungi zamонавији kiyimlarda ham ko'rish mumkin (5-rasm).

Penula doira yoki yarim doira shaklida, bosh kirishi uchun yirig'i bo'lgan va u yerga kapyushon tikilgan. Qalin va dag'al junli matodan tikilgan penulalar dehqonlar kiyimi hisoblanib, qimmatbaho matodan tikib, bezatilgani yuqori tabaqa vakillari tomonidan kiyilgan.

Eramizning III asridan boshlab, burmalangan antik davr kiyimlari o'rniga gavdaning tabiiy shakli va gavdaning proporsiyalarini bekitadigan yopinchiqqa o'z o'rnini bo'shatib bera boshladи.

Libosdagи bu o'zgarishga Sharqiy Osiyo libosi shakli hamda Rimda xristianlik siyosatining ta'siri bilan izoh berish mumkin. Natijada tanani bo'yindan to'piqqacha yopadigan tor va uzun tunikalar, keng dolmatiklar paydo bo'ladi. Bezaklarda ornamentlarning uyqashligi, zeb-ziynatlarga e'tibor kuchli. Mana shunday kiyim turlaridan biri, antik an'analaridan ancha yiroq, yengi yaxlitligicha bichilgan uzun va keng dalmatiklardir.

Marosim plashlardan yana biri latsernadir. U hajman ancha kichkina bo'lib, oltin va kumushdan gul qilib bezalgan matoning qimmatbaholigi bilan ham izohlanadi. Latsernani orqadan ikki



5-rasm

yelkaga shunday tashlanganki, uning ikki uchi bo‘yinga kelib turgan. U kalta bo‘lib, tizzaga qadar bo‘lgan.

Rimlik imperator va yuqori tabaqqa vakillari, odatda poludamentium, ya’ni tizzadan biroz tushib turadigan, uncha keng bo‘lman, kalta plashlar tashlab yurishgan. Poludamentumlarni chap yelka va orqadan tashlab olib, o‘ng tomonga to‘qa ila taxlamalar yordamida mustahkamlangan.

Aslzoda rimliklar libosini kalta etiklar va orqali sandallar to‘ldiradi.

Imperiya davrida aslzodalar orasida zargarlik buyumlariga qiziqish kuchayadi. Oltin va kumushdan qilingan turli shakldagi uzuklarni har bir barmoqda 5-6 tadan taqish urfga aylanadi. Bilaguzuklar mukofot ramzini ifodalagan.

Peshonaga to‘g‘ri tarab qo‘yilgan soch, tarashlangan yoki kichkinaganina soqol qoldirilgan yuz rimliklar qiyofasini to‘ldirgan. Tarixga rimlik imperator Tita Vespasian nomi bilan bog‘liq kalta gajaklar va bakenbardadan iborat «Tita boshi» nomini olgan soch turmagi saqlangan.

Rimlik kambag‘allar va qullar dag‘al jun mato yoki kanopdan to‘qilgan matodan tikilgan tunika, penula va oddiy yog‘och boshmoqlar kiyishgan.


**Ayollar libosi.** III-IV asrga kelib yengil va yupqa Yunon va Assuriya shoyisi og‘ir, katta gulli sharq matolari o‘rnini egallaguniga qadar rimlik ayollar libosida burma asosiy belgi hisoblangan. Ayollar tunikasi o‘z xarakteri va shakliga ko‘ra erkaklarniki o‘xshab ketadi. Rimlik ayollar tunikaning ustidan undan ancha keng va uzun stola kiyishgan. Bu ikki kiyimni kiyishda turli qalinlik va tuzilishdagi matolarni uyg‘unlashtirish, shuningdek yeng uzunligi va bezagiga moslashtirishga alohida e’tibor berilgan. Stolaning etaklariga plisselangan qo‘shetak tikilgan. Stolalar belidan bog‘lanib, ma’lum bir proporsiyani vujudga keltirgan.

Rim ayoli viqorli ko‘rinish bilan birga ohista qadam tashlab, ulug‘vor ko‘rinishi lozim edi. To‘g‘ri, qullar, geteralar, patrisiya yoki oddiy xalq ayollarining liboslari mato sifati, ulardagи bezaklar, va kiyish usuliga ko‘ra farqlangan. Biroq libosning asosi bir xil bo‘lgan.

Tunikaning turli ko'rinishlari asosan, jundan qilingan (tunika G'intima) bo'lib, ular ichki va uy kiyimi vazifasini bajargan. Qizlar nikoh kuni tor tunikalar kiyishgan. Oddiy tunikalar belbog' bilan bog'langan.

Zodagon ayollar tunikaning ustidan ustki kiyim tunikaga o'xshab ketadigan stola kiyib yurishgan (6-rasm). Uning etaklariga instita - plessirovka qo'shetak tikilgan. Stolalar yengsiz yoki kalta yengli bo'lishi, ularni ko'krak ostida bog'lab qo'yish mumkin edi. Jamoat joylarda stolasiz paydo bo'lish uyat hisoblangan.

Stola ustidan palla kiyilgan (7-rasm). Ba'zan pallani tunikaning ustiga yopib yurishgan. Odatda palladan boshqa ham plash turlari mavjud bo'lib, ular qanday nomlangani bizga noma'lum.



6-rasm

7-rasm

Plashlarni turli usullar yordamida tana atrofiga burmalab aylantirib kiyishgan, ba'zan uning bir uchini boshga tashlab olishgan. Rimlik ayollarini ko'pincha libosni yengil choyshab bilan yopib yurishgan. Kambag'al oila ayollar ko'pincha erkaklar plashlarini-penulani kiyib yurishgan.

Ayollar ham ust kiyim sifatida penullalar kiyishgan (8-rasm). Qomatni go'zal ko'rsatish maqsadida ichki tunikaning ostida ko'krakni bog'lam bilan tortib bog'lab yurishgan, belni esa bir

parcha materiya bilan bog'lab yurganlar, keyinchalik bu vazifani karset bajargan.

Dastlab ayollar kiyimi junli matolardan tayyorlangan. Imperiya davriga kelib, chetdan keltirilgan shoyilar ham iste'molga kirib kela boshladi. Ayollar liboslari ba'zan juda yengil, ba'zan yarim nafis, harir, shuningdek jundan to'qilgan matolardan tayyorlangan.

III-IV asrlarga kelib, ayollar tana go'zalligi haqidagi qarashlar o'zgarishga uchradi. Kiyimdag'i burmalar va proporsiyalar bilan ta'kidlanadagan shakllar o'mini og'ir, yopiq, noelastik matolardan qilingan statik shakllar egallay boshladi.

Ayollar poyabzali turli ranglardagi teridan tikilib, kashta yoki to'qalar bilan bezaklangan sandal va boshmoqlar shaklida edi.

8-rasm



Rimlik patrisiy ayollarning soch turmaklari juda xilma-xil va murakkab edi. Ba'zi bir davrlarda sochning o'rtasini farq qilib olib silliq qilib taralgan turmaklar urfdan bo'lgan bo'lsa, ba'zan sochlarni uzun jingalak kokil qilib yurish, ba'zan "yunon" soch turmaklari urfdan bo'lgan. Lekin haqiqiy Rim soch turmaklari jamalaklardan iborat karkasga mahkamlangan baland soch turmag'i shaklida bo'lgan. Yelpig'ichsimon karkas peshona ustiga mahkamlanib, shakliga ko'ra kepkalarning tikka qilib qo'yilgan soyabonini eslatadi. Unga jingalak gajak jamalaklar o'rnatilgan. Qolgan sochlар kokilga o'rilib, boshning orqa qismiga savatcha qilib turmaklab qo'yilgan. O'z sochi bo'lmasa birovlarning sochlariдан foydalanishgan. Oltin rang va sariq sochlар, ayniqsa, urf bo'lgan. Och rangdag'i sochlarni bosqinchilik yo'li bilan bosib olingan mamlakatlardan keltirishgan.

Patritsiya ayollar libosi oltin, duru marvarid, qimmatbaho toshlar bilan bezaklangan. Rimda katta yelpig'ichlar ko'pincha tovus patidan tayyorlangan va libosni to'ldirgan. Suhbat chog'ida Rim matronalari qahrabo ushlab turishgan. Bunga sabab ushbu davrda qahrabo qo'lni pokizalab turadi deb qaralganidadir.

Rimlik ayollar pardozda sochlarni ochartirishga yordam beradigan turli essensiyalar, xushbo'y yog'lar, upa va boshqa narsalardan ko'plab foydalanishgan.


Rim imperiyasining qulashi oqibatida (476-y.) antik quldorlik dunyosi ham tanazzulga uchradi. Bu qadimiy dunyo tarixining o'z davrini tugatib yangi ijtimoiy bosqichlarga o'mini bo'shatib bergenini ko'rsatadi. Biroq tan olish lozim, ushbu davrda yaratilgan madaniy meros jahon tarixida o'chmas iz qoldirdi.



*Mil.avv. VI asrning birinchi yarmi*



*Mill.avv. VI – Vasrlar*



*Mill. avv. V asr*



*Legionerlar*




*Zabitlar va chavandozlar*



*Gladiatorlar*



*Yunon va rim poyabzallari*



*Yunon va rim soch turmaklari*

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Qadimgi Rim san'ati va madaniyatining yuksalish davri haqida gapirib bering.
2. Qadimgi Rimda kiyimlar qanday rangda bo'lgan? Matolarga qanday bezaklar berilgan?
3. Qadimgi Rimda erkaklar kiyimining qanday turlari mavjud, ularning farqi nimada?
4. Qadimgi Rimning ramziy ustki kiyimi nima bo'lgan ?
5. Qadimgi Rim ayollarining libosi, ularning turlari, kiyinish uslubi qanday edi?
6. Rim va Yunon ayollarining soch turmag'i turlari haqida nima bilasiz?

# QADIMGI RUS LIBOSI

## Kiyev Rusining libosi

**Kiyev Rusining (X-XIV asrlar) ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va madaniyati.** Madaniy va iqtisodiy jihatdan Novgorod, Kiyev va Smolyensk sharqiy slavyanlarning eng rivojlangan shaharlari edi. Bu shaharlar janubda yunon shaharlari va Vizantiya bilan hamda shimoldagi Skandinaviya davlatlari bilan savdo qilib turar edi. X asrda Kiyev Rusi - rus, belorus, ukrain xalqlari madaniyatining vatani, ayniqsa, yuqori rivojlanish darajasiga erishgan edi. Rus davlatiga bu davrda xristianlikni qabul qilish bilan birga yozuv ham kirib keladi. Kiyev Rusining gullab-yashnagan davri boshlanadi. Lekin XIII asrda mo‘g‘ul-tatarlarning bosqinchilik urushlari tufayli madaniyatning yanada yuksalishi to‘xtab qoldi. Bu davr rus xalqining taqdirida juda og‘ir o‘tdi. Uning oldida parcha-parcha bo‘lgan knyazliklarni yagona kuchli, barqaror davlatga birlashtirish vazifasi paydo bo‘ldi.

Rus davlatida xristianlik qabul qilinganidan keyin (X asrda) bemalol yuriladigan, lekin unchalik keng bo‘lmagan kiyimlar tarqaladi. Kiyimlarning silueti juda oddiy edi. Bu davrda kiyimlar issiq mo‘ynali bo‘lgan. Kiyimdagи sinfiy farqlanishi matolarning sifati hamda bezaklarning boyligida namoyon bo‘lar edi. Rus kostyuming o‘ziga xosligi iqlimning qattiq sharoitlari bilan belgilab berilgan.

**Erkaklar libosi.** Ular o‘z kiyimlarining orasta bo‘lishiga e‘tibor qiladilar, erkaklar tilla bilaguzuklar taqadilar.

**Estetik ideal.** Erkaklarning qiyofasi bahodirlarning qiyofasiga o‘xshatilar edi: mard, chirolyi erkak, boshining to‘g‘ri, chirolyi turishi, harakatchan dahani, oppoq, durday tishlari, nozik qiyofali burni, keng do‘mboq peshanasi bilan farqlanardi. Uning nigohi tiniq va ochiq edi, u o‘zini savlatli tutar, shaxdam qadam bosib yurar edi, nutqi aniq bo‘lib, unga mardlik va kuchda teng keladigani bo‘lmas edi.

Ichki kiyim yaktak ko‘ylak edi. Ba’zan u ayni paytda ustki kiyim o‘rnida ham kiyilar edi. Zodagonlar ikkitadan ichki ko‘ylak kiyib yurar edilar. Ko‘ylak to‘g‘ri bichimli, yenglari uzun va keng bo‘lgan. Bo‘yin o‘mizi oldida kichkina qirqimi bo‘lib, bu qirqim tasma bilan bog‘lanar yohud suyak, yog‘och yoki mis tugma bilan

ilinar edi. Ko'ylakning etak qismi ishtonga kiritilmay, uning ustiga tushurib qo'yilardi. Ko'ylakning uzunligi tizza o'rtasigacha, ba'zan undan ham uzunroq bo'lar edi.

Ustki ko'ylak – ko'r kamroq ko'rinishda bo'lib, to'g'ri bichilgan, lekin yoniga qo'shimcha qiyiq tikilgan, yoqasiz. U paytlarda matoning kengligi (32 sm dan 60 sm gacha) ko'ylakni ikki qismini bir butunlikda bichishga yo'l qo'ymas edi. Choklaridan bezakli qizil kantlar o'tkazilar edi.

Alovida tantanali hollarda ko'ylak yoqa bilan bezatilardi. Ko'ylak belda ingichka belbog' bilan bog'lab, ushlanardi.

Erkaklar kostyumingining ajralmas qismi ishton - *porti* edi. Porti - keng emas, to'piqqacha uzunlikda va pastga qarab toraygan shaklda bo'lган.

Ko'ylaklar ustidan erkaklar *svita* (1-rasm) (kiyevliklar kaftani) kiyar edilar. Svita – to'g'ri bichilgan, yon qiyiqlari hisobiga pastga qarab kengayadigan, oldi ochilmagan kiyim. Svita bosh tomondan kiyilgan, turli uzunlikda bo'lib, doimo tizzalarni bekitib, lekin uzog'i bilan boldirgacha bo'lar edi; yenglari tor va uzun. Keng va uzun mato bo'lagidan belbog' bog'lanar edi.

Qishda erkaklar ustiga mo'ynali nimcha kiyar edilar. Keng tarqalgan kiyimlardan yana biri, usti oshlangan teridan, ichi mo'ynali po'stin bo'lган. Zodaganlarning kiyimi plash - *korzno* (1-rasm) edi. Korzno – Vizantiya-Rim uslubidagi kichik plash bo'lib, dumaloq yoki to'g'ri to'rburchak shaklidagi antik xlamidaga o'xshar edi. Plashni yelkaga tashlab, fibula bilan biriktirilar edi.



1-rasm

Kiyimlar oq, ko'k, qizil, yashil rangli matolardan tikilar hamda kontrast rangli matoning bo'lagi bilan chetlarini bezatishar edi. Masalan, ishtonni oq va yo'l-yo'l matodan tikishar edi; korzno plashi ko'k, tilla xoshiya bilan bezatilgan, qizil rangli avra bilan tikilar edi. Eng ko'p tarqalgan matolar zig'ir va jun edi. Matolarning sifati har xil edi. Masalan, zodagonlar uchun korznoni og'ir shoyidan, shaharliklarning plashi esa oqartirilmagan jun matodan tikilar edi.

Bosh kiyimlar turli-tuman edi. Umuman olganda, XI asrdan boshlab, bosh kiyimlar boy va kambag'allar kostyumlarining ajralmas bir qismiga aylanadi. Qish paytida mo'ynali telpaklarni kiyar edilar. Dehqonlar dag'al matodan, teridan, namatdan tikilgan, chetiga ingichka mo'yna aylantirilgan dumaloq qalpoqlarni kiyganlar. Yilning boshqa mavsumlarida boy kishilar yupqa mato yoki baxmaldan, kambag'allar esa to'qima, namat va teridan tikilgan bosh kiyimlarni kiyganlar.

Soch turmaklari ham, bosh kiyimlar kabi, turli-tuman edi. Eng ko'p tarqalgan soch turmagi – yarim doira shaklida qirqtirilgan ko'rinishda edi. Erkaklar qalin soqol va mo'ylov qo'yib yurar edilar.

Erkaklar bilaguzuklar, ziraklar, bo'yin bezaklarini taqib yurar edilar. Erkaklar libosning majburiy qismi belbog' yoki kamar hisoblangan. Erkaklar odatda qo'lqop kiyar edi.

Tizzadan pastroqda oyoqlarga paytava-portyankalar o'rab, avvaliga yumshoq, keyin qattiq tagcharm bilan yasalgan teri etiklar yohud paytavalar ustidan kiyiladigan, arqon, qayin po'stidan o'rab to'qilgan *lapti* kiyar edilar. Shuningdek porshni deb atalgan teridan (ba'zan cho'chqa terisidan) tikilgan poyafzallarni kiyar edilar, ular go'yo qalpoqchalarga o'xshagan, tovon yoki oyoq uchida bir choki bo'lgan. Porshni oyoqda tizimchalar bilan yoki kamarlar bilan mahkamlanar edi.

**Ayollar libosi.** Qadimiylar nazmiy bitiklardagi tasvirlar go'zal slavyan ayolining obrazini yetkazgan. Ayollar o'zining oq yuzlari, yonoqlari qizil lolaqizg'aldoqdek yonib turishi; ko'zlari ko'k va to'q rangli qoshlari, mag'rur qomati va sokin yurishi uchun qadrlanar edi.

Ayollar kiyimining asosi ko'yak edi. Ayollar odatda ustma ust ikkita ko'yakni kiyar edilar.

Ichki ko‘ylak yoqa o‘mizi oldi to‘g‘ri kesilgan, ingichka jiyak bilan ishlov berilib, tizimchalar bilan bog‘lanib yoki tugma bilan qadalar edi. Ko‘ylak tovonigacha uzun bo‘lib, yumshoq burmalar bilan burmalananar edi. Erkak ko‘ylagidan u uzunligi bilan ajralib turar edi. Ustki ko‘ylak - xuddi ichki ko‘ylak kabi bichiqda bo‘lib, alohida hollarda kiyilar edi.

Barcha avvalgi kiyimlar, jumladan ponyeva va zaqiyiqning ustidan kiyiladigan bayramona kiyim ko‘krakpech edi. Ko‘krakpech – kaltaroq, beli bog‘lanmaydigan, kalta keng yengli kiyim edi.

Ayollar yenglari erkaklarnikidan kengroq bo‘lgan po‘stin kiyib yurishgan. Mo‘ynali nimcha ham ancha keng tarqalgan edi.

Ayollar o‘z kiyimlarida yorqin, guldor ranglardan foydalanar edi. Ro‘mollari qizil va oq rangli edi.

Ayollar kiyimlari uchun zig‘ir, jun, shoyi, mo‘yna va teri ishlatilar edi. Oddiy ayollarning ro‘moli matodan, zodagon ayollarning ro‘moli ipak-shoyidan qilinar edi.

Qadimda Rus’ davlatida odatga ko‘ra: bosh kiyim qizlar va ayollar bosh kiyimiga bo‘lingan.

Turmush qurbanayaylik ikkita yig‘ilgan soch o‘rimi bilan yurib, boshining ustini yopmay ko‘chaga chiqmas edi. Ayollar o‘z sochlarni bosh kiyimlari ostiga yashirib yurar edi, qizlarning boshi ochiqligicha qolaverar edi. Ayollarning sochlari *povoynik-chepets* bilan usti yopilar edi. *Chepets* - odobli xotinning ramzi. Ustidan *ubrus* - uchburchak qilib taxlangan katta (2 m x 40-50 sm) ro‘mol o‘ralar edi. Ubrus dahan ostida mahkamlanar edi. Ro‘molning uchlari ko‘kragiga osilib tushar va boy naqshlar bilan bezatilar edi. Ro‘mol ustidan boy ayollar (baland bo‘lmagan, mo‘yna bilan bezatilgan erkaklar qalpoqlari singari) qimmatbaho matodan qalpoqlar kiyar edi.

Qizlarning sochlari yumshoq (tasma, lenta, bog‘lama) yoki qattiq (toj) halqa bilan ushlab turilar edi. O‘rim – hatto mo‘g‘ul bosqinidan avvalgi davrda ham eng qadimiy sochlар turmagining turi - Rus qizlarining go‘zalligi ramzi edi.

Ayollar yuzlarini oqartirgan, yonoqlarini qizilga bo‘yagan, ko‘zlarini surmani ishlatganlar.

Bezaklar sifatida ayollar qahrabo, tog‘ billuri, shishadan yasalgan marjonlarni taqar, bilaguzuksimon uzuklar, uch munchoqli uzuklar, katta uzuklar, bilaguzuklar, lentalar, tojlar taqib yurar edi.

Ayollar va erkaklarda poyafzal shaklan bir xil edi: rangli teridan yasalgan etiklar yoki oyoqqa paytava o'rab lapti kiyishgan.

## Moskva Rusining libosi

XIII asrda mo'g'ul-tatarlarning bostirib kelishi tufayli madaniyatning keyingi rivojlanishi 200 yildan ortiq muddatga to'xtab qolgan edi. Eng muhim rus knyazliklari parchalab tashlangan. Mo'g'ul-tatar bosqinchiligining eng og'ir zulm-istibdodni o'ziga olgan rus knyazliklar shu bilan tatar qo'shinlarining undan-da uzoqqa, g'arbg'a o'tishlariga yo'l qo'yaganlar.

Rus xalqi hatto bosqinchilarning zulmi ostida bo'la turib, o'zining asriy milliy an'analari va urf-odatlarini, kostyumlarini saqlab qolishga uringanlar. Moskva Rus' davlatining davri - bu xalq tarixidagi mardona kurash davri, uning keskin rivojlanishi davridir.


Moskva qadimiy Rus kostyumi, uning asosiy qismlarini saqlab qolgan holda, uning bichilishiga qator o'zgarishlarni kiritadi.

**Erkaklar libosi.** Ko'rkam erkak estetik timsoli, bu baland bo'ysi, qomatdor bo'lishi, chiroyli malla sochlar hamda oppoq, qizilligi yugurib turgan teriga ega bo'lishi lozim edi.

Kostyumning asosi avvalgidek ko'ylak edi. Maqsadiga ko'ra turlicha ko'ylaklar paydo bo'ladi. Masalan, toq yon yoqali ko'ylak (yon tomondan tugmalanadigan tik yoqali erkaklar ko'ylagi), lekin yoqasi oldi to'g'ri qirqilgan ko'ylaklarni ham kiyishgan.

Ichki ko'ylakning uzunligi tizzagacha bo'lib, oddiy xalq kostyumida u yagona edi. Uni tashqariga chiqarib, belbog' taqib yurar edilar (yoshlar belbog'ni belida, kattaroq yoshdag'i kishilar pastroqdan bog'lab, tor belbog' ustidan shishirib qoldirar va shu bilan to'lalik tasavvurini hosil qilardilar). Ko'ylak yenglari tor va uzun bo'lib, qo'ltiq ostiga xishtak tikilgan.

Ustki ko'ylak - zodagonlar kiyimining ziynati edi. Ko'ylak ustidan **zipun** (3-rasm) kiyilar edi. Boyarlar uchun zipun - uy kiyimi hisoblangan. Kaftanlarning uzunligi tizzadan to'piqqacha o'zgarib turgan. Keng tarqalgan kaftanlar bilan birga tabaqa tegishliligining belgisi sifatida boshqa kiyimlar ham kiyilar edi.



*3-rasm*

**Shuba** – oldi ochiq, keng hajmili, etagi tomon pastga qarab kengaygan, tushiriladigan mo‘ynali yoqali keng uzun yengli po‘stin (4-rasm).

Kostyum uchun yorqin rangdagi matolar ishlatalar edi: oq, qizil, yashil, ko‘k, zangori, pushti rang, qizil-ko‘k rang va hokazo.



*4-rasm*

Zodagon kishilarning kiyimlari tashqaridan olib kelinadigan qimmatbaho matolardan: tafta, parcha, baxmal (duxoba), ip-gazlama, atlas, satindan tikilar edi.

Barcha telpaklar qalpoq yoki konus shaklida bo‘lib, chetiga mo‘yna yoki mato qoplanar edi.

Oddiy kishilar baland bosh kiyim – greshnevikni va treuxni kiyib yurardilar.

Zodagonlarning etiklari uchi odatda tepaga qayrilgan, oddiy kishilarda etik uchlari o‘tmas shaklda edi. XIV asr boshidan poshnalar paydo bo‘ladi. Qishloq xalqi lapti kiyib yurar edi.

**Ayollar libosi.** Estetik tasavvurlarga ko‘ra ayol savlatli, baland bo‘yli, qomatdor, oq yuzli va qizil yonoqli, qora qunduz qoshli bo‘lishi lozim edi.

Libosning asosi avvalgidek ko‘ylak edi. Ichki ko‘ylak-to‘g‘ri bichilgan, to‘pig‘igacha uzun, yoqasida yig‘ilgan, uzun tor yengli. Ustki ko‘ylak – bichilishi va ko‘rinishi xuddi shunday, lekin uni zodagon ayollar kiyar edi. Ko‘ylaklar belbog‘ bilan bog‘lanar edi. **Shushun** - deyarli yergacha bo‘lgan uzun sarafan; yig‘ilmagan, yon qiyqlari hisobiga etagi kengaygan (nisbatan tor); (5-rasm) **Letnik** - tovonigacha uzun bo‘lgan ustma-ust kiyiladigan bayramona kiyim.



5-rasm

Ayollar yelkasiga tashlangan holda yergacha uzunlikdagi va shunday uzun yengli shubalar kiyib yuradilar. Libosi ranglari yorqinligi va rang-barangligi bilan ajralib turar edi.

Zodagon ayollarning ustki ko‘ylagi yorqin matolardan tikilgan, ko‘pincha u qizil rangda bo‘lgan. Ayollar po‘stnlari uchun erkaklar kiyimi kabi mo‘ynalar va matolar ishlatilgan. Ayol kiyimlari uchun zig‘ir, ip-gazlama, tilla kashtali shoyi, jun matolar ishlatilgan.

Rus davlatida bosh kiyimlar ko‘p edi. Erga tekkan ayollar **chepets** va **ubrus** kiyardilar. **Kokoshnik** - eng bayramona bosh kiyimi edi (6-rasm). Ayollar mo‘ynali muftalardan foydalananar edi. Qo‘sishimcha sifatida shoyi ro‘mol paydo bo‘ladi.



*6-rasm*

Ayollar lapti, etik kiygan. Keyinroq yumshoq tagcharmlı qattiq qimmatbaho matodan tayyorlangan tuflilar paydo bo'lgan.

***Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar***

1. Kiyev Rusining (X-XIV asrlar) ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi va madaniyati haqida so'zlang?
2. Erkaklar libosining o'ziga xosligi va turlari qanday bo'lgan?
3. Ayollar libosining o'ziga xosligi nimada namoyon bo'lgan?
4. Moskva Rusi kostyuming o'ziga xosligi nimada ko'rindi?
5. Moskva Rusi ayollar va erkaklar liboslарining turlari haqida so'zlang.

## **IKKINCHI BOB O'RTA ASRLARDA G'ARBIY YEVROPA LIBOSI**

### **VIZANTIYA LIBOSI**

Eramizning 395-yiliga kelib Rim imperiyasi g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'lindi. G'arbiy qism qullar qo'zg'oloni sabab vayron bo'lib, bosqinchi german va gallar tomonidan egallangan bo'lsa, Sharqiy qismi o'z hukmronligi ostiga Misr, Siriya, Kichik Osiyo, Yunonistonni birlashtirib, Vizantiya deb atala boshladı. Vizantiya antik Rimdan eski davlat shakllari va byurokratik apparatni meros qilib oldi. Biroq quzdorlik sistemasi ishlab chiqarish vositalari taraqqiyotiga to'sqinlik qildi va uning o'mniga yangi ijtimoiy munosabatlar - feodal munosabatlar vujudga keldi.

Jamiyatning yetakchi dini xristianlik bo'lib, u katta iqtisodiy va siyosiy qudratga ega bo'lgan. U Vizantiya madaniyati va san'atining shakllanishida katta va muhim o'rinn tutdi.

Vizantiya san'ati va V-VII asrlar estetik dunyoqarashida davrning butun qarama-qarshiliklari, xususan, inqirozga yuz tutgan eski davr va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq qarashlar aks etdi. Shu bilan birga bu davr san'atida antik davr, sharq an'analari va yangi xristian mavzularining ta'siri o'z aksini topgan.

Bu davr san'atida me'morlik, mahobatli rang-tasvir, badiiy hunarmandchilik, xususan, mato ishlab chiqarish, kashta yetakchilik qildi.

Vizantiya cherkovlarida saqlangan mozaykalar, ikona (ikonopis)lar o'z davri estetik ideali va insonlar libosi xususida ma'lumot beruvchi yagona vositalar hisoblanadi. Ularga san'atda inson tasviridan qaytish, ya'ni chekshanish, ramziylik xos. Insonlar tasviri shartli ko'rinish kasb etib, ular kanonlashtirilgan.

Xristian dinining chuqur ta'sirida bo'lgan Vizantiya estetikasi insonning hissiy dunyosini uning ruhiy dunyosidan ajratar, shu bilan birga ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yardi. Insonning hissiy dunyosi noma'qul hisoblanib, u gunoh hisoblangan. Shuning uchun butun umri davomida inson unga qarshi kurashishi kerak, degan aqida hukmronlik qilardi.

Bu davrda antik davr darajasiga xos insondagi go'zallik va uyg'unlik tushunchalari o'miga ruhiy go'zallik kirib keldi. Tana turli ko'rinishlarda niqoblangan. Rassomlarning butun qiziqishlari inson yuzining tasviriga qaratildi. Hususan, katta ko'zlar, uzaytirilgan oval yuzlar, kichik og'iz va keng peshona e'tiborda bo'ldi. Bosh ayol va erkakning ruhiy markazi vazifasini bajarib, tekis, shaklsiz tana tabiiy proporsiyalar va chiziqlardan ajralib, tiriklik sifatlarini yo'qota boshladi.

Vizantiya san'atidagi qarama-qarshilik asketizmni e'lon qilish bilan birga unda cherkov amallari bilan bog'liq boylikka ruju qo'yish xarakterlidir. Bu insonning kiyimidagi qimmatbaho matolar, zargarlik buyumlari, shuningdek liboslardagi bezakdorlikda ko'zga tashlanadi.


**Mato, rang, bezak.** Vizantiyalik to'quvchilar jun, ipak, parcha, shuningdek gilam to'quvchiligidagi alohida shuhrat topgan edilar. Ularning san'ati, xususan, VI asrga kelib ipak ishlab chiqarish rivoji bilan yanada kamol topdi. Vizantiya matolarining fakturasi turlituman bo'lib, biroq unda, asosan, metall iplar yoxud qimmatbaho toshlar bilan bezaklangan og'ir, qalin, noelastik matolar yetakchilik qilardi.

Tilla bezakli parcha hamda yupqa va nafis metall listni eslatuvchi yaxlit oltinli altabas eng qimmatbaho matolar hisoblangan. Ularni asosan, quyma kashta bezak, hoshiya va naplesniklar uchun ishlatishgan. Imperatorlar va yuqori tabaqa vakillarining liboslari butun basti bilan mana shunday matolardan tayyorlangan.

Katta, aniq, yorqin, tekis rasmlar tana shaklini berkitishda alohida o'rin tutgan.

Hayvonlar (sherlar, fillar, ho'kizlar, burgut, o'rdak, tovos, grifonlar, fenikslar) tasviri doira, ko'pburchak, romblar shakliga singdirilardi. Ular rozetkalar, o'simliksimon naqshlar orqali birlashtirilardi. Ko'pincha hayvonlarning figuralari bir-biriga yuzma-yuz joylashtirilardi. Rasmning hajmi ko'p hollarda 30-40 sm diametr atrofida bo'lardi. Keyinchalik diniy naqshiar – xoch, Xristos, farishtalar tasvirlari paydo bo'la boshladi. Hoshiyalar uchun geometrik yoki o'simliksimon bezaklar: palmetta, akanf barglaridan foydalanilgan (1-rasm).

Gul, ya’ni naqsh ko‘pincha nafaqat estetik, shuningdek, ramziy vazifani ham bajargan. Xususan, imperatorlar va zodagonlar liboslarida hokimiyat ramzi – burgut, sher qo’llanilgan.



*I-rasm*

Matolardagi ranglar turli-tumanligi va ularning ranglaridagi turfalilik e’tiborni tortadi. Binafsha, uning to‘q qizil rang tuslari yuqori qo‘yilib, imperatorlar liboslari rangi hisoblangan. Bezaklar uchun yorqin ranglar, ya’ni sariq, jigartang, oq, qora, qaymoqrangdan foydalanilgan.

**Erkaklar libosi.** Erkaklar liboslarining asosiy ko‘rinishlari tunika, ishtonlar, dalmatik, penula va lorum bo‘lgan. Nomlanishiga ko‘ra ular rim liboslarini eslatsa-da, ammo ko‘rinishi jihatdan birmuncha farqlangan. Liboslardan o‘rab kiyish umuman yo‘qoldi, qolgan bo‘lsa ham antik yumshoqlik va egiluvchanlik o‘rniga inson qomatiga tsilindr (g‘ilof) formasini berib turuvchi og‘ir tsilindrsimon faldalar egalladi.

Tunika pastga qarab toraytirilgan uzun yengli rim tunikasini eslatib turardi.

Ishtonlar sharq andozalaridan olingan bo‘lib, belbog‘ga tasmalar bilan qadalgan ikki tikilmagan bo‘laklardan iborat edi. Ishtonlarning uzunligi turlicha bo‘lib, ular tizzagacha, boldirgacha va to‘piqqacha bo‘lishi mumkin edi.

Imperator va amaldorlarning ust kiyimi plash-mantiya bo‘lgan. Ushbu libos ***fibula***, ya’ni to‘g‘nog‘ich bilan o‘ng yelka yoki bo‘yinga qotiriladigan keng va uzun yopinchiqdir. Plash yiriqlar bo‘ylab, bo‘yin oldida yo‘l-yo‘l chiziqlar, turli tikmalar, tabaqa ramzlari bilan bezalgan.

Ravennadagi muqaddas Vitaliy ibodatxonasi devoriy suratlarda imператор Yustinianning saroy a'yonlari davrasidagi tasviri mavjud. Tasvirda imператор kalta oq tunika kiyimda. Tunikaning yonlaridagi yiriqlar, yengining past qismi va yelka qismlari kashtalar bilan bezalgan. Ustdan esa to'q qizil rangli, og'ir dumaloq shakldagi faldali plash. Plash o'ng yelkadan qimmatbaho fibula bilan qotirilgan. Ko'krak qismida tabaqa bezagi klavus tasviri tushurilgan. Oyoqlarida ham to'q qizil rangli boshmoqlar. A'yonlar ham shu kabi kiyinishgan, faqatgina ular qizil plash o'rniga qizil belgilari bor, hech qanday naqshlar va bezaklarsiz oq rangli plash kiyishgan (2-rasm).



2-rasm



3-rasm

VII asrdan boshlab *lorum* - qimmatbaho toshlar bilan bezalgan oltinrang parchadan qilingan keng uzun sharf imператор libosining ajralmas qismi bo'lib qoldi (3-rasm). Sharfnинг kengligi, odatda 15-35 sm, uzunligi esa - 4-5 m. bo'lган. Lorum rim togasi kabi turli usulda o'ralgan. Lorum amaldorlar libosining muhim elementlaridan biri sifatida asosiy bezak vositasi ham edi. Shuningdek, keng doirasimon oltin va qimmatbaho toshlar bilan dabdabali bezalgan yelka-yoqa ham muhim bezak vositalaridan biri edi. Galda lorum va bo'yindan kiyiladigan orqa etaklari uzun, old tomoni biroz kalta (boldirga qadar) yopinchiq shaklini oldi.

Vizantiyaliklar poyabzali - ingichka tasmalar bilan bog'langan etiklar yoki yumshoq boshmoqlar bo'lган.

Bosh kiyimlari - uzun o'tkir uchli yoki qubbali va hoshiyali bo'lgan.

**Ayollar libosi.** Ayollar libosining asosiy ko'rinishlari: tunika, stola, dalmatik, penula, maforiy, plash-mantiyadir. Erkaklar libosi singari ayollar libosi ham gavdani niqoblab turuvchi tsilindrsimon (g'ilofsimon) shakl ko'rinishida.

Muqaddas Vitaliy ibodatxonasi devoriy suratlarida imperatritsa Feodora a'yonlari bilan tasvirlangan. Imperatritsa ikki yoni va tag qismida boy kashta bilan bezatilgan oq stola va yirik ornamentli hoshiyali to'q qizil rangli imperator mantiyasida tasvirlangan. Bo'ynida oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan keng va katta hajmli taqinchoq, oyoqlarida esa oltin ipdan kashta bilan bezatilgan boshmoqlar kiygan. Saroy xonimlari ham hashamdar kiyinishgan. Ular bir xil rangda kashta bilan tikilgan **stola** va naqshli matodan **penulalar** kiyishgan (4-rasm).

Qimmatbaho matolardan tikilgan oliy tabaqa kishilarning dabdabali kiyimlari bilan bir qatorda Vizantiyada ayollar boshini yuqori qismini berkitib turuvchi - **maforiy** yopinchig'i paydo bo'ladi. Yopinchiqning uchlari old tomonda to'qnashib, bir-birining ustidan o'tib yelka osha orqaga tashlangan. Uzun stolalar bilan birgalikda bu yopinchiq qomatga asketik ko'rinish bergen. Bu libos xristian dinining qonun-qoidalari va estetikasiga juda mos kelar edi va shu sababli bu libos avliyolarning doimiy kiyimi sifatida ikonalarda saqlanib qoldi. (5-rasm).



4-rasm



5-rasm

Past tabaqadagi ayollar libosi kundalik hayot yumushlariga mos yengil, arzon va sipo matolardan tikilgan liboslar bo'lishiga qaramay, o'sha davr modasining asosiy forma va siluetlarini o'zida saqlab qolgan.

### Vizantiya libosining o'rta asrlar Yevropasi libosiga ta'siri

O'rta asrlarga kelib savdo-sotiq borasida oldi-berdilar amalga oshirila borishi sababli Vizantiya libosi qadimgi Rus libosiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xristian dini tamoyillariga mos keladigan g'ilof ko'rinishli siluetlar, yopiq kiyimlar Yevropada uzoq vaqt davomida saqlanib qoldi. Ajoyib tasviriy yechimlar bilan bezatilgan matolar yuqori tabaqa vakillariga kiyim tikishda namuna edi. Tunika, dalmatik, penula, mantiya kabi antik davr liboslari Vizantiya libosida sezilarli o'zgarishlarga uchrab, o'sha asr hayotiga moslashdi. Bu libosga yangicha yondashish, ya'ni inson qomatining tabiiy shakllarini berkitishga qaratilgan edi.



*Imperator saroyi. IV-V asrlar*



*Imperator saroyi. VI asr*



*Imperator saroyi. X-XI asrlar*



*Shaharliklar va harbiylar*



*Amaldorlar, imperator va harbiylar*



*Ruhoniyalar, imperator ayol*

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Vizantiya san'atining xarakterili xususiyatlarini ta'riflab bering.
2. Vizantiya libosining o'rta asrlar Yevropa libosiga ta'siri haqida so'zlang.
3. Vizantiya davridagi erkaklar libosiga ta'rif bering.
4. Vizantiya kiyimlarida paydo bo'lgan yangi shakllar haqida so'zlang.
5. Vizantiyalik ayol libosini ta'riflab bering.
6. Ayollar kiyimlarida qanday bezaklar qo'llanilgan?

## O'RTA ASRLARDA G'ARBIY YEVROPA LIBOSI

Eramizning V asriga kelib, qadimgi Rimning inqirozga uchrashi natijasida quldarlik tuzumi yemirila boshladi. Hozirgi Yevropaning yerlarida biror bir baquvvat davlat birlashmasi yo'q edi. Zero ular qanchalik tezlikda paydo bo'lsa, shunchalik ko'p vaqt o'tmay, yo'qolib ketardi. IX asrga kelibgina, dastlabki uzoq vaqt turgan davlat - franklar davlati vujudga keldi.

O'rta asr davlatlari yangi iqtisodiy munosabatlar, ya'ni feodalizm munosabatlariga o'ta boshladi. Bunga ko'ra jamiyat yer-suv egalari foddallar va ularga qaram dehqonlarga bo'lindi. Feodalizm asosan, X asrga kelib shakllanib bo'ldi.

Bu davrda jamiyatda cherkovning roli osha boshladi. Din jamiyatning ma'naviy-madaniy taraqqiyotini birmuncha susaytirib, sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Madaniyat taraqqiyotida cherkovlar asosiy o'tin tutadi. Ularda nafaqat qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik, shuningdek, miniatura, kitoblardan nusxa ko'chirish, zargarlik va shu kabi boshqa san'at turlari rivojlangan edi.

Feodal jamiyati ikki katta davrga - Ilk O'rta asrlar (IX-XII) va kechki (XIII-XV) asrlarga bo'linadi.

O'rta asrlar jamiyatining muhim elementlaridan biri tabaqalashgan ierarxiya edi. Uning eng yuqorisida eng katta feodal podshoh turardi. Undan pastda gersoglar, graflar, ritsarlar turardi. Ularning har biri o'zidan yuqori patron - syuzerniga bo'ysungan. Kech O'rta asrlar tabaqalaridagi farqlar liboslarda aniq ko'zga tashlanadi.

Ilk o'rta asarlarda yashash tarzi juda oddiy bo'lgan. Qishloq xo'jaligi hunarmandchilikdan hali ajramagan edi. Barcha zaruriy ashyolar feodal xo'jaliklarida ishlab chiqarilardi. XI asrlarga kelib salb yurishlar sabab o'rta asrlar jamiyati iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar boshlandi. Yangi savdo yo'llari ochildi. Savdo bilan bog'liq narsalarni ishlab chiqaradigan hunarmandchilik turlari rivojlandi. Savdo yo'llari kesishgan chorrahalarda uncha katta bo'limgan, biroq ancha zamonaviylashgan shaharlar paydo bo'la boshladi. Shunday qilib, erta O'rta asrlarda fransuzlarning Arl shahri Rim amfiteatri xarobalarida joylashgan bo'lsa, bugungi kundagi

Parij shahri kichkinagina Sita orolida joylashgan Parij bogomateri (Noterدام de Pari) ibodatxonasida joylashgandi. Hunarmandlar shaharlarning alohida kvartallarida yashab, sexlarga birlashib ishlasalar, savdogarlar gildilarga birlashib shug‘ullanishgan.

O‘rtalasrlar madaniyati, xususan liboslarini o‘rganishda ularni turli viloyatlarga bo‘lish qabul qilinmagan. Bunga sabab, birinchidan, bu davrda Yevropada baquvvat, uzoq yillar hukm surgan qat’iy davlat tuzilishining o‘zi yo‘q bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, bu davrda Yevropa madaniyati taraqqiyotida, xristian cherkovi talablari asosida yashashga mahkum bo‘lgan qat’iy madaniyat mavjud edi.

Ilk o‘rtalasrlar me’morligida, tasviriy va amaliy bezak san’atidagi roman uslubi liboslarda ham o‘z aksini topgan. Roman uslubi ikki madaniyati - Rim, antik va mahalliy bosqinchilik madaniyati uyg‘unligida shakllandı. Unga og‘ir vaznlilik, shakllarning kattaligi, yarim doira arkalar, og‘ir devorlar, oynalar va eshiklarning katta bo‘lmagan o‘ymalari xosdir. Asosiy qurilish materiali bo‘lib mahalliy kulrang tosh xizmat qilgan. Roman uslubi interyerlari me’morlikning ma’yus, g‘amgin xarakteriga mos edi. To‘q ranglarning ustunligi, shiplar, yog‘och panellar, teri bilan qoplangan, rangli terrakota plitali pollar, isitish va yoritish uchun xizmat qilgan kamin, devorga metall xalqlar bilan mahkamlangan yonib turadigan fakellar – bularning bari g‘amgin va ma’yus tassurot uyg‘otadi.

Roman mebellari og‘ir va oddiy bo‘lgan. Ular yo‘nilgan yog‘ochdan tayyorlangan. Ularning turi ko‘p bo‘lmagan. Xona mebellari turli hajmdagi kursilar, kreslo, bosh yuqorisida navesi (soyaboni) bor kravatlar, ba’zan o‘ymakorlik ila bezaklangan va bo‘ylgan sandiqlar, stollardan iborat bo‘lgan.

Bu davrga kelib, dastlabki davrda harbiy ish bilan shug‘ullangan ritsarlar tabaqasi shakllana boshladı. Burch, or-nomus singari axloqiy me’yorlar taomilga kira boshladı. Qanday yurish, o‘tirish, o‘zini stol atrofida tutish singari etiket qoidalari shakllana boshladı. Jumladan, mehmonga borganda ikki qo‘lda ovqat tanovvul qilish, og‘iz to‘la holatda ichish va gapirish, kubokdag‘i ichimlikni ichib bo‘imasdan turib to‘ldirish uchun yonida o‘tirgan kishiga uzatib yuborish nomaqbul

sanalgan. Shuningdek, oyoqni chalishtirib o'tirish, keskin harakatlar qilish, qattiq kulish odobsizlik hisoblangan.

Ilk O'rta asrlarda jamiyatning turli qatlamlarida o'ziga xos qarashlar shakllanayotgan bo'lsa-da, shaharliklar, hunarmandlarning hali etik qarashlari, didlari mustaqillik kasb etmagandi.

Salb yurishlaridan so'ng, nafaqat savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlandi, shuningdek, shaharlar o'sdi, shu bilan birga ancha yuksalgan shahar madaniyati shakllana boshladı. Yuksalayotgan madaniyatni o'zida aks ettirayotgan adabiyot paydo bo'la boshladı. Dastlabki universitetlar ochila boshladı. Shaharlarning markazlarida cherkovlar, shahar boshqaruvi markazlari - ratushlar paydo bo'la boshladı.

Me'morlik va amaliy san'atda gotik uslubi shakllana boshladı. Roman uslubi asosida paydo bo'lgan bo'lsa-da, bu uslub undan tubdan farq qilardi. Gotik uslubida yaratilgan me'morlik inshootlari, mebel, liboslar siluetida yengil, nafis shakllar yetakchilik qiladi. Gotik uslubdagi inshootlarda yupqa devor va vitrajlar, murakkab shakldagi arkalar va tayanchlar – ustunlar, bino konstruksiyasini tashkil etgan.

Mebellar esa O'rta asrlardagidan birmuncha nafislashib, ancha cho'zilgan shakllar ola boshladı. Ularni ingichka o'yma naqshlar bilan bezay boshlashdi. Mebellar soni ko'p emas: sandiqlar, kreslo, X shakldagi yig'ma stullar, kravatlar, oyoqlar o'rniga ikki yoniga doska qo'yilgan stollar. Dastlabki shkaf turlari, ya'ni yon tomonga qo'yiladigan sandiqlar ("na popa"), idish-tovoqlar uchun shkaflar paydo bo'la boshladı.

Gotik uslubdagi interyerlar uslubi roman stilidagidan ancha yorqin bo'lib, asosan, katta derazalardan tushadigan yorug'lik bilan xona yoritilgan.

Ro'zg'orda, asosan, sharqdan keltirilgan qimmatbaho buyumlar, ya'ni tukli gilamlar, qimmatbaho idish-tovoqlar va turli buyumlaridan foydalaniilgan


Barcha tarixiy davrlar singari O'rta asrlar ham turmush tarsi, badiiy uslub va didlar taraqqiyotidan kelib chiqib, inson go'zalligi idealini yaratdi. Biroq bu davrda estetik go'zallik tushunchasi birmuncha qarama-qarshi bo'lib, uzoq yillar davomida insondagi

barcha me'yirlarni cheklab turgan cherkov bilan kurash asosida olib borildi.

O'rta asrlar mumtoz namunasi sifatida Fransiya e'tirof etiladi. Parijni esa uning gultoji deya atash mumkin.

Qadimgi sharqda paydo bo'lgan qadalmaydigan kiyimlarning sodda bichimi, Yevropa kiyimlarida X-XI asrlargacha yashab keldi. Ayollar va erkaklar go'zalligi haqida keyinchalik paydo bo'lgan tushunchalar ayol va erkak kiyimining shakliy jihatdan farqlanishini talab qildi. Yevropa libosidagi bu muhim o'zgarish (reforma) o'rta asrlarda birdaniga paydo bo'lib, shakllanmadi. Buning uchun oz emas, ko'p emas 400 yil (XII-XV aa.) kerak bo'ldi. Uning rivojini quyidagi xarakterli davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

*1-davr.* XII asr -XIV asrning birinchi yarmi. Bu davrda erkaklar va ayollar liboslari uzun bo'lib, ular qomatga yopishib turgan. Qomatga libosning yopishib turishini bichish usulida amalga oshirilgan (1-rasm). Qomatga libosning yopishib turishi uchun kiyimda 3 ta chok qilingan ya'ni ikki yon va bitta orqa chok orqali amalga oshirilgan. Kiyimning yuqori qismi aynan mana shu choklar yordamida tanaga moslashtiriladi. Kiyimning past qismi esa uchburchak shakldagi klinlar yordamida etak qismi tomon kengaytiriladi. Bel chizig'i bo'ylab yon tomondan oval shaklida yiriqlar qoldirilib, ular shnurlar yordamida biriktiriladi (1-rasm).



*1-rasm*

Endilikda belbog'lardan belni tortib turish uchun emas, balki belni ta'kidlab ko'rsatish uchun va dekorativ bezak sifatida foydalilanilgan. Liboslar faqatgina nakladnoy ya'ni ustiga tshlanadigan bo'lgan. Faqatgina plashlar drapirovkalangan, ya'ni burmalangan.

2-davr. XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asrning birinchi choragi (gotika davri). Bu davr kalta erkaklar kiyimining paydo bo'lishi va uzun ayollar kiyimining yanada boyishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda tugmalari qadalmaydigan kiyimlarning turli xillari keng tarqaldi. Liboslarni tashqi shakli va konstruktiv yechimiga ta'sir qilgan konstruksiyalashni jadal rivojlanishiga bu davrda me'morlikning rivojlanishi va gullab-yashnashi ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadidi. Avvalambor, metalldan qilingan ritsar libosi rekonstruksiya qilindi. Uning og'irligi va noqulayligi harbiylarni harakatini cheklab qo'yari, jangda ancha noqulayliklarni yuzaga keltirar, shuningdek, ko'p hollarda kasallikka ham sabab bo'lar edi. Yaxlit metal Sovut alohida bo'laklarga bo'lindi - Sovut, harakatlanadigan joylaridan ilgaklar, oshiqliqlar (sharnir) bilan ulandi. Shu usulda tananing ba'zi qismlari: yelka qismi, ko'krak qismi, yenglar uchun tekis detallar formasi topildi. Matolarda mana shu alohida qismlar yoki bichim detallarini joylashtirishda uning elastikligi ham (matodagi bo'y va eniga o'tgan iplarning tortilishi) e'tiborga olina boshladidi. Kenglikni xosil qilish uchun vitachkalar qilina boshladidi. Yengning o'mizi oval shaklida bichila boshladidi. Yeng o'mizga butunlay tikilmay, balki uning ba'zi o'rnlari shnur yoki temsalar yordamida biriktirila boshladidi. Liboslar bel chizig'i bo'ylab ajratilib bichiladigan bo'ldi.

Gotika davri liboslarida san'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tendensiya, ya'ni xristian dinining talabi bo'lmish tanani yopish, uni shakllarini ko'rsatmaslik, shuningdek, tor bichimdagi libos bilan inson go'zal qomatining tabiiy formalarini ko'rsatish mavjud edi.

Gotika uslubi kiyimlarni bichish va modellashtirish, modani shakllantirishda gullab-yashnagan davr bo'ldi. Aynan mana shu davrga kelib, kiyimlarda umumiy badiiy uslublar doirasida liboslar shakli tezlikda almashdi.

3-davr. XV asrning ikkinchi yarmi - frank-burgund modasining davri bo'ldi. Bu davr, asosan, feodallar liboslarining ijtimoiy tabaqasini yorqin namoyon etganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda yergacha uzaytirilgan, osilib turgan yengli, harakatlanishni cheklaydigan, qomatni ko'rsatib turuvchi tor liboslar, uzun tumshuqli poyabzallar, ajoyib, hashamador bosh kiyimlar ursiga kirdi, g - shaklidagi qomat siluetiga erishish uchun ayollar qorinlariga unchalik katta bo'lмаган yostiqlar - boslar bog'lab yurishgan. Bo'yinlarini uzaytirib ko'rsatish uchun ayollar orqa tomonidan qulqlari atrofini, yuzlarini oval ko'rsatish uchun manglayni qirtishlab yurishgan.

**O'rta asrlar liboslari bezaklar yechimi, matolar, rang.** O'rta asrlar liboslari dekorativ bezaklarida quyidagi asosiy belgilarni ajratish mumkin:

- 1) Bo'yin o'mizi, kiyimning etaklari, yeng o'mizlari atrofini kashtalar, merajka, q'immatbaho matolardan beykalar, festonlar, mo'ynalar bilan bezash;
- 2) liboslarda yashil, qizil, ko'k, sariq kabi yorqin ranglarni uyg'unlikda qo'llanilishi;
- 3) liboslarda hajmli bezaklar (lentalar, kantlar, ukparlar) bilan boy bezaklanishi;
- 4) matolarni oltin va kumush qo'ng'iroqchalar bilan bezash (o'sha davr solnomalarida aytlishicha, ritsarlar janglarining birida bir ritsar libosi, poyabzali va bosh kiyimida birvarakayiga 500 qo'ng'iroqcha jaranglagan ekan);
- 5) qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezalgan qo'lqoplarning paydo bo'lishi;
- 6) libosda bezakni ta'kidlash (libosning umumiy kompozitsiyasida detalning o'mni, bog'lam (masalan, lentalar) bilan bog'lash).

Erta o'rta asrlar davrida zig'ir tolasidan tayyorlangan mato (len), uyda kanopdan to'qilgan mato (xolst), movut (sukno), mo'yna, charm, sharq va Vizantiya shoyilar keng tarqalgan. Shaharlarda hunarmandchilikning o'sishi to'quvchilik taraqqiyotiga yo'l ochdi. Matolarning turlari, ularning sifati, shuningdek, xillarining oshishiga olib keldi. Natijada, shoyi, parcha, barxat, elsatik movut keng tarqaldi.

Angliya va Niderlandiyada sharlax deb nomlangan, asosan, qizil rangdagi ajoyib jun mato ishlab chiqarilgan bo‘lsa, assosi zig‘ir tolali va paxta tukli barxat to‘qilgan. Ipak matoning eng yaxshisi Venetsiyada ishlab chiqariladigan purpur bo‘lgan.

Ranglar jilosи yorqin, toza: olov rang qizil, karmin (och qizil), moviy-zangori, yashil ranglar. Kech gotika davriga kelib o‘ziga xos to‘q va xiraroq ranglar ham kirib kela boshladi. Xususan, fon rangi – kul rang, jigarrang.

Matolar, asosan, sidirg‘a bo‘lgan. Keyinchalik gul bosilgan, oltin va kumush iplar bilan bezalgan matolar urf bo‘ldi. Matolarga turli chizmalar – doira yoki romb nushasini tushirish, ushbu tasvirlar ichiga nuqtalar, xochlar, hayvonlar, oltin tishli va kumush qanotli qushlar tasvirini tushirish urf bo‘lgan. XV asrga kelib, o‘simliklar tasviri: anor, lola, gvozdika, atirgullar tasviri keng tarqaldi (2-rasm). Yetti kosabargdan iborat, baquvvat navdali va tishli bargli atirgul muhabbat va uni oshkor etmaslik ramzi hisoblanib, ular odatda anor (bu ham muhabbat ramzi), ananas va boshqa o‘simlik naqshlar bilan uyg‘unlikda tasvirlangan. Naqsh va uning foni doim kontrast ranglarda bo‘lgan. Vizantianing gorizontal hoshiyasi asta sekinlik bilan o‘rnini butun mato bo‘ylab naqshlarga bo‘shatib berdi.



2-rasm

**Erkaklar libosi. Ilk o‘rta asrlar davri (VI-XII a.a).** Varvarlar libosi tasvirlarini Qadimgi Rim me’moriy obidalaridan biri Troyan kolonnalarida ko‘rish mumkin. Libos beldan bog‘langan, yengli kalta tunika, kalta ishton, matodan tayyorlangan paypoq, charm boshmoq va o‘ng yelkadan taqiladigan junli yoping‘ichdan iborat bo‘lgan. Boshga esa konussimon bosh kiyim kiyilgan.

Bunday libos ko‘rinishi Buyuk Karl davri (VIII a.) amaldorlari liboslarida saqlanib qolgan. Bular bilan bir qatorda ikkita yarimtadan iborat tor uzun ishtonlar, bir-birini ustidan kiyiladigan keng va uzun tunikalar paydo bo‘ldi.



3-rasm

Bunday liboslarni imperator Otton tasvirlangan X asr miniaturalarida ko‘rishimiz mumkin (3-rasm). Imperatorning egnida etaklari, yeng uchi, yelka va yon yiriqlar bo‘ylab oltin rangdan hoshiya qilingan och rangdagi tunika. Uning ostida oq rangdagi ichki tunika ko‘zga tashlandi. Uning ustida yelkadan qimmatbaho to‘qa ila mahkamlangan purpur plash yopilgan. Libosning tuzilishi, kiyish uslubi, bezaklari Vizantiyanikini eslatadi. XI asrga kelib (roman davri) erkaklar libosi ritsarlar yarog‘-aslahalari ta’siri ostida bo‘ldi. Liboslar kaltalashdi va turli shakliy ko‘rinishlar kasb eta boshladи.

**Blio** – belning pastidan ajralgan yopinchiq shaklidagi libos. Yuqori qismi yelka, ko‘krak va belga yopishib turib, bo‘ksa tomon kengayadi. Etak tomoni ikki yarimdoira shaklida bichilgan bo‘lib, ular old va orqa tomon beletaklariga qo‘sib tikilgan. Ushbu kiyimning umumiy uzunligi boldirning o‘rtalariga qadar boradi. Blioning yenglari yaxlit tor, past tomonga qarab voronka shaklida kengaygan. Yon yiriqlari orasidan rang jihatdan keskin tafovutli yorqin rangdagi tunika ko‘rinib turadi. Blio odatda orqa tarafidan shnurlangan (4-rasm).

**Shossa** - elastik movutdan tanaga yopishib turadigan tor ishton-paypoq. Ust kiyim belbog‘iga ip yordamida qotirilgan. XV asrga qadar



4-rasm

ishtonlar bir-biriga qo'shib tikilmagan. Keyinchalik ularni old va orqa klinlar yordamida bir-biriga qo'shib tikila boshlandi.

**Naramnik** o'rta asrlarda ko'plab erkaklar va ayollar libosi asosidir. U to'rtburchak yoki oval shakldagi mato bo'lagi bo'lib, yelkadan buklab tashab qo'yilgan. Uning bosh uchun o'mizi bo'lib, yonlari tikilmagan. Kiyimning ushbu turi turli uzunlik va ko'rinishga ega bo'lib libosning turini boyitgan.

5-rasmida miparti naramniki tasvirlangan. Miparti modasi zodagon feodallar kiyimida XIII asrda, ayniqsa, keng tarqalgan va feudal gerblarining rangi va ramzlarini ishlatish bilan bog'liq. Yenglar, old yarmi, ishton, poyabzal turli ranglarga bo'yalib, gerb ramzları bilan bezaklangan. Gerbdagi ranglar singari ular ham vertikal ravishda ikki qismga bo'lingan. Mipartida hatto oyoq kiyimining o'ng va chap tomonlari kiyim ranggiga mos ravishda turli ranglarda bo'lgan.



5-rasm

XIII asrga kelib ikki yoni tikilgan, chuqur o'mizli *syurko* deb nomlangan yangi kiyim turi paydo bo'ldi. Syurkolar, odatda kottning ustidan kiyilgan. Shu sababli u so'zning ma'nosiga ko'ra qo'llanadi (fransuzcha surcot - kott ustidan). Kott tilga olingan asrga kelib blioni urfdan chiqardi (6-rasm). Syurko nafaqat kiyim turi, shu bilan birga o'zbek tilidagi «ko'ylak» atamasi ma'nosiga yaqin. Aynan shu davrdan boshlab u liboslar terminalogiyasi tarkibidan o'rin oldi.




6-rasm

**Kech o‘rta asrlar davri (XIV-XV a.a.).** Bu davrga kelib, bichiqdagi rivojlanish sabab, kiyimlarning shakli, tuzilishi va bezak chiziqlarida turli-tumanlik paydo bo‘ldi. Erkaklar libosi ikki siluet ko‘rinishni oldi: qomatga yopishib turuvchi va pastga qarab kengaygan keng liboslar. Tor turadigan liboslar roman davridan, avvalo, yeng o‘mizini burmaga yig‘ish va maxsus paxta valik prokladka yordamida yelkalarni kengaytirish bilan farqlanadi. Konstruktiv va bezak chiziqlar ko‘krak va birmuncha tor va pastlatilib, belbog‘ bilan bezaklangan belni ta’kidlab ko‘rsatishga yordam bergen. Tor kiyimlarning bo‘yi bo‘ksadan oshmagan. Ushbu davr erkaklar libosi o‘tkir uchli poyabzal va konus shaklidagi baland bosh kiyim bilan birga inson tana shaklini yanada uzaytirib ko‘rsatish bilan birga unga harakat erkinligi, chaqqonlik va egiluvchanlik ham baxsh etardi.

Bu davr tor kiyimlariga kalta, yopishib turadigan kurtka *kotardi* ham xos. Kotardi - old tomonidan tugmalanadigan va bo‘ksada bezakli belbog‘ bilan qadaladigan, bo‘ksa uzunligidagi tor kiyimdir. Kotardining yengi turlicha: tor ham, keng ham, qanot shaklida ham. U, ayniqsa, bezakdor bo‘lgan. Yuqori qismi tor yenglar past tomon kengayib, tishchalar yoki kengligi 10 sm, uzunligi 1,5 metrغا boradigan mato bo‘laklari bilan bezaklangan (7-rasm).

XIV asrlarga kelib kotardi belni siqib turadigan va bo‘ksada yelpig‘ichsimon taxlamali kalta jaketlar tomonidan siqib chiqarildi (7-rasm). Jaketlar yengi baland ko‘tarilgan, burmalangan o‘mizga ega bo‘lib, frank burgud modasi belgisi - yelkaning to‘g‘ri va baland ko‘rinishini belgilagan.



7-rasm



8-rasm

**Tapert** ham beldan qattiq siqib bog‘langan va uning ham past qismi burmali yoki taxlamali (skladkali) bo‘lgan. Tapertlar jaketdan uzunroq bo‘lgan (tizzagacha uzunlikda), chetlari boy bezatilgan (8-rasm). Belbog‘, yoqa, yeng va yelka choklarga qo‘ng‘iroqchalar taqilgan. O‘miz old tomonda ham, orqada ham bo‘lishi mumkin edi. Asr oxirlarida mardonavorlikni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun tapertlarning ko‘krak qismiga va yelkaga paxta qistirmalar (prokladka) qo‘yilgan.

Kalta tor kurtkalar **shossalar** va o‘tkir uchli oyoq kiyim - **pigashlar** bilan kiyilgan. XIV asrga kelib pigashlar uchi judayam uzayib, ular uzunligi egasining jamiyatdagi o‘rniga qarab 70 sm. gacha borgan. Oyoq kiyim rangi ustki libos rangiga qarab alohida e’tibor bilan tanlangan: oq, qizil, qimmatbaho bezaklar bilan bezalgan oltin rang charm va h.k. Oyoq kiyim tuzilishi har ikki, ya’ni o‘ng va chap oyoq uchun bir xilda. Inson tanasining tik va adlligini bo‘rttirib turuvchi tor kiyim uzun yoki kalta, etagi yengining past qismi juda keng ustki kiyim bilan kiyilgan. Bu ikki qarama-qarshi siluetlar sabab erkak gavdasi estetik jihatdan yanada ko‘rkamlik kasb etardi.

XIV asr oxiri - XV asr boshlarida syurkolar upelyandlar tomonidan siqib chiqarildi (9-rasm). **Upelyand** - qoplama va tugmalari qadalmaydigan, turli uzunlikdagi ustki kiyim bo‘lib, uni belbog‘ bilan yoki belbog‘siz kiyib yurishgan. Uzun upelyandning etaklari kengligi 7 metrgacha, yengi pastining kengligi 3 metrgacha borishi bilan xarakterlidir.

Erkaklar libosidan faqatgina ichki tunikalar zig‘ir tolasidan tayyorlangan matolardan tikilgan, qolganlari esa - eng urf bo‘lgan matolar - jun matolar, shoyi, parcha, duxoba matolardan tikilgan.



9-rasm

Bu davrda bosh kiyimlarning turlari ko‘p bo‘lgan: kapyushon, shaperon - osilib turuvchi uzun uchli o‘ralgan bosh kiyim, konussimon, keng va tor ayvonli (chambarakli) fetr va movut shlyapalar. Soch turmaklari - uzun lokonlar (jamalaklar) va kalta chyelkali.

**Ayollar libosi.** *Ilk o'rta asrlar davri* ayollar libosi tuzilishida ham erkaklarniki singari o'zgarishlar yuz berdi.

Erta o'rta asrlar davrida ayollar bir paytning o'zida ikkita tunika kiyib yurishgan: uzun, tor yengli uzun va keng tunikalar hamda ustki, kalta va keng yengli, bo'yи kaltaroq tunikalar. Rangli naqshlar va bezaklar yoqa o'mizlari, yenglar va etakning past qismini bezagan.

X-XII asrlardan boshlab tanaga yopishib turadigan tor liboslar yaratila boshlandi. Qomatni ko'rsatish maqsadida liboslarda tor kalta jiletlar paydo bo'ldi. Ular ko'krakni ushlab turish bilan birgalikda libosda o'ziga xos bezak rolini o'ynagan (10-rasm).



10-rasm

Jiletlarning chetlari kashta va galunlar bilan bezaklangan. Metall parchalari bilan bezaklangan belbog'lar bo'ksaga taqilib, ularning uchlari yerga qadar osilib turgan.

Ayollar libosi erkaklar libosiga qaraganda, yergacha uzunlikda ekanligi bilan ajralib turgan. Beldagi ovalsimon qiyiqlar (razrez) ko'krakka va bo'ksaga kiyimni yopishib turishi maqsadida lentalar yordamida bog'langan (11-rasm). Ustki kiyim sifatida mo'ynali yoki matoli astarli plash-mantiyalar kiyishgan.

Bosh kiyim sifatida erta o'rta asrlarda qo'llanilgan yopinchiqlar yo'q bo'ldi. Ayollar endilikda sochlarini yoyib yoki o'rib yurishar va parcha lentalar, obruchlar, dahanga bog'lanadigan chambaraklar taqa boshlashdi.

Poyabzallar tuzilishi va materialiga ko'ra xuddi erkaklarniki singari bo'lган.

**Kech o'rta asrlar davri.** Uzaytirilgan proporsiyalar, yengil va yuqoriga qarab ketuvchi gotika davri me'morchiligidagi shakllar kech o'rta asrlar davri libosiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi.

11-rasm

Erkaklar libosi asosidagi ikki asosiy siluet ayollar libosi uchun ham xarakterli edi. Faqatgina erkaklar libosida yelka va ko'krak kengligi va oyoqlar baquvvatligi va adlligi ta'kidlangan bo'lsa,



ayollar libosida aksi – tor yelka, noziklik va yosh qizlarning go‘zalligi ta‘kidlangan.

Siluet beldan pastga qarab kengaya bordi, yubkaning klesh bichimi hisobiga libosning pastki qismining kengligi va uzunligi ortdi. Bu davrda yuqori tabaqa vakillari libosida bir vaqtning o‘zida kiyiladigan liboslar soni ortdi. Bular: tunika, kotta, syurko, plashdir.

XIII asr boshlarida ayollar syurko va kotta liboslarini kiyishgan. Syurkolar keng va to‘g‘ri siluetda tikilgan, kottalar esa uning aksi tor, ko‘krak va bo‘ksaga yopishib turuvchi, tor va uzun yengli siluetda tikilgan (12-rasm).



12-rasm

Syurko katta oval o‘mizli bo‘lgan. Kottlarning bel chizig‘i ancha pastda, ko‘kraklar mato - korset bilan tortilgan. Bunday ansamblning ranglar jilosi yorqin, kontrast tafovutli bo‘lgan. Oltin va zangori rangdagi kott ustidan oltinrang bilan to‘qib bezalgan qizil rangli syurko va yorqin ko‘k rangdagi mo‘yna astarli plash kiyilgan. Durli taqinchoqlar ushbu ansablni yanada boyitgan.

XV asrda ayollar tor kiyimi proporsiyalari o‘zgardi. Syurkoning bel chizig‘i ko‘krak ostiga ko‘chdi. Yubkalar orqa tomondan shleyf yordamida bir necha metrga boradigan darajada uzaytirildi. Syurko old tarafidan kaltalashtirildi. Yubkaning old tomonidan qorin atrofiga burma qilish urf bo‘lgani sababli ba’zan yubkaning old tomoniga burmaga yig‘ilgan mato bo‘lagi tikilgan. Aynan mana shu holat, ya’ni tanasini orqaga yengil tashlab, qornini oldiga chiqarib turgan ayol qomati tilga olingan davr ayolining ideal ko‘rinishi edi.

O’tkir burchakli bo‘yin o‘mizi yelka tomon kengaygan shal shaklidagi yoqa bilan bezalgan.

Aksar mana shu katta o‘yma yupqa, ya’ni ichi (tana) ko‘rinadigan kashtalangan shoyi bilan bezaklangan. Keng belbob‘ oltin va kumush plastinkalar bilan bezalgan.

Ustki ko‘ylakning yengi turli ko‘rinishda bo‘lgan. Ular tor va uzun bo‘lishi mumkin edi. Uzun yenglar yerga tegib turmasligi uchun uchi tugilgan. Shuningdek, keng, qo‘ng‘iroq sifat yoki kalta, tirsakkacha lenta simon mato bilan bezaklab tikilgan, yerga teguvchi yenglar ham

urf bo‘lgan. Ko‘ylaklarning bo‘yin va yeng o‘mizi mo‘yna bilan bezatilgan. Bunday ko‘ylaklarni oliy nasab ayollar kiyishgan.

Libos qo‘srimcha tarzda uzunligi 70 sm. gacha boradigan konussimon vualli bosh kiyim bilan to‘ldirilgan.

Shakllarning sun’iy uzaytirilishi chiziqlardagi “gotik qing‘irlik”, qomat g - simon siluetga egaligi erkaklar libosi singari ayollar libosiga ham xos.

Gotika davrida ayollar libosida soch turmagi ikkinchi planga o‘tib qoldi, sababi asosiy urg‘u bosh kiyimlarga - turli formadagi chepetslar, obruchlar, chambarlarga berilar edi.

Asosiy e’tibor zargarlik buyumları - belbog‘lar, zanjirlar, kamarlar, qo‘ng‘iroqlarga qaratilgan. Qimmatbaho buyumlar - barmoqqa 20 tagacha uzuk taqish, ko‘krakda zanjirlarning ko‘pligi, qo‘lda burchagida oltin yurakchali dastro‘mol tutib turish nafislikni, burgund modasining takomillashganini ko‘rsatadi. Bo‘yinda mayda oltin yurakchalardan iborat taqinchoqlar, belbog‘ga esa tasbeh, oyna, mumdan qilingan tumor, zarhallangan lochin tirnog‘i - tish tozalagichi osib yurishgan.

### Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar:

1. Ilk o‘rta asrlar davri haqida so‘zlab bering.
2. Ilk o‘rta asr davida qanday badiiy uslub shakllana boshladi?
3. Bu uslubning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
4. Ilk o‘rta asr davridagi erkaklar kiyimi haqida nimalarни bilasiz?
5. XI asrda libosda qanday yangi shakllar paydo bo‘lgan?
6. O‘rta asrlar liboslaridagi rang, bezaklar yechimi, foydalanilgan matolarga tavsif bering.
7. O‘rta asr ayollari kiyimlarida qanday bezaklar ishlatilgan?
8. Kech o‘rta asrlar davridagi ayo libosiga ta’rif bering.

## UYG'ONISH - RENESSANS DAVRI LIBOSI

Uyg'onish davri insonga bo'lgan qiziqish, tabiatga va go'zallikka bo'lgan muhabbat, bilimga chanqoqlik, kashfiyotlar, tabiiy fanlarning, san'atning, adabiyotning gullab-yashnashi, san'atda yangi uslub - realizmning paydo bo'lishi bilan xarakterlidir.

Uyg'onish davri realizmining antik realizm bilan umumiy jihatlari ham bor edi. Bular: aniq va mayin shakllar, proporsiyalarning uyg'unligi, butunning aniq bo'laklarga bo'linishi, dekorativ va konstruktiv sistemaning o'zaro bog'liqligi, sof mo'tadillik, ya'ni chegarani aniq his qilish. Lekin Renessans davri san'ati yangi, ya'ni jamiyat rivojlanishining yanayam murakkabroq davrida paydo bo'ldi va o'z davri san'atining yangi ko'rinishi, ya'ni, avvalambor, insoniyat ongi va e'tiqodiga ishonchni namoyon etadigan san'at edi.

**Gumanizm - har tomonlama yetuk inson haqidagi yangi tushuncha**


**Go'zallikning estetik ideali.** Uyg'onish davri madaniyat va san'atida gumanizm, g'oyalari yetakchilik qilib u erkin, har tomonlama kamol topgan, cheksiz imkoniyatlarga ega insonni tarannum etdi. Bu davrda biror bir mashxur shaxs yo'qki, u uzoq yurtlarga safar qilmagan, 4 yoki 5 xorijiy tilda gapirmagan, ijodning bir necha turida o'zini ko'rsatmagan bo'lsin.

O'rta asrlar axloqiga qarama-qarshi italyan uyg'onish davri estetikasi ruh va tana o'rtasiga chegara qo'ymaydi, balki ularning birligini ilgari suradi. O'zida katta ruhiy go'zallik va jismoniy go'zallikni birlashtirgan murakkab shaxs timsoli – davrning idealidir. Go'zallik sog'liq va kuch singari katta ahamiyat kasb etardi. Inson tanasining go'zal proporsiyalari, plastikasi, ranglar jilvadorligi, formalari davrning buyuk rassomlari Leonardo da Vinci, Titsian, Dyurer va boshqalar asarlarida o'rganilgan va ba'yon etilgan.

**Matolar, rang va bezaklar.** Bu davrga kelib Yevropa amaliy san'atida, shuningdek, mato ishlab chiqarishda kuchli ko'tarilish seziladi. Hunarmandchilik rivojining markazi Italiya bo'lgan. Italiyaning rivojlangan shaharlari - Genuya, Milan, Florensiya, Venetsiya kabi shaharlarda ipak mato to'qish va matolarga gul bosish avj oladi.

Fakturasi, qalinligi va ko'rinishi jihatidan Italiya shoyilarini turlicha bo'lgan. Asosan, Italiya altabasi va aksamiti juda katta e'tiborga ega bo'lgan. Altabasda tillarang fonga tillarang bilan, kumushrang fonga kumushrang naqshlar to'qilgan. Uning konturlari

rangli atlas mato yoki duxoba kantlar bilan ajratilgan. Aksamitning oltin yoki kumush fonida turli balandlikdagi tugunlar asosida paydo qilinadigan murakkab naqshlar nur bilan o'yinga kirishganda ajoyib bir tarovat uyg'otgan.



1-rasm


Mato bezaklarida o'simliksimon nashqlardan, ular orasida ananas, lola, tok novdasi, akanf bargi kabi shakllar uslublashgan tarzda foydalanilgan. Asosan, anor naqshi yoki tovus pati naqshlari katta urf bo'lgan (1-rasm).

Gullar naqshlaridan tashqari matolarda hayvonlar va qushlar tasvirlari ham tushirilgan. Davrning eng sevimli ranglari sovuq qizil, ko'kish havorang, zumrad-yashil, tillaranglar bo'lgan. Motam ranglari – jigarrang sifat binafsharang va to'q malina ranglar hisoblangan.

Matolar boshqa davlatlarda ham ishlab chiqarilgan. Bularдан: Niderlandiya, Germaniya, Ispaniya, Fransiya. Bryugge, Utrect kabi Niderland shaharlari mato to'quvchi yirik shaharlar bo'lgan. Bu shaharlar o'zlarining gul bosilgan zig'ir tolasidan to'qilgan matolari va duxobalari bilan mashhur edi. Matolarga naqsh bosishdan tashqari duxoba va shoyi matolarga tillarang barglar, uzuklar, sher, ajdarho, qushlar timsoli tushirilgan doiralar tasvirli kashtalar tikilgan, dur va qimmatbaho toshlar bilan bezalgan (2-rasm). Bu usulda tikilgan libos og'irligi 25–40 kg gacha bo'lgan.

XV–XVI asrga kelib Italiya, Fransiya va boshqa Yevropa mamalkatlarida ustki kiyim uchun zig'ir tollaridan qilingan matolarni qo'llashdan tiyilib, ular, asosan, parcha, duxoba, qalin shoyidan qilina boshladi. Zig'ir matolardan ichki kiyimlar tayyorlanar, biroq uning sidirg'a va yaltiroq tusi, oppoqligi uni ustki kiyim ostidan ko'rintirib turishiga asos bo'ldi. Keyinchalik undan ust kiyimning bezaklari uchun ham foydalanildi. XV asrda

Yevropada krujeva, ya’ni to‘r paydo bo‘ldi. U bilan ko‘ylaklar etaklari, yenglarning etaklarini bezash boshlandi. Dastlabki Venetsian to‘rlari paxtadan oq va qaymoq rangda, tyul fonisiz gipyur singari tikib ishlangan bo‘lib, ularda mayda tugunchalar asosida murakkab geometrik naqshlar keltirib chiqarilardi. (2-rasm). Tikilgan va to‘qilgan to‘rlar uchun naqshlar Italiya va Yevropaning turli davlatlarida turli to‘plamlarda nashr etilgan.



*2-rasm*

## ITALIYA LIBOSI

Shu davrgacha Fransiya, Vizantiya, Sharq mamlakatlarining madaniyati ta’siri ostida bo‘lgan Italiya XV asrga kelib Yevropa mamlakatlari orasidagi modalarni rasm qiluvchi davlatga aylandi.

Vertikallik, uchli formalar, gotika davrining shartliligi gorizontal bo‘linish, shakllarga oddiy va tabiiy munosabat, ranglar mutanosibligining rang-barangligi, boyligi va yorqinligi tomonidan siqib chiqarildi. Uyg'onish davrining estetikasi liboslardan inson tanasi tabiiy formasi bilan to‘liq mutanosib bo‘lishni, inson tanasi go‘zalligi proporsiyalarini yaqqol namoyon etishi, bir so‘z bilan aytganda insonning “ikkinchi tanasi” bo‘lishini talab qilar edi. Bunda ba’zi bir qismlarning ochiq bo‘lishi shartli ravishda nazarda tutilar edi. Italiya modasini yaratishda buyuk rassomlar qatnashganlar. Xususan Benvenuto Chellini, Chezare, Vechellio va boshqalar matolarni imzolashar, zargarlik buyumlari, ipak to‘rlarga naqshlar yaratishadi.

**Erkaklar libosi.** XV asrda modaning asosiy yaratuvchisi Florensiya, XVI asrda esa Venetsiya edi. XV asrdagi florensiyaliklar libosida fransuz gotikasining qomatga yopishib turadigan shakli

saqlanib qolgan. Bu davr liboslarda bo'rttirilgan formalar yo'q. Ular o'zining qulayligi bilan ajralib turadi. Poyabzallar esa tumshuq qismining dumaloq formasi bilan farqlanadi. Erkaklar libosi: ko'yak, kolet, paypoqli ishton, simara, tabor, plashdan iborat bo'lgan.

Erkaklar ko'yagi – asosan, yupqa va nozik oq matodan tayyorlanib, u belning pastigacha tushib turgan. Uni ishtonga qistirib kiyishgan. Yelka qismining yengil tushib turishi, katta hajmli lif va yenglarning uzunligi matoni ustki kiyim yengining qiyiq joyidan chiqarib qo'yib, bashang busfon ko'rinishini berish imkonini yaratgan edi. Erkaklar ko'yagi, shuningdek, ishton va kalta ust kiyimi o'rtasidan ham chiqarib qo'yildi. Yoqasi keng oval yoki kvadrat shaklida bo'lib uning chetlari tasmalar, ipakli to'rlar, matolardan qilingan tishchalar bilan bezaklanardi.

**Kolet** - tik yoqali, tor va kalta, belgacha yoki bo'ksagacha tushib turuvchi, old qismida tugma yoki tasma bilan qadaladigan ustki kiyim (3-rasm). Kolet ko'krak, bel, bo'ksaga yopishib turadigan kiyim turi bo'lib, u beldan ajratilgan. Bo'yin o'mizi turicha bezaklangan. Yoqasi baland va tik, chuqur, oval yoriqlardan ichki ko'yak ko'riniib turgan. Uning yengi o'mizga tikilmagan, balki alohida o'rnlarda (o'mizning tagi yelka qismi, yonidan) chatib qo'yilgan. Bu holat harakatlar erkinligini ta'minlashda yordam bergen. Yengning yelka qismi va tirsaklar kesib yoriqlar qoldirilgan. Barcha yoriqlardan erkaklar icki ko'yagining ko'riniib turishi maqsad qilingan. Keyinchalik bu yoriqlar dekorativ matolardan qilingan bezaklar – shishib turadigan buflar bilan bezaklangan.

Paypoqli ishton elastik matodan bo'lib oyoqqa yopishib turgan. XV asrda uning har ikki bo'lagi yuqori qismidan va yonidan tugmalar ila qadaladigan yoki shnur bilan tortib qo'yiladigan gulfik orqali birlashtirilgan. Paypoqli ishton koletga maxsus teshiklar orqali shnurlar yordamida mahkamlangan. Paypoqli ishton va kolet orasida ichki ko'yak ko'riniib turgan. Uzoq vaqt davomida miparti modasi saqlanib qoldi: bunda ishtonning bir oyog'i sidirg'a, ikkinchisi yo'l-yo'l (3-rasm) bo'lgan.



3-rasm

XV asr oxiriga kelib paypoqli ishton ustidan kalta, bo'ksaga yopishib turadigan kalta ishtonlar kiyila boshlagan. XV asr Florensiya modasida bu ishtonlar bo'ksaga qattiq yopishib turgan. XVI asr o'rtalariga kelib ular pastki tomon kengaya boshlagan (4-rasm).

**Simara** – tugmalari taqilmaydigan har xil uzunlikdagi keng uzun yengli ko'yak (5-rasm).



4-rasm



5-rasm

**Tabar** – orqa tomoni keng, belidan bog'lanadigan kalta yopinchiq ko'rinishidagi ustki kiyim (6-rasm). Turli shakl va uzunlikdagi plashlar urf bo'lgan. XVI asrda Venetsiyada plashlar ko'pincha yoqalar-pelerinalar bilan bezaklangan.



6-rasm

Kiyimning uzunligi florensiyalikning jamiyatdagi o‘rnii va yoshini ham ifodalagan. Yoshi ulug‘ kimsaning kiyimi u biror bir mansabga ega bo‘lmasa-da, albatta, uzun, keng bo‘lgan. Bu holat unga viqor berish bilan birga hurmatga sazovor kishi ekanligini bildirib turishda muhim vositachilik qilgan.

Ispaniya Florensiyani bosib olganidan keyin Italiya modasida ispaniyaliklar ta’siri sezildi. O‘z mustaqilligini saqlab qolgan Venetsiya, kiyim formasi va did borasida o‘zini ta’sirini o‘tkazishda davom etdi.

Venetsiya erkaklar libosida matolar rang-barangligi va yorqinligi sezilmaydi. To‘q rangli duxoba kiyimlar konstruktiv-dekorativ yo‘llar yordamida kengaytirilar edi: tushurilgan yelkalar, chuqur o‘mizlar, keng, pastga tomon kengaytirilgan yenglar, keng burmalangan yoki taxlamalar bilan bezaklangan va beldan ajratilgan old qismlar (7-rasm). Kashta va qimmatbaho mo‘ynalar bilan bezalgan to‘q rangli duxoba kiyimlar juda ko‘rkam va hashamdon ko‘rinar edi.



7-rasm

XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib, kiyimlarda butun mato ustini qoplagan uzun dekorativ yiriqlar paydo bo‘ldi. Yiriqlar rangli matolar bilan ajratilar yoki chetlari rangli iplar bilan tikilar edi. Boshida ular orasida oq ko‘ylak ko‘rinib turar edi, keyinchalik esa yiriqlar boshqa rangdagi matolar bilan aplikatsiyalanadigan bo‘ldi. Bu ranglar jilosida libos o‘zgacha qiyofa kasb etar edi. Libosdagi

ranglar yechimi, shakllarning hashamatdorligi, burmalardagi nur-soyalar o‘yini, zargarlik buyumlari - zanjirlar, uzuklar - bularning bari XV-XVI asrlardagi italiyalik erkaklar qomatiga juda katta tasviriy yechimni berar edi.

Erkaklar moyabzali juda qulay bo‘lib, u charmdan tayyorlanib, keng tumshuqli, yumshoq bo‘lgan. Bunday oyoq kiyimlar “ayiq panjas” deb atalar edi.

Bosh kiyimlar turli shaklda bo‘lgan. Ular orasida past shlyapalar, beretlar, feskalar keng urf bo‘lgan.

Birinchi to‘quv mashinalarining paydo bo‘lishi bilan bu davrda ularning dastlabki ishlab chiqargan mahsuloti – shoyi, trikotaj paypoqlar paydo bo‘ldi.

**Ayollar libosi.** XV asr florensiyalik ayollar libosi yumshoq, tabiiy qomat chizgilarini ko‘rsatib turuvchi, tabiiy proporsiyalar yoki bel chizig‘i old tomondan biroz ko‘tarilgan, beldan bo‘ksaga pastga qarab yengil kengayib borgan voronka formasidagi yubka va h.k. ko‘rinishida bo‘lgan. Kotning bichimi odatda beldan ajratilib, ko‘krakda yopishib turuvchi, keng va katta burmali yubkadan iborat. Lif old tomondan kvadrat, orqadan uzaytirilgan dekolteli.

Yenglar xuddi erkaklarniki singari ko‘ylakka turli uslubda biriktirilgan (8-rasm, Botticelli, «Ayol portreti»). Ular o‘zining shakli, buflari, nozik bezaklari bilan libosning go‘zalligini ta’kidlab turgan.



8-rasm

Ayollar ust kiyimi simara 3 qismdan: uzaytirilgan keng yeng, bo'yin o'mizida taxlamalar bilan boyitilgan orqa qism, va biroz kaltaroq old qismlardan iborat. Simaraning yon choklari tikilmas, faqat old tomondan belda belbog' bilan mahkamlanardi. Bu kabi bichim simarani turli ko'rinishlarda burmalashga imkon berardi (9-rasm).



*9-rasm*

Ayollar duxobadan tikilgan ko'yak kiyishardi. Bel chizig'i ko'krakdan biroz pastroqda bo'lib, yubkalari uzun shleyfli bo'lgan.

Lifning yoqa o'mizi old tomondan - to'rtburchak shaklida, orqa tomondan esa uchburchak shaklda bo'lgan. Bundan maqsad bo'yinni uzunroq ko'rsatish edi. Ko'pincha, ustki ko'yak lifining oldi qirqilib shnurovka qilingan. Yenglari esa xuddi erkaklar libosi kabi turli usullarda kiyimga ulanar edi. Bu davr Florensiya ko'yagli oval yoki uchburchak shaklga kiradi. Yubkaning kengligi bo'yga nisbatan olganda 1:2, lifning uzunligi yubka uzunligining 1:3,3 hajmida. Siluetning chiziqlari yumshoq va aylana shaklida.

XVI asr venetsiyalik ayol libosida o'sha davr estetik go'zallik ideali bo'l mish dabdabaga erishish, shakllar bezakdorligi, hashamatliligin kuzatish mumkin.

Dabdaba va hashamatni lifning keng yoriqlari, keng burmali yenglar va hashamatli yubkalarda ko‘rish mumkin. Bel chizig‘i tabiiy o‘rnida ta’kidlanadi (10-rasm. Titsian, “Oq libosdagi ayol portreti”).

Ustki kiyimlarda ostidan bufirlangan uzun yengli ichki kiyimlar ko‘rinib turadigan keng va kalta yengli liboslar paydo bo‘ldi. Ular ham shaklan qomatga yopishib turadigan, beldan ajragan. Duxoba yoki parchadan burmalanadigan og‘ir yubkalar paydo bo‘ldi. Tolalarining orasi ochiq to‘qilgan mato turi paydo bo‘ldiki, uning orasidan oppoq, yupqa burmalab tikilgan ko‘ylaklar ko‘rinib turardi.

10-rasm

Qizil, yashil, ko‘k rangli og‘ir shoyi matolar bilan tilla rang parchalar uyg‘unligidagi, oppoq ko‘ylaklar bu davr Italiya libosining go‘zal tasviriy yechimini yaratadi.

Venetsiyalik ayolning hashamatli tasviriy yechimini juda baland (55 sm. gacha bo‘lgan) yog‘och poshnali jimjimador poyabzal to‘ldirgan. Yog‘och poshnali poyabzalning ust qismi saxtiyon terisi (safyan), shoyi yoki bezaklangan duxobadan tayyorlangan.

Italiyalik ayollar bosh kiyimi - chepetslar, yengil shlyapalar, sallalar (tyurban).

Soch turmamlari - tekis, past bo‘lib, ular marvarid va durlar, vuallar, lentalar, gullar bilan bezatilgan.

Yoqalar, qo‘lqoplar, belbog‘lar, paypoqlarni bezashda to‘rlardan foydalanilgan. Kiyimlarda yangi ko‘rinishdagi qo‘sishimcha predmetlar paydo bo‘la boshladи. Xususan, lentalar, shokilalar, turli xildagi bezaklar bilan bezalgan mo‘ynadan qilingan shoyi mufta shunday buyumlar sirasiga kiradi.



## ISPAN LIBOSI

Ispan libosi shakllariga ham XV-XVI asr Ispaniya san'ati va madaniyatining barcha turlariga bo'lgani kabi ko'pgina tarixiy va ijtimoiy faktorlar ta'sir ko'rsatgan. Ularning asosiyilari - jangovar ritstar ideali, ispan qiroli saroyidagi qat'iy etiket va katolik cherkovining qoidalaridir. Aynan ushbu faktorlar ispan libosining estetikasidagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu bir tomondan Renessansga xos bo'lgan tabiiy formalar va figuralar proporsiyasini bildirish bo'lsa, ikkinchi tomondan - tanani berkitish, ya'ni badanni ko'rsatib yurishni ma'n qilish edi. Ispan libosida Yevropa libosida ilk bora karkaslar qo'llangan.

Erkaklar libosida bu – paxta, qipiqlik, ot yolidan qavilgan taxlamali astarlardan iborat. Ular deyarli barcha ust kiyimlar ostida qo'llanilgan.

Ayollar libosida esa korsetlar paydo bo'ldi. Korsetlar - tol navdalaridan yoki metall setkalardan usti va ostidan paxta bilan qoplanib, mato bilan sidirilib, qavib yasalgan. Ot yolidan qilingan ushbu astar ayol ko'kraklarining tabiiy bo'rtmasini yopib turishga xizmat qilgan. Shu bilan birga korsetga mahkamlangan ingichka yog'och yoki metalldan qilingan plastinka yordamida ayollar qorniga shakl berilib, belning tor ko'rinishga erishilardi. Ayollar gavdasining past qismini voronka shaklidagi ikkinchi metal konus yubka – tortilgan vertyugaden yopardi. Ayollar va erkaklar libosidagi yelka chokiga yopishtirilib, yenglar ustiga o'rnatilgan valiklar yordamida yelka kengaytirib ko'rsatilardi. Futlyar (g'ilof) shaklidagi, harakatlarni, xususan, boshni aylanishini cheklovchi va shu bilan birga doim tik tutishga imkon yaratuvchi karkasli libosning bo'yin qismiga brijji yoqa o'rnatilgan edi. Ispan libosida erkaklarning uzun ko'ylaklari butunlay yo'qolib (faqat formalarda saqlanib qoldi), ayollar va erkaklar libosi o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'ldi.

**Mato, rang, bezak.** Ispan libosida naqshli matolar (to'qilgan, kashtalangan, bositgan) keng tarqalgan. Hayvon tasviri tushirilgan katta medalon-kleyma tasviri matolar uchun xarakterli. Naqshlarda ko'pincha oltin va kumush ranglar ishlatilgan. Naqshli matolar

parcha lentalar, oltin tasmalar, to‘qima to‘rlar (krujeva) bilan bezatilgan.

XVI asr oxirida liboslarda to‘q ranglar, xususan, kulrang, qizil, binafsharang, yashil, jigarrang urf bo‘ldi. Qora rang liboslarda motam rangi bo‘may qoldi.

**Erkaklar libosi.** Ko‘ylak, kolet, ishtonlar, ustki kiyim ispan erkaklar libosining asosiy qismlari edi.

Yopiq kolet ostidagi ko‘ylak libosda asosiy bezak rolini o‘ynamas edi. Bu vazifani brijja yoqa, batist yoki polotnodan qilingan, to‘rlar bilan bezaklangan baland manjetlar bajarardi.

Kolet – belgacha yoki bo‘ksagacha bo‘lgan, yopishib turadigan, oldidan tugmalanadigan, qirqma baskali, tik turuvchi yoqali kalta libos bo‘lib, uning yenglari - tor va uzun (1-rasm). Koletning yelkasi va yengi o‘rtasida valiklari mavjud. Koletlar qattiq astar bilan qavilgan (1-rasm). XVI asr oxirlarida «g‘ozsimon» deb nomlangan koletlar - panseronlar paydo bo‘ldi. Panseron – pastki, ya’ni qoringa tushgan old qismiga ot yollari bilan mahkamlanib tikilgan (2-rasm).

Ishtonlarga ham ot yollari tikilgan va sharsimon ko‘rinish berilgan. Ular aksar uzunasiga dekorativ matolar bilan bezaklangan. Ular tepa va past qismiga mahkamlanib, butun bo‘y bo‘ylab osilib turgan.

Ustki kiyim sifatida plashlar va italyan simaralariga o‘xhash ropalar qo‘llanilgan.

**Ropa** – tugmalari taqilmaydigan, dekorativ osilib turgan yengli libos. Uni bo‘yin ostidan taqilgan yoki taqilmagan holda kiyishgan (3-rasm).



1-rasm

2-rasm

3-rasm

**Ayollar libosi.** XVI asrda ayollarda ozg'in va tik, adl ayol figurasi ideal qomat hisoblangan.

Yubkalar kengligining bo'yga nisbatani 1:1,5, lifning uzunligi yubka uzunligiga nisbatan 1:2. Bosh figuraga yetti bor taxlanadi. Libosning uchburchak shaklidagi aniq va grafik tashqi chiziqlari figurani qat'iy va mahobatli ko'rsatadi.

Ayollar ko'ylagi erkaklarniki singari ustki ko'y lak ostidan deyarli ko'rinnagan. Brijj yoqalar maxsus ko'rinishga ega bo'lgan. Ular Styuart yoqasi deb atalgan. Styuart yoqa – to'liq aylana shaklida emas, balki old tarafdan ochiq, bo'yinni ko'rsatib turuvchi yoqa bo'lgan. Lekin yopiq formadagi, turli kenglikdagi va turlichay taxlangan (drapirovkalangan) brijjlar ham qo'llangan.

XVII asrlar boshlarida brijjlar katta tik turuvchi yelpig'ichsimon Medichi yoqalari ko'rinishini oldi.

Ispan ayoli ko'ylagi beldan ajralgan korsetdagi yopiq lifdan iborat edi. Lif old tomondan uzun o'tkir burchak bilan tugallanardi. Uning bichig'i birmuncha murakkab, ya'ni old qismi kesilgan bo'laklar va vitachkalardan iborat edi. Ko'krakning tabiiy chizig'i paxta yoki yoldan qilingan astarlar yordamida qotirilgan.

Liboslar ko'krak oldida oltin tasmali setkalar va marjonli iplar bilan bezatilgan. (4-rasm).



4-rasm

Yenglar turli ko'rinishga ega. Ular orasida torva uzun (tirsakkacha); ikki qavatli, ya'ni ustki qismi boshqa matodan, osti boshqa matodan, uzunligi bo'ylab qirqilib, kesimlar hosil qilingan va pastga qarab kengaytirilgan (5-rasm).

Ko'yak lifiga voronkasimon ikkita vertyugadenli yubka ulangan. Ustkisi oldidan uchbur-chak yiriqli, yoki tasma va bantlar bilan qadaladigan bo'lgan.

Bezakning bunday usuli ayollar libosini modellashtirishda XVII asrda ham saqlab qolindi va takomillashtirildi.

Ustki ko'yaklarning asosiy ko'rinishlari ropalar, plashlar, mantilyelar bo'lgan. *Ropa* – yaxlit bichilgan yengsiz yoki bufirlangan kalta yengli ko'yak. Odatda uning oldini ochib kiyishgan yoki bo'yin ostidan taqilgan turi ham bo'lgan (6-rasm).

*Mantilya* – yupqa qora yoki oq mato, ba'zan to'rdan qilingan yopinchiq (7-rasm).



5-rasm



6-rasm



7-rasm

Ispaniya ayollar va erkaklar libosida osma taqinchoqlardan keng qo'llanilgan. Ular orasida durli marjonlar, zargarlik belbog'lari, ziraklar, uzuklar, zanjirlar, kameyalar keng urf bo'lgan.

## G'ARBIY YEVROPA LIBOSI. XV-XVI ASRLAR

Uyg'onish davrida Fransiya, Germaniya, Angliya singari G'arbiy Yevropa man'lakatlari liboslari dastlab Italiya ta'sirida, keyinchalik Ispaniya ta'siri ostida rivojlandi. Lekin milliy rivojida o'ziga xos belgilari ham yo'q emas edi.

**Erkaklar libosi.** Erkaklar libosining asosiy qismlari xuddi italyan va ispanlarniki singari edi. Lekin uning siluetida hajmni kattalashtirishga xizmat qilgan qator gorizontal chiziqlar yanada yorqin ko'zga tashlandi.

Liboslarda yiriqlarga haddan ziyod katta e'tibor qaratilgan. Natijada, koletlar, ishtonlar, bosh kiyimlar, poyabzallar, qo'lqoplar ham yiriqlar bilan bezaklangan (1-rasm).



1-rasm

] Matolardagi kesiklar landsknextlar – yollanma harbiylar libosidan kirib kelgan. Ma'lumki, harbiylar kiyimlaridagi yelka, tirsak va tizza bukmalarning o'rni harakatlar qulay bo'lishi uchun kesilgan. Bu kabi dekorativ bezakka bo'lgan qiziqish G'arbiy Yevropa libosida, ayniqsa, Germaniya libosida juda tez tarqaldi. 5-8 santimetr uzunlikda bo'lgan kesiklar oval, yurak, uchburchak, romb shaklda bo'lgan va ular butun mato bo'ylab vertikal yoki diagonal tarzda joylashgan. Astarli matolar ham yiriqli, turli kattalikda va shakldagi buflarni tashkil etgan holda ishlab chiqarilgan. XVI asr o'rtalaridan boshlab, astarli matolarga uzun laxtaklar tikib

qo‘yiladigan bo‘ldiki, buning natijasida kiyimning butun bo‘yicha ular bezak bo‘lib osilib turadigan bo‘ldi. Kiyimlarda turli kesiklardan va katta bezaklardan keng foydalanilgani sababli sidirg‘a, bir rangdagi matolar: baxmal, atlas, movut urf bo‘lgan. Ranglar jilosи turli-tuman va yorqin bo‘lgan.



2-rasm

XVI asr boshlariga borib erkaklar paypoq ishtonlar ustidan kalta bo‘ksa ishtonlar kiya boshlashgan.

Paypoq ishtonlar tizza tepasidan kesilib, yuqori ishtonga tortilar va bezak lentalar – bog‘ichlar bilan bog‘lanardi. Erkaklar ustki kiyimi – tugmalari qadalmaydigan, kengaytirilgan siluetli, astarsiz shaube (2-rasm) hamda plash bo‘lgan. Libosni yassi bosh kiyimlar, keng tumshuqli, ya’ni “sigir tumshuqli” poyabzal to‘ldirgan.

Bezaklardan nafaqt ayollar, shuningdek, erkaklar libosida ham keng foydalanilgan. Ular orasida bir necha qatordan iborat bo‘lgan bo‘yinga taqiladigan taqinchoqlar, bilaguzuklar, zanjirlar, uzuklar, ziraklarni sanab o‘tish mumkin.

XVI asr fransuz saroy libosining ba’zi qismlarida ayollar libosining elementlarini o‘zlashtirish kuzatiladi: sochlар ko‘krakda to‘lqinlanadi, ko‘krakni ochish, sochlarni jingalak qilish, ziraklar

taqish, ayollar bosh kiyimlari va muftalar kiyish va shu kabilar keng urf bo'lgan.

**Ayollar libosi.** G'arbiy Yevropa ayollar libosi ham avval Italiya, keyinchalik Ispaniya ta'siri ostida rivojlandi. Ammo Fransiyada ayollar go'zalligi o'zgacha tushunilgan.

Italyanlarning to'laligi, ispanlarning qotma va chayirligi fransuz ayollarining nazokatli didini qondirmagan.

Karkas libosning piramidasimon shaklidan foydalangan holda, ular o'zlarining proporsiyalari va ranglar jilosini yaratganlar. Vertyugaden shakli Ispanyaniki singari voronkasimon emas, balki barabansimon, silindrsimon bo'lib, yubkalar esa ispanlarnikidan farqli o'laroq, zikh burma qilingan. Yubkaning uzunligi ispanlarnikidan kaltaroq, ya'ni to'piqqacha bo'lgan. Dekolte o'yig'i renessansga xos keng va chuqur qirqim shaklida bo'lib, u vstavka (qo'shimcha) va qattiq yelpig'ichsimon to'rli yoqa bilan bezalgan (3-rasm).

3-rasm



Germaniya ayollar libosida g - simon gotik siluet uzoq vaqt saqlanib qoldi (4-rasm). Biroq karkas asos saqlanmagan. Kiyim kengligini mutanosiblashda bu davrga xos xarakterli belgi gorizontallikka intilish yo'q. Angliya ayollar libosida ispan va fransuz ta'siri juda kuchli bo'lgan (5-rasm).



4-rasm



5-rasm

## **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Gumanizm - har tomonlama yetuk inson haqidagi yangi tushuncha ekanligini tushuntirib bering.
2. Uyg'onish davri Italiya erkaklar va ayollar libosi qanday ko'inishga ega bo'lgan?
3. Uyg'onish davri liboslariga qanday matolar, ranglar va bezaklar yechimi qo'llanilgan?
4. Uyg'onish davri Fransiya erkaklar va ayollar libosiga ta'rif bering, ular kiyimlarining o'zgarishiga qaysi davlatning ta'siri kuzatiladi?
5. Uyg'onish davri Ispaniya erkaklar va ayollar libosi haqida so'zlab bering, ular qanday ko'inishga ega bo'lgan?
6. Germaniya va Angliya erkaklar va ayollar libosiga ta'rif bering, ularning orasidagi farq nimalarda ko'zga tashlanadi?

## XVII ASR LIBOSI

XVII asr ziddiyatlар va kurashlarga to‘la o‘tish davri bo‘lib, tarixda Yevropa feodalizmini tugallab, yangi kapitalistik munosabatlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Yevropa qit’asida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy hayotda dinning hukmronligiga qarshi harakatlar boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Gollandiya Yevropaning eng yirik mustamlaka va savdo davlati bo‘lgan bo‘lsa-da, biroq XVII asr oxirlarida u o‘z o‘rnini Angliya va Fransiyaga bo‘shatib berdi. Chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglik Ispaniya va Italiyani qamrab oldi.

Ilm-fan taraqqiyoti, jug‘rofiy kashfiyotlar, yangi qit’alarning kashf etilishi, dengiz yo‘llarining o‘zlashtirilishi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning jadallahuviga keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu holat jahon xalqlari ijtimoiy hayotining faollashuviga olib keldi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot birmuncha tezlashdi.

XVII asr badiiy madaniyati Italiya, Ispaniya, Fransiya, Gollandiya davlatlarida milliy badiiy maktablarning ochilishi va ularning gullab-yashnashi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga bu davr san’atidagi uyg‘onish davridan keyingi, umumiy badiiy uslub barokko uslubi bilan ham xarakterlidir (barokko – italyancha – g‘alati, serhasham ma’nolarini anglatadi).

Barokko uslubi XVI asr oxirida Italiyada paydo bo‘lgan va Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarining me’morlik, rassomlik, amaliy-bezak san’atida keng tarqalgan.

Barokkoda yaxlitlik, cheksizlik va dunyoning doimiy o‘zgaruvchanligi, uning dramatik murakkabligi haqida yangi fikrlar paydo bo‘ldi. Unga zamin va samoning, borliq va xayolot, ruh va tana, nazokat va qo‘pollik, aslzodalik va xalqchillikni qarama-qarshi qo‘yish xosdir. Aynan mana shu qarama-qarshiliklar zaminida taraqqiyot, ehtiros, nur va soya kontrasti, material va fakturalarning masshtabliligi, ritmi, mahobati, bezagi, namoyishi, hashami dunyoga kelardi.

XVII asr saroy maishiy hayotining tuzilishi, insonlar libosi va tashqi qiyofasiga barokko uslubi bilan birga klassizm badiiy

yo'nalishi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asosiy qoidalari go'zallik, haqiqat, tafakkur, aql va hissiyotning uyg'unligi, qonuniyat, mantiqiy aniqlikni bir-biri bilan bog'lar edi. Bu san'atda shakl va chiziqlar geometriyasida, kengliklar aniqligida, libosda karkas shakllarining galdeg'i mukammalashuvida, inson tanasining me'yoriy qoliplarga moslashuvi, konstruksiyalarning aniqligi va maqsadliligidagi ko'zga tashlanadi.

Klassitsizmning ta'siri uning vatani Fransiya va Angliyada ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanadi. Me'morlik singari tasviriy san'atda ham borokko va klassitsizm elementlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lsa-da, ular XVII asr libosida mushtaraklikda namoyon bo'ldi.

XVII asrdagi yorqin me'moriy haykallar, ko'zgu devorlar bilan bezalgan dabdabali saroylar, villalar, cherkovlar, og'ir va mahobatli, qizil va qora daraxtdan yasalgan, kumush va bronza bilan naqshlangan mebellar, inson libosi, o'zini tutishi, qiyofasi bilan birqalikda aniq bir makonni yaratish va shu bilan birqalikda insonni yaxlit bir ko'rinishini namoyon etar edi.

**Go'zallikning estetik ideali.** Bu davr erkaklar libosida katta o'zgarish sodir bo'ldi. Bunga asosiy sabab ushbu davrga qadar alohida e'tirof etib kelingan ritsarlikka xos qahramonlik o'z o'mini aristokratlikka bo'shatib bergenida edi. Ritsar erkaklar bu davrga kelib asta-sekin saroy aristokratiga aylandi. Yuqori tabaqa erkaklarini majburiy tarzda raqsga, musiqaga o'rgatish, uning qiyofasiga harakatchanlik (plastiklik), bejirimlikni beradi. XVII asr erkagi nafaqat gavdasi ko'rkam, bahodirona, shu bilan birga, u xonimlar bilan xushmuomalada bo'la olishi kerak.

XVII asrdan boshlab Fransiya Yevropada modani targ'ib etuvchi davlatga aylanadi va bu davlatning ideal erkagi sifatida Lyudovik XIV - «quyosh qiroli» - baland bo'yli, to'g'ri yuz tuzilishli, qalin va uzun oq-malla sochli inson qiyofasi olinadi. Qirol mohir raqqos, chavandoz, kamonchi va ovchi edi.


Ayollarning ideal go'zalligi - viqor, dabdabalilik, yoqimlilik. Ayollar qomatida baland bo'y, "oqqush bo'yin", orqaga tashlangan yelkalar, ingichka bel, keng bo'ksa, to'lqinsimon uzun soch e'tirof etilgan.

**Matolar, rang, bezak.** XVII asrga kelib matolar sanoatlashgan holda ishlab chiqarila boshladi. Bu ularning tola tarkibi, bezak usuli, fakturasi hamda bezakdorligida qator o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Fransiya va Italiyada shoyi va jun matolar, Angliya, Gollandiya, Germaniya va Shvetsariyada bosma matolar ishlab chiqarish keng taraqqiy etdi. Ranglarni qo'llashda yorqin, toza ranglar bilan birga, birmuncha nozik yarim tonli ranglar – kulrang, oq, qora ranglarga e'tibor kuchaydi. Aynan mana shu ranglar yordamida liboslardagi ranglar keskinligiga (kontrastiga) erishildi. XVII asrga kelib, fransuz qiroli Genrix IV qora rangni motam ramzi sifatida e'tirof etdi.

Matolar bezagida oltin va kumush tolali bezash ya'ni *shan-jan* muhim rol o'ynagan. Renessans davri libosi g'ayriodatiylik, kesiklar rang-barangiligi bilan xarakterlangan bo'lsa, XVII asrga kelib, matoning o'zidan chiqarilgan bo'rtma bezaklar bilan xarakterlidir. Bular lentalar jamlamasи, temsilar, pirpiraklar, buflar, galunlar, shnurlar, oltin va kumush iplar bilan bezash kabilar. Shu sababli bu davrda tekis va yupqa matolar: atlas, movut, tafta, gaz, yupqa jun matolar urf bo'lган.

Mato bezagi ya'ni ornamenti barokko uslubi ta'siri ostida bo'lган. O'sha davr matolarining asosiy bezaklari: ajoyib dekorativ gullar, yirik naqshli jingalaklar, aiyqtovon barglari, anor va uzum mevalar tasviri, rombsimon to'r rozetkalar (trelyaj deb atalgan) (1-rasm).



1-rasm

Matodagi rasmlar kompozitsiyasida savatchalar, guldonlar, bog'me'morligi elementlari ham paydo bo'ldi. Matodagi naqshlar hajmi ba'zan yarim metrgacha borardi.

Asr oxiriga kelib yo'l-yo'l va katak matolar paydo bo'ldi. To'r, gipyur, to'qilgan va bosilgan matolarni eslatuvchi naqshli to'qimalar keng tarqalgan. Ular yoqalar, manjetlar, fartuklarni hatto paypoqlar va poyabzalni ham bezagan.

XVI asrda Ispaniyada paydo bo'lgan karkasli libos Yevropa libosida XVII asrga qadar saqlandi. Biroq boshqa vositalar proporsiya va masshtabni yangi sxemalar asosida yaratishga imkon yaratdi. Libos tarkibidan qattiq karkas yubka chiqib ketdi. Shuningdek, erkaklar libosidagi kulguli astar qism olib tashlandi. Uning chiziqlari deyarli tabiiy, harakatlar uchun qulayligi, shaklining bezakdorligi bilan xarakterlanadi.

Matolar, to'rlar, lentalar, va boshqa bezaklarning ko'pligi liboslar bezagi uning konstruktiv yechimi ustidan hukmronligiga sabab bo'ldi. Shunday bo'lishiga qaramay, asming birinchi yarmida liboslar konstruksiyasi va bezagi ajralib turadi. Modelyerlar va tikuvchilar tanaga ma'lum bir sxematik shakllar berish uchun juda aniq va oqilona konstruktiv yechimlar taklif etib, ularni amalga oshiradilar.

Xususan, ayollar libosida kompozitsion chiziqlar yordamida belning juda nozik, yelkaning tor ko'rinishi tasavvurini uyg'otishga erishildi. Korset yordamida tortib qo'yilgan tors, shishirilgan keng yubka va balon shaklidagi yenglar bilan kontrastga kirishadi. Yelkaning orqa qismidagi relyef liniyalari ushbu tasavvurni yanada kuchaytiradi (2-rasm).



2-rasm

## FRANSIYA LIBOSI

**Erkaklar libosi.** Bu davr erkaklar kiygan liboslarning assosiylari XVI asrda paydo bo'lgan deb hisoblash mumkin. Bular - ko'yjak, ishtonlar, kurtka, ust kiyim, bosh kiyimlar, poyabzal, ich kiyim. Kiyimlar formasi, shakli, ba'zi qismlari davr davomida bir necha marta o'zgargan. Asr boshida erkaklar ko'ylagi ichki kiyim va ustki kiyimning bir qismi vazifasini bajargan. Asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'yjaklar turi ko'paydi, oq yupqa matodan tikilgan tor ichki ko'yjak va xuddi shu matodan tikilgan ustki keng ko'yjaklar paydo bo'ldi. Libosning dekorativ bezagida bu muhim rol o'ynadi, ya'ni yenglarning kesimlaridan ichki ko'yjak ko'rinish turar edi. Uning manjetlari va yoqalari gofrelangan to'rlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, butunlay to'rdan qilingan yoki chetlari to'r bilan bezalgan batist katta qoplama yoqalar bashang hisoblangan. Libos tarixida ular Van Deyk yoqasi deb ataladi, chunki Van Deyk portretlarining aksariyat qismi libosning bu ifodali detali bilan chizilgan (1-rasm).



*1-rasm*

Kamzol kalta qaytarma yoqali koletga aylandi. Tashlab yuriladigan kiyimlarning o'rniga kalta, mo'yna bilan sirlangan tik yoqali plash kiyish odat tusiga kirdi. Koletlar shakl va bezagiga ko'ra turli-tumandir. Asr boshida - koletlar kalta, tanaga yopishib

turadigan mayin shakkarda, past tomonga qarab kengaytirilgan. Yuqoridan ular bir nechta tugmalar bilan qadalgan. Koletning old tomoni etaklari pastga tomonga borib ajraladi. Koletlar bortlar va o'miz bo'y lab tugmalar, bantlar bilan, yenglarda esa bo'y lama kesiklar bilan bezalgan. Koletning old o'mizi uchburchak shaklini olib, keng yenglari qavilib, manjetli qilindi. Uni pantalonlar bilan kiyishgan.

**Patalon** – uzunligi boldirgacha bo'lgan tor tekis ishton bo'lib, uni yon choklari bo'y lab kashtado'zlik bilan, past qismini esa to'r burmali qo'shetaklar bilan yoki tasmali choklar bilan bezalgan (2-rasm). Patalonlar ostidan tor paypoq-ishton kiyilgan.

XVII asr erkaklar libosi harbiylashtirish ta'siri ostida bo'ldi. Qirolning sodiq askari – mushketyor – davrning ideal qahramoni timsoli edi. Liboslar XVII asr davomida harbiylardan qaddi rostlik, xushbichimilikni meros qilib oldi (3-rasm). Biroq 50–70-yillarda bu timsol erkaklarning yangi estetik ideali qarshisida bir muncha chekindi. Yangi estetik ideal – yosh qiroq Lyudovik XIVga taqlid – ya'ni go'daklik timsolidir.



2-rasm



3-rasm

Bu davr libosi to'rlar, bantlar bilan boy bezatilgan ko'y lak, yengi tirsakkacha bo'lgan kalta kurtka - vesta va rengrav-ishtondan iborat bo'lgan. Vesta pirpiraklar, lentalardan qilingan kantlar, temsalar,

ryushlar, to'rlar bilan boy bezatilgan. Vestaning etaklari va ishtonning belbog'i o'rtasidan keng ko'ylakning gafre, burmali pirpiraklari ko'zga tashlanib turgan. Rengrav-ishton – ikki qavatli yubka-ishtondir. Bunda sharovar – keng ishton ustidan kiyilgan taxlama (skladka)li yubkadir (4-rasm). Sharvarning belbog'i, yon choklari tesma, bant, pirpirak, to'r singari bezaklar bilan bezaklangan.



*4-rasm*

Asr oxiriga kelib yangi saroy kiyimi – jyustokor paydo bo'ldi. Jyustokor – harbiylar kiyimi formasidan olinganini atamaning o'zidan ham bilish mumkin. Jyustokor qirol va yuqori tabaqa vakillari kiyimi bo'lib, bu kiyim bel chizig'idan sharf-belbog'dan pastga qarab kengaytirilgan, mayda tugmachalar va petlyalar bilan qadaladigan tor, tizzagacha bo'lgan uzunlikdagi kiyim turidir. Yenglarining yuqori qismi tor bo'lib, u pastga qarab kengaytirilgan va keng qaytarma manjetga ega. Ranglar yechimi yorqin va jilvador, oltin va kumush bilan kashtalangan. Jyustokor yoqasiz bo'lib, uning o'rnini oq matodan uchlariga to'r o'rmatilgan galstuk egallagan. Jestokorda dastlabki kesma cho'ntaklar paydo bo'ldi. Ular pastda joylashgan. Uning tagidan kamzol – yengsiz va yoqasiz, jyustokor bilan bir xil bichimdagi kiyim kiyishgan. Kamzol jyustokordan 10-15 santimetrikalda bo'lib, ularning ranglari bir-biriga kontrast qilib tanlangan.

Erkak kishiga qat'iylik, xushmuomalalik, kelishgan qomat, plastikani qaytarib bergen jyustokor bilan birga duxoba, shoyi, jun matolardan kyulotlar kiyishgan. Bu tizzagacha uzunlikdagi, yonlarida kesmasi bor va tugma yoki to'qa bilan qadaladigan tor ishton. Kyulotlar ko'p hollarda jyustokor bilan bir xil rangda bo'lган. Shuningdek, kyulotlarga o'yma cho'ntaklar ham qilingan.

Kostyumlarning rangi faqat och tonlarda - pushti, zangori kabi ranglarda bo'lган. XV asr oxiriga kelib, qiroq Genrixning qaroriga ko'ra, dvoryanlar kiyimi to'q, odmi, biroq shu bilan birga qimmatbaho va nozik bo'lishiga e'tibor qaratildi. Natijada, koletlar kengaydi, plashchlarni ko'pincha bir yelkaga tashlab yurish urf bo'ldi.

Erkaklar libosini oq, havorang, qizil rangdagi, gul yoki naqsh bilan kashtalangan shoyi yoki junli paypoqlar to'ldirgan.

Poyabzallar qatoriga qaytarmali etiklar, shuningdek, bantli, to'qimli, rozetkali, to'rtburchak uchli va remenli yarim yopiq tuflilar kirgan. Yog'in-sochinli havoda ustidan orqa qismi ochiq charm, yog'och tagli oyoq kiyimlar kiyilgan. Ular bugungi kundagi kalishlar bajargan vazifani bajargan. Bu davrda, shuningdek, erkaklarning qizil rangdagi baland poshnali oyoq kiyimlari ham paydo bo'lган.

Bosh kiyimlar – yumshoq keng soyabonli, oq tuyaqush pati bilan bezalgan shlyapalar – asta-sekin uchburchak shaklga kira boshlagan.

XVI asr oxiri, XVII asr boshlariga kelib soch turmaklarida orqaga silliq taralgan sochlar urf bo'lган bo'lib, qirolning sochi erta oqargani bois chekkalarni upalash urfga kirgan bo'lsa, asr oxiriga kelib esa arslon yollarini eslatuvchi to'q sariq rangli bahaybat pariklar urfga kirgan.

Yuzlar - soqol olingan yoki kichkina mo'ylovlar va ponasimon soqolchalar urf bo'lган.

Burjua, shaharliklar, hunarmandlar va dehqonlar kiyimi dvoryanlarnikidan shaklining qulayligi, ranglarning to'qligi va xiraligi, matoning sifati va narxi bilan ajralib turgan. Liboslarning fasonlari deyarli bir-biridan farqlanmaydi.

**Ayollar libosi.** Asr davomida ayollar libosi asosida bir necha bor formasi o'zgargan metall plastinkali suyakli korsetlar yotadi. Asr

boshida - kalta yarim qattiq korsetlar, asr o‘rtalarida va ayniqsa, oxirida belni qattiq siqib turuvchi va ko‘krakni ko‘tarib turuvchi uzun korsetlar urf bo‘lgan. Korset formasi asrlar davomida o‘zgarib turgan. U modani aks ettirgan. Ko‘ylaklarning etak qismi qattiq karkasda bo‘lmasa-da, lekin pastki qismi kraxmallangan va bir necha ustki yubkalar hisobiga keng, shaklan katta bo‘lib qolavergan.

**Ichki ko‘ylak**, ya’ni kott lif yoki korsaj va yubkadan iborat. Old lifi uchburchak shaklidagi o‘yiq ustiga yechib qo‘yish mumkin bo‘lgan kiritma, to‘r bilan bezaklangan keng va past yoqadan iborat. Uzun yenglar yuqori qismining kengligi, shuningdek to‘rlar bilan bezaklangan uzun manjeti bilan ajralib turgan. Ustki ko‘ylak sifatida keng oldi ochiq rob xizmat qilgan. U keng, kalta yengli va bel qismi yuqori bo‘lgan. Ichki va ustki kiyimlarning ranglari kontrast yechimda: biri yorqin, biri to‘qroq rangda hal etilgan (5-rasm).



5-rasm

Asrning ikkinchi yarmida ayollar libosining shakli keskin o‘zgardi. Yenglar kengligini yo‘qotib, kaltalashdi (tirsakkacha). Past qismi esa keng to‘qli pirpiraklar bilan bezaldi (6-rasm. N.Larjilyer: «Elizabet Bogarne portreti».).



*6-rasm*

Bu davr ayollar libosining asosiy ifodali chizig'i - uning ikki qavatli yubkadan iboratligida ko'zga tashlanadi. Kott lifiga odatda ikkita yubka tikilgan: fripon (ichki) va modest (ustki). Modest uchun og'ir naqshlarsiz barxat, parcha, atlas kabi matolar tanlangan. Fripon uchun esa yengil va yupqa matolar: tafta, muar, kamlot tanlangan. Modest old qismida kesmali bo'lган. Kesma chetlari to'rlar, ryushlar va mo'yna bilan bezalgan. Etak qismi esa burmalanib, shnurlar va munchoqlar yordamida lifga qotirilgan. Friponning ochilib qolgan qismi esa ya'ni oldi va past qismi volanlar, bir necha qatorli pirpiraklar , to'rlar, baxrama, shokilalar bilan bezak berilgan (7-rasm).




*7-rasm*

Faqatgina dvoryan ayollarini kiyishi mumkin bo'lgan rob shleyf bilan tikilgan. Rob yubkasi ham beldan burmalanib, pastga tomon oldi ochiq bo'lib, kott yubkasini berkitmay turgan. Yubkalardagi ko'pgina taxlamalar va burmalar bo'ksa chizig'ini bir muncha kattalashtirib, ayollar gavdasining past qismini kengaytirib ko'rsatgan (8-rasm).



*8-rasm*

Dekorativ kosmetikada belila, rumyanadan keng foydalanilgan. Shuningdek, yuzga, bo'yinga, ko'krakka qora shoyi matodan hol qo'yish keng urf bo'lgan. Soch turmamlari turlichalar (9-rasm).



*9-rasm*

Moda olamida yetakchi o'ringa da'vogar Fransiya tom ma'noda Yevropa libosining turlari, konstruktiv va amaliy bezak bichimida yetakchilikni qo'lga oldi va boshqa davlatlar libosiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Biroq shu bilan birga Rubens, A. van Deyk, Rembrandt, Velaskeslarning portretlari niderland, ingliz, golland, ispan liboslari ham o'ziga xos shakli va milliy taraqqiyotining xarakterli belgilari bilan ajralib turganligini ko'rsatadi.

Bu davr moda yaratuvchilari, asosan, fransuz qirollari va uning a'yonlari edi. Odadta noma'lum ijodkorlar va tikuvchilar tomonidan yaratilgan liboslар qirollar va ularning a'yonlariga xos ba'zi bir erkaliklar sabab butun Yevropa bo'ylab tarqalar va juda tez fursatlarda o'zgarardi. Shunday qilib, bir asr davomida aslzodalar libosi 6 marta o'zgardi.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. XVII asr san'atiga qanday badiiy uslub kirib kelgan?
2. "Barokko" uslubining eng xarakterli xususiyatlari haqida gapirib bering.
3. XVII asr Fransiyada erkak libosi qanday ko'rinishga ega bo'lganligini so'zlab bering.
4. Liboslarda ishlatiladigan matolar, rang, bezaklar haqida gapirib bering.
5. XVII asrda ayollar libosiga ta'rif bering, u qanday ko'rinishga ega edi?
6. XVII asrning ikkinchi yarmida erkaklar va ayollar kiyimlarida qanday o'zgarishlar bo'lgan, unga nima sabab bo'lgan?

## XVIII ASR LIBOSI

Agar XVII asr qirollik hokimiyatining gullab-yashnagan va cheksiz imkoniyatlarini mustahkmlagan asr bo‘lgan bo‘lsa, XVIII asr uning tanazzul davri bo‘ldi. Kapitalistik ishlab chiqarishning tasdiqlanishi madaniyat va san’atda yangi shakllarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Burjua madaniyati asoslari paydo bo‘la boshladi. Ular Didro, Volter, Russo singari ma’rifatparvar mafkurasida o‘z ifodasini topdi. Aynan ushbu asrda insonparvar madaniyat tushunchasi iste’molga kirdi. Ziyolilar qatlaming paydo bo‘lishi va ular o‘rtasidagi aloqalar sabab mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar kengaydi. Fan-texnika va ishlab chiqarishdagi taraqqiyot iqtisodiy rivojlanishga turtki berish bilan birga ma’rifatparvarlik bilan uyg‘unlashib, Fransiyani burjua inqilobiga olib keldi. Fransuz inqilobi feodal tuzumga batamom xotima yasab, kapitalistik jimiyatning barpo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

XVIII asrda Yevropa madaniyati poytaxti sifatida avvalgidek Fransiya va Angliya saqlanib qoldi. Fransuz san’ati Ovrupo davlatlari uchun namuna bo‘ldi. Fransuz tili xalqaro til bo‘lib qoldi. Fransuz modasi barcha Ovrupo mamlakatlariga tarqalib, umumiy Ovrupo modasiga aylandi. Angliyaning ta’siri falsafa, iqtisodiy va ijtimoiy nazariya bilan birga san’atda ham ko‘zga tashlandi. Xususan, ingliz libosi “fransuzlashib” barcha Ovrupo mamalkatlariga tarqaldi.

XVIII asr o‘rtalarida san’atda barokko uslubi rivojini to‘xtatgan rokoko uslubi yetakchilik qila boshladi. Rokoko Fransiyada Lyudovik XV hukmronligida paydo bo‘ldi. Ushbu uslub g‘oyaviy tanazzulni boshdan kechirayotgan, ertangi kuniga ishonchi yo‘q yuqori tabaqa aslzodalari didini namoyon etgan.

Rokoko uslubi me’morlik, tasviriy san’at, amaliy san’atda kuzatiladi. Ushbu uslubga chuqur g‘oyaviy mazmun, borliqdan qochib, yengil tasavvurlar, nozik hissiyotlarga berilish, nosimmetrik, va murakkab chiziqlardan iborat shaklning bezakdorligi xos.

Rokoko termini fransuzcha «rokayl-rok» - qoya ma’nosini bildiradi. Dengiz chig‘anog‘lari va dengiz o‘tlari bilan qoplanib, ular bilan birlashib ketgan qoya parchalari singari o‘ziga xos, tartibsiz, to‘satdan paydo bo‘lgan, ajoyib ko‘rinish - rokoko ornamentining

asosi, uning bezagining asosiy motivlaridir. Nozik va hashamdar naqshlar betakror, nozik, yumshoq, yorqin, turfa xil ranglar tuslariga mos tushgan.

Rokoko badiiy uslubi chizgilari XVIII asr fransuz libosida o‘zini yorqin namoyon qilgan. U, shuningdek, avvalambor, inson go‘zalligi haqidagi fikrlarga ham o‘zgarishlar kiritdi.

Sun’iy yaratilgan «bayramona shukuh» dunyosida sun’iylik inson go‘zalligining asosi bo‘ldi. Ayollar va erkaklar qiyofasida real hayotdan uzoq bo‘lgan qo‘g‘irchoq monand, ertakona shartlilik, real hayotiy zamindan uzilgan fantastik belgilari bo‘rtib turgan qiyofaga urg‘u berildi.

Libosda bu obrazni yaratish inson qomati proporsiyalarini buzilishiga, ya’ni yuqori va past qismlar nomutanosibligiga olib keldi. Kichkinagina, nozik bosh, tor yelkalar, ingichka, egiluvchan bel hamda bo‘ksa o‘lchovi va shaklining grotesk darajada kattalashishi ko‘zga tashlanadi. Dekorativ rokokoga qulaylik va amaliylik deyarli xos emas.

Erkak va ayol tashqi belgilaringning yaqinlashuvi, ularning noziklashuvi, qo‘g‘irchoq qiyofa, yosh darajasidagi farqlarning yo‘qolishi (ushbu davrda keksalar ham, yoshlari ham bir xil libos kiya boshlashgan, bir xil kosmetik vositalardan foydalanishgan) oqsuyak yuqori tabaqaning ma’naviy va jisman qayta tug‘ilganligini bildirardi. Ularning bir qator avlodlari mehnatga layoqatsizligi bilan ajralib turadi. Butun kuch tashqi nazokat va turli ko‘ngilochar jihatlarga sarf etildi. Fransuz tasviriy san’atida bu kabi obrazlar bilan Bushe, Vatto, Fragonara portretlari tanishtiradi.

XVIII asr 70-yillarida klassitsizm san’atdagi asosiy yo‘nalish bo‘lib qoldi. O‘zining aniq va yorqin obrazlari, qat’iy geometrik kompozitsiyalarida u yana antik davr ideallariga murojaat etdi. Biroq ushbu davr amaliy bezak san’ati va ayniqsa, 70–80-yillar libosida rokoko uslubining ta’siri butunlay bartaraf etilmadi. Haddan tashqari bezakdorlik, hashamdarlik vaqtı-vaqtı bilan yangi shakkarda o‘zini namoyon etib turdi.


XVIII asr libosida, avvalambor, matolar turi o‘zgardi. Saroy va tantanavor liboslarda qo‘llangan shoyi, baxmal, parcha, atlas matolar o‘rnini yupqa jun matolari, movut va paxta matolar egallay boshladи. Reynolds, Xogart, Geysboro portretlari XVIII asr oxiridagi yangi ideal belgilarini o‘zida namoyon etadi.

**Mato, rang va bezaklar.** XVIII asr libosida, avvalo, matolar turlari o'zgardi. Saroy a'yonlari liboslarida shoyi, baxmal, parcha, atlas singari matolar bilan birga yupqa jun, movut, paxta matolari ham qo'llanila boshladи. Qalinroq paxta matolardan (tik, nanka, kanifas) erkaklar kyuloti, kamzoli va yupqaroqlaridan (muslin, batist) – ayollar yozgi ko'ylagi, yubkalar tikilgan.

Ranglar jilosи – yorqin, yumshоq – yengil pushti, havorang, barikaram, limon rangi, perlamutr. Qora rang motam ma'nosini anglatgan, oq rangdan esa naqshlarga fon, ya'ni asos sifatida foydalanilgan. Libosdagi nozik ranglar yechimi kontrast, ya'ni qarama-qarshi ranglarni birgalikda qo'llashdan iborat uslubni siqb chiqardi.

Asr so'nggiga kelib ranglar gammasi to'qardi, rangsizlashdi. Matolarda jigarrang, kulrangining turli ko'rinishlari (ottenkalari), lavlagi rangi, to'q qizil rang, binafsha rang, to'q zangori, yashil, siyohrang yetakchilik qildi.

Matolar bezagida masofadagi nationalistik uslubdagi gulli naqshlar yetakchilik qiladi. Nastarin, jasmin, olma, olcha gullari, dala gullari butun matoni egallagan bo'lib, ular matodagi turli hoshiyalar, to'rlar, chiziqlar bilan uyg'unlashtirilib joylashtirilgan. Bu uyg'unlik sabab ular o'ziga xos naqshlarni hosil qilar edi (1-rasm). Bu davr matolarida *trelyaj* – mayda o'simliksimon naqshlar hamon urfda saqlanib qoldi.



1-rasm

80-90-yillarga kelib, sidirg'a matolar naqshli matolar o'mini egalladi. Yo'l-yo'l, dog'simon, no'xatgulli matolar urf bo'la boshladi.

**Erkaklar libosi.** XVIII asr fransuz erkaklar libosi ichki kiyim, kamzol, jyustokor va kyulotdan iborat.

Asrning bиринчи yarmida ko'yylaklarning yoqa qismi baland jabo, yeng manjetlari naqshinkor to'rlar bilan bezalgan. Bo'yinbog'lar oq polotno yoki batist matolardan tikilib, bo'yin to'liq qilib bog'langan, uning ustidan *frantlar* – qora shoyi lenta bog'langan. Ular uchun, asosan, yupqa, asosi tyul bo'lgan kam naqshli to'rlardan foydalananilgan.

Jyustokor bel qismida badanga yopishib turuvchi, yelka chizig'lari tor, bo'ksadan etaklari tomon kengaytirilgan erkaklar libosidir (2-rasm). Uning klinlardan iborat past (etak) qismi qattiq movut yoki tukli astardan iborat edi. Yon tomondan va orqa shlitsesiga taxlamalar qilingan.

Libosning barcha detallari naqshlar bilan, metall va asosiga mato o'rالgan tugmalar bilan, chetlari esa festonlar bilan ajratib bezaklangan. Dabdabali va murakkab naqshlar kiyimlarning yon qismiga, yeng manjetlariga va cho'ntaklar klapanlariga joylashtirilar edi. Jyustokor barxat, shoyi, atlas keyinchalik, junli va paxta matolardan tikilgan. 60-yillar boshiga kelib, u oddiy va qat'iy ko'rinishga keladi: ostidan qattiq astar, shlitsalarda taxlamalar, mo'l bezaklar yo'qoladi.

Asr boshidagi kamzol jyustokorninig fasoni va dekorativ chizgilarini, shuningdek, ichki qismdagi astarni to'liq takrorlaydi. Ular rangli shoyi iplar bilan, sinel, steklyarus, payetkalar, oltin va kumush iplar bilan bezak berib tikilar edi, barxatga tyul bilan aplikatsiyalar qilib bezalar edi (2-rasm). Kamzolning jyustokor bilan yopiladigan orqa qismi, odatda arzon matolardan (polotno yoki qalin ip matolardan) tikilardi. XVIII asr davomida kamzol kaltalashdi, 60-yillarga kelib kamzol uzunligi beldan 20 sm. pastga tushadigan darajaga keldi. Uning rangi odatda jyustokor bilan kontrastlangan.



2-rasm

70-yillarda tanaga yopishib turuvchi, kengaygan etakli, tor yeng va uncha katta bo'limgan stoyka, ya'ni tik yoqali frak paydo bo'ldi.

Ushbu libosning keyinchalik baland stoyka (tik) yoqasi bilan almashtirilgan yangi yechimi paydo bo‘ldi. Frak yorqin shoyi va barxat matolar, kashtalar, turli bezaklardan darhol forig‘ bo‘lman. 70–80-yillarda uni kamzol, kyulot, oq paypoq, tagcharmi tekis tuflilar bilan kiyishgan (Rangli ilovaga qaralsin. T.Geynsboro: «Tonggi sayr»).

Ranglar gammasi, asosan, jigarrang, sariq, yashil ranglarning nozik va nim ottenkalaridan iborat bo‘lgan. Odatda erkaklar libosining barcha asosiy qismlari (frak, kamzol va kyulotlar) bir xil rangda bo‘lgan, yoki kamzol va kyulot - sidirg‘a bir rangda, frak - ular bilan uyg‘un rangda bo‘lgan. Ba’zan kamzol oq rangda bo‘lib, rangli ipak bilan naqshlangan.

Asr oxirida bashang fransuz fraki bilan birgalikda ikki bortli, bortlari chuqur o‘yiqli, qaytarma yoqali va katta qaytarmalni kundalik ingliz fraki ham paydo bo‘ldi. Uni jun matodan yoki qalin ip matodan tikishgan. Katta metall, yaltiroq (perlmutr), suyakli tugmalar yoki yoqa, bort va qaytarmalarga tikilgan rangli kantlar uning yagona bezagi bo‘lgan. Uni ham jilet va kyulotlar bilan birgalikda kiyishgan (3-rasm).



3-rasm

Kaltalashtirilgan kamzol o‘zining dekorativ ya’ni xashamdon ko‘rinishini butunlay yo‘qotib, erkaklar libosida qulay, amaliy ahamiyatli jiletga aylandi.

XVIII asrda ustki kiyim formalarining turli xilda bo‘lgani ahamiyatlidir. Bular orasida – qomatga yopishib turuvchi bir yoki ikki qator tugmalni **redingotlar** keng tarqalgan.

Shuningdek, issiq va qulay, mo‘yna bilan bezaklangan, ko‘pincha mo‘ynali astarli **syurtuklar** kiyilgan (4-rasm). Yopinchiplarga kamroq murojaat etilgan.



4-rasm


Erkaklar libosi bezaklarining asosiy ko‘rinishlari – to‘rlar va tugmalardan iborat bo‘lgan. To‘rlar serburma jabo va oq galstulkarda qo‘llangan. Qimmatbahon kandakorlik, o‘ymakorlik bilan

bezaklangan, sirlangan tugmalar frak va kyulotlarni bezagan. Libos bezagi sisatida, shuningdek, to‘qilgan shnurlar yoki zanjirlar bilan kyulotlar belbog‘iga qotirilgan to‘qalar ham qo‘llanilgan.

Bosh kiyimlar - uncha katta bo‘lмаган polyali, oldi tor va yonlari bukilgan shlyapalar. Pariklar yon tarafdan jingalaklanib, orqada o‘rib bant bilan mahkamlangan.

Rokoko uslubining erkak libosiga ta’siri kiyimlarning va ularning yengidagi tor shaklda, siluetning egilgan liniyalarida, yumshoq ranglarida va qimmatbaho bezaklarda ko‘zga tashlanadi. Bu san’atdagi umumiy yo‘nalishga mos edi. To‘g‘ri chiziq unchalik yorqin hisoblanmas va shu sabab qiyshiq, bukilgan, egri yo‘llar bilan almashtirilardi.

**Ayollar libosi.** XVIII asrda ayollar libosiga karkas yubka yana qaytib keldi (5-rasm).



5-rasm

Ushbu *panye* zich yelimlangan to‘qimadan iborat bo‘lib, u kit mo‘ylovi yoki metalldan ishlangan gorizontal obruchlarga mahkamlangan. Panye tugmalar yordamida qattiq korsetga biriktirilgan. Korset orqa tomondan qattiq, ya’ni tortib bog‘lab qo‘yilgan. Asrning ikkinchi yarimiga borib, panye ikki etakli, har bir etagi bo‘ksaning bir tomoni uchun mo‘ljallangan va temsalar bilan biriktirilgan alohida-alohida fijmalar bilan almashtiriladi. Mana shunday asos ayollar libosi siluetini uchburchak shakliga kiritdi. Bunda yubkaning kengligi bo‘yga nisbatan 1 : 1,2 nisbatda; boshning nisbati bo‘yga nisbatan 1 : 5; yelkalarning kengligi yubkaning kengligiga 1 : 5,5; lifning uzunligi yubkaning uzunlikka 1 : 2,5 nisbatda olingan.

Asr boshiga kelib, mana shu karkas asosida ayollarning yangi libcsi – *kuntush* yoki Vatto skladkali ko‘ylak paydo bo‘ldi. Bu yengil bichimli, tor yelkali, beldan pastga qarab keng karkas asosida

kengaygan ko‘ylak bo‘lib, uning go‘zalligi orqa qismidagi butun bo‘y bo‘ylab tushgan katta skladkalarida edi (6-rasm).

Yaxshi drapirovkalananadigan va chiroyli tasvirli matolar (shoyi, barxat), ayniqsa, urf bo‘lgan.

Kontush old tomonidan ko‘krak va bo‘yinni katta ochib turgan. Tor yenglar tirsakka qarab kengaygan va pastdan bir necha qator ko‘rkam, jimjimador to‘rlar bilan bezatilgan. Libosni naqshli och rangli shoyi paypoqlar, baland, bukilgan poshnali tuflilar to‘ldirib turar edi. Ko‘krakka qadalgan sun’iy gullardan yasalgan buket, zanjirli brelok-soat, to‘rli ryush - bular juda keng tarqalgan bezaklar edi.



6-rasm

Ayollar libosining keyingi rivojlanish bosqichi uni ikki uchburchak ya’ni uchlari bel chizig‘ida uchrashgan formasiga qaytardi. Qalin, qattiq, juda ochiq ko‘ylak lifi keng, yon tomonlari juda katta shishirilgan yubka bilan uyg‘unlashdi. Ko‘ylak gafreli pirpiraklar, bantiklar, rozetkalar va sun’iy gullar bilan bezalgan (7-8-rasmlar). Libos tarixida 40-yillardan boshlab katta, keng relyefli dekorlar eng ko‘p tarqalgan davr boshlandi.



7-rasm



8-rasm

70-yillar oxirida Fransiyada ingliz modasi, klassitsizm uslubi keng tarqaladi. Ayollar va erkaklar libosida aralash, eklektik formalar paydo bo‘ladi. Bunga misol, dekorativ rokoko va dabdabani saqlab qolgan «inglizlashgan» ayollar ko‘ylagi, ya’ni **polonez** (9<sup>a</sup>-rasm)ni eslash o‘rinli.



9<sup>a</sup>-rasm

U ichki tor ko‘ylak (lif va yubka) va butun bichimga ega ustki oldi ochiq ko‘ylakdan iborat bo‘lgan. Uni fijma va polison bilan kiyishgan (polison - korsetning pastki va orqa qismiga profilning bukilgan siluetini berish uchun bog‘lanadigan unchalik katta bo‘limgan paxtali yoki junli astar). Ichki ko‘ylak lifi ko‘krak va bo‘ksaga yopishib turadi, tugmalanadi yoki bog‘ichlar yordamida tortib qo‘yiladi. Chuqur va keng dekolte to‘r yoki gafrelangan pirpiraklar bilan bezalgan. Ichki ko‘ylak yubkasi ko‘pincha kalta bo‘lgan va past qismi kantli keng pirpirak bilan bezalgan. Ko‘ylakning yuqori qismi ya’ni lifi ham tor, dekoltevi va ko‘krak chizig‘idan o‘tadi va shu yerda katta bant bilan qotirilgan. Chetlari jimjimador ryushlar bilan bezalgan.

Inglizlarga xos qadrni bilish va viqor (elegantlik) kabi xususiyatlar shu davrga qadar singib ketgan rokoko an‘analari ustidan g‘olib keldi va Fransiya modasida ancha qat’iy, jiddiy va oddiy formalar paydo bo‘ldi. Ular rokokoga yaqin “fransez”ga qarama-qarshi holda “anglez” formasi deb ataldi. Avvalambor, bu formalar panyedan voz kechadi va polison yordamida profilning bukilgan siluetini yaratadi. “Anglez” ko‘ylagi tor lif va burmali to‘g‘ri yubkadan tashkil topgan (9<sup>b</sup>-rasm).



9<sup>b</sup>-rasm

Ayollarning “anglez” libosiga qulaylik, amaliylik, turlarining ko‘pligi xarakterli. Katta bo‘yin o‘mizi ustiga, odatda, ko‘krak usti ro‘moli tashlab yurilgan. Yenglar tor va uzun yoki  $\frac{3}{4}$  uzunlikda unchalik katta bo‘limgan manjetli. Ko‘ylak bilan birga yupqa matodan, bezaklangan fartuk taqishgan. Liboslarning ikki ko‘ylakdan iborat turi ancha hashamdar sanalgan. Bunda ustki ko‘ylak yuqori qismida, ya’ni ko‘krak oldida tugmalangan va uning past qismi etak tomon to‘liq ochiq qolgan. Biroq jimjimador bezak va rokokoga xos katta bezakdorlik o‘z o‘rnini bo‘shatdi, rang va ranglar uyg‘unligi o‘zgardi. Shu bilan birga yangi S – simon siluetda ham o‘zgarish sodir bo‘ldi. Boshning bo‘yga nisbati 1 : 6 ga; yelka etakka nisbatan kengligi 1 : 2; yubkaning kengligi bo‘yga nisbatan 1 : 2 nisbatda. Libosning yuqori va past qislari massasi deyarli tenglashdi. “Anglez” libosi uchun qulaylik, amaliylik, yuqori qism shaklining turli-tumanligi, shu bilan birga erkak kiyimi bichimi, detallari va bezagiga taqlid xos. Ustki ko‘ylak sifatida uzun redingotlar (10-rasm), kaltalashtirilgan kazakinlar (11-rasm), karako, frachkalar kiyilgan.



10-rasm



11-rasm

XVIII asr ayollar soch turmagi va pariklar asri bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmash. Davrning birinchi yarmida soch turmagida uncha katta bo‘limgan ochiq peshonaga buklyali yoki lokonli

turmaklar urf bo‘lgan. 70–80-yillarda soch turmamlari juda murakkab bo‘lib, ular hajman ham kattalashdi (12-rasm).



12-rasm

Asrning birinchi yarmi va o‘rtalarida boshqa davrlarga nisbatan liboslardagi dabdbabali bezaklar va osma zargarlik buyumlari roli ancha pasaydi. Munchoqlar, kulonlar, bilakuzuklar, diadema – tillaqoshlar va hatto ziraklar kiyimdagи zargarlik buyumlari: tugmalar, belbog‘lardagi to‘qalar, to‘g‘nog‘ich va zakolkalar, soch turmagи uchun taroqlar (grebnya), yelpig‘ichlar, bandli ko‘zoynaklar va boshqa qimmatbaho buyumlar libosni to‘Idirish uchun ishlatilgan.

XVIII asr oxirida ayollar poyabzalining turi birmuncha ko‘paygan. Bu davrda ayollar o‘rtasida baland poshnali tuqli urf bo‘lgan. Poyabzal ranglarini tanlashda qat’iy talablar paydo bo‘la boshladi. Qora rangli tuqli tantanavor marosimlarga, jigarrang tuflilar sayr uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, qizil va oq rang amaldor ayollar imtiyozi hisoblangan.

XVIII asr oxirida burjua ishlab chiqarishi vujudga kelgan Angliyada ingliz milliy uslubidagi libos g‘alaba qozondi. Rokokko ham xuddi borokko kabi klassitsizm an‘analari ta’sirida rivojlanayotgan ingliz libosiga ta’sir ko‘rsatmadı. Bu oddiylikka

intilish, amaliylik, qulaylik, shakl va chiziqlarning tabiiyligiga asoslangan edi.

60-yillar erkaklar libosida hayot tarzi va faoliyat turiga mos shakllar paydo bo'ldi. Bu movut yoki jun matolardan tikilgan bezaklarsiz frak bo'lib, uning bichimi o'ta torlikdan ozod bo'lib, tana a'zolarining erkin harakati uchun imkoniyat yaratardi. Unda turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, hatto ov qilish, otda yurish mumkin edi. Frak asosida turli shakldagi ustki kiyimlar paydo bo'ldi. Masalan, redigot avvaliga chavandozlar kiyimi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u kundalik ustki kiyimga aylandi. Kalta jilet bezakli uzun kamzol bilan almashdi. Qalin matodan yoki yupqa charmidan qilingan va tugmachalar bilan qadaladigan getralar amaliylikdan uzoq oq paypoqlarni siqib chiqardi.

70-yillarga kelib fraklar bilan kiyiladigan jokey etiklari urfga kirdi. Bu tor va qo'nji baland, qora teridan qilinib, och jigarrang qaytarmali deyarli tizzagacha etiklardir.

Libosning ingliz burjuasi hayotining ishchan xarakteriga moslashuvi uning figuraning tabiiy proporsiyalarga moslashishiga olib keldi. Bu, ayniqsa, ayollar libosida yaqqol ko'zga tashlanadi. 50-60-yillarda ingliz ayollari sharnirli fijmalarni ixtiro qildilar, uni tirsaklar yordamida qisib yubkaning kengligini tartibga so'a boshladilar. 80-yillarda ular ham yo'qolib, faqat lif qismida karkas qoladi. Ayollar liboslarning lif qismi ancha erkin va yopiq ko'rinishga kela boshladi: dekolte ko'krak ro'mol bilan yopiladigan bo'ldi, tor va uzun yenglar afzal ko'rila boshlandi. Hashamdon bezaklar yo'q, zulfli va jingalak pariklar yo'qoldi, sochlarga upa surtish urfdan chiqdi.

Ranglar gammasi – kulrang, jigarrang, zaytun rangi, binafsha rang. Yozgi kiyimlar, asosan, yengil, yorqin rangdagi, sidirg'a va mayda o'simliksimon naqshli shoyi va ip gazlamalardan tikila boshladi.

Ayollar hayotining oilaviy-maishiy tomonlari sabab ular libosida fartuklar, chepetslar, yelkaga tashlanadigan va ko'krak ro'mollar, past poshnali poyabzal urfga kirdi.

Yangi shakllarni izlash jara'yonida jiddiy, ishchan, qat'iy yo'nalishdagi erkaklar frakini eslatuvchi libos shakllari ustida izlanishlar boshlandi. Inglizlar o'z liboslarida, ayniqsa, erkaklar

libosidagi bichim, qismlar, shakl, bezak elementlari: yoqalar, qaytarmalar, adiplar, petlitsalarni meros qilib oldilar.

Qulayligi, amaliyligi, xushbichimliligi sabab sodda va qat'iy shakldagi ingliz libosi 70-yillarda butun Yevropa e'tiborini o'ziga qaratdi. U barcha G'arbiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Fransiyada ham shahar libosining asosiy turi rolini bajara boshladи.

Ingliz libosining fransuz libosiga ta'siri butun davr davomida, xuddi fransuz libosining ingliz libosiga ta'siri kabi ikki yoqlamadir. Ingliz modasining qat'iy va maqsadga muvofiq chiziqlari davr ruhiga mosdir.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. XVIII asr san'atiga qanday uslub kirib kelgan, unga ta'rif bering.
2. XVIII asr matolarining turlari, rang va bezalish usuli haqida gapirib bering.
3. XVIII asr erkak libosining shakllanishi, undagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering.
4. XVIII asrning birinchi va ikkinchi yarmi ayollar libosiga ta'rif bering. Asrning birinchi va ikkinchi yarmi liboslarning o'xshashlik tomonlari va farqi nimada?
5. XVIII asr ikkinchi yarmida fransuz ayollarning soch turmamlari qanday ko'rinish kasb etgan?
6. XVIII asr oxirida ingliz modasi, klassitsizm uslubining fransuz libosiga ta'siri haqida so'zlab bering.

## **XIX ASR LIBOSI**

1789-yildagi buyuk fransuz inqilobi Fransiyada kapitalistik munosabatlarning feodal munosabatlari ustidan to'la g'alabasiga olib keldi.

Aynan mana shu ideallar liboslarning shakliga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu, ayniqsa, tikuvchilik buyumlari, matolar, bezaklarning soddalashuviga olib keldi. Shoyi, parcha, qimmatbaho to'rlar va bezaklar, karkas asos liboslarni tark etdi.

**Sankyulotlar libosi.** Inqilobchilar – sankyulotlar kiyimida oddiylik, qulaylik, shakllarning aniqligi, lo'ndalikka intilishni ko'rish mumkin. Ularda xalq libosi ta'siri sezilib turadi. Ayniqsa, inqilobiy-vatanpavarlik ruhiga ega bo'lgan ranglar simvolikasi juda ahamiyatli.

Erkaklar libosi oq ko'yvak ustiga kiyilgan kalta kurtka – karma-nola, qizil tasma bilan bezalgan uzun ko'k pantalon va milliy kokardali qizil frigik qalpoqdan iborat. Bo'yinga rangli sharf-galstuk bo'sh qilib bog'langan. Karmanola tagidan kalta jilet kiyilgan (1-rasm).



1-rasm

Sovuq havoda ustidan jigarrang yoki kulrang movutdan yoqali va qizil rang duxoba qaytarmali **upelyand** deb nomlangan plash kiyilgan.

Ayollar libosi ham xuddi shu asosda bo'lgan: ichki ko'yvak va ustki kalta ikki qatorli tugmali korsetsiz kurtka, boldirgacha uzunlikdagi, beldan burmalangan, karkas asosisiz ko'k movutdan to'g'ri yubka, belda esa sharf-belbog'. Bosh kiyim - tuyaqush patli va kokardali fetr shlyapa. Ranglar an'anaviy - qizil, ko'k, oq; bezaklar (otdyelkalar) - yorqin qizil tasma, keng kant (1-rasm).

Har ikki libos - ayollar va erkaklar libosi davrning kasbiy va jamoatchi shaxslari libosiga asos bo'lib qoldi.

## J.L. Davidning liboslar proyekti. Antik davr ta'siri. Klassitsizm uslubi

Fransuz inqilobiy konventi inqilobchi xalq libosiga alohida e'tibor bergen va Fransyaning e'tiborli rassomlaridan biri Jak Lui Davidga uchinchi avlod (ya'ni burjuaziya xalq ommasi) xalq libosini yaratish ma'suliyatini yuklaydi. Rassom ularni to'g'ridan to'g'ri rim klassikasi ta'siri ostida yaratadi. Bu ta'sirni ranglar yechimi, qo'shimchalar shakli, bezaklar, bosh kiyimlar ko'rinishida ko'rish mumkin. Mustaqillik, tenglik, birodarlik timsoli bo'lmish - oq, ko'k, qizil ranglar - kurtkalar, jiletlar, sharflar, yubkalar, bosh kiyimlar rangida ustunlik qildi. Uch xil rangli kokardalik frigik qalpoqlar, sharflar, drapirovalangan erkaklar plashi va ayollar antik tunikalari, Davidning liboslar eskizi davr libosi sifatida tasdiqlandi. Lekin hayotda faqatgina ularning ba'zi elementlari qo'llanildi.

Fransuz inqilob davri ko'p asrlik hashamatli bezaklardan voz kechdi va karkassiz yangi libos shakli estetik tamoyillarni tasdiqlab, klassitsizm ta'siri ostida rivojlandi. Ayollar libosida bu triko ustidan yoki yalang'och tanaga kiyiladigan yupqa muslin yoki batistdan qilingan bezaklarsiz yorqin ko'yakdir (2-rasm).

Ayollar silueti cho'ziq to'g'ri to'rtburchak ichiga jo bo'lib, unda yelka, bel, bo'ksa va etaklar deyarli bir o'lcham kasb etardi. Chuqur o'mizli yumshoq lif, orqa tomondan qarshi skladkali ya'ni taxlamali yubka, matoning rangi, koloriti va fakturasi antik libosni eslatadi. Gimatiy, pall va boshqa antik davr liboslari rolini juda yupqa hindcha kashemir shallar o'ynagan. Qizil, havorang, feruzarang, yorqin-jigarrang kantdan bezakli ushbu shallar bo'yinni, yelkani yopib, go'zal timsol yaratadi. Taniqli fransuz musavvirlari J.L. David, F.Jerar mashhur fransuz go'zallari – madam Rekamye, Talyenlarni ana shunday liboslarda tasvirlaydilar.

Bosh kiyimlar ham antik formalarga taqlidan yaratilgan. Bular – chambarlar, setkalar, diademalar, tuyaqush patli bashang bog'ichlar,



2-rasm

duxoba va shoyi lentalar, yunoncha naqshli kalta jingalak soch turmaklari yana ursda bo'lgan.

Yorqin ranglardagi tuflilar tag charmi tekis, past poshnali, lentalar bilan bog'ichlangan bo'lib, yunon sandallari kabi oyoqni o'rab turgan.

Avvalgi tendensiyalardan keskin farqlanuvchi moda bilan bir qatorda, ana shu davning burjuaziyasiga xos bo'lgan qulaylik, oddiylik, ishbilarmonlik kabi jihatlarni o'zida jamlagan ushbu davr moda yo'nalishi ham yashashda davom etdi. Erkaklar libosida to'q jun matodan frak, yorqin jilet, zamsh kyulotlar yetakchilik qildi (3-rasm).

Ayollar libosida esa - karkas asosisiz tor yopishgan lifli to'g'ri ko'yylaklar, burmali to'g'ri yubkalar, kalta karakolar va kazakinalar, peredniklar, ko'krakda to'qnashib va orqadan bog'lanuvchi ko'krak ro'mollari va shallar (4-rasm) rusumda bo'ldi.



3-rasm



4-rasm

## 1800–1825-YILLAR LIBOSI. AMPIR USLUBI

XIX asr boshi san'atda ampir uslubi (fransuzcha «imperiya») paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. U yirik burjuazianing estetik didini va Napaleonning harbiy qahramonliklarini namoyon qilar edi. XVIII asr klassitsizmi kabi ampir uslubi ham antik obrazlardan ilhomlanar edi. Naqsh bezaklarida antik davr elementlaridan lavr bargli gulchambarlar, kamonlar, yoylar, o'qlar, palma yaproqlari, sher tasvirlari xarakterli edi.

Ampir uslubi klassitsizmdan qat'iylik, dabdabalilik, yorqinlik va tantanavorlik bilan ajralib turgan.

Ampir libosi silueti baland va tekis kollonnali silindr simonlikka intilish bilan xarakterlanadi. Qalin yaltiroq matolar bir xil rangli relyefli kashtalar bilan, yoki simmetrik dekorativ bezaklar bilan bezalgan. Libos kompozitsiyasi statik, ya'ni adl, dekorativ yechimi konstruktivlikdan ustun keladi.

Baland tik yoqali, to'q rangli (jigarrang, qora, ko'k) jun matodan tikilgan frak erkaklarning kundalik libosiga aylandi. Ko'p hollarda uni yorqin pantalon va yorqin rangdagi jiletlar bilan kiyishgan. Ustki kiyim keyinchalik ishbilarmon erkaklarning libosiga aylangan ikki bortli redingot yoki syurtukdir (5-rasm, o'ngdan). Qishda va kuzda erkaklar bir necha yoqali yoki pelerinali redingot kiyganlar (5-rasm, chapdan).



5-rasm

Soch turmklari, asosan, kalta, bosh kiyimlar - ikki yoni bukilgan baland shlyapalar.

**Poyabzal.** Bu davrda etiklar va tuflilar eng keng tarqalgan poyabzallar bo'lgan.

Ampir uslubi ayollar libosiga juda katta ta'sir qildi. Libos proporsiyalari XVII-asr oxiridagi kabi saqlandi (baland bellar figurani 1 : 7 yoki 1 : 6 nisbatda bo'ladi. To'g'ri uzun yubka va tor lif urfga kirdi).

1809-yil libosda yana korset paydo bo'ldi. Qalin qimmatbaho matolarni libosda qo'llanilishi libos plastikasini ham o'zgartirib yubordi. Unda katta dekorativ elementlar: ryushlar, to'rlar, kashtalar, burmalar (pirpiraklar) paydo bo'ldi (5-rasm o'rtadagi). Ko'yylaklar qalin shoyidan yoki yupqa harir matolardan. Odatda qalin shoyi astarli qilib tikilgan va oq yuzaga oltin va kumush ipdan yaltiroq payetkalar bilan kashtalangan. Ko'yylaklar shleyfli, past dekolteeli, keng manjetli, kalta fonarik yengli bo'lgan.

Ko'yylakning pastki qismida bezaklarning ko'payishi tufayli ayollar libosi ancha og'irlashib bordi. Yubkalar turli kenglikdagi pirpiraklar, to'rlar, festonlar bilan bezalgan. Yelka chizig'i kengaydi. Ko'krak chizig'i yuqoridagiligidicha qolgan, bel chizig'i pastlab tabiiylikka yaqinlashadi. Buning natijasida, figura balandroq va tik qomatli ko'rinish kasb eta boshladи.

Bu davrda kishilar o'rtasida tabiatga qiziqishning kuchayishi tufayli sayrlarga chiqish ortdi. Bu holat ayollar libosi assortimentining ko'payishini taqozo etadi. Kalta spenserlar (6-rasm, o'ngdan), junli yoki ip matodan tikilgan, barxat va atlasdan bezak qilingan (qishda paxta astar yoki mo'ynali), bir bortli redingotlar (6-rasm, chapda) paydo bo'ldi. Ustki kiyim ko'yylakning bichimini, siluetini va detallar formasini takrorlaydi.



6-rasm

Libos vuallar, tok tipidagi shlyapalar, uzun laykali qo'lqoplar, aksar hollarda barmoqlarsiz qo'lqoplar bilan to'ldirilgan.

**Poyabzal.** Tuflı - ochiq, tekis, teridan va past poshnali.

## 1830–1860-YILLAR LIBOSI. MODANING KESKIN O'ZGARISHI

1830-yil Germaniya, Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlari san'atidagi romantizm yetakchi yo'nalish bo'ldi. Uning estetik ideali – mustaqillikni, kurashni, ishni tashkil etish va yuritishni va chin dildan istovchi kuchli shaxsdir. Ushbu oqimga o'tmishni, asosan, o'rta asrlarni ideallashtirish xarakterlidir.

Inson tashqi ko'rinishi va libosida romantizm ta'siri orqali ko'tarinkilik, ehtiros, orzumandlik, xayolparastlik, ergashtirish singari sifatlar ko'zga tashlanadi.

Erkaklar libosi assortimenti va asosiy shakli o'zgarmagan holda qoldi. Asosiy e'tibor qo'shimchalarga, qimmatbaho jun, yupqa kanop matolarga qaratildi. Bal uchun kiyiladigan fraklarga barxat, jiletlarga turli rangdagi parcha matolar qo'llanildi. O'rta asrlardagi uzun plash va uchli tuflilar yana urf bo'ldi.

Ayollar libosida yuqori qismi va yengining tirsak chizig'i keng, pastga tushirilgan yelka, uzun kengaytirilgan yubka va bel chizig'i ingichka qilib tortilgan qattiq korsetli ko'yaklar yetakchilik qildi (7-rasm). Yorqin atlas, barxatdan tikilgan bunday liboslar lentalar, to'rlar, qo'shetaklar bilan bezalgan. Ularni hashamatli bezaklar, xususan, tuyaqush patlari, gullar, zargarlik bezaklari, vualli bosh kiyimlar bezab, to'ldirib turar edi.

7-rasm



Romantik libosda ayollar va erkaklar silueti deyarli bir xil: keng yelka, kengaytirilgan yenglar, ko'krakni, belni qattiq siqib turish, bo'ksa chizig'inинг kengligi yetakchilik qiladi.

40–50-yillarda erkaklar libosida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Amaliylik, maqsadlilik bu davrda g'alaba qilib, qopsimon siluet hayotga kirdi. Frak tantanavor kiyimga aylanadi. Kundalik kiyimda frak o'miga ancha qulay, yopiq, tugmalanadigan syurtuk kirib keldi. 60-yillarga kelib esa syurtukni pidjakka (o'tmishda ov

libosining bir qismi bo‘lgan) almashtirishadi. Uni shim va jilet bilan bir xil matodan tika boshlashadi. Undan ham avvalroq erkaklar ustki kiyimida kalta, to‘g‘ri siluetli palto paydo bo‘ldi (8-rasm). Ranglar gammasi birmuncha cheklangan, u to‘q ranglar (ko‘k, jigarrang, yashil, qora)dan iborat. Matolardagi rasmlar – katak va ingichka chiziq. Yozgi assortimentda, asosan, kulrang, oq va qaymoq ranglar yetakchilik qiladi.

Asosiy bosh kiyim silindr saqlanib qoldi. Oyoq kiyim – etiklar va qora rangdagi yopiq tuflilar.

Ayollar libosi umuman boshqa yo‘nalishda rivojlandi. Burjuaziya jamiyatida ayollar faoliyati chegaralangan. Ular asosan oqsuyak xonimlarning ko‘ngilochar tadbirlari, san‘at bilangina cheklanadi. Ayol burjuy, ishbilarmon, fabrikant erining omadlari bilan bezangan o‘yinchoqqa aylanadi. Uning libosi shakli qulaylik va amaliylikdan ancha uzoq. Dabdabali, qimmatbaho matolar, hashamadorlik va bezaklar bilan to‘ldirilgan, tez-tez modaning o‘zgarishi burjua yuqori tabaqasining ayollar libosining xarakterli xususiyatidir.

**Eklektizm** – XIX asr burjua san‘atiga xos turli tasviriy uslublarning mexanik qorishuvi bo‘lib, bu o‘z navbatida libosda ham namoyon bo‘lgan. Davr mobaynida libos bezagi, konstruktiv va dekorativ yechimi, matolar bezagi va naqshi, rangi, fakturasida antik davr, gotika, barokko, rokoko elementlari qo‘llanilganini kuzatish mumkin.

40–50-yillardagi ayollar libosi silueti va shakli aniq proporsiyalar, tabiiy yelka va bel chiziqlari, bo‘ksa chizig‘ining kattalashuvi bilan xarakterlidir. Katta yeng, hashamatli bantlar va yengiltabiat ko‘rinishdagi soch turmaklari yo‘qolib, sochlari to‘g‘ri taralib, ikki tomonga lokonlar, ya’ni gajaklar tushirilgan. Ingichka bo‘yin, pastga tomon nishablangan nozik ensiz yelkalar tor yenglari bilan yakunlanadi. Gavdaning nozik korset kiydirilgan yuqori qismi keng yubkaga xuddi navda singari solib qo‘yligandek tassurot uyg‘otadi. Yubka ot mo‘yidan qilingan



8-rasm

chexol – **krinolin** (fransuz tilidan olingen bo‘lib, **crin** – ot mo‘yi, **lin** – kanop ma’nolarini anglatadi) bilan ushlab turilib, uning hajmi yildan yilga kattalashib bordi. 60-yillarga kelib yubka etagining diametri 2,5-3 metrga borib, yon tomondan torayib, orqa tomonga uzaytirilgandi (9-rasm).



9-rasm

60-yillardagi katta, hashamatli yubkalar keng burma va volanlar, mato naqshlaridagi kaymalar, tishchalar, festonlar bilan bezalgan. Libos tarixida bu davr ikkinchi rokoko deb ataladi.

Bu davr ayollar libosining xarakterli tomoni uning assortimentga boyligi bilan xarakterlanadi. Bular tongi libos, sayr uchun libos, tushlik va kechki liboslardir.

Libosda qo‘lqoplar, soyabonlar, zargarlik buyumlari, xususan ziraklar, to‘qa, to‘g‘nog‘ichlar, bilakuzuklar, zanjirlar, uzuklar asosiy o‘rinni o‘ynagan.

Shlyapalarning keng hoshiyasi, ya’ni soyaboni tepaga baland ko‘tarilgan bo‘lib, o‘z shaklini saqlab qolgan.

Bu davr poyabzalining o‘ziga xosligi past poshnali va kvadrat uchli ekanligidadir.

## 1870–1890-YILLAR LIBOSI

70–80-yillar davomida erkaklar libosini standartlashtirish va stabillashtirish boshlanadi.

Erkaklar libosini sanoatlashtirish jadallahshadi va asr oxiriga kelib individuallikni siqib chiqaradi.

Ayollar libosining siluetida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Matolarning yangi, hashamdon, qimmatbaho turlarining paydo bo'lishi bu davr liboslarini xarakterlaydi. Xususan, bu holat ichki kiyimlar turlarining boyishiga ham xizmat qildi.

Hashamatli matolar va to'rlar libosdagi ajoyib bezaklar bilan uyg'unlashgan.

Ko'ylakning karkas asosi shakli o'zgardi. Uzun korset bilan tortilgan, tik qomat va nozik ayol figurasi suv parisi obraziga qiyoslana boshlandi (10-rasm).

70-yillar oxirida liboslarni modellashtirishda yangi g'oya va timsollar paydo bo'ldi. Xalq libosi va sharqona shakllarga qiziqish ortdi. Ilk bor dengiz motivi, ya'ni to'lqinsimon naqshlar qo'llanildi. Lekin o'tmish tasviriy uslublaridan foydalangan kabi bularda ham aniq bir tasviriy yechim yo'q edi: xalq naqshlari moda olamidagi yetakchi ko'ylakka o'tdi; "dengiz" liboslarida yorqin ko'k tasma, langar shaklidagi ikki qator tugmalar, baland turnyur bilan drapirovkalangan bosh kiyimlar, mayda plesirovkalangan pirpirakli yubkalar urfga kirdi (11-rasm).



10-rasm



11-rasm

Ayollarning uy kiyimida yengli kimono xalat paydo bo'ldi (12-rasm).



12-rasm

13-rasm

Sportga qiziqishning ortishi va uning rivojlanishi asr oxiri kiyimlariga ham katta ta'sir qildi. Erkaklar libosida golf tipidagi kalta shimlar, yengil kurtkalar, rangli ko'yaklar, yumshoq fetr shlyapalar paydo bo'ldi. Ayollar libosida esa yangi assortiment yaratildi. Bu suknodan tikilgan yubka-shim va kalta jaket (13-rasm)dan iborat. Yangi liboslar konstuktivlik va maqsadlilikning yo'qligi bilan xarakterlanadi.

Ayollar orasida bluzka, yubka va jaketdan iborat bo'lgan ingliz libosi keng tarqaldi. Erkaklar yoqasi tipidagi oq kraxmallangan yoqalar, galstuklar, manjetlar ko'yaklarga yanada oddiylik, qat'iylik va ishchanlik ko'rinishini berardi.

90-yillarda ayollar libosiga burjua san'atidagi eklektizmni rad etadigan yangi tug'ilayotgan modern (zamonaviy, yangi) uslubi kirib keldi.

Yangi uslub libosda go'za'llikni his eta oladigan ko'rinishda kirib keldi. Ko'yaklar tor lifli, ingichka belli, etagi tomon kengaygan klesh yubkali, pastga qarab kengaytirilib, etak qismi burmalab tor kantga yig'ilgan yengli, tor yelkali, baland yopiq shaklga kirdi. Korsetning yangi formasi qomatga S - simon egiklik bergen (14-rasm).



*14-rasm*

Asr oxiriga kelib bosh kiyimlar baland tyul va kichik soyabonli (polyali) qiyofaga keldi. Soch turmaklarining balandligi ortib borgach, ular gullar, patlar va qushlarning kichik modellari bilan bezaklana boshladi.

Qo'lqoplar, mustalar, sumkalar zaruriy aksessuarlar bo'lgan.

Poyabzallar turlari ko'paydi. Bu davrda shnur bilan bog'lanadigan yoki tugmali baland botinkalar, to'qali, bantikli, rozetkali, baland poshnali, rangli va qora charm yoki shoyidan ishlangan ayollar tuflilari urf bo'lgan.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Fransuz rassomi Jak Lui David tomonidan yaratilgan yangi libos haqida so'zlab bering.
2. 1800 – 1825-yillar “ampir” uslubi, Napoleon imperiyasi davrida ayol va erkaklar liboslarini ta’riflab bering.
3. 1800 – 1825-yillar erkaklar va ayollar libosi haqida nimalar bilasiz?
4. 1830 – 1850-yillar erkaklar va ayollar libosiga ta’rif bering.
5. 1850 – 1870-yillar erkaklar va ayollar libosi haqida nimalar bilasiz?
6. 1870 – 1890-yillar erkaklar va ayollar libosi avvalgi o'n yillardan nimasi bilan farqlanadi?

## UCHINCHI BOB XX VA XXI ASR LIBOSLARI

### **XIX asr oxirida “kuturye” tushunchasining paydo bo‘lishi**

XIX asr ikkinchi yarmida Fransiya o‘z tarixidagi osoyishta, tinch davrlarning birini kechirmoqda edi. Burbonlarni o‘z taxtiga qaytargan Restavratsiya davri osonlikcha orttirilgan boyliklarini namoyish qilib, “ko‘z-ko‘z” qilish istagida yurgan bir talay nuvorishlar - yangi boyvachchalarni paydo qildi. Modada bu o‘ta dabdabalik, ayollar liboslarining bezaklarga o‘ta to‘yinganligi, rokoko davridagi liboslarga qiziqish bilan o‘z aksini topdi.

Shu vaqt muhitini aks ettiruvchi uslubni yaratish Charlz Frederik Vortga (1825-1895 y.y.) taqdir taqozosi bilan nasib etgan edi. Charlz Vortni haqqoniy “Haute Couture” - “ot-kuturyur” yo‘nalishining otasi deb atashadi. Aynan u tikishni oliy, yuksak san’at darajasidagi ko‘tarilish an’analariga asos soldi.

Shon-shuhrat Vortga bir zumda keldi: saroy qabuliga taklif etilgan Madam Metternixning Charlz Vort yaratgan ko‘ylakda kelishi - modelyer yulduzining charaqlagan kuni edi. Ko‘ylakning g‘ayrioddiy ko‘rinishi imperator Napoleon IIIning rafiqasi Yevgeniya Montixonning qiziqishini uyg‘otadi. Imperator rafiqasini qiziqtirgan narsa esa krinolin bo‘lib, u pishiq tasmalar bilan o‘zaro tutashgan yengil sim chambaraklardan iborat edi. Charlz Vort ixtiro qilgan krinolining tuzilishi va shakli abajurga o‘xshar edi. Krinolin ixchamgina kalla, yelkalar va xipcha belli jussa uchun bamisol pyedestaldekk ko‘ringan, u ayol gavdasiga ma’lum darajada dabdabalikni, ayollarning qadam tashlashiga esa yaqqol ko‘zga tashlanadigan “olijanob”likni baxsh etar edi. Krinolindan so‘ng 1867-yilda turnyur shakliga o‘xshash yubkalarni, undan so‘ng esa turnyurli ko‘ylaklarni taklif etdi. Shundan beri Vort imperator rafiqasining shaxsiy tikuvchisi va saroy a’yonlarining kiyim bilan asosiy ta’minlovchisiga aylandi.

**XIX oxiri va XX asr boshlari. Ayollar libosini isloh qilish uchun qilingan harakatlar.** XX asr boshlarida ayollarning o‘z emansipatsiyasi uchun kurashish harakatlari kuchayib ketadi.

Ayollarning jamiyatda erkaklarga nisbatan pastroq o'rirlarda ekanliklari o'sha zamondagi noqulay, ko'p metrli uzun yubkalar va shleyflar, korset, krinolin yoki turnyurdan iborat libosda ham o'z aksini topgan edi. Bu libos erkaklarning qulay, ixcham va gigiyenabop, aktiv hayot tarziga to'la javob beruvchi liboslaringning aksi (teskarisi) edi. Shuning uchun birinchi navbatda feministkalar ayollar libosini islohot qilishni taklif eta boshladilar. Buning uchun erkaklar shimini va albatta, erkaklar libosi uchun ishlatiladigan matoiarni o'zlashtirish lozim deb topilgan.

Ayollar libosini islohot qilishning yana bir yo'nalishi - korsetlarga qarshi kurashish bo'lgan. XX asr boshlarida korsetlar haddan tashqari bejamdon bo'lib, inson gavdasini S harfiga o'xshab buralishga majbur qildi, bu esa korsetning ayol sog'ligiga putur yetkazishini isbotlashga urinayotgan shifokorlarni vahimaga solardi. Rentgen nurlari kashf etilgach, moda talab qilgan korsetli libosning oqibatini, ya'ni korset taqqan ayollarda ichki a'zolarning ezilish va shakli o'zgarish hollari ko'p tarqalganligini yaqqol ko'rish mumkin bo'ldi. Og'irligi yelka kamariga tushadigan bichimli kiyimlar qulayroq hisoblana boshlandi. Bunday xulosa belga nim yopishib turuvchi, etagi kengaytirilgan "reforma" – ko'yaklarning yaratilishiga asos bo'lgan.

Ilk bor ichki kiyimni "nafas oluvchi" paxta tolali, oson yuviladigan kombinezonlar bilan almashtirish taklif etilgan. Shakli nisbatan qulay liboslar ko'proq sport bilan shug'ullanish uchun taklif qilingan (misol uchun: o'sha paytda urf bo'lgan velosiped uchishda yubka-shimlar kiyilgan). Ulardan ko'plari, masalan, trikotaj buyumlar, hozirgi zamonaviy liboslar orasida o'z o'mini topgan. Ayollarning sport liboslarida taqilmalari old qismida bo'lib, yubkalar esa taxlamali yoki taqilmasi etagigacha bo'lgan. O'sha davrdagi ayollarning sport uchun liboslari faqat shunisi bilan kundalik liboslardan ajralib turgan. 1913-yilda Koko Shanel mijozlariga trikotajdan tikilgan qulay sport liboslarini taklif etgan. Bunday sport uchun mo'ljallangan liboslar XX asrdagi ko'p qirrali kostyumlar shakllanishi uchun asos yaratib borgan.

**XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi "estet" liboslar.** 19-asr oxiridagi moda taklif etayotgan liboslarni islohot qilish taklifi bilan nafaqat feministkalar, balki "modern" (Fransiyada - "ar-nuvo",

Germaniyada - “yugendshtil”, Avstriyada - “sesession”, Italiya va Angliyada - “liberti”) uslubini yaratgan arxitektor va rassomlar ham chiqqanlar. Modern uslubi 1880-1890-yillardagi mavjud bo‘lgan san’atdan qoniqmaslik sharoitida va undagi eklektikaga qarshilik sifatida shakllangan. Rassom va arxitektorlar san’at barcha shakllarining sintezini yaratish va yashash muhitini barkamol-lashtirish orzusida edilar. “Modern san’ati” sotsial utopiya bo‘lishiga qaramay, unda badiiy g‘oyaninig yaxlitligiga intilish kabi yangicha hususiyatlari bor edi. Ularning fikricha, me’morchilik, mahobatli rangtasvir, haykaltaroshlik vositalari orqali yaratiladigan yangicha muhit odamga qattiq emotsiyonal ta’sir ko’rsatib, uning “qayta tug‘ilishiga” yordamlashishi darkor edi.

Bu davrda libos konstruksiyasi va bezagining o‘zaro bog‘liqmasligi eklektikada o‘zining yuqori nuqtasiga chiqqan edi. Bunday nomutanosibliklarni tuzatish badiiy kashta, turli bezaklar bilan to‘ldirish hisobiga erishilgan. Modernning boshqa bir yo‘nalishi - folklor va milliy an‘analarga murojaat etish libosda unchalik ko‘p namoyon bo‘lmagan. Agar me’morchilikda har bir mamlakat modernining o‘ziga xos milliy yo‘nalishlari (Rossiyada - “neoruscha uslub”, Ispaniyada - A.Gaudining kataloncha moderni va h.k.) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, libosda Parij tikuvchilari taklif etgan uslublar ustun bo‘lgan. “Milliy romantizm” ana shu taklif etilayotgan uslublardagi liboslarning faqat bezagida - zamonaviy siluetli libosning milliy ruhdagi naqsh bilan hashamlanishida namoyon bo‘lgan.

**Parijdagi Rus mavsumlari.** 1908-yilda Parijda S.P.Dyagilev truppassi tomonidan “Boris Godunov” operasining namoyishi bilan atoqli “Rus mavsumlari” boshlanadi. Buning tashabbuskorlari A.N.Benua boshchiligidagi “San’at dunyosi” (“Mir isskustva”) tashkilotining rassomlari bo‘lib, ular g‘arbiy Yevropa aholisini Rossiya san’ati bilan tanishtirish ishtiyoqida bo‘lishgan. Rossiya xoreografiyasi va teatr-dekorativ san’ati Yevropa baleti rivojlanishining yangicha yo‘nalishiga tutki bo‘ldi. Bularning boyisi vokal hamda dramatik shaklning xoreografiya va musiqa bilan, sahnadagi harakatning sahna dekoratsiyasi bilan mukammal uyg‘unlashganligida edi. 1910-yillar modasiga Leon (Lev) Bakstning eskizlari asosida yaratilgan teatr liboslari alohida ta’sir ko’rsatgan. Bakst yaratgan hashamatli

eskizlarning o‘zi esa moda tasvirchilari, suratkashlari uchun namuna bo‘lib qolgan. L. Bakst liboslarida 19-asr ikkinchi yarmida mavjud bo‘lgan ikkita g‘oya (tendensiya): sharq ekzotikasi va antik san’at bilan qiziqish yangicha qiyofada gavdalandi.



1-rasm. Leon Bakst. "Shaxrizoda" spektakli uchun bajarilgan libos eskizi. 1910-yil. Dyagilevning rus baleti sezoni sezonlari urushdan oldingi Parij va Londonda shov-shuvga sabab bo‘lgandi. Leon Bakst ekzotik kostyumlarining madaniy hayot va modaga bo‘lgan ta’siri katta edi.



2-rasm. Leon Bakst. Modern, "Diana", 1910-yil, qalam va akvarel, Bridgeman San’at kutubxonasi. Rus baleti gastrollaridan ilhomlangan Bakst Puare va Dyufi uchun ushbu eskizni yaratgan.

## **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. “Haute Couture” tushunchasiga ta’rif bering.
2. XIX asr oxirida “kutyurye” tushunchasining paydo bo‘lishiga qaysi modelyer sababchi bo‘lgan?
3. XIX oxiri va XX asr boshlari ayollar libosini isloh qilish uchun qilingan harakatlar libosda qanday o‘zgarishlarga olib keldi?
4. Shu davrda ayollarning sport bilan shug‘ullanishi uchun qanday liboslar paydo bo‘lgan? Liboslarning o‘ziga xos tomonlari haqida gapirib bering.
5. 19-asr oxiridagi “modern” uslubining paydo bo‘lish sabablari va hususiyatlari haqida gapirib bering.
6. Parijdagi “Rus mavsumlari” deb qanday hodisalarga aytildi? Ular haqida so‘zlab bering.

## **XX ASR 10 – 20-YILLARDA MODANING RIVOJLANISHI**

**Pol Puarenning ijodi.** L.Bakstning g‘oyalari “Rus mavsumlari” bilan bir qatorda Parij modasiga, va ayniqsa, Pol Puarenning ijodiga ko‘p ta’sir ko‘rsatgan. Ba’zi tarixchilarning fikricha, taqdir taqozosi bilan XX asr modasining yaratuvchisi hamda buyuk islohotchisi bo‘lish Puarenning zimmasiga tushgan. U sohadagi “yakkahokim” sifatida ayollar jamoli haqidagi o‘z tassavurini ommaga singdira olgan “moda hukmdori”, “moda diktator”laridan birinchisi edi.

P.Puare avval 1898-yilda “Raudnits”, so‘ng 1899-yilda “Jak Duse” modalar uyida rassom sifatida ishlay boshladи. Aynan shu yerda ishlayotganda u taniqli aktrisa Gabriel Rejan uchun sahna libosini yaratgan. Bu libos qora taftadan tikilgan manto bo‘lib, matosi sirtiga bezak sifatida oq, pushti va binafsha rang gulsafstarlar chizilgan, ularning ustidan esa qora to‘r yopilgan edi. Spektakl premyerasi paytida aynan shu libos haqiqiy shov-shuvga sabab bo‘ldi va shundan so‘ng libos muallifi - Puarenning nomi tillarga olinishni boshladи.

1901-yilda, armiya xizmatidan so‘ng, Puare “Vort” modalar uyida ishlay boshladи. 1903-yili P.Puare keyinchalik mashhur Modalar Uyiga aylangan o‘z atelyesini ochadi. 1906-yilda bu

kutyurye taklif etayotgan liboslari shaklini o'zgartirib borishi hisobiga o'sha paytda moda bo'lgan siluetning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. U liboslardagi bikr korset va beso'naqay ichki kiyimlardan voz kechib, o'rniga korseti vulkanizatsiya qilingan rezinadan, bel chizig'i tabiiy holatdan ko'tarilgan, sodda shaklli liboslarni taklif etadi. P.Puare emansipatsiya tarafidori bo'lmanan bo'lsa-da, aynan u ayollar libosidagi korsetni umuman bekor qildi.

1907-yilda Puare "neogrek" uslubidagi, bel chizig'i ko'tarilgan, yorqin rangli ko'yaklar taklif etadi va ularni "1811-yil ko'yaklari" yoki "Direktoriya ko'yaklari" deb ataydi. 1910-yillarda "Neogrek" uslubi keng tarqalgan bo'lib, antik mavzuga berilish arxitektura, amaliy san'at va interyer bezatishda kuzatilar edi.

Puare o'sha paytdagi zamонави libosning tuzilishi-konstruksiyasini o'zgarishiga ta'sir ko'rsata oladi. U tufayli modaga kimono bichimli yeng, asimetrik joylashgan taqilmalar, asimetrik drapirovalangan ustki yubkalar (tyunik), oval siluetli paltolar, sharqona xalatlarni eslatuvchi keng yengli oqshom uchun bashang paltolar kirib keladi. Sallasimon bosh kiyimlarni kiyish uchun Puare orqada ixcham tarab tutamlangan yoki kalta qirqilgan soch turmagini taklif etdi.



*3-rasm. Trafaretli bosma usuli qo'llangan libos eskizlari. Pol Irib.  
Pol Puare uchun bajarilgan gravyura, illyustratsiya. 1908-yil*

## **Birinchi jahon urushi davrida liboslardagi o'zgarishlar.**

P.Puarenning libosga kiritgan o'zgartirishlari XX asr modasining qanday bo'lishini belgilab bergen bo'lsa ham, ommaviy modadagi tub o'zgarishlar Birinchi jahon urushi (1914-1918) davriga to'g'ri keldi. Shu vaqt mobaynida Avstro-Vengriya, Serbiya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Angliya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Bolgariya va Amerika Qo'shma Shtatlari o'zaro urushishgan. Bu urush yangicha tarixdagi burilish nuqtasi bo'lib, nafaqat Yevropaning siyosiy xaritasini, balki hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborgan. Urushda qatnashayotgan mamlakatlardagi 74 mln.dan ziyodroq harbiy xizmatga chaqirilgan erkaklar harbiy forma kiygan. Xaki<sup>1</sup> rangi urush timsoli bo'lib qolgan. Uniforma nafaqat o'sha davrning ommaviy liboslariga, balki butun XX asr modasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan – harbiylar kiyimidagi ko'p elementlar kundalik liboslariga kirib kelgan.

Urush paytida erkaklar jang qilayotgan bo'lsa, ayollar frontga ketgan erkaklarning o'mini bosishga majbur edi. Tarixda birinchi marta ayollar gospital, fabrika, harbiy zavodlarda ishlay boshlashgan, tramvay haydovchi, xat tashuvchi, chiptachi bo'lib xizmat qilishgan. Xayr-ehson maqsadida oqsuyak (yuqori tabaqadagi ayollar) xonimlar muhtojlarga yordam berib kasalxonalarda hamshiralik qilganlar, ularning oqsochlari esa ish haqi kattaroq bo'lgani va hech bo'limganda maxsus kiyim berilgani sababli harbiy zavodlarga ishga kirgan.

Ayollar birinchi marta uniforma: xizmatchilar - kombinezon, pochtachi va chiptachilar - kaltalashtirilgan etagi keng yubka, forma kurtkalari bilan furajka, hamshiralar - qizil xoch chizilgan oq ro'mol bilan oq yoki kulrang xalat kiyganlar.

Serharakat hayot tarzi, oziq-ovqat, yoqilg'i va mato tanqisligi nisbatan qulay kiyim kiyishni taqozo etar edi. Aynan Birinchi jahon urushi davrida shakllangan libos ayollarning XX asrda kiyiladigan libosi qanday bo'lishini belgilab berdi. Ya'ni, yubkalar kaltalashdi; korset va "bedanaqadam" yubkalardan voz kechildi; murakkab soch turmamlari, katta hajmdor shlyapalar barham topdi. Ularning o'miga

<sup>1</sup> xaki - hind.< fors. (zahil, tuproq rang < hak - tuproq, yer) -qo'ng'imtir-yashil rang (himoya rangi deb ham nom olgan), yoki shu rangdagi mato. Harbiylarning shu rangdagi formasini ham ba'zan xaki deyishadi.

harbiylar forma kiyimidan olingan funksional detallar - frenchlarnikiga o'xhash qaytarmali yoqalar, "stoyka aviatora" deb atalgan baland tik yoqalar, qoplama cho'ntaklar keng rusum bo'la boshladi. Asr boshi modasidagi ayollar libosi uchun odatiy bezaklar (kashta, applikatsiya, nafis to'rlar) esa kundalik kiyimda yo'qolib ketdi. Sovun yetishmasligi va tif kasalligining tarqalishi sochlarni kalta qirqishga majbur qildi. Deyarli barcha korxonalar harbiy buyurtmalarni bajargani sababli tinch aholi uchun gazlama, poyabzal va shu kabilar yetishmas edi. Ko'pchilik harbiy formani o'zgartirib o'ziga libos tikishga majbur edi.

Qo'lda to'qilgan trikotajdan jaket, kardigan, jemper, sharf va qalpoqlar modaga kirib keldi. Erkaklar libosidagi boshqa elementlar - getralar, fetr shlyapalar, kashne-sharflar ham keng tarqaldi. Ichki kiyim ham ancha soddalashdi: byustgalter va uzun paypoq uchun belbog'lar korsetlar o'rmini tamomila egalladi. Korsetlardan voz kechilishi beo'xshov keng kuylak va jaketlarning tarqalishiga sabab bo'lgan.

Oliy moda ham urush davri talabiga buysunishga majbur bo'lgan, hatto P. Puare ham harbiy buyurtmalar bo'yicha ishlagan. Boshqa Moda Uylari - "Paken", "Vort", "Doye", "Lyusil" kabilar taklif qilgan kundalik liboslarda harbiy kiyim ta'siri sezilib tursa-da, ammo bashang liboslarda urushgacha moda bo'lgan kiyim elementlarini - jig'ali sallasimon bosh kiyimlar, sharqona uslubidagi (bel chizig'i ko'tarilgan, lekin avvalgiga nisbatan kengroq va kaltaroq yubkali) ko'ylaklarni ko'rish mumkin edi.

Urush davriga Koko Shanelning ham modali kiyim yaratuvchisi sifatida ilk yutuqlari to'g'ri kelgan. Boshqa kutyuryelar mato tanqisligini sezayotgan bir paytda u o'z korxonasini yana ham kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Shanel 1913-yili Dovill kurort shahrida ochilgan korxonasida dam olish uchun sport uslubidagi liboslarni yarata boshladi. U yaratgan sodda bichimli oddiygina ko'ylak va kostyumlar urush paytida xaridorgir bo'lgan. Birozdan so'ng Shanel o'z korxonasini Byaritss shahriga ko'chirib, oliy Modalar Uyini ochadi va mijozlariga o'sha davrda ustki kiyim uchun g'ayrioddiy material - trikotajdan tikilgan liboslarni taklif etadi.

## **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Nima uchun Pol Puareni “moda diktator”i deb atashadi?
2. Pol Puarenning o‘z davrida libos modasiga kiritgan yangiliklari va o‘zgartirishlarini aytib o‘ting. Ularga izoh bering.
3. Ayollar ilk bor uniforma kiyishiga nima sabab bo‘lgan?
4. Nima uchun aynan birinchi jahon urushi davrida ayollar liboslarining kelajakda qanday bo‘lishi belgilandi? Javobingizni tushuntiring.
5. Shu davrdagi yuksak moda uylari faoliyati va modadagi uslublar haqida gapirib bering.
6. Sizningcha, Koko Shanelning bu davrdagi yutuqlarini nimalar shakllantirgan? Javobingizni mustaqil to‘plagan ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

## **XX ASR 20 – 30-YILLARDA JAHON MODASINING RIVOJLANISHI**

**Yangi shakl va yangi matolar.** Birinchi jahon urushi tugagandan so‘ng qulayroq kiyimga bo‘lgan ehtiyoj yubkalarning yanada kaltalashuviga olib keldi: agar 1920-yillar boshida ayrim tikuvchilar bel chizig‘i biroz pastroqda bo‘lgan, uzunligi tovongacha tushadigan keng ko‘ylaklarni taklif qilishgan bo‘lsa, 1925-yilga kelib yubkalar qisqarib tizzagacha, 1927-yilda esa undan ham balandroq ko‘tarilgan. Erkaklar shimi ayollar garderobiga asta-sekin o‘rnasha boshladi. 1920-yillarda shimplar dam olish (plyaj uchun mo‘ljallangan ansamblidagi keng shimplar) va uy ichi kiyimi (shoyi pijamalardagi zuav<sup>2</sup>lar ishtoniga o‘xhash) sifatida modaga kirib keldi..

Ayollarning jamiyatdagi yangi roli o‘z aksini o‘sha davrdagi biroz groteskli, antiqa “a-la garson” (fransuzchadan so‘zma-so‘z tarjimada - “o‘g‘il bola kabi”) obrazida aks etgan. 1920-yillarda o‘g‘il bolalarnikiga o‘xhash jussa namuna va go‘zallik timsoli

<sup>2</sup> zuav - fran.[zouave]<atoq.(arab.) 1) fransuz armiyasiga zuua qabilasidan harbiy xizmatga olingan piyoda askar; 2) fransuzlardan terilgan zuavlar korpusidagi arabcha libos kiyib yuruvchi soldatlarning nomi.

bo‘lgan bo‘lsa, ayollar o‘z nazokatini yorqin “vamp-ayol”<sup>3</sup> pardozi (makiyaji) evaziga to‘ldirganlar. Bunday pardozli chehra “a la garson” libosida e’tiborni o‘ziga jalg etuvchi kompozitsion markaz bo‘lib hisoblangan. Xuddi kino qahramonlarining grimiga o‘xshab ko‘z va qovoqlarning qop-qora, lablarning yaqqol ko‘zga tashlanadigan to‘q qizil qilib bo‘yalishi mash’um sohibjamol obrazini yaratishga xizmat qilar edi. Yigirmanchi yillar iqtisodiy rivojlanish davri bo‘lib, Yevropa urush qiyinchiliklaridan so‘ng o‘ziga kelayotgan, g‘olib mamlakatlar g‘alaba nashidasini surayotgan davr edi. Iqtisodiy o‘sish, sanoatning rivojlanishi, qimmatbaho qog’ozlar bozoridagi chayqovchilikning avj olishi - bularning hammasi “oltin yigirmanchi yillar” uslubini shakllantirdi.

Urushdan qaytganlar “boy bergen” imkoniyatlarining hissasini chiqarish uchun vaqtlarini maishatda o‘tkaza boshladilar. “Oltin davr” yoshlaringin hayotiga sport, avtopoygalar, samolyotda uchishlar bilan bir qatorda ichkilik, seks, opium, nikotin kabi og‘ular kirib kela boshladi. Maishatning yana bir turi sifatida Yevropa va Amerikada raqs bilan ishqibozlik (dansingomaniya) keng tarqaldi. Raqlarga ishqibozlik o‘sha davr liboslariiga o‘ziga xos o‘zgartirishlar kiritdi, u birmuncha “yengillashdi”, turli ermak va vaqtichog‘liklar uchun moslashtirildi. Kalta kechki ko‘ylaklar tong otguncha raqs tushishga xalaqit bermagan, ularning etagidagi mayda ipak yoki munchoqbiser<sup>4</sup>lardan terilgan shokilalari modali raqlarning o‘ziga xos plastikasi va ritmini ta’kidlagan, mustahkam poshnali va qulay tasmali moyabzal charchamasdan raqs tushishga xizmat qilgan.

Korsetlardan voz kechilishi orqa qismi ochiq ko‘ylaklarning (1918-yilda P.Puare birinchi bo‘lib namoyish etgan) moda bo‘lishiga olib kelgan bo‘lsa, yubkalarning kaltalashuvi tana rangidagi paypoqlarning ommalashuviga olib keldi.

1920-yillarda raqs va tungi maishatbozliklardan tashqari texnika va sportga qiziqish ham o‘sib bordi. Texnikaga sig‘inish modabop libosga avtomobil va samolyot haydovchilarining professional

<sup>3</sup> vamp - vampir so‘zining qisqartirilgani; vampir - (nem.<skand.) - 1) qonso‘rar, 2) birovning qonini so‘ruvchi, qonxo‘r, zolim. Bu yerde shum, mash’um, falokatga olib boruvchi ayol ma’nosida

<sup>4</sup> biser - arabcha-mayda don, donacha, zarracha; kashtachilikda qo‘llaniladigan shisha yoki metalldan yasalgan, igna yoki ip o‘tishi uchun o‘rtasi teshilgan munchoqlar.

kiyimlaridan olingen funksional elementlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. 1919-yilda aynan sport kiyimi va aktiv dam olish uchun mo'ljallangan liboslarga ixtisoslashgan "Jan Patu" nomli Oliy Modalar uyi ochildi.

Sport libosi elementlari ham kundalik kiyimlarga kirib kela boshladи. Norasmiy sharoitda erkaklar pidjak o'rniga trikotaj kardigan va pulover kiyishga jur'at eta boshladilar. O'rtacha kenglikdagi mumtoz bichimli shim o'rniga esa "golf-shimlar" yoki paxmoq "oxford shimplari" kiyilardi. Umuman olganda, kiyinishdagi avvalgi qat'iy talablardan voz kechish boshlandi - silindr va "kotelok"lar kepi yoki yumshoq shaklli shlyapa bilan almashtirildi, issiq kunda norasmiy sharoitda pidjaksiz yolg'iz kuylakda yurish mumkin bo'ldi. Erkaklarning bashang kiyimi sifatidagi frakning o'rnini smoking<sup>5</sup> egallay boshladи.

Trikotaj kundalik kiyimlar uchun eng modabop ashyoga aylandi. Jun yoki ipak trikotajdan djemper va puloverlarni, trikotaj kardiganlarni, to'qilgan shapkacha va sharflarni nafaqat erkaklar, ayollar ham kiyar edilar. Bunday buyumlar hozirgi kungacha o'z aktualligini yo'qotmaganligi uchun, ularni libosdagi o'ziga xos klassika darajasiga ko'tarish mumkin.

Sun'iy shoyi (aniqrog'i, 1892-yilda ixtiro etilgan viskoza) va ipak kreplar (1918-yilda Liondagi "Byankini-Ferye" firmasi tomonidan ixtiro qilib patentlangan, o'ta burmabop va "to'kiluvchan" xususiyatga ega bo'lган, yangicha ipak matolari: krep-romen, krepdeshin, krep-maroken, krep-satinlar) bashang va yozgi liboslar uchun keng qo'llangan.

Bu orada tayyor liboslar ishlab chiqarishning faol rivojlanishi boshladи. Bu esa o'z navbatida murrakkab bo'lgan tikish texnologiyasi va libos konstruksiyasining soddalashtirilishini talab qilar edi.


**"Ar Deko" uslubi va 1920-yillardagi "Yuksak Moda".** Tikuv korxonalarining tayyor kiyim mahsulotlari ommalashib borishiga qaramay, modani Parijdagi yuksak Modalar Uyi shakllantirar edi.

<sup>5</sup> smokingl - ingl.[smoking-jacket] - dastlab uy ichida kiyish uchun, aniqrog'I, tamaki chekish paytida kiyishga mo'ljallangan shoyi xalat. Uning uzun adip qaytarmalı yoqasi sirti silliq atladsan bo'lgan. Keyinchalik shakli va matosidagi o'zgartirishlar hisobiga erkaklarning oqshom libosi sifatida kiyilishni boshladи.

1920–1930-yillarga kelib bunday Uylar mijozlarining soni 20 000 dan oshiq bo‘lib, ular taklif etgan “ot-kutyur” ko‘ylaklari yuqori tabaqa ayollari, ko‘mir va neft konlari “podshoh”larining xotinlari hamda Gollivud yulduzлari uchun mo‘ljallangan edi.

Bu davrga kelib yuksak moda yaratuvchilari orasida Birinchi Jahon urushigacha ochilgan moda uylari o‘z mavqelarini yo‘qotib, urushdan biroz oldin va undan so‘ng tashkil topgan “Janna Lanven” (1909-y), “Madlen Vionne” (1912-y), “Jan Patu” (1919-y), “Shanel” (1919-y), “Edvard Moline” (1919-y), “Lyusyen Lelong” (1923-y), “Jak Xeym” (1923-y), “Marsel Rosha” (1924-y) kabi moda uylariga joy bo‘shatib berdilar (4-rasm A,B).

Aksariyat kuturyelarning modellari shu davrda eng zamonaviy hisoblangan “ar-deko” uslubiga monand bejamadorlik, serhashamlik bilan ajralib turardi. San’atdagi bu yo‘nalishni yana “zig-zag uslubi”, “djazning moderni”, “yulduzlar uslubi” kabi nomlar bilan ham ataganlar. Bu bezovchi va bezatuvchi buyumlar uslubi edi. Bezaklar barcha joy va buyumni - devor va mebel sirtini (ustini), dekorativ mato va divan yostiqlarini, ayollar liboslari va ro‘zg‘or idishlarini qoplar edi. Hatto poyabzalni ham rasm va naqsh solib, kashta va applikatsiya bilan bezashgan.



*4-rasm.*

*A - Madlen Vionne ko‘ylagini illyustratsiyasi. 1924-yilda nasr etilgan jurnal sahifasidan. Rassom Ernesto Fayaxt.*

*B - “Shanel” modalar Uyining djersi trikotajidan taklif etilgan modellari. 1917-yil.*

Bu yo‘nalish o‘zining “ar-deko” (“dekorativ, bezatuvchi san’at uslubi”) nomini 1925-yili Parijda bo‘lib o‘tgan Hunarmandchilik va amaliy san’at Butunjahon ko‘rgazmasidan so‘ng olgan.

Bu davrda J.Lanven ilk bor bolalar va erkaklar uchun “ot-kutyur” liboslarini yaratishni boshladi.

XX asrning 20-yillari “Pol Puare” Modalar Uyining inqirozga yuz tutgan davri edi. 1929-yilda kasodga uchragan P.Puare o‘zining korxonasini yopishga majbur bo‘ldi.

Faqat ikkita modelyer prinsipial o‘zgacha g‘oyani taklif etdi. Ilk bor rassom-modelyerlar oldida “modadan tashqari” libos yaratish vazifasi turar edi. Bunday g‘oyalarni libos modellashtirishdagi o‘ziga xos inqilob desa bo‘ladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, aynan ayol modelyerlar bu g‘oyani ilgari surdilar. Bular Madlen Vionne va Koko Shanel edi.

### Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar

1. XX asrning 20 – 30-yillari moda rivojida qanday davr edi?
2. “A lya garson” obraziga ta’sif bering.
3. Bu davrda libosning shakllanishiga nimalar ta’sir ko‘rsatgan?
4. Bu davrdagi dansingomaniyaning libosga ta’siri qanday bo‘lgan?
5. 20-yillarda erkaklar libosi qanday o‘zgargan?
6. “Ar Deko” uslubi va 1920-yillardagi “Yuksak Moda” qanday rivojlangan?

## XX ASR 30 – 40-YILLARIDA MODA

**1930-yillar modasi.** 1929-yilning oktyabrida Amerikada ro‘y bergen bank tizimi inqirozi tufayli butun dunyo iqtisodiy inqirozi boshlandi. Shu sababli boshlangan “Buyuk (Katta) depressiya” XX asr 30-yillarining birinchi yarmiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi: pul qadrsizlandi; hissadorlik jamiyatlari kasodga uchradi; ko‘p korxonalar yopilishi evaziga ishsizlik o‘sdi. 1932-yilga kelib AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniyada millionlab ishsizlar bor edi. “Katta depressiya” Ikkinci jahon urushining vahimali sarosimasiga zamin yaratdi.

“Oltin yigirmanchi yillar”ning beg‘amligi o‘tmishda qoldi - o‘ttizinchi yillar modasi amaliy, bosiq, vazmin va demokratik bo‘lishga majbur edi. O‘zining boyligin ko‘z-ko‘z qilish salkam beadablik hisoblana boshlandi. “Djaz o‘n yilligi”ning dabdabaliligi yangicha - sayqallangan shakl va chiziqlarning “sovuq” va “sokin” elegantligiga joy bo‘shatib berdi. “Ar-deko” uslubi bilan qiziqish ham o‘ta boshladи.

Elegant oddiylik, o‘ziga xos bilinar-bilinmas “shik”, avvalo elitar mijozlar uchun yaratilar edi, albatta. Ko‘pchilik uchun u hali ham erishib bo‘lmaydigan edi. Ko‘pchilik Moda uylari “Buyuk depressiya” payti uchun barchani qoniqtira oladigan uslub taklif qila olmay, yangi zamonga moslasha olmadi. Ba’zilari inqiroz paytida yopildi: 1929-yilda “Pol Puare” va “Djon Redfern”, 1930-yilda “Drekkol”, 1931-yilda “Jak Duse”, 1935-yilda “Madam Sheryui”, 1937-yilda “Opa-singil Kallolar” Moda uylari yopildi. Ar-deko uslubidagi bejam dor va kashta bilan hashamlangan modellar modadan chiqqanligi tufayli rus kashtachilik va moda uylarining ko‘pchiligi ham faoliyatini tugatdi. Bu paytda kashta bilan shug‘ullanuvchi uylardan M.Vionne, K.Shanel, E.Skyaparelli bilan hamkorlik qilgan “Lesaj” modalar uyi dong tarata bordi.

Bir paytning o‘zida 30-yillar libos dizaynining rivojlanishida o‘ta muhim va sermahsul davr bo‘ldi - kiyim modellashtirishda yangi g‘oya va konsepsiyanlar paydo bo‘la boshladи. Inqirozga qaramay yangi Moda uylari ochildi: 1930-yilda “Meynboxer”, 1932-yilda “Nina Richchi”, 1933-yilda “Rober Pige” va “Aliks”, 1935-yilda “Elza Skyaparelli”, 1937-yilda “Jak Fat”, “Jan Dusse”, “Kristobal Balensiaga”. Ba’zi kutyuryelar ilk bor tayyor kiyim kolleksiyanlarini yaratishga urinib ko‘rishdi. Jumladan, Koko Shanel tayyor kiyim ishlab chiqaruvchi firma bilan hamkorlik qilgan; 1933-yilda J.Xeyn; 1934-yilda esa L.Lelong kabilar tayyor ko‘ylak termalarini chiqarishgan. Bichimi sayqallanishi va murakkablashuvi evaziga tayor kiyimning sifati orta boshladи. Bu narsa, ayniqsa, ommaviy modani shakllantiruvchi Gollivud va pochta orqali kataloglar yordamida millionlab modellarni sotuvchi firmalar faoliyati tufayli, AQSHda sezilarli edi.

1930-yilda modaning demokratlashuvi davom etdi: oddiylik, qulaylik va ratsionallik - bu sifatlarni ommaviy moda eng ko‘p baholar edi.

Ayollar libosiga erkaklar kostyumingning ta’siri hamon sezilib turardi. Marlen Ditrix va Greta Garbo kinoyulduzlarini rasmiy libosda taqiqlangan bo‘lishiga qaramay, erkaklarnikiga o‘xshash shimli kostyumda yurishga jur’at etishardi.

Ayollar shimi sport va uy ichi kiyimi sifatida keng tarqalib ommaviylashgan.

Libosdagi demokratlashuv ansambl tushunchasiga tegishli edi: u haqidagi avvalgi tessavvur xarajat talab bo‘lgani uchun inqiroz davri uchun noo‘rin edi. 30-yillar modasidagi ansambl uni tashkil etuvchi kostyum barcha elementlari rangining o‘xshashligi (mushtarakligi) bilan emas, balki aksessuarlar: shlyapa, sumkacha, poyabzal, qo‘lqoplar hisobiga mujassamlangan. Iloji boricha bu to‘ldiruvchilarning bir xil rangda bo‘lishi nazarda tutilgan. Bunday garniturni (odatda, qora yoki jigarrangda, yozda esa - oq) ixtiyoriy ko‘ylak yoki kostyum bilan kiyish mumkin edi.

Moddiy qiyinchiliklar tufayli qimmatbaho ziynatlarni hech kim sotib olmagani uchun, modada arzon bijuteriya keng tarqaldi.

Erkaklar modasiga aksincha, konservativlik - asr boshidagiga o‘xshash fraklar qaytib keldi. Gollivudda esa fraklar o‘sma davr kinoaktyorlardan eng eleganti hisoblangan Fred Astor tufayli urf bo‘ldi. Ommaviy modada erkaklar uchun belga yopishib turuvchi keng yelkali pidjak va qaytarma pochali shimdani tashkil topgan standart kostyumlar keng yoyildi.

Yuqorida qayd etilgandek, XX asr 30-yillari modasiga Gollivudning ta’siri ulkan edi. 1930-yillarda kinodan tashqari sport ham hammabop ko‘ngilochar vositalardan biri edi. Ko‘p mamlakatlarda gimnastikachilar ittifoqi va sport jamoalari barpo etila boshlandi. Elitar sport turlari - tennis, golf, avto va aviasportning ta’siri oliy modada sezilarli edi. Sport kiyimi haqiqiy dam olish kiyimiga aylandi. Tennis va yelkan ostida suzish kabi yozgi sport turlarining rangi - oq rang 1930-yillari birinchi yarmida eng ko‘p urf bo‘lgan ranglardan edi. Sport kiyimining o‘zida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi: u kaltalashdi va nisbatan qulaylashdi. Ham

ayollar, ham erkaklarning sport bilan shug'ullanish uchun kiyimi sifatida shorti<sup>6</sup>lar keng tarqaldi.

Trikotaj va undan qilingan buyumlar: sviter, kardigan, djemper, pulloverlar o'z aktualligini yo'qtomagan edi. Kundalik libosga yozgi oyoq kiyimni sport kiyimidan olingan kalta oq paypoqchalar bilan kiyish usuli kirib keldi.

Ilk bor yoz paytida norasmiy sharoitda ayollar chulki (kapron paypoq) kiymasliklari mumkin bo'ldi.

Yangi urnshga tayyorgarlik ko'riliishi shu davrdagi zamonaviy libosda harbiylar kiyimi ta'sirining kuchayishiga olib keldi: jaketlarda charm belbog'lar paydo bo'ldi, charm palto va trenchkotlar, to'ldiruvchilar sifatida hatto oqshem liboslarida ham pilotkalar modaga kirib kela boshladи.

1930-yillarning birinchi yarmidagi kundalik liboslarda, ayniqsa, ko'yaklarda, qiyalama bichimning konstruktiv chiziqlarini bo'rttirib ko'rsatuvchi geometrik – katak-katak va yo'l-yo'l rasmlar ommabop bo'lgan.

1934-yillarda esa E.Moline, Meynboxer va Nyu-Yorklik modelyer Valentinalar sharofati bilan modaga Uzoq Sharq uslubi – kimono yenglar, bambukdan yasalgan tugmachalar, konussimon poxol shlyapachalar kirib keldi.

30-yillar ikkinchi yarmining yozgi modellarida "alpiycha" ("bavarcha" yoki "Tirolcha" degan nom bilan ham atalgan) va "lotin amerikacha" mavzudagi folklor uslubi ommalashdi. Yozgi modada bunday ko'yaklar 1950-yillar oxirigacha saqlanib kelgan.

"Bavarcha" moda o'mniga ba'zi mamlakatlarda "Lotin Amerikacha" uslubdag'i yorqin rangli, keng, qo'shetak yubkali ko'yaklar, keng soyaboni gullar bilan bezatilgan poxol shlyapachalar taklif etilgan.

30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab esa modada istorizm<sup>7</sup> (neoviktorian uslubi yoki neoromantik uslub) ustun kela boshladи.

Tarixiy liboslarga ijodiy manbaa sifatiga murojat etilishiga Golivudda yaratilgan "Kameliyalı xonim" ("Dama s kameliyami") va "Unesennyye vetrov" kabi tarixiy kinofilmlar ham sababchi edi.

<sup>6</sup> shorti, short - ingl. (short - qisqa, kalta) - aslida erkaklarning trusiksimon kalta shimi, bu yerda tizzadan yuqori darajagacha qisqartirilgan shim ma'nosida. Umuman olganda, eng kalta shim - bu shorti.

<sup>7</sup> istorizm - 1) tarixiylik prinsipi (har bir narsa yoki hodisaga tarix nuqtayi nazaridan, tarixiy jihatdan yondoshish; 2) san'atda: o'tmishta (tarixga) berilish.

O'sha davrda deyarli barcha modelyerlar ijodida 1860–1880-yillar tarixiy libosidan olingan “o'zlashtirma”lar paydo bo'ldi.

Istorizm uslubidagi liboslarning keng ommalashuvi sabablaridan biri ispan modelyeri Kristobal Balensiaganing ijodiy faoliyati bilan bog'liq.

**Qirqinchi yillar.** 1939-yilda Ikkinci jahon urushining boshlanishi nafaqat dunyoning qiyofasini, dunyo bilan birga modaning ko'rinishini ham o'zgartirib yubordi. Bundan avvalgi ozodlik va mo'lchilik o'n yilligi iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy ma'suliyatga chaqiruvlar bilan almashdi. Ayollar ishlay boshlashdi, moda esa amaliy jihatdan qulaylik tomonga yuz o'girdi. Harbiy forma kirib kelishi bilan bu jihat, ayniqsa, kuchaydi.

**Tovar iste'molini normalashtirish.** 40-yillar davrida oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa iste'mol mollarini talonlar (yoki kartochkalar) bo'yicha tarqatish tizimi kiritildi.

Britaniya 1939-yil 3-sentyabrda urushga kirdi va og'ir davmi, ayniqsa, 1940-yil ikkinchi yarimi 1941-yil boshida boshidan kechira boshladi: nemis aviatsiyasi havo yo'llarini nazorat qilib turardi, nemis suv osti kemalari esa Britaniya transportlari tinch kemalarini cho'ktirib yuborishardi. 1940-yilda Britaniyada iqtisodi mustamlakalar resurslariga qaratilgani uchun materiallar taqchilligi kuzatildi.

1940-yil aprelda (paxta) ipga, zig'ir tolasiga, viskozaga (sun'iy ipak tayyorlash uchun quyuq yopishqoq modda) fuqarolarga kiyim tayyorlashda limitlar o'matildi. 1941-yilda fuqarolarga ipakdan kiyim ishlab chiqarish taqiqlandi. 1942-yilda Britaniya hukumati “Utiliti” rejasini qabul qildi. “Utiliti” rejasni mato va materiallarni ishlatishni normalashtirdi, tikuv korxonalarini tekshirib turdi, kiyim sifati va narxni nazorat qildi (talon bo'yicha kiyimlar ustama foizsiz (narxsiz) sotildi). Hukumat oldin to'qimachilik va tikuv korxonalarining 50% ni keyin 85% ni nazorat qildi.

Matolar va kiyim taqchilligi ko'pchilikni tikish bilan shug'ullanishiga majbur etdi. Urush paytida eski kiyimdan qanday qilib boshqa kiyim tikish, shlyapani qanday yangilash, sviterni qanday to'qish haqida - “Boricha epla va tuzat” shiori ostidagi tavsiyalar ko'plab broshyura va jurnallarda berib borildi. Kiyimlarni

sochiqlardan yostiq jildlaridan, mebel chexol (qoplama) laridan gardinlardan tayyorlandi.

“Utiliti”ga o’xshash rejalar qator boshqa mamlakatlarda ham qabul qilingan va ulardagi ba’zi bandlar ikkinchi jahon urushi tugagandan so’ng ham 4-5 yilgacha bekor qilinmagan.

**AQSH modasi – amerikacha uslubning yaratilishi.** Nemis armiyasi Parijni ishg’ol qilgandan keyin amerikalik modelyerlar Yevropa modasidan o’zlarini (alohida) mustaqil his eta boshladilar, chunki taslim bo’lgan Parijning modasi ommabop bo’lmay qolgan, Britaniya bilan esa bog’lanish, aloqa qilish qiyin edi. 1940-yil iyundan 1941-yil dekabrigacha amerikalik modelyerlar (masalan: “Valentina” modalar uyi, Charlz Djeyms, X.Karnegi) go’zal va o’ziga xos to’plamlar yaratdilar

1938-yil oktyabirida “International Herald Tribune” gazetasida “DU Pont” firmasi o’zi ishlab chiqargan neylon chulkilar reklamasini chop etdi, bu chulkilar Nyu-Djersi fabrikasida tayyorlanardi. Neylon chulkilar 1938-yilda Butunjahon ko’rgazmasida va 1940-yil mayda Amerika bozorida keng sotuvda paydo bo’ldi, u haqiqiy shov-shuvga olib keldi. 1943–1945-yillarda neylon chulkilar ishlab chiqarish to’xtaldi. Viskoza, shtapel kabi sun’iy gazlamalar faol ravishda ishlab chiqarishga joriy qilindi.

Urush yillarida modada amerikacha uslub shakllandi. Amerikalik modelyerlar o’z an’analariga suyanib ajoyib shakllar yaratishga harakat qildilar. Jurnallar kovboylar, yovvoyi g’arb pionerlari kiyimlari va (lotin) janubiy amerikacha “kantri end vestrn”, “quyoshli Kaliforniya modasi”, “gavay uslubi”, “kaktuskantri”, “mekzikacha uslub” kabi amerikacha uslublarni reklama qilardilar.

Jinsi, kovboylar ko’ylaklari, futbolkalar yoshlarbop kiyimga aylandi. Shu bilan birga AQSHdagi urushdan so’nggi davr yoshlari modasiga urush paytida asos solindi.

Urush paytida birinchi yoshlar antimodasi vujudga keldi. AQSHda uni qoratanli va lotinamerikalik o’smirlar yaratishdi, ular o’zlarini “Oq Amerika” qatnashayotgan urushga daxlsiz deb hisoblashgan. Bu antimoda ularning irqchilik jamiyatiga qarshi noroziligini ifodalardi. Nyu-Yorkdagi GArlem yoshlari esa “zut” kostyumi - uzunligi tizzagacha bo’lgan keng pidjaklar, beli burma

shimlar kiyib och rangdagi bo'yin bog'lar taqib sochlarini uzun qilib yurishgan (askarlarning kalta soch uslubiga teskari) "Zut" uslubi jazmenlar oraisda keng yoyildi, uni Lui Armstrong va Dizzi Gillespi ham kiygan. Bu antimoda 1943-yilda avj oldi. AQSHda "zut" kostyumi 1950-yilgacha saqlanib qoldi.

"Moda teatri". Ikkinchiji Jahon urishi paytida Parij modasiga yana e'tiborni jalg etish maqsadida "moda teatri" loyihasi amalgalashirildi, unda barcha moda uylari qatnashdilar. To'liq kolleksiya (to'plam) yaratish uchun gazlamalar yetishmas edi. Shunda qo'g'irchoqlar o'lchamida kolleksiya qilish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu loyiha - "Moda teatri" deb nomlandi. 1945-yilda bahor-yoz kolleksiyasi 68.5 sm balandlikdagi 200 ta qo'g'irchoq orqali ko'rsatildi. Bu qo'g'irchoqlar uchun moda uylarining har biri palto, kostyum, kunduzgi va oqshom ko'yaklari modellarini tayyorlashdi, oldingi kolleksiyalardan qolgan gazlamalar ham ishlataldi, hamda maxsus gazlamalar to'qildi. Har bir qo'g'irchoq uchun ipakdan ichki kiyimlar, shlyapalar, oyoq kiyimlari, sumkalar, taqinchoqlar tayyorlandi. 1945-yil 17-martda ochilgan bu ko'rgazmani 100 mingdan ortiq odam kelib ko'rdi, keyin ko'rgazma Yevropa va AQSH bo'ylab turnega jo'nab ketdi. Bu ajoyib g'oya urush vaqtida o'z ta'sirini yo'qotgan fransuz modasiga yana e'tiborini jalg etdi.

Lekin haqiqiy o'zgarishlar faqat 1947-yil fevralida sodir bo'ldi, aynan shu paytda urushdan so'nggi moda yaratildi.

### Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar

1. 1930-yillarda qanday voqealar sodir bo'lgan?
2. O'ttizinchiji yillar modasi qanday bo'lishga majbur edi?
3. Bu davrda qanday moda uylari inqirozga yuz tutdi va qandaylari ochildi?
4. Modaga Gollivudning ta'siri qanday bo'lgan?
5. Bu davrda libos uchun trikotaj, krep va charm qo'llanlishi haqida gapirib bering.
6. "Utiliti" rejasining maqsadi nima edi?
7. Amerikacha uslubning yaratilishiga nimalar sabab bo'lgan?
8. Antimodaning ilk ko'rinish qanday bo'lgan?
9. Nima uchun "Moda teatri" tashkil etilgan?

**50-yillar.** Urushdan keyingi bu yillarda mamlakatlar reabilitatsiya qilinib, vayron bo‘lgan shaharlar qayta qurila boshlandi. Buyuk Britaniyaning qayta saylangan bosh vaziri Uinston Cherchill oziq-ovqatlarning kartochkali sistemasini, keyin kiyim-kechaklarnikini ham bekor qildiradi.

Shuningdek, oilada ham ayollar mavqeyida o‘zgarishlar ro‘y beradi: endi ular ko‘p ishlashdan to‘xtaydilar, 50-yillar uy bekasining mashhur “glamur”lik timsoli paydo bo‘ladi.

**San’at va madaniyat.** Yangi, urushdan keyingi hayotning ijobiy muhitida ko‘plab kayfichog‘lik baxsh etadigan ko‘ngilochar filmlar paydo bo‘ladi va ularning namoyishi ommalashdi. “Yigitlar va qo‘g‘irchoqlar” (Guys and Dolls) myuzikli<sup>8</sup> va “Nafasi to‘xtaganlar” (Breathless) kabi filmlar mashhur bo‘lib, 50-yillarning tashvishsiz muhitini a’lo darajada yetkazib berar edi.

**Mato ishlab chiqarish sanoatidagi innovatsiya va yangi texnologiyalar** kam parvarish talab qiluvchi sintetik matolarni olishga imkon berdi. Hayot tarzining o‘zgarishi va faollashuvi, shahardan tashqarida dam olish, yashash, vaqt ni o‘tkazish urfining tobora rivojlanishi g‘ijim bo‘lmaydigan tuzilishga ega bo‘lgan akril, spandeks, poliester, triatsetat, neylon, orlon va dakron kabi matolarning ommalashuviga sabab bo‘ldi.

**Rok-n-roll.** Elliginchi yillar rok-n-roll va ritm-n-blyuz kabi musiqa yo‘nalishlarining rivojlanish davri bo‘ldi. Bu janrlarning mashhur ijrochilari Elvis Presli, Djonni Kesh, Djun Karterlar edi.

**Libosdagi shakl va siluetlar.** Elliginchi yillarda siluetlar yanada nazokatli va romantik bo‘la boshladи. Britan moda sanoati (industriyasи) amerika modasidan mustaqil rivojlanishni boshladи. Yangi ingliz modelyerlari ayollar qomatiga diqqatni tortuvchi liboslarni taklif eta boshladilar. Shu davrda Dior (Dior) o‘zining mashhur belga yopishib turadigan etagi esa keng ko‘ylaklarni yaratdi. Yuber Jivanshi liboslar uchun yangi shaklni taklif etdi: kalta

<sup>8</sup> myuzikl - [ingl. musical < musical comedy musiqiy komediya]. Musiqali sahna asari yoki komediya xususiyatiga ega bo‘lgan film, unda operetta, balet, estrada janrlarining elementlari qo‘llanadi.

va belga yopishib turmaydigan to‘g‘ri bichimli ko‘ylaklar. Keyinchalik bunday dizayn Meri Kvantni 60-yillardagi mini-ko‘ylaklarini yaratishga ilhomlantirgan. Shuningdek, topining ko‘rinishi erkaklar rubashkasiga o‘xhash, yubkasi esa keng bo‘lgan, belga yopishib turuvchi shaklli ko‘ylaklar ham modabop hisoblangan. Umuman olganda, trapetsiyasimon shaklli ko‘ylaklar 50-yillarning, so‘ngra esa 60-yillarning asosiy siluetlaridan edi. Bunday liboslarni yoping‘ich va pelerinalar bilan uyg‘unlashtirishgan.

Oliy moda urush oxirida o‘z rivojida qayta yuksalishni boshlaydi. Bunga Kristian Dior (Christian Dior) va Kristobal Balensiaga (Cristobal Balenciaga)larning, mavjud bo‘lgan uslublardagi jiddiylik, mutanosiblik va sipoligidan farq qiluvchi ekstravagant modellari sababchi bo‘ladi.

**Kundalik kiyimlar uslubi.** 50-yillarda tayyor kiyimlar ishlab chiqarish bumli boshlandi, va bu sohada “Marks and Spenser” britan kompaniyasi birinchilar qatoriga chiqdi. Amerika va fransuz modelyerlari “Marks and Spenser”ning uslubini o‘zlashtirib, xuddi ularниki kabi sifatli kiyimlarni pastroq narxda ishlab chiqarishga harakat qilishgan. Odri Xepbern kino aktrisasi tufayli “kejual” (“casual”) nomli uslubning elegant ko‘rinishi ommalashdi: kapri shimplari, qo‘lda to‘qilgan sviterlar va “baletka”- tuflilar. Qulayligi bilan bir qatorda, nazokatli bu uslub o‘sha davr modaparast ayollari didiga mos tushdi. Yozgi garderobda rangi yengil yubka bilan uyg‘unlashadigan bikini paydo bo‘ldi.

**Aksessuarlar.** Shlyapalar o‘rnini ro‘mollar egallay boshladи, ko‘p holda ularni o‘rashgan paytda kapalaksimon shakldagi ko‘zoynaklar taqishgan. Beldagi enli kamarlar qomatni yanada ta’kidlash uchun xizmat qilgan. Zargarlik buyumlari o‘rniga bijuteriya taqilgan, ayniqsa, yirik uzuk va bilakuzuklar ommabop bo‘lgan. 40-yillarning amaliy jihatdan tejamkor va ixcham poyabzali o‘rniga baxmal va timsoh terisidan tikilgan chiroyli bezakli, jozibali tuflilar keldi. Oyoq kiyim dizayniga o‘ziga xos yondoshgani uchun Roje Vivye poyabzal dizaynerining “baletka”lari va baland poshnali tuflilari 50-yillarda misli ko‘rilmagan mashhurlik cho‘qqisiga chiqqan.

**Erkaklar modasi.** Bu davrda erkaklar kiyinish uslubi “Kalamushlar galasi” tarkibidagi kabi kino va estrada yulduzлari ta’siri ostida shakllandи. Ular nafis kostyum va fetrli shlyapalar kiyishgan. Erkaklarning kundalik kiyimi kardigan va yengil katak-katak matodan tikilgan liboslarni o’z ichiga olgan.

Elliginchi yillarda “teddi-boy” deb nomiangan yoshlar submadaniyati paydo bo’ldi. Bu oqimning namoyondalari Eduard VII ning uslubiga o’xhash tarzda, pochasi tor “naycha shim”, qalin ko’ylak, yorqin rangdagi bo‘yinbog‘-galstuk, zarbof nimcha, ko‘p cho‘ntakli, manjet va adip qaytarmasi baxmal yoki sirti yaltiroq satindan tikilgan, taqilmasi bir qator tugmachali syurtuklarni oliftalaracha taqlid qilib kiyib yurishgan.

Kino akterlarining erkaklar modasiga yana bir ta’siri shundan iborat ediki, “Sababsiz qo‘zg‘olonchi” filmidagi Djeyms Din qahramonining azaldan erkaklar ich kiyimi hisoblangan futbolka modali trendga aylandi. Bundan tashqari akter djinsi kostyumi ham ommalashuviga sabab bo‘lgan. Marlon Brandoming “Istaklar” nomli tramvay” filmidagi qahramoni esa to‘q rangdagi djinsi-shim, tanaga yopishib turuvchi tor futbolka va charm kurtka kiyib yurishi bilan barchaning yodida qolgan. Keri Grant tufayli esa silliq taralgan sochlar ommalashdi.

**O’n yillikdagi uslub siymolari, timsollari (ikonalari).** Bu yillardagi siymolar hozirgi kunda ham tahsinga loyiqdir. O’zining orasta va bashang, lekin shu bilan birga tabiiy va bemalol uslubda kiyinishi bilan tomoshabin muhabbatini qozongan Odri Xepbern modaga kapri shimplarini kiritgan. Merilin Monroe dunyodagi seks timsollaridan biriga aylandi. Uning hayot va ekrandagi serhasham, havasni keltiradigan, e’tiborni o’ziga tortadigan liboslari 50-yillarning glamur uslubini mujassamlantiradi. “Kelinning otasi”, “Quyosh ostidagi joy”, “Dabdurstdan, o’tgan yozda” kabi filmlar esa o’n yillikning yana bir go‘zallik timsoli hisoblangan yorqin Elizabeth Teylorga mashhurlik olib kelgan. Undan tashqari bular qatoridan Bridgit Bordo, Greys Kelli va Sofi Lorenlar kabi mashhur kino aktrisalari joy olgan.

**Shanelning qaytishi.** XX asrning 50-yillarida Shanel (Chanel) o’zining ijodiy faoliyatini qaytadan boshladi. Libos uchun haddan

tashqari ko‘p mato ishlata digan dizaynerlarni (masalan: K.Dior yaratgan bitta ko‘ylagi uchun ba’zan 30 metrdan ziyod mato ishlatilar edi) tanqid qilib, “nyu-luk” uslubidan farq qiluvchi elegant uslubni taklif etdi. Chanel Oliy Moda quyoshining botishini sezgandek, modaning kelajagini ommaviy xaridor uchun tayyor kiyim ishlab chiqarishda deb bilardi.

**Oltmishinchchi yillar - “Pret-a-porte” davri.** Bu davrda moda yoshlarga yuz burdi. Yangi, jonli, so‘ngsiz tarzda kashf etuvchi moda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan andoza va me’yorlar bo‘lishdan to‘xtadi. Moda haqidagi barqaror tushuncha tagidan zil ketib, deyarli g‘oyib bo‘ldi.

Urushdan keyingi yoshlardan kiyimning amaliy jihatdan yaxshiligiga qarab baho beradi va o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatini qidiradi. Natijada uncha qimmat bo‘lmagan, ammo modali narsalarga ehtiyoj ortdi. Fabrikalar va uncha katta bo‘lmagan firmalar yosh xaridorlarni mo‘ljal qilib tayyor ko‘ylaklarni ommaviy tarzda ishlab chiqara boshladilar. 60-yillar oxiriga kelib dunyodagi kiyimlarning yarmidan ko‘prog‘ini 25 yoshdan kichikroq odamlar sotib olgan. AQSHda barcha sotilgan kiyimlarning 95 foizini tayyor kiyimlar tashkil etgan. Fransiyada esa bu raqam 25 foizga yaqin. Parijda 40-yillar oxirida Amerika tajribasidan foydalanishga qaror qilingan. Shu bois Alber Lamperyer ishlab chiqarish, sotish va mijozlar bilan ishlash tizimini o‘rganib, ikki yilni Qo‘shma Shtatlarda o‘tkazdi.

1947-yilda Fransiyada Lamperyer taklif etgan “Pret-a-porte”<sup>9</sup> atamasi birinchi marta iste’molga kiritildi. 1956-yilda Versalda pret-a-porte Saloni birinchi marta tashkil etildi, u minglab odamlarga xizmat qilishga qodir moda industriyasini tug‘ilganini namoyish etdi.

**Erkaklar modasi.** 50 – 60-yillarda erkaklar modasining qonun chiqaruvchilari Italiya Modalar uylari bo‘ldi, Neapol, Rim va Milanning ko‘hna atelyelerida saqlanib qolgan tikuvchilik mahorati an’analari, shuningdek, keng to‘qimachilik bazasi shunga imkon

<sup>9</sup> “Pret-a-porter” (farangcha talaffuzda “pret-a-porte” - tayyor ko‘ylak industriyasini, tayyor ko‘ylak ishlab chiqarish sanoati ma’nosida) – kiyim korxonasi va fabrikalarda tayyorlana boshlanishi natijasida XX asrda paydo bo‘lgan tayyor kiyimlar ishlab chiqaruvchi sanoatiga tegishli bo‘lgan kiyimlar sinfi. Bu turkumga mansub kiyimlar nusxalari soni, sifati va narxlari doirasida yana bir necha sinflarga bo‘linadi.

tug'dirdi. O'sha vaqt uslubining tipik uslubini Federiko Fellining "Shirin hayot" (1959-y.) filmida ko'rish mumkin. Modali erkaklar kostyumi yelka chizig'i qirqilgan kalta pidjak va burmasiz to'g'ri tor, odatdagidek manjetsiz shimdan iborat bo'lgan. Bunday kostyumda ensiz galstuk taqilgan va uchli tuqli kiyilgan. Italiyanidan bu uslub butun Yevropa bo'ylab yoyilgan va Amerikani zabit etgan. Londonda u jaz muxlislari, o'zlarini "modernchilar" yoxud "modlar" (qisqacha the mods) deb atagan yosh modaparastlar orasida urch bo'lgan.

**Yosh iste'molchi.** Modaga yangicha munosabat tashabbuskorlari kollejlarning bitiruvchilari edi. 1948-yildayoq Londondagi Qirollik san'ati kolleji qoshida Moda maktabi ochildi. U modelchilarning yangi xilini tayyorlar edi, ular kiyimni modellashtiribgina qolmay, uning narxi, mato chiqimi qanday bo'lishini ham hisob-kitob qilib chiqar edi. Amerikada butunlay yosh iste'molchilar paydo bo'ldi, ular shu vaqtgacha moda industriyasiga jiddiy qaramay kelgan o'smirlar edi.

London yoshlar uchun yangi moda tug'ilgan joy bo'lib qoldi - jonlilik, tinimsiz kashfiyotchilik va o'zgaruvchanlik, umum tomonidan e'tirof etilgan andozalar bilan hisoblashmaslik (masalan, kunduzgi va tungi kiyim), va eng asosiysi yubkalarning tor bo'lishi bu modaga xos xususiyatlardir. "Svinglovchi London" - o'yin kulgilar, oqshomlar va klublar shahri - o'zini an'anaviy ingliz modasiga tivit va jundan tikilgan bosiq kostyum va paltoga qarshi qo'ydi. 1963-65-yillarda mini-yubkaning paydo bo'lishi mana shu ziddiyatning eng yuqori nuqtasi bo'ldi.

**Orastalik belgisi ostida.** Modaning asosiy iste'molchilar tegishli uslubni ham afzal ko'ruchchi davlatmand xonimlar hisoblangan, yigit va o'smirlarga esa shu uslubning sodalashdirilgan varianti taklif etilgan. Umuman, onda-sonda uchrab turadigan g'ayri oddiy istisnolar bilan hamma bitta andozadan ibrat olgan: yubka va shimning bo'yi, pidjakning yoqasi eni va shlyapa cho'qqisining balandligi 17 yoshdagilar uchun ham, 70 yoshdagilar uchun ham bir xil bo'lgan.

Deyarli 1965-yilgacha kundalik kiyimda orasta uslub ustunlik qilgan, uning mezoni aktrisa Odri Xepbyorn va Amerika

prezidentining xotini Jaklin Kennedy bo'lgan edi. Ayollar modasi markazi Parij bo'lib qolaverган, u yerda Dior (1957-yilgacha), Balensiaga, Chanel va modelchilarning yosh avlodи Iv Sen-Loran, Pyer Karden, Emanuel Ungarolar ishlaganlar. Ammo o'zgarish bo'lishi sezilib turardi – orasta uslub ichida hordiq va sportbop kiyimlar paydo bo'la boshladi.

Shunday qilib moda o'zining elitar ma'nosini yo'qotdi va ommaviy industriyaga aylandi. Yaxshi kiyimni endi pochtadan buyurtma qilish va supermarketda sotib olish mumkin edi. Garchi mohiyatan yangi moda juda katta ko'yaklar va paltolar, handasaviy rasmlar va yassi poyabzal faqat xushqomat yoshlarga mo'ljallangan. 60-yillar oxiriga kelib barcha xotin-qizlar shunday kiyinar edilar. Yoshlarga sig'inish odatga aylangandi.

Italian dizayneri Emilio Puchchi moda olamiga eng yorqin suratlarni olib kirdi va sport kiyimini orasta kostyumga aylantirdi. 50-yillarda Puchchi to'qimachilik ishlovlariiga ko'p e'tibor qaratdi, kelajagi porloq yangi elastik matolarni sinab ko'rdi - bular ipak jersi, duxoba, flanel va sintetika edi.

60-yillarning o'rtalarida hippi harakati vujudga keldi. Yigit-qizlar burjuacha qadriyatlarga, jumladan, keng urf bo'lgan modaga qarshi chiqsa boshladilar. Ular yirtiq jinsilar, uzun yubkalar (hamma mini yubkada yurganda), etno ruhidagi to'kilib turuvchi romantik yubka va nimchalar kiyar va sochlarini uzun qo'yar edilar. 1968-yilning "Muhabbat yozi" deb atalgan yoz fasli bu harakatning yuqori cho'qqisi bo'ldi va talabalar g'ala'yonlariga qo'shilib ketdi.

Biroq ko'p o'tmay norozilik va antimodadan bu uslub modaga aylandi. Endi hippi usulida faqat norozi odamlargina kiyinmayaptilar. Hatto eng boylar ham uzun jinsi yubka kiyib, boshlariga shol yoki amerika bandanasini o'rayaptilar, afrika munchoqlari va Hindiston bilaguzuklari taqishayapti.

Hippi harakati etno-uslubiga qiziqish uyg'otdi. 1967-yilda burmalar hosil qiluvchi va badanga yopishib turuvchi erkin kiyim, parday yengil sharflar, tunikalar va turk sholvori, 1969-yil yozida esa shaffof bluzka va ko'yaklar modaga kirdi.

Oliy moda olamidagi tajribachi Pako Rabann 1965 yilda ma'dan va plastik ko'yakni taqdim etdi. Kechki liboslar xalqachalar bilan

ulab chiqilgan ma'dan tangachalardan qilingan: "kunduz ko'ylagi" o'sha tarzda, faqat charmdan ishlangan. Maneken qizlar bu xiyla tiniq liboslarni badan rangidagi triko ustidan namoyish qilganlar. Biroq Kurrej, Ungaro yoki Karden modellaridan farqli o'laroq Rabann mahsulotlari "sof san'at" bo'lib, kundalik modaga uncha ta'sir qilmagan. Ular zamonning tajribachilik ruhi timsoli bo'lib qolgan.

60-yillar oxiri 70-yillarga kelib, moda jurnallari sahifalarida hukm surgan uslublar xilma-xilligi kishini hayratga solidi. Andri Kurrejnning futuristik liboslaridan afsonaviy o'tmis mavzusidagi romantik variatsiyalargacha yetib keldi. Bu shuni anglatadiki, o'sha vaqtidagi moda haqidagi barqaror tushuncha tagidan zil ketib, qariyb izsiz yo'qoldi. Yangi avlod nimani xohlasa va qachon xohlasa kiyaveradigan bo'lib ketdi.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. 50-yillarda san'at va madaniyatning o'ziga xos jihatlari qanday?
2. Mato ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar haqida gapirib bering.
3. 50-yillardagi musiqa va uning ta'siri libosda qanday namoyon bo'lgan?
4. Kundalik kiyimdagagi o'zgarishlar qanday bo'lgan?
5. Erkaklar modasi shu davrda qanday bo'lgan?
6. K.Diorming ijodiy faoliyati qanday bo'lgan?
7. Shanelning moda olamiga qaytib kelishi qanday bo'lgan?
8. "Pret-a-porte" paydo bo'lishi haqida nimalarini bilasiz?

## XX ASR 70-YILLARI MODASI

**Postmodernizm davri.** Postmodernizm XX asr 70-yilida paydo bo'lgan san'atdagi yo'nalish (pop-artdan boshlab) bo'lib, unda ilgari yaratilgan shakldan yangisini qurish uchun foydalilaniladi. Boshqalardan ko'chirma qilib olish badiiy usulga aylanadi, "predmetlar" o'rtasidagi o'zaro yangi bog'liqliklarni qidirib topish asosiysi hisoblanadi, ularda uslublar (o'tmisht va hozir), ulublarning uzvlari, matnlar xizmat qilishi mumkin va h.k. Postmodernizm bu uslubdan ko'ra ko'proq yaratilayotgan narsaga yondoshuv, munosabatdir; ko'pincha, u o'yin, kinoya va o'zidan kulish unsurlarini o'z ichiga oladi.

70-yillar o'rtasiga kelib libos modasida ikki asosiy yo'nalish ajralib chiqdi, biri mumtoz qulay kiyim bo'lsa, ikkinchisi badiiy, favqulodda kiyim. Parij va London bilan bir qatorda Nyu-York va Milan ham moda markazlari deb e'tirof etildi. Endi u yoki bu g'oya qayerdan kelib chiqqanini yuz foizlik ishonch bilan aytish qiyin bo'ldi. Barcha zamonlar va qit'alar ilhom manbalari bo'lib xizmat qilgan. Yangi moda yangi nomlar yaratgan. Ayrim ustalar bir-ikki yil mashhur bo'lganlar, ikkinchilari modaning chinakam sultanatini qurbanlar, uchinchilari moda tarixiga abadiy kirganlar.

**Parij - yangi nomlar.** Fransiyada Iv Sen-Loran va Pyer Karden ijod qilgan. Pyer Karden kiyimning "pret-a-kutyur" degan yangi tizimini yo'lga qo'ygan, ya'ni u oliy moda va tayyor ko'ylak o'rtasida bo'lgan. O'sha vaqtning o'zida faqat pret-a-porte yo'li uchungina ishlagan yosh modelchilar kuch to'play boshlagan edilar, birinchi galda trikotaj qirolichasi unvoni olgan Sonya Rikel tilga olinadi. 1962-yilda u o'zining birinchi sviterini tikdi, birinchi do'konni esa 1968-yilda, talabalar g'ala'yoni avj olganda ochdi. 60-yillar o'rtasidan trikotaj uning diqqat markazida bo'ldi: ochiq rang, to'qilgan, hajmdor yoki chiziqli gullari bor koftalar, shimlar, korjomalar va shularga yarasha aksessuarlar - beretlar, qo'lqoplar, paypoqlar. 70-yillarda Sonya Rikel bo'yoqlar va ranglarning nozik o'yinini hayotga qaytardi, yo'l-yo'l chiziqlar esa uning firma belgisi hisoblanadi. 1973-yilda Sonya Rikeli pret-a-porte Sindikatining vitse-prezidenti qilib sayladilar, bu lavozimda u 20 yil ishladi.

1963-yildan Parijda nemislardan kelib chiqqan Karl Lagerfeld ishlaydi, u Balmen va Jan Patuda o‘qigandan keyin lyuks toifasidagit pret-a-porte kiyimini yaratadigan Xloe Uyining yetakchi modelchisi bo‘ladi. Lagerfeld liboslarida moda, hunar va san‘at tarixi bitta bo‘lib keladi, bundan usta har doim ilhom qidirib keldi.

Parijda boshqa mamlakatlarning modelchilari ham o‘z jamoalarini taqdim etganlar. Xanae Mori, Kendzo Takada, Issey Miyake kabi yapon dizaynerlari ishlari ko‘proq ajralib turar edi, ular jahon modasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganlar (xususan etnik mavzularga qiziqish jara’yonida).

Garchi 60-yillardan dizaynerlar futuristlar modasi g‘oyasini (ya’ni kelajak modasi g‘oyasi) ishlab chiqsalar-da, ayni vaqtida yangi shakllar qidirib topishda ular turli xalqlar an‘anaviy madaniyatlariga ham murojaat qilganlar. 70-yillar o‘rtasida o‘ziga dunyodagi bor rang-baranglikni singdirpib olgan etnik uslub yana ommabop bo‘lib qoldi. Uning asosida badiiy jihatdan qayta fikrlangan hippi uslubi ommaviylashdi: keng yubkalar, yengil matodan tikilgan bluzkalar, ko‘ylak yoki charaqlagan mato rangiga monand juda uzun sharflar.

Etnik uslub o‘z rivojida bir nechta to‘lqinlarini boshdan o‘tkazdi. 1966–68-yillarda birinchi to‘lqin yurib o‘tdi - bu hind to‘lqini edi: modada Neru uslubidagi nimchalar bor edi. 1972-yilda Amerika prezidenti Nikson Xitoya borgandan keyin xitoy mavzusiga shadorliklarga navbat keldi. 1976-yilda rus mavzusi keldi (masalan, Iv Sen-Loran jamlamasidagi kuz-qish 1970–1977-yillar), 1977-yilda Tutanxamon maqbarasi xazinasi ko‘rgazmasidan keyin misr mavzusi paydo bo‘ldi, 1980-yilda esa dunyoda Yaponiyaga qiziqish kuchaydi.

**Italiya – yumshoq glamur.** 70-yillar o‘rtalarida Parij modasiga Italiya modasi qarshilik qildi. Mamlakatning o‘z ichkarisida Rim, Florensiya va Milan moda poytaxti unvonini talashar edi. Bu musobaqada Milan yengib chiqdi. Tarixiy jihatdan Italiyada to‘qimachilik industriyasi juda rivojlangani tufayli uning manufakturalarida lyuks toifali matolarning katta qismi ishlab chiqarilardi. 70-yillarda Valentino Uyi va Mila Uyi keng shuhrat topdi. Keyinroq ularga Jorjio Armani va Janni Versache kelib qo‘sildi, ular endi 80-yillarning buyuk modelchilari edi.

Italyancha uslub yorqinligi, beozor dabdabaliligi va hayotbaxshligi bilan ajralib turadi, bu sifatlar orastalik va me'yor tuyg'usi bilan qo'shilib ketardi. Masalan, 1971-yilda maksi kiyimlari o'mnigi mini kelganida, Valentino (to'liq ismi sharifi - Valentino Klemente Lyudoviko Garavani) tagidan mini short kiyiladigan qirqimi baland uzun yubkani taklif etdi.

Italiya modasida ba'zan mato asosiy rol o'naydi. Buni jumladan, matoda murakkab naqshli rasmlari bilan shuhrat topgan Missoni Uyi (1953-yilda ochilgan) haqida ham gapirish mumkin. Missoni rang-barang ilonizi kashtali yangi to'quv texnologiyasini o'ylab topdi. Buning uchun u 1973-yilda Neyman Markus obro'li mukofotlardan birini oldi. Bu oilaviy Uyning (ko'pchilik Italiya moda kompaniyalari kabi) o'ziga xos xususiyati shakl va bichiq emasdi, balki kapalakning yetti rangida tovlanuvchi mato edi. Matoga xos qulaylik va yorqin bo'yoqlar Missoni kiyimlarini 70-yillarda juda mashhur qilib yubordi.

Orastalik har doim Italiya modasining asosiy xususiyati bo'lib kelgan. Valentinoning dunyoni zabit etgan yumshoq glamour (fp glamour dan - "bashang", "zebo", "sehr") ushbu uslubning mukammal tajassumi bo'ldi. Valentino pret-a-portening erkaklar va ayollar yo'lini izga solib yubordi. Chiziqlar mayinligi, ajoyib bichim va mumtoz ranglardagi (qora, qizil, oq) ajoyib matolar hammani maftun qilar edi.

**Yaponiya – avangard.** Pol Puare va madam Vionnedan boshlab, Yaponiya ko'plab G'arb dizaynerlarini ilhomlantirib kelmoqda. Ammo uzoq vaqtgacha "yaponcha moda" degan tushuncha bo'Imagan. Yaponiyadan keltirilgan liboslar ikki turga bo'lingan: qimmat kimano va arzon buyumlar; urushdan keyingi Amerikada bu "1 blouse" - "bir dollarlik bluzka" deb kinoyали nom olgandi. 70-yillarda hammasi birdan o'zgardi: aynan yapon dizaynerlari Yevropa modasiga ta'sir ko'rsata boshladи.

70-yillarda Kendzo, Miyake keyinchalik 80-yillarda Yamamoto fransuz va jahon modasining ommabop me'yorlariga zid keladigan liboslarni namoyish etishdi. Yapon modelchilarining g'alati to'g'ri handasaviy va aksincha, shaklsiz siluetlari yevrlopaliklarni tang qoldirdi.

Kendzo Tamada (1939-yilda tug‘ilgan) 1970-yilda Parijda o‘zining “Lungle Jap” butigini ochdi. Kabuki<sup>10</sup> teatri uslubidagi yorqin rangli modellarning gul va naqshlari muvaffaqiyat keltirdi. Kendzo tufayli liboslarning sharqona an’anaviy shakllari - keng tunikalar, bluzkalar, keng shimplar yevropaliklar orasida ommabop bo‘lib ketdi. Etno-motivlar Kendzoni ruhlantirgani bilan u hech qachon u yoki bu madaniyatdan bevosita ko‘chirib olmas edi.

Rey Kavakubo (1942-yilda tug‘ilgan) Tokioda o‘zining mashhur “Comme des Garsons” (“Bolakayga o‘xshab”) Uyiga asos soldi. Modelchining birinchi jamlamasini parijliklar zaharxandalik bilan “Xirosima-shik” deb atagan edilar, bu bilan ular modelchi yaratgan modellarning hayotdan uzoqligiga, qo‘poligiga sha’mal qilgan edilar. Shunday bo‘lsa-da, bu “dikkayib turuvchi” kostyumlar va ko‘ylaklarning detallari badanni qandaydir san’at asariga aylantirib, o‘z muxlislarini topdi va 80-yillar modasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bunda barcha ranglarga qora rang hamrohlik qilardi. 70-yillar oxirida yaponlarni faqat texnologiyalar sohasida emas, balki moda sohasida ham eng ilg‘or deb bilar edilar. Yoji Yamamoto (1943 yilda tug‘ilgan) esa, aksincha, g‘arb shaklini asos qilib oldi-da, uni sharqona fikr bilan to‘ldirdi. Ko‘pgina yapon dizaynerlariga kiyimdagи sharq an’analari haddan tashqari tor bo‘lib ko‘rindi (ham to‘g‘ri, ham majoziy ma’noda), shu bois ular yevropacha bichish-tikishni o‘rgandilar. Krinolinklar, syurtuklar, bluzkalar, yubkalar - bu barcha arxetiplar Yamamoto jamlanmasidagi G‘arbiy Yevropa liiboslari ichida bo‘lib, ustaga bo‘ysungan holda ko‘rinishini o‘zgartirgan. Uning ishlari (masalan mashhur “To‘y” jamlamasi, 1988-yil) faqat modadagi avangardligi uchun emas, balki faylasufona va romantik bo‘lgani uchun ham shon-shuhrat keltirdi. Asmimetrik bichim bilan o‘yin, kiyimning yapon va g‘arb an’anaviy shakllari o‘zgarishi va qo‘silib ketishi ikki asosiy rang – oq va qoradan iborat darveshona palitra uning uslubiga xos narsalardir. Ko‘pincha Yamomotoni qora rang shoiri deyishadi, bu rang bir vaqtida ham bosiq, ham ko‘tarinkidir, zimmasiga hech narsa olmaydigan dangasa rang ham, biroq ayni vaqtida taqvo rangi ham.

<sup>10</sup> kabuki - XVII asrda vujudga kelgan Yaponiya mumtoz teatri turi.

Yapon modelchilari birinchi bo'lib yengi olinadigan, o'zgaradigan, yoqasi almashtiriladigan modellarni kiritdilar. Yaponiyada qadim zamonlardan matoga – uning fakturasi, rangi, guli, qulayligi va hokazolarga katta e'tibor qaratib kelganlar. Hozirgi zamon yapon modelchilari uchun mato – butun jamlamani tashkil etish uchun asosiy vositadir.

Issey Miyake (1938-yilda tug'ilgan) Tokioda o'zining studiyasini 1951-yilda ochdi. U matoning o'zining ifodaliliigi, oddiy handasaviy shakli, haddan tashqari oddiy bichiq, burma va qatlamlashtirishdan foydalanadi (bu uning firma belgisi bo'lib qolgan).

Badan matoga yengil o'raladi, harakat qilganda o'ynab, o'zgarib turadi. Inson badani harakatlariga moslashuvchi libos yaratish o'miga yapon modelchilari libos yordamida bu badanni o'zgartirganlar. Kiyim dizayni haykalning qardoshi plastik san'atga aylandi.

Yapon dizaynerlari ta'siri ostida g'arb modelchilari ham "yaxshi" didning odatdagи shartlaridan xoliroq kiyimlar yarata boshladilar, mato, libos, mutanosiblik, rangga boshqacha ko'z bilan qaraydigan bo'ldilar. Zamonaviy yapon dizaynerlariga, asosan, ko'cha modasi ozmuncha ta'sir ko'rsatmadи, unda barcha zamonlar va xalqlarning uslub va yo'naliishlari qorishib ketgan. Bu mamlakatda an'anaviylik va zamonaviylik, masalan, kimono va qo'l telefonlari bir-biriga uzviy birikib ketadi.

**Nyu-York – minimalizm.** Amerikalik xotin-qizlar 60-yillar oxiridagi Yevropa romantikasini qabul qilishmadи.

70-yillar o'rtalaridan Amerika modasida Kelvin Klyayn, Xalston va Jefri Bin kabi yangi dizaynerlar o'zlarini ko'rsata boshladilar. Roy Xalston Frovik (1932-1990) 70-yillar Amerika minimalizmi tajassumi. Xalston avval shlyapado'zlik qilardi, keyin kiyimga o'tdi. Uning uslubi badavlat odamlar orasida tez ommalashib ketdi, chunki bichimining benuqsonligi va ko'rinishining odmiligi bilan ajralib turardi, ayni vaqtida bashang va qulay edi. Modelchining mijozlari orasida Amerika prezidentining rafiqasi Jaklin Kennedy va aktrisa Laiza Minnelli bor edi. Xalston keng shim va tunikadan, yumshoq jersi va kashemir T-simon yaxlit bichilgan yengli libos, ipak jersi va ultrazamshadan ko'yak va uzun sviterni modaga kiritgan.

**Buyuk Britaniya – eklektika.** Sanoat korxonasi tobora murakkablashib boraverdi, tobora ko‘proq ishlar mashina qo‘liga o‘tib qoldi. Birmuncha muddati dizaynerlar yana o‘tgan asrlarning tikuvchilik san‘atiga qaytish zaruratini his etib qoldilar. Ayrimlar hatto o‘z jamoalari uchun o‘z qo‘llari bilan to‘qish va bo‘yashga kirishib ketdilar.

Shuni aytish joizki, Buyuk Britaniyada yagona, sinovdan o‘tgan yo‘nalish yo‘q edi – ko‘proq fantaziyalı-romantik kayfiyat hukmron edi. Ammo 70-yillar oxirida hech bir moda bilan murosa qilolmaydigan, har qanday qoidaga qarshi isyon ko‘targan dastlabki yosh anarxiyachilar paydo bo‘ldi. Londonda panklar ko‘zga tashlanib qoldi.

**Erkinlik va poliestr.** 70-yillarda yana xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish haqida gapira boshlashdi va “jahvoniyat” tushunchasi paydo bo‘ldi, bunda ayollar faqat xohish vositasi deb qaralar edi. O‘ziga bunday munosabatni chetlab o‘tish uchun ayol mini-yubka va “baland poshnadan voz kechishi hamda jinsini bo‘ttirib ko‘rsatmaydigan kiyimlar kiyishi kerak deb tushunilar edi. Birinchi galda bu ish libosida aks etdi. Dam olish va ishslash uchun hatto uniseks kiyimi paydo bo‘ldit (har ikki jins uchun birday to‘g‘ri keladigan kiyim), masalan, sviter yoki bluzka bilan kiyiladigan jinsi shim.

Shu bilan bir vaqtida XIX asr uslubidagi “daqqiyunusdan qolgan” kiyimlar modaga kirdi - baland yoqalar, bluza va yubkadagi burmalar, shollar, ko‘ylaklar. Iv Sen-Loran pechvork (turli qiyqimlardan quroq buyum yasash)ni oliy moda taomiliga kiritdi.

Kundalik kiyimda murakkablik o‘rniga tabiiylik keldi, bu, eng avvallo, amerika dizaynerlari ijodida namoyon bo‘ldi.

70-yillarning ikkinchi yarmidan qulaylik yuksak qadrlangan, yubkaning bo‘yi tizzaga kelib to‘xtagan, yupqa tagcharmlı tuflı yana qaytib kelgan. Kiyimda erkin harakat qilish va orastalikni yo‘qotmaslikka imkon beruvchi jersi buyumlari ommalashib ketgan. Bular barchasi o‘n yillikning ikkinchi yarmidagi kundalik ayollar libosi uslubini belgilab berdi. Sintetik matolar o‘n yillikning eng modali yangiligi bo‘ldi – yengil, chiroyli, hoyat kirchimol, ishbop. Undan hamma narsa tikanlar: ichko‘ylak va ko‘ylaklar, sport buyumlari va ishbop kiyimlar. Uslublarning barchasi - qulaylari

(jinsi va sviterlar), ishboplari (ko‘ylaklar, tivit yubkalar, kostyumlar) va romantik-etniklari (uzun ko‘ylaklar, kashtalar, to‘rlar, shollar)-bir-biri bilan yaxshi “chiqishgan”, uzviy birlashib ketgan, bu postmordernizm davrining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. 70-yillarning boshida mini-yubkalar kalta shortga aylandi. Ko‘chalarda mini maksilar bilan yonma-yon uchrar edi. Unisini ham, bunisini ham poshnasi baland tufldi bilan kiyar edilar. Xotin-qizlar liboslari ichida shim va kostyum-shimlar muhim o‘rin tutgan. Ularni kiyib, ishga, restoranga bemalol boraversa bo‘lardi. Son tomoni qisqa shimlar pastga tomon kengayib borardi va poshnapi yopib olishi kerak edi, shunda oyoqlar uzun va xushbichim ko‘rinardi.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Postmodernizm davri libos modasi qanday bo‘lgan?
2. Bu davrda qaysi fransuz modelyerlarning nomi mashhur bo‘la boshladi? Buning sababi nimada?
3. Shu davrda Italiya modasi ta’siri qanday bo‘lgan?
4. Bu davrda moda sahnasiga chiqqan yapon avangardchilari haqida nimalarni bilasiz?
5. Minimalizm tushunchasiga ta’rif bering. Amerikada bu qanday namoyon bo‘lgan?

## **XX ASR 80-YILLARI MODASI**

O’n yillik qiyofasi haqida bir xil gap aytish mushkil. Bir tomonidan, saksoninchı yillar - hashamat va farovonlik vaqtı, ikkinchi tomonidan - tartibsizlik va bu farovonlikka qarshi norozilik vaqtı. Yaxshilikdan darak beruvchi qoidalar o‘zgarib ketdi. Bordi-yu, sizda pul bo‘lsa, bu namoyish qilinardi; bordi-yu, sizda pul bo‘lmasa, kiyim sizni puli bordek qilib ko‘rsatardi.

Tortinchoqlik modadan chiqib ketgandi. Ishlab chiqaruvchi haqida yaxshigina guvohlik beruvchi qiqartish so‘zlar aksesuar va liboslarni bezardilar sport kiyimlaridan tortib, kechki ko‘ylaklargacha charm sakvoytlar va ikki harfdan iborat qisqartma so‘zli “Louis Vuitton” firmasi sumkalari, Dior yoki Shanelning tilla

qisqartina so‘zları ko‘rinishidagi sirg‘anchasi ayollar sumkachalari va zalvorli “Rolex” soatlari faxrlanish buyumlari bo‘lib qolgandi. Buyumlar, ularning narxlari va rusumi egasining jamiyatdagi o‘rnini va uning bankdagi hisobi haqida guvohlik berar edi. Yappi (yippis young urban professional – “yosh shahar professional”ning qisqargani) – biznesmenlar yangi avlodni orasida libos muvaffaqiyat garovi deb qaralardi, go‘yo o‘zligini namoyon etish erki qidirilgan o‘n yilliklar bo‘lmaqday Pol Puare zamonida bo‘lganidek, modelchilar yana dunyoni so‘ray boshlashdi: Armani liboslari xizmat lavozimida ko‘tarilishga, Versache ko‘ylagi esa noma’lum qizni yulduz darajasiga yetishuviga imkon berdi (Elizabet Xyorlida shunday bo‘lgan edi).

Ammo bu o‘nyillik tartibsizlikda va farovonlikka qarshi g‘ala'yondan boshlangandi.

**Pank va yappilar. Yuvindi o‘ra estetikasi.** Panklar birinchi marta 1976-yilning yozida Londonda badiiy maktablarda o‘qiyotgan yoshlar orasida paydo bo‘ldi. Ular Chelsi tumanining Kingz-roud ko‘chasidagi “JEX” nomli kichikroq butigida to‘planar edilar. Zut uslubidagi kostyumlar (qopsimon shimlar va uzun pidjaklar) va roker mototsiklchilarning charm kurtkalari sotiladigan butik egalari Vivyen Vestvud (1941 yilda tug‘ilgan) va Malkoli Mak Laren edi. Pank uslubini yoshlarning o‘zi emas, balki mana shu ikki dizayner yaratgandi, ularga Mak Loren tashkil etgan “Sex Pustols” guruhi ta’sir qilgandi. Musiqa bilan birga bu uslub butun dunyo bo‘ylab tez yoyilib ketdi.

Pank tartibsizlik kayfiyatini o‘zida jamlab, jamiyatni lol qoldirish istagida edi. Yumshoq va tinchliksevar, silliq ranglarni xush ko‘rki va shim va yubkalarga gulkashtalar tikkan hippilardan farqli o‘larov panklar qora va xiyla tajovuzkorona tusdagi kiyimlar kiyganlar. Ularning sevimli matosi qoracharm edi.

Bu uslubni tushunish uchun maxsus “yuvundi o‘ra” so‘zi bor. “Hamma narsa qarshi bo‘lishi kerak”, - degan g‘oyadan kelib chiqib, yirtiq va eski buyumlar, qavat-qavat kiyimlar-u ulardan pala-partish foydalanish olqishlanardi. Temir zanjirlar, halqachalar, bosma tugmalar, molniyalar va charm kamarlar aksesuar bo‘lib xizmat qilardi va bular barchasi har ikki jins uchun edi: yuzlarini birdek

chiroyli bo'yab olishar, sochlari prokez nusxasida turmaklar edilar. Shunday bo'lsa-da, pankni uniseks uslubi deb bo'lmas edi. Pank qizlar ko'pincha charm kurtka va yirtiq maykalariga yarqiragan mini yubkalar va to'rnusxa gulli kolgotkalar kiyar, gohida esa baquvvat "Doctor Martius" botinkalarini uchi o'tkir, kalta va nixli etikka almashtirar edilar. G'arbda pank uslubi a'lo darajada ishlab chiqilgan dastur bo'lsa, Rossiyada u ko'proq "Kelajagi yo'q" deb baholanar edi; pank modasi turli xildagi tartibbuzarlar va isyonkorlar uchun uniforma bo'lib qolgandi. Londonda esa o'nyillik oxiriga kelib bosma tugmali qora charm buyumi kiyim va bo'yniga tasma taqqan, sochlari yaltiroq yigitlar endi tartibsizlik va isyon timsoli emas, turistlarga "ko'z tanish" bo'lib qolgan inglizcha yodgorlikka aylangandi.

**Elegant g'ayrioddiylik.** 80-yillarda London yoshlar modeli markazi bo'lib qoldi. Yangi avlod jurnallari paydo bo'ldi ("The Face", "i-D"), ular mualliflik professional dizaynni ko'chada tug'ilgan dizayn bilan bog'lar edilar. Har qancha g'alati bo'lmasin, London dizayn maktabi yangi g'oyalarga muhabbat bilash ajralib turardi.

1981-yilda Vivyein Vestvud "Pirate" ("Dengiz qaroqchisi") deb atalgan birinchi jamlamasini taqdim etdi, unda nomutanosib futbolkalar, qaytarma yoqali ko'ylaklar, yassi poshnali keng tuflilar va brijlar namoyish etildi. "Qaroqchilik" modasi tez ommalashib ketdi, jamlama qimmat do'konlarning ham e'tiborini tortdi, pop-yulduzlar Devid Boun, Boy Jorj va Adan Antlar xaridor bo'lishdi. Vestvud 1982–1983-yillar qishki jamlanmasida ("Buffalo Dirls") hindi usuliga qur'a tashlandi va libos ashylari birligida to'la erkinlik hukm surdi.

Ichkiyim birinchi marta tashqi kiyimga aylandi: jun sviterlar ustidan manekon qizlar kattakon atlas siynabandlarni kiydirib qo'yishdi. 1983-yilda Vestvud va Mak Loren ittifoqi tarqab ketdi va Vivyen ushubim endi oliy modaga yaqinlashdi, degan xayolda jamlamalarini Parija namoyish qila boshladi. U endi ko'proq tarixiy liboslarga e'tibor qila boshladi - ko'ylaklar hatto XVIII asr nusxasida bichiladigan bo'ldi. Biroq ba'zi joylarni o'zgartirib va ayrim qismlarni bo'rtdirib, Vivyen, masalan, turnyurli ko'ylak (uning suyumli silueti) yoki prinogin va korsetni bugungi kun

modeliga aylantiradi. Garchi Vestvud maxsus ta'lim olmagan bo'lsa-da, uning modalaridagi bichiq sifati va ijro san'ati shu qadar noyobki, haqiqatan ham oliv modaga yaqinlashib qolgandi. Shu bilan birga uning uslubi 80-yillardagi ot-kutyur modasiga o'xshab, "taralgan" bo'lib chiqmadi; u har doim tarixiy libosning pank ruhidagi beboshvoq kiyinishiga hayratomuz aylanishini o'zida namoyon etardi. Vestvud jamlamalarini uchta - "Vivyene Westwood", "Rea Labe" va "Gold Labe" yorliqlari ostida chiqaradi.

**Jan-Pol Got'e ijodi.** 80-yillarda Parijda ilgarigidek eski moda uylari ishlar edi, ammo mustaqil yosh dizaynerlarning ishlari ajralib turardi. Birinchi galda Jan-Pol Got'e (1925-yilda tug'ilgan) fransuz modasining enfant tarreble (fr. "injiq bola") sifatida tilga olinadi. Uning birinchi jamlamasi 1976-yilda paydo bo'ldi. Got'ening uslubi mutlaqo postmodernizm ruhida edi: dadachilar san'ati ("Le Dadaisme" xotin-qizlar jamlamasi, 1983 yil), 50-yillar korseti, kompyuterlar va ilmiy fantastika olami ("High Tech" ayollar jamlamasi 1980–1981-yillar), Shimol va Himolay xalqlari liboslari ("Barbes" ayollar jamlamasi, 1984–1985-yillar), rus konstruktivizmi ("Russe" jamlamasi, 1986–1987-yillar). San'atkorga ilhom berar edi. 80-yillardagi Got'e uslubining o'ziga xos xususiyatlari favqulodda xilma-xil. Bitta jamlamada bir xildagi buyumlar yo'q, holbuki barchasi bitta mavzuga birlashtirilgan bo'ladi. Got'e mato fakturasi bilan muvaffqaqiyatli ishlaydi, tyul va sun'iy yoki tabiiy mo'ynani, kanop va plastikni, batist va temir yamoqlarni uyg'unlashtirib yuboradi; elatchilik mavzusidagi modellarda rang va naqshlarga ko'proq e'tibor beradi", konstruksiyada to'r ko'yak (1989-yil). Yoki erkaklar yubkasi bunga misol bo'la oladi. Peshband bilan to'ldirilgan bu yubka chindan ham shimga o'xshar edi (1985-yil). Dizaner eng dadil erkaklar modelini yaratadi. Uning maneken yigitlari va mijozlari kuchini va shahvoniy hirslarini oshkora namoyon etib, tarang losinalar, keng shubalar, orqasi ochiq ko'yaklar, yubkalar va jersidan tikilgan va qoplon tusida bo'yalgan tor jaketlar kiyar edilar.

U yaratgan timsollarni dag'allik va san'at asari o'rtasidagi shalting deyish mumkin. Masalan, badan rangidagi tarang jersi korjomasi zarrin rangga bo'yalgan yalang'och badan ta'siri paydo qiluvchi payetkalar bilan tikilib chiqishi mumkin (1993-yil).

Madonna o'zining 1990-yil dunyo bo'ylab sayohatiga libos buyurtma qildi - bu ipak va charmdan ishlangan, siynalari uchli korset bo'lib, modelyerni dunyoga tanitdi. Biroq Got'eni faqat sahna yoki oliy tabaqa vakillari uchun ijod qiladi, deyish to'g'ri emas. To'g'ri, bunday liboslar ko'zga ko'ringan shaxslarga mo'ljallangan va garchi talaygina ommani lol qoldirgan bo'Isa-da, baribir Parijning bundan keyin ham modalar Makkasi bo'lib qolishiga umid yo'q emas.

**Italiya 80-yillar** modasining jahon markazlaridan bir oz ajralib turardi. Italiya fabrikalarida ko'proq Yevropa liboslarini tikar edilar, libos yaratish esa mamlakatining asosiy industriyalaridan biriga aylangandi. Moda barcha darajalarda rivojlanib borardi - alta modadan (oliy moda) ommaviy mahsulotcha. "Makmara", "Busile", "Complice" kabi o'rtasinfga mo'ljal olgan ko'plab Italiya rusumlari yosh dizaynerlarni korxonalarda ishlashga taklif etadilar. Lyuks toifasidagi liboslar olami ikki dizayner - Janning Versache va Jorjni Armani, ikki italyan modasi - dabdabali iffat-u mumtoz orastalik o'rtasida bo'lingan. 80-yillardagi Armani siluetidan hamma yerda nusxa olganlar. Bir tugmalı pidjakning yelka va yoqalari keng bo'lib, belgacha tushib turgan, oddiy bluzka va keng, uzun, tizzaga tushgan yubka bilan kiyganlar – bu xotin-qizlar variantida; mumtoz ko'ylak va to'g'ri shim bilan – erkaklar variantida.

**Ishbilarmonlar kiyimi va aerobika.** 80-yillar ramzlaridan biri - ishbilarmonlar kiyimi (pader essing). Yelkalari keng-keng, erkin turadigan jaket Italiya va AQSHda keng yoyildi, bu o'n yillik ikkala mamlakat uchun hokimiyat, ravnaq va omad yillari bo'ldi. 80-yillarda amerikalik dizaynerlar ko'pincha ayollarga amaliy tavsiyalar berar edilar. Masalan, Kelvin Klyayn "W" jurnaliga ("Vogue" jurnali bilan bir qatorda "Gonde Nast" nashriyot uyida chiqadi) eng kam vositalar bilan qanday qilib eng ko'p foydali taassurot hosil qilish mumkinligi haqida maslahat berdi. Ishbilarmon ayol uchta jaket, uchta sviter, ikkita yubka va bitta ko'ylak bilan qanoat qila oladi, ammo barcha buyumlar a'lo sifatlari va uslubli bo'lishi kerak - qimmatbaho kashemir, shoyi va charmdan ishlangan bo'lmog'i shart. Klyayn o'zining bosiq uslubiga sodiq qoldi - bu keng paltolar, bo'yni baland sviterlar, qimmatbaho matodan tikilgan

mumtoz shimplar edi. Mavsumdan mavsumga faqat rangi va ayrim bichiq qismlarigina o'zgarardi (masalan, 1983-yilda belga mayda buklamlar bilan shimarib tushiriladigan serbar tunikalar). 80-yillarda dizayner ismiga bo'lgan e'tibor yana "Calvin Cleun" jinsilar reklamalar kompaniyalari tomonidan jalb etilgan edi, ular uchun aktrisa Bruk Shilde va fotograf Richard Avedon ishlagandi. Yaratilgan tarxning shahvat qo'zg'atuvchanligi Amerika jamiyatida janjalga sabab bo'ldi, ammo juda tez orada u jazavador orzuga aylandi. 1981-yilda "Shirinliklar" jamlamasida pastel ranglaridagi paxtadan tikilgan kostyum taqdim etildi: yelkalari har tomonga keng yoyilgan jaket, yuqori qismi qatlamlangan yenglar (bu qo'shimcha hajm yaratardi) va beldagi uncha katta bo'limgan baska (burma) bilan yoki taram-taram qatli o'rtacha yubka bilan, yoxud tizzadan pastga qaratib yig'ilgan keng brijlar bilan to'ldirilgan. Mazkur sportcha uslub shunchalik urf bo'ldiki, ko'chalarda uning sonsiz nusxalarini ko'rish mumkin edi.

80-yillar tarzi ancha ziddiyatli. Agar mualliflik kechki modada oldingidek tilla, kashta va to'rlar hukm sursa, o'rtal sinf kiyim-kechaklari variantida diskoteyka uchun diska va pank uslublarining sporti libosi uzvlari birlashib keladi: bular futbolkalar krossovkalar, mini-yubkalar, qora charm kurtkalar, bluzkalar va ochiq rangli ko'yylaklardir. Lagerfeld, Versache, Valentino va Janfranko Ferre kabi bir xil dizaynerlar o'tmishning nazokatli orastaligi haqidagi xotiralarni jonlantirsa, Jan Pol Got'e, Vivyen Vestvud va Jon Galyanolar ko'cha modasidan g'oyalar to'playdilar va ularni omma orasida san'at asariga aylantiradilar.

1987-yil 19-oktyabrda Nyu-York birjasida bo'lgan kasod ko'plarni kiyim-kechak muamosiga oqilonaroq yondoshishga majbur qildi. Kechasi ham, kunduzi ham birdek yaxshi sezishga imkon beruvchi kiyimlarga ehtiyoj tag'in sezilib qoldi. Ko'chabop va ishbop kiyimlar orasidagi qattiq tafovut maqsadga muvofiqligini yo'qotdi. Ofislarda casnal Fridays rasm bo'ldi, bunda svitlar va jinsida ishga chiqishga ruxsat beriladi.

Aynan 80-yillarda xushbichimlik va sport ertangi kunga ishonch ila hayotdan chuqur mammun holda oppoq tishlarni ko'rsatib tabassum qilgan lablarday, bir-biri bilan birlashib keta boshladи.

Aerobika va fitnes asosiy ermaklar edi, lepinsalar sport zallaridan ko‘chaga chiqib ketdi.

Jamiyatagi o‘zgarishlar ketidan borib, moda yoshlar poyonidan alohida ishchan faoliyatgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi va o‘tmish tajribasini o‘zlashtirib, keyingi o‘nyillikka qadam qo‘ydi. Shu bois u hamma uchun yagona yechimni talab etmaydi - modelchilar truppalar uchun emas (xoh yappi yo panklar bo‘lsin), balki muayyan uslubni tanlagan odam uchun liboslar yarata boshlaydilar.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. XX asr 80-yillariga ta’rif bering. Modada bu qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan?
2. Yappi tushunchasiga ta’rif bering.
3. Pank kontrmadaniyatga haqida nimalarni bilasiz? Pank uslubini modaga qaysi modelyer kiritgan?
4. Bu davrdagi liboslarning asosiy uslublari shakllanishiga nimalar sabab bo‘lgan? Bu uslublar qanday?
5. Jan-Pol Got‘e ijodi haqida nimalarni bilasiz?
6. Bu davrdagi Italiya modelyerlarining ijodi natijasida modaga qanday yo‘nalishlar kirib keldi?

## **XX ASR 90-YILLARI MODASI VA XXI ASR BOSHIDA JAHON MODASINING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI**

**90-yillar modasi.** 90-yillarning uslubi - bu aslida uslub emas, balki libosga yangicha yondashuv, libos va qiyofani yaratishda yangi tamoyillardir. Jurnallar va kitoblar, reklamalar va hatto kiyimning o‘zi “qanday bo‘lsang shundayligincha bo‘l” deb da’vat etadi, Individuallik, ichki “men”ni aks ettiruvchi shaxsiy uslubi modada asosiy narsalar bo‘lib qoldi. Imjmeyker (ingl. Imagemeyker – “ramz yaratuvchi”) faqat kinoyulduzlar va siyosatdonlar orasida emas, balki o‘rta sinf vakillari orasida ham endi eng zaruriy vosita bo‘lib qoldi. Moda jurnallari sahifalarida dizayner va uslubchilar individuallikka qanday urg‘u berish va betakror timsol yaratish haqida maslahatlar beradilar.

Butun dunyoda va barcha ijtimoiy qatlamlarda tarqalgan uniseks uslubida o‘ziga xos uniforma rasm bo‘lishni boshlaydi: jinsilar, futbolka, keng shim, sviter va qulay poyabzal – tagi yassi tuqli yoki krossovka.

*Uniseks* (fransuzcha), yoki oneseks (nemischa) - bu so‘zlarning tarjimasi bir jinsli yoki jinsdan tashqari ma’nosini bildiradi. Oddiy qilib aytilsa, bu shunday uslubdagi kiyimki, uni erkaklar ham, ayollar ham kiyaveradi. Jinsi kiyimlari buning uchun yorqin misoldir. Ham erkak, ham ayolning libosiga kiruvchi bunday kiyimlar keyingi paytda ancha seroblashgan: sviter, pulover, kurtka va hokazolar.

90-yillarda bu uslubdan yirik firmalar – Benetton, Guess, Gap, Marc O‘Polo, Banana Republic va boshqalar keng foydalanadilar.

Oddiylik va funksionallikka intilish bilan bir qatorda eng murakkab tikuvchilik san’ati an’analari ham hayotga qaytishni boshlaydi; libosning darveshonasi ko‘rinishga urg‘u berish ataylab qilingan rang-baranglik va tomoshaboplilik bilan qo‘silib keladi. Afzalliklar yuzaga keladi: Yevropa bogemasi konseptual dizaynerlik libosini kiyadi; yosh martabaparastlar oldingidek Armani va Cherruti taklif etayotgan liboslarni kiyadilar; AQSHdagi afro-osiyolik yoshlar “Tommy Hilfiger” rusumli sport kiyimini tanlaydilar.

E’tibor endi kiyimning o‘zidan egasining tashqi ko‘rinishiga ko‘chadi. Oftobda qorayish, yoki aksincha, rangparlik, kelishgan qad-qomat modasi qiyofaning eng muhim uzvlari bo‘lib qoladi. Qadimgi Yunoniston vaqtidan beri badan madaniyatiga 90-yillardagidek e’tibor qilinmagan: 80-yillarda vujudga kelgan ko‘plab sport klublariga pardozxonalar va badiiy jarrohlik (yoki kosmetologik jarrohlik) kelib qo’shildi. Jurnallar va televideniye sa’y-harakatlari bilan supermodellar moda industriyasining barcha yutuqlarini namoyish qilgan holda taqlid namunalariga aylantirildi.

Baynalminal (intenatsional) moda. Parij, Milan, London, Nyu-York va Tokio pret-a-portering asosiy markazlaridir. Modaning umumiyligi unifiksiyalashuviga qaramay, poytaxtlarning har birida bu san’atning o‘z falsafasi, tushunchasi mavjud.

London tajriba qiluvchi, janjalkash, fikrlovchi va har doim quvnoq moda markazi bo‘lib qolmoqda, bu moda tarixiy liboslar va ko‘cha modasi bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Tokioda dunyodagi

barcha yo'nalishlar tutashgan - sof burjuacha libosdan peshqadamchilarning kelajak orzularigacha. Ko'plab yosh yapon dizaynerlari Yoji Yamamoto va Rey Kawakukboden o'rnak olib, o'z jamlamalarini Parijda namoyish qilishga intilmoqdalar. 70-yillarda Xalston olg'a surgan minimalizm an'analari Nyu-Yorkda kuchli, sport uslubi ham o'z o'rniда mahkam turibdi. Milan "Dolche va Gabbana" uslubidagi g'ayrioddiy hasham bilan bir qatorda Cherruti yoki Trussardi kabi dizaynerlar taklif etgan uslubdagi erkinlik va orastalikni qo'shib yuborish yo'lidan bormoqda. 90-yillarning ikkinchi yarmidan Milandagi "Prada" va "Guchchi" Oliy moda uylari kiyimlari eng modali hisoblanadi.

Shuningdek Milan shahri 90-yillarda erkaklar modasining markazi bo'lib qoladi. Bu yerda uning Guchchi, Dalche va Gabbana, Trussardi, Armani, Vivyen Vestvud, Prada, Versache, Missoni, Issey Miyake, Jil Sander singari modada qonun chiqaruvchilari o'z jamlamalarini taqdim etadilar.

Lekin eng hashamdar liboslari oldingidek, Parijda tug'iladi, bunda nafis g'oya, murakkab bichiq va hayratomuz ijro afzal ko'rildi. O'nyillik oxiriga kelib fransuz oliy modasi olamida qator yirik o'zgarishlar va qayta joylashuvlar sodir bo'ladi.

90-yillar boshida oliy modaning mashhur Uylari (masalan Chanel va Kristian Dior), asosan, katta yoshdagilardan iborat barqaror mijozlarga ega edi. Ot-kutyur liboslari buyurtma qilishga cho'ntaklari ko'taradigan mijozlar soni 200 nafardan oshmasdi, chunki bitta ot-kutyur ko'ylagining narxi sport mashinasi yoki yaxta narxi bilan barobar edi. Yosh avlod esa yosh dizaynerlarda kiyinar edi, shu bois ota-onalar va farzandlar bitta butikda kam uchrashar edilar.

Taxminan 90-yillar o'rtalaridan ot-kutyurning eski Uylari "yoshara" boshlaydi. Dior, Jivanshi, Lui Vuitton Uylarining egasi Bernar Arna, ko'plarning nuqtayi nazarida, tavakkal ishga qo'l uradi va yosh ingliz avangardchi dizaynerlari Jon Galyano, Aleksandr Mak-Kuinni keyin esa amerikalik Mark Jakobsga jamlamalar tashkil etishga rahbarlik qilishga taklif etadi.

Undan boshqalar ham o'rnak oladilar. Balansiaga Uyi uchun Jozef Timist ishlaydi, uni 1997-yilda Nikolas Geskyer almashtiradi;

Sen-Loran Uyi uchun - Alber Elbaz, 2001-yildan esa - amerikalik Tom Ford ishlaydi.

Bunday “yangi qon” quyilishi sharofati bilan mumtoz Moda uylari yosh avlodda ham ommalashib ketadi. Oliy tikuv san’atining o’limi haqidagi doimiy gap-so‘zlarga qaramay, 90-yillar oxiridan yangi Moda Uylari paydo bo‘ladi. Parijda o‘zlarining ot-kutyur jamlamalarini golland juftligi Viktor va Rolf, fransuz Paskal Umber, rus dueti Seredin va Vasilyev, eronlik Murtazo Pajaylar namoyish qiladilar.

90-yillar oxiridan pret-a-porte toifasidagi liboslar ishlab chiqaruvchi ko‘pgina Moda uylari ham o‘zlariga yangi dizaynerlarni taklif qila boshladilar. Amerikalik Maykl Kors fransuz “Selin” Moda Uyida, kubalik Narsiso Rodrigez – “Loyewe” Uyida ishlay boshladni. Ba’zi Moda Uylari har bir yangi mavsumiy jamlama ishlab chiqarish uchun yangi dizayner taklif etilgan vaqtlar ham bo‘lgan.

Bu davrda yosh model Keyt Moss go‘zallikning yangi timsolini belgilab bergen.

**Asr so‘ngidagi uslublar.** 90-yillarda butun dunyo bo‘ylab minimalizmga qaytish kuzatiladi. Bu vaqtga kelib Kelvin Klyayn va Donna Karan ushbu uslubning mumtozlari sanaladilar. O‘nyillik boshida “Barney’s” nomli Amerikadagi katta do‘kon 30-yillar bezak san’atidagi minimalizm otalaridan biri Jan Mishel Frank uslubida bezalgandi. Do‘konning beshala qavatida qaymoqrang devor fonida turli dizaynerlarning faqat qora rangdagi liboslari qo‘yib chiqilgandi - bu hayratomuz ta’sirchan chiqqandi. Avstriya modelchisi Xelmut Lang ham (1956-yilda tug‘ilgan) minimalizm uslubida ishlab, 1998-yilda Nyu Yorkdagи ayollar liboslarning yangicha yo‘nalishini taqdim etadi. Langning o‘zi uslubini hech bir manbaga olib borib taqamaydi va uni zamонавиј urbanizm deb tavsiflaydi. Minimalizm rangdan xasislarcha foydalananishga, bir xil rangdagi matolarga, qo‘srimcha bezaklar emas, balki bichim orqali ma’nodorlik qidirishga yaqin turadi.

Minimalizmga berilishning so‘nggi mavji 1999-yilga to‘g‘ri kelgandi, o‘shanda dizaynchilarning qariyb barcha jamlamalarida turli fakturali bir xil matolardan qilingan, detallar soni juda oz bo‘lgan sodda siluetlar yetakchilik qilgandi.

Amerikada ko‘cha modasi (Street style) katta ta’sir kasb etdi. “Nirvana” musiqa guruhining yirtiq-sirtiq kiyimlaridan chiqqan

granj uslubi Moda uylari mijozlarini dong qoldirib qo‘ydi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, granj uslubi dastavval antimodaning mumtoz namunasidan biri edi. Bir-birining ustidan katta-kichikligi qandayligiga qaramay eski yirtiq buyumlarni kiyib chiqib mashshoqlar va ularning muxlislari odob me’yorlari va kiyinish qoidalariga to‘la befarqlikni namoyish etdilar. Biroq har doim antimodada bo‘lgani kabi, “Nirvana” guruhining ijrochisi Kurt Kobeyn MTV da va moda jurnallari sahifalarida paydo bo‘ldi demaguncha, uning liboslari - unniqqan futbolkalar, cho‘zilib shaklini yo‘qotgan trikotaj djemperlar, djinsi va kedalari modali uslubga aylana boshlandi. 70-yillar xippi uslubiga biroz o‘xshashib ketishiga qaramay, granjda “gullar bolalari”ning romantikasi uchramaydi, unda pank-modanining yorqin tomoshabopligi ham yo‘q.

Britaniyada - ko‘chalarda ham, sahnalarda ham, granj uslubi nyu-eyj uslubi bilan qo‘silib ketgan. Musiqada bu uslubga shaklsizlik, sidirg‘alik, samoviy ohanglar va elektron ovozlar xos. Nyu-eyj liboslarida bir kostyum doirasida turli madaniyatlar va uslub yo‘nalishlarining erkin qorishuvi paydo bo‘ldi. Granjdan farqli o‘laroq nyu-eyj ongli ravishda yuzaga keldi, zero zamondosh qiyofasining jo‘shqinligi ta‘kidlanishi lozim edi.

Etnik mavzular ilgarigidek ommabop edi. Valentino, Mak-Kuin, Galyano, Versache (sari), Dolche va Gabbana (erkaklar jamlamasidagi sarong yubkasi) jamlamalarida hind, xitoy, yapon yo‘nalishlari paydo bo‘ladi. Romeo Jili L.Bakst va A.Benua tomonidan 1907–1914-yillarda Parij va Londondagi “Rus mavsumlari” spektakllariga ishlangan libos va bezaklariga rangorang variatsiyalar qiladi.

Issey Miyake, Shirin Gvild, Asha Sarabhay kabi dizaynerlar yapon, eron, hind milliy liboslarini asos qilib, kutilmagan va qiziqarli kiyimlar yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

**Ekologiyaga e’tibor.** Atrof-muhit muammolari dizaynerlarni bo‘yalmagan kanop va lub tolalaridan to‘qilgan tabiiy matodan foydalanishga turtki berdi. Ingliz dizayneri Xelen Stouri o‘zining “Ikkilamchi hayot” (1992-yil) jamlamasida eski kiyimlardan qilingan modellarni taqdim etdi. Uning vatandoshi Ketrin Hemnet faqat ekologik jihatdan xavfsiz matolar bilan ishlashni boshladi.

90-yillarning oxiri 2000-yillarning boshi odamlar o'zlarining xavfsizligi g'amini o'ylaydigan bo'lib qolishgan davrlar edi. Modelchilar buni tez ilg'ab oldilar. "Supegra" italyan firmasi o'q o'tmaydigan kiyim libosni taklif etishdi. Bu libos hatto tezob yomg'iri va ultrabinafsha nurlaridan ham saqlardi va unga niqob ko'rinishidagi nafas olish moslamasi vatungi ko'zoynaklar aksessuar qilib to'ldirilgan edi. Fransuz dizayneri Lyusi Orta 1992-yilda "ajaldan saqlovchi kiyimlar" jamlamasini taqdim etdi – bu liboslarni zarur kelganda chodir va qopchiq ko'rpalarga aylantirishi mumkin edi.

90-yillardan libosda tabiiy mo'ynadan foydalanishga qarshi kurashuvchi "yashil"lar harakati avj oldi. Tabiat muhofazakorlari mo'ynadan shuba kiygan ayollarga pomidorlar otib, ustlaridan moybo'yoq to'kar edilar. Maneken qizlar va kino yulduzları "tabiiy mo'yna kiyganidan yalang'och yurganimiz yaxshi", – degan davrlar bo'lgani uchun, dizaynerlar, asosan, sintetik mo'yna bilan ishlay boshladilar. Shunday kayfiyatlar bo'lgani uchun Moschino eng birinchi bo'lib 1989-yildayoq baxmal ayiqchalardan tikilgan shubani taqdim etdi.

O'n yillikning oxiriga kelib, "yashil"lar sal hovurdan tushishdi, chunki ekologlar sintetik buyumlardan foydalanish tabiat uchun tabiiy buyumlardan oqilona foydalanishdan ko'ra xavfliroq ekanini isbotladilar. Ko'rgazmalarda yana tabiiy mo'yna buyumlar namoyish qilina boshladi.

**Yangi shakl va ashyolar.** Texnologiyalar taraqqiyoti kibermodaning tug'ilishiga olib keldi, u qisman kelajak haqidagi "Telba Maks" (1979; 1981; 1985-yillar) singari fantastik filmlar va pank uslubidan vujudga keldi. Bu uslub o'ta zamonaviy ashyolardan va sportcha, harbiycha va korjomacha liboslarning ko'plab detallardan foydalanar edi. Bular: kamarlar, bosma tugmalar, cho'ntaklar, qulay ilgaklar, "molniya" tasmalari hamda yechilib-taqiladigan kapyushon, yenglar va astarlar edi. Erkak va azyllarniing kiyimi bir-biridan faqat o'lchamlari bilan farqlanardi. "Levi's" va "Phillips" firmalari dizaynerlari 2000 yilda birlashib "Industrial Clothing Division" (qisqartirilganda "icd+") nomli transformer, ya'ni shaklini o'zgartiruvchi libosni taklif etishdi. Bu kompyuter va telefhn ulangan nimcha va kurtka holatgacha shaklni o'zgartiruvchi plashchlar edi.

Ko‘plab kompaniyalar (“Stone island”, “C.P. Company” va h.k.) va dizaynerlar yangi a‘lo texnologiyali ashyolar bilan ishlamoqdalar. Bu materiallar hatto tabiiy tolali matolarda bo‘limgan noyob fazilatlarga ega. Masalan, “viasfil” matosi haroratni sezadi va uni moslashtiradi, ultrabinafsha nurlarini o‘tkazmaydi va hatto sirti kirlanmaydi. Boz ustiga uning tabiatda butunlay chirib ketishi bilan ham muhim. Aynan shu davrda kiyim suv o‘tkazmaydigan va o‘ta yengil “kevlar”dan, yangicha ishlov berilgan matolar, masalan, mumlangan paxta yoki ipak qo‘shilgan neylondon qilingan noyob va ko‘rimli liboslar yaratiladi.

**Modaning so‘nggi kashfiyotlari.** XX asr oxiri modasi deyarli har yili bir qancha yangi nomlarni kashf etadi. Agar ilgari moda olamida obro‘ topish uchun dizaynerga ko‘p yillar talab etilgan bo‘lsa, endi nomi chiqishi uchun ko‘pincha diplom ko‘rgazmasining o‘ziyoq yetarli bo‘lmoqda. Modelyerlarning baynalmilal komandasida Londondagi Saint Martin’s, Nyu-Yorkdagi San’at va dizayn oliy maktabi, Parijdagi Berso studiyasi, Antverpendagi Qirollik san’at akademiyasi mакtabiga o‘xshagan bilim maskanlari bitiruvchilari yetakchilik qilmoqdalar.

XX asr 60-yillarda moda poytaxti deb shuhrat qozongan, barcha qoidalar yo‘qqa chiqaradigan, eng nooddiy va “quvnoq” liboslar yaratiladigan London 90-yillar oxiriga kelib qit’aga yosh dizaynerlar yetkazib beriladigan asosiy maskanga aylandi. Galyano va Mak-Kuin bilan bir qatorda Yevropaga Stella Makkartni ko‘chib o‘tdi va 2001-yilgacha Xloe Uyining dizayneri bo‘ldi.

“Lagerfeld” va “Chanel” rusumlaridagi jamlamalar ustida bирgalikda ishlash uchun Karl Lagerfeld Parijga Julian Mak-Donaldni (yangi jimjimador to‘qish uslubini ixtiro qilgan) taklif etdi. 2001-yilda Mak-Donald Jivanshi Uyining yangi dizayneri bo‘ldi. Syuzan Klements va Ignasio Ribeyro o‘z jamlamalari bilan bir qatorda endilikda “Kasharel” Uyi uchun modalar ishlab chiqmoqda. Asli turk bo‘lgan Husayn Chala’yon 2000-yilgacha TSE amerika firmasi uchun ishladi. Sofiya Kokosalaki 2001-yilda Ruffo Risyorchi italyan Moda Uyi uchun liboslar jamlamasini yaratib berdi. Amerikada ispaniyalik Migel Efrover jamlamasini ko‘p shov-shuv ko‘tardi, u matrasdan olingen matodan tikkan paltosini namoyish

qilgandi. Keyingi safar esa dizayner yengil to'kilib turuvchi matolardan tikilgan iffatli liboslarni yaratdi. Modelchi Molli Stern Amerikaning eng taniqli yulduzlarini kiyintiradi. Pank uslubini eslatuvchi uning modellari qo'lda tikilgan va har doim bir nusxada yaratiladi. Karl Lagerfeld homiylik qiluvchi amerikalik Jeremi Skott pank uslubi dadilligini 80-yillar hashamati bilan uyg'unlashtiradi. Oldingidek, Parij yoshlarni o'ziga tortar edi. 90-yillar boshida bu yerga Gollandiyadan Viktor Xorsting va Rolf Snyoren keldi va 1999-yilda birinchi ot-kutyr jamlamasini taqdim etdi. Viktor va Rolf juftligi turli fakturadagi matolarni (masalan, jun trikotaj va lake) uyg'unlashtirib, kattakon yoqlar va yeng-pocha qayirmalari bilan yoki sport uslubidagi jiletni oqshom uchun kiyiladigan bluzkaga aylantirish bilan e'tiborni tortib, g'ayrioddiy bichimlardan foydalanadi. 90-yillar o'rtalaridan sahnaga dizaynerlarning Belgiya maktabi chiqib keladi va modaga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu 70–80-yillar oxirida yapon dizaynerlarning sahna chiqib modaga ko'rsatgan ulkan ta'siri darajasidagi o'zgarishlar edi. Eng yorqin vakillari (katta qismi – Antverpen qirollik san'at akademiyasi bitiruvchilari) – Martin Marjyela, Ann Demelemester, Dirk Bikkembergs, Dris van Noten, Valter van Beyrendonk, Dirk vat Sayenlardir.

**XXI asr modasi.** XX asr 90-yillari oxirida modaga munosabat ko'rgazmalar va moda namoyishlaridagi yangi tendensiyalarga rasman ergashishdan ko'ra o'z uslubini yaratishda ifoda etiladi. 60-yillarda bo'lgani kabi yana "multibrend butik"lari paydo bo'ladi, u yerda muayyan g'oya yoki uslub asosida to'plangan bir qancha dizaynerlarning liboslari sotilmoqda. Ko'pgina modelyerlar 90-yillar oxiridan boshlab faoliyat doiralarini kengaytirdilar va o'z rusumlari ostida faqat kiyim va parfyumeriyagina emas, balki uy ichi jihozlarini ham ishlab chiqara boshladilar. Masalan, Milandagi 2000-yillarda qurilgan Armani Uyi do'konida kiyimlar jamlamalari, uyjihozlari va "Sony" firmasining videotexnikalari namoyish etildi. Modelchilar ko'pincha o'z butiklarining me'moriy qiyofasini ishlab chiqishda faol ishtirok etadilar. Donna Karan va Rey Kawakubo ana shunday yo'l tutishadi, ularning butiklari haqida me'morchilik va dizaynga oid nashrlarda allaqachon yozib chiqishgan. Issey Miyake va me'mor Day Fudzivera 2000-yilda Parijda "A-ROS" ("Epok" deb

o‘qiladi, pilece of clotn - “bir parcha mato”ning qisqargani) deb atalgan yangi butigini ochadi. Bu yerda kiyim do‘koni va fabrikasi bitta bo‘lib ketgan. Tom ma’nodagi xaridor taklif etilgan chala tayyor ashaydan o‘ziga kiyim tikib ola oladi.

Bu davrda ba’zan me’morchilik, haykaltaroshlik, dizayn va kiyim-kechak yanada uzviyroq aloqaga kirishib ketadi. Sinitiro Arakava 2000-yilda devorlarga ilib qo‘yilgan suratlar ko‘rinishidagi kuz-qish jamlamasini taqdim etdi. Ingliz “ekstremal” rassomi Gotcho modelchilarining ixtiolarini haykaltaroshlik va installyatsiya qismlariga aylantiradi. Masalan, u “Dior” Modalar Uyi ko‘ylagini Lyudovik XIV uslubidagi (“Orqama-orqa”, 1997-yil) stulning poxol to‘rdan qilingan o‘rindig‘i va suyanchig‘iga aylantiradi va bu ish “Cristian Dior” butigi peshtaxtasiga qo‘yiladi. Husayn Chalayan o‘z ko‘ylaklarini me’mor singari har bir qoralama texnik chizmalariga qo‘sib namoyish etadi. Moda san’at hisoblanadimi, degan eski savol moda foydasiga yana bir karra hal etildi. Endi yosh dizaynerlar ishlarida u zamonaviy san’atning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Ilgari bo‘lganidek, bugungi kunda eng modali tendensiyalar va epkinilar adabiyot, rangtasvir yoki kinoda emas, balki dizaynga bag‘ishlangan jurnal va albomlar sahifalarida aks etmoqda. XXI asrda aynan dizayn o‘zining keng ma’nosida - bizni qurshab turgan narsalar (me’morchilik, maishiy buyumlar, kiyim-kechak va hokazo) - zamon ruhi ifodasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

### Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar

1. XX asr 90-yillarida modaga qanday o‘zgarishlar kirib keldi?
2. Konseptual libos deganda nima tushuniladi?
3. Baynalminal moda tushunchasiga ta’rif bering.
4. Bu davrdagi modadagi eklektiklikka ta’rif bering.
5. “Ot-kutyur” yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan moda Uylarida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
6. “Pret-a-porte” toifasidagi liboslarni ishlab chiqarishdachi?
7. Bu davrdagi asosiy uslublar haqida nimalarni bilasiz?
8. XX asr oxiri va XXI asr boshida paydo bo‘lgan yangi ashyolar modaga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

**TO'RTINCHII BOB  
JANUBIY VA SHARQIY OSIYO XALQLARI LIBOSI**  
**FORS LIBOSI**

Eron shohligi miloddan avvalgi VII-V asrlarda harbiy jihatdan qudratli quldorlik mamlakati bo'lib, ko'pgina el-elatlarni o'ziga bo'ysundirib olgan. Yangi-yangi o'lkalarning istilo qilinishi va ularni Eron shohligiga qo'shib olish davomida, shuningdek, boshqa xalq va millatlarning ta'siri ostida, bu mamlakat san'ati va madaniyati ham rivojlanib borgan.

Qadimiy fors san'ati va madaniyati, asosan, ikki mavzu atrofida rivojlangan: taxt uchun kurash va vafot etganlar xotirasini yod etish, ularni abadiylashtirish. Ommaviy ibodatxonalarini uchratmasligimiz boisi ham ana shunda. Qadiimi Eron shohligi poytaxti - Passargadi edi. Passargadida, piramida qad ko'targan tepalikda kichkina maqbara qad ko'targan. Ushbu maqbara "Kir qabri", deb ataladi.


Qadimgi fors liboslari tabiiy sharoitga mutanosib ravishda yaratilgan. Aksariyat eronliklar avlod-ajdodlari baland tog' vodiylarida yashagan. Ular, asosan, chorvachilik, dehqonchilik va ovchilik bilan shug'ullanganliklari sababli, asosiy kiyimlari hayvon terisidan tikilgan. Eronliklar kiyimi juda noqulay bo'lib, butun tanani qoplab turgan. Yashash, ya'ni turmush sharoiti liboslar yangilanishini talab etmoqda edi.

**Erkaklar libosi. Eron shohining libosi.** Shoh kiyimi boshqa saroy ahli kiyimidan ajralib turgan (1-rasm). Shohona libosga alohida tilla ipdan bezak berib tikilgan. Shohning qabul marosimidagi libosi juda xushbichim va serhasham bo'lgan. Shoh uzun ichki kiyim va ustki kiyim plash - kandis, bo'y - bastini viqorli ko'rsatish uchun baland bosh kiyimi - mitra, och qizil rangli ishton - anaksarides va oyog'iga qalin qo'shimcha taglik qo'yilgan poyabzal kiygan. Mitra baland trapetsiyasimon shaklda bo'lgan, uchi tor, pastki qismiga bezak berilgan. Shoh libosi hisoblangan kandis qimmatbaho toshlar bilan bezalgan, taqinchoqlar, bilaguzuklar uni yanada boyitgan. O'sha davrda bu kiyim juda qimmat turgan .

Eron shohi turli tadbirlarga izidan soyabon ko‘targan soqchilar, qo‘riqchilar ko‘magida chiqqan. Harbiy sarkardalar kiyimi bashangligi bilan oddiy jangchilarnikidan farq qilgan (2-rasm).



*1-rasm. Eron shohi, saroy a'yoni va uning xizmatkori*



*2-rasm. Eron jangchilari kiyimi*

Shoh saroyi soqchilarining qurol-aslahalari ham qimmatbaho toshlar bilan bezalgan. Soqchilar libosida qomatning sezilmasligiga e’tibor qaratilgan.

Qadimgi fors erkaklarining ustki kiyimi uzun, to‘piqqacha tushib turgan keng plash-yopinchiq – kas bo‘lgan, uni tasma bilan bo‘yinga tortib bog‘langan. U sidirg‘a rangli matolardan tikilgan.

Erkaklarning yana bir kiyimi – *sarapis*. Uning yenglari uzun bo‘lib, uzunligi tizzagacha, ba’zan esa bo‘ksani yopadigan darajada. Sarapis kiyilganda, beliga belbog‘ bilan bog‘langan.

Erkaklarning bel kiyimi - *anaksarides* bo‘lib, u tor va uzun ishton bo‘lgan. Erkaklar ustma - ust uch xil ishton kiygan, bunday kiyinish an'anaga aylangan.

**Tiara** - forslarda keng tarqalgan bosh kiyim hisoblanadi. Bundan tashqari shakli boshqacha bo‘lgan, shohona bosh kiyim - kidaris kiyilgan. Erkaklar charm va kigizdan tikilgan bosh kiyim ham kiygan. Avom xalq zig‘irdan olingan matoni salsa ko‘rinishida o‘rab yurgan. Tor gardishli, konus shaklidagi ushbu salsa, ko‘chmanchi xalqlarning bosh kiyimi - qalpoq o‘mida xizmat qilgan.

Erkaklar poyabzali uch ko‘rinishda bo‘lgan. Ulardan eng ko‘p tarqalgani tuflidir. Ushbu poyabzalning afzalligi shundaki, u inson bo‘yini baland qilib ko‘rsatgan. Chunki poyabzal ostiga qo‘srimcha taglik qo‘yilgan. Ikkinchisi, keng tarqalgan poyabzal - kalta etik edi. Etikka taglik qo‘yilmagan, yassi bo‘lgan. Yana bir poyabzal turi sandal, deb nomlangan. Bu poyabzal qalin charmdan tikilgan.

**Ayollar libosi.** Eron malikasi va saroy xonimlari libosi. Saroyda joriy qilingan udumga ko‘ra, eng qimmatbaho kiyimni shohning suyukli ayoli kiygan. U ona malika bilan teng qo‘yilib, kiyimlari jimjimador zarhal kashta va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Shoh xotinlari kiyim-kechagi, poyabzal va bosh kiyimlari ham juda qimmatbaho bo‘lgan.

Eron malikasining bosh kiyimi – *tiara* hisoblanadi. Ushbu bosh kiyimi qimmatbaho, dumaloq shakldagi qalpoqcha va zar iplar bilan tikilgan kashtali yopinchiqdan iborat. Saroy ayollarini yuzlarini ochib yoki yopiq yurishgani haqida aniq ma‘lumotlar saqlanmagan. Saroy xonimlari poyabzallariga kashta tikilgan bo‘lib, bezaklarga juda boy bo‘lgan.

Ayollar kiyimi erkaklar kiyimidan bir oz farq qilgan. Qadimda kiyimlar, asosan, hayvon terilaridan, keyinchalik dag‘al jundan tikilgan. Ayollar milliy libosi ham, mansub tabaqaga qarab

farqlangan. Ko‘ylaklar jun va mayin matolardan tikilgan. Qadimiy eronlik ayollar ustki kiyimi keng matodan tikilgan bo‘lib, belbog‘i ko‘krak qismiga yaqin qilib bog‘langan. Bu esa ayollarni sarviqomat qilib ko‘rsatgan, belbog‘ ayolning turmushga chiqqanligini bildirib turgan. Turmushga chiqqan ayollar bosh kiyim kiygan. Ayollar boshlariga qalpoqcha kiygan yoki salsa o‘ragan, ko‘chaga chiqqanda yopinchiq tashlab olgan.

Ayollar poyabzali charmdan tikilgan bo‘lib, tasma bilan bog‘langan. Keyinchalik ayollar yumshoq charmli kavush kiygan.

### **Nazorat uchun savollari va amaliy topshiriqlar**

1. Qadimiy Eron san’ati va madaniyatining rivojlanish tarixi haqida gapirib bering.
2. Eron shohining libosiga ta’rif bering.
3. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Shular haqida so‘zlab bering.
4. Eronliklarning bosh kiyimlari o‘ziga xos jihatlarini tavsiflab bering.
5. Eronlik erkaklarning qanday ustki kiyim turlarini bilasiz?
6. Eron ayollarining libosi haqida nimalarni bilasiz?

## **ARAB LIBOSI**

Qadimiy Misrning tub aholisi bo‘lgan arablar qabilalarga bo‘linib yashagan, ko‘chmanchi va o‘troq holda turmush kechirgan. VI asr oxirlariga kelib, Arabiston yarim orolida ko‘chmanchi va o‘troq arab qabilalari bo‘linib keta boshladi va asta-sekin feodal tuzum shakllana bordi. Bu hol ko‘chmanchi bo‘lib yashagan arab qabilalari hayotida katta o‘zgarishlar yuz berishiga sabab bo‘ladi. VII asr boshlariga kelib, qabilalar yana qaytadan birlashadi. IX-X asrlarda arablar o‘z yaqin atrofida joylashgan ko‘p davlatlarni bosib oladi va shu tarzda arab xalifaligi vujudga keladi. Ma’lumki, VII asrga kelib, islom dini joriy qilinadi. Ko‘chmanchi qabilalar islom dinini qabul qiladi. Bu esa, shubhasiz, ularning kiyinish madaniyatiga ham ta’sir etadi.

**Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o‘ziga xos yechimi.** Qadimda mato ishlab chiqarish uchunxomashyo bo‘lmagani, sababli ko‘chmanchi qabilalar hayvonlar terilaridan kiyim kiygan bo‘lsa, keyinchalik echki va tuyalar yungidan jun mato, o‘rtalasr boshlarida kelib esa, paxta ekib va undan mato ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan.

XIII-XV asrlarda aholining aksariyat qismi kiyinishi deyarli farq qilmagan. Liboslar faqat matosining qandayligi bilan farq qilgan. Liboslarni boyitadigan, to‘ldiradigan unsur sifatida ayollar kiyimlari rang-barang bezaklar bilan bezatilgan. Erkaklar libosiga esa, turli quroq-aslahalar ko‘rk bag‘ishlab turgan.

**Erkaklar libosi.** Qadim zamonlarda arab erkaklarining ichki kiyimi uzun ko‘ylak bo‘lgan, yoqasi tasma bilan bog‘langan. Keyinchalik bu ko‘ylak ustidan yopinchiq kiyish urf bo‘lgan. Oldi kesik qopga o‘xhash, ustki yopinchiq – **abas**, deb atalgan. Yopinchiq bo‘yalmagan kigiz, tuya junidan tikilgan. Odatda, yopinchiq oq rangli uzun yo‘l-yo‘l chiziq shakllar bilan bezatilgan.

Qadimda sahroda yashovchi qabilalar yengli yoki yengsiz, uzun ko‘ylaklar kiygan, ko‘ylakning bel qismi belbog‘ bilan bog‘langan. Ko‘ylak ustidan yopinchiq tashlab yurilgan. Erkaklar shular bilan birga bosh kiyimlarini sallasimon o‘rab yurgan. Ular cho‘lsahrolarning kuchli shamol va bo‘ron-to‘zonidan saqlanish uchun shunday qilganlar. Erkaklar oyoqlariga tagcharmi yog‘ochdan yasalgan, usti ham charmdan qilingan poyabzal kiyganlar. Mazkur poyabzal arab erkaklari libosini to‘ldirib turgan. Albatta, bunday erkaklar libosi, qadimiy liboslarga namuna bo‘la oladi.

Keyinchalik, vaqtlar o‘tib Osiyo va Misrda arab erkaklari ishton ustidan uzun keng, paxta yoki shoyi matosidan tikilgan ko‘ylak kiyishlari urf bo‘ladi.


**Dishdash** – tik yoqali, manjetli, ko‘krak qismida cho‘ntagi bor ko‘ylak. Ko‘ylak to‘g‘ri bichimda bo‘lib, yurishga qulay bo‘lishi uchun yon choklari oxirigacha tikilmay, qirqim qoldirilgan. Dishdash odatda oq rangli matodan tikiladi. Biroq dishdashning qavariq jigarrang va hatto yo‘l-yo‘l chiziqli nusxalari ham uchraydi. Birlashgan Arab Amirliklarida aksariyat erkaklar hozir ham shunday ko‘ylak kiyadilar.

**Chakmon va jubba** erkaklarning ustki kiyimi hisoblanadi. **Jubba** – yengi uzun, yelkaga tashlanadigan ustki kiyim.

Odatda og‘ir mehnat qilmaydigan erkaklar, oldi va ikkala yon tomoni yopiq ko‘ylak kiyganlar. Bu ko‘ylak – gumbaz deb atalgan. Qishda erkaklar keng, yengsiz kashta tikilgan abi- ustki kiyim kiyganlar. Dehqonlar tizza yoki boldirgacha keladigan ko‘ylak kiyganlar. Ko‘ylak ustidan dag‘al jundan tikilgan kalta chakmon kiyganlar va shu bilan kifoyalanganlar.

XIX asrda Sharqiy Arabistonga yaqin yashaydigan elatlarning aksariyati qizil rangli kiyim kiyganlar. Sahroyi badaviylar kiyimi esa qora emas, aksincha yorqin ranglarda bo‘lgan.

**Kuffiya** - azaldan arablarning bosh kiyimi sanalgan. Kuffiya boshga o‘ralganda orqaga uchburchak shaklda belgacha tushib turadi. Ushbu ro‘molni ba’zida to‘rtburchak shaklidagilari ham uchrab turadi. Ro‘mol boshga tashlanib, ustidan to‘qima tasma-chambarak bilan mahkamlab qo‘yiladi (1-rasm).



*1-rasm. Erkaklar bosh kiyimi*

Ro‘mol yelkani yopib turadi, old qismi esa, yuzni quyosh nuridan pana qiladi. Odatda soch ro‘mol ostiga yashiriladi. Balki bu odad iqlim jaziramasidan muhofaza qilish maqsadida paydo bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Erkaklar egniga kiygan kiyimlariga mos ravishda ro‘mol tanlagan.

**Gutra** - arablarning asosiy, muhim ro‘moli sanaladi. Boshqa Arab davlatlarida bu ro‘mol - **kuffiya**, deb ataladi. Aksariyat arablar boshlariga oq rangli, to‘qilgan, kichkina to‘r do‘ppi ham kiyadilar. Bu yozgi gutra hisoblanadi. Yozgi gutra pishiq ipdan to‘qiladi, yupqa va nafis bo‘ladi, uni diogonaliga buklaganda, quyosh jaziramasidan yaxshi himoya qiladi. Odatda ro‘mol yelkani yopib turadi. Qishda issiq ro‘mol o‘ralgan. Ro‘mol junli qalin matodan bichilib, qizil rang bilan bezalgan. Zamonlar o‘tishi bilan gutra boshqa ranglarda ham uchray boshladi. Masalan: qora-oq, yashil-oq va h.k. Shunisi hayratlanarliki, gutra Xitoyda ishlab chiqarilgan.

Erkaklar **shalvor** kiyganlar. Keng shalvorlar torayib borgan, ba’zan tizzada bog‘ichi ham bo‘lgan. Belga tasma bilan bog‘lab qo‘yilgan. Amirlar ham, dehqonlar ham shalvor kiygan. Shalvor oddiy va qulay, keng-mo‘l bo‘lib, qizil belbog‘ bilan bog‘lab qo‘yilgan. Tunisda ishtonni to‘piqqacha kiyish rasm bo‘lgan. Badavlat kishilarning shalvorlari keng to‘piqqacha tushib turgan, qirqimi va katta manjeti bo‘lgan.

Erkaklar sochlarini sal o‘stirib yoki bo‘lmasa, qisqartirib yurghanlar, boshlarini esa doimo ro‘mol bilan yopib, berkitgan. Qadimda erkaklar sochlarini kalta qilib, quloqlari yoniga chekka soqol – “bakenbard” qo‘yishgan. Erkaklar qo‘llariga, oyoqlariga uzuk, quloqlariga sirg‘a, zirak taqqanlar. Bu ashylar erkaklarning zargarlik buyumlari hisoblangan.

Qadimda arablar bellariga tig‘li bolta qistirib yurghan. Yelkalariga suyakdan yasalgan kamon osgan. Bu erkaklarga xos quollar hisoblangan. Yamanlik erkaklarning esa faqat an‘anaviy hisoblangan **jambiya** – uchi qayrilgan pichog‘i bo‘lgan, xolos.

Arablarning poyabzali charm, yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, u chilvir iplar bilan oyoqqa bog‘lab qo‘yilgan. Erkaklar oyoqlariga sarg‘ish teridan tikilgan shippak kiygan. Bu shippak – **babush**, deb atalgan. Bahraynlik va yamanliklar ko‘zga tashlanib turadigan qip-qizil kavush kiyganlar.

**Ayollar libosi.** Qadimda arab ayollarining kiyim-kechagi o‘xshash bo‘lgan. Keng-mo‘l qilib tikilgan ko‘ylaklar, yopinchiklar, ro‘mol hamda xalat, belbog‘, sharf va turli taqinchoqlar arab ayollarli libosiga namuna bo‘ladi. Ayniqsa, Misr ayollarining ko‘ylaklari ko‘zni oladigan darajada chiroyli, maftunkor bo‘lgan. Odatda

ko‘ylaklar oq rangli yoki gul bosilgan, nozik ip matodan tikilardi. Ko‘ylak ayol qomatiga moslab tikilib, belga nafis sharf bog‘lab qo‘yilgan. Ayollarining boshga yopiladigan yopinchiqlari esa oq, pushti, qora rangda bo‘lib, ularga sariq rangda naqshin kashtalar bilan bezak berilgan. Boshga o‘raladigan salsa esa yupqa, nafis matodan bo‘lib, unga zarhal yoki kumush iplar bilan naqshin kashta tikilgan. Sochlar o‘rilib, tasma yordamida turmaklangan.

Qadimiy Misr ayollarining liboslari keng va uzun drapiro-kalangan, old qismi oq yoki gulli naqshlar bilan bezalgan. Boshga o‘raladigan salsa nafis matodan yig‘ilgan. Salla tillarang yoki kumushrang iplar, tilla tangalar bilan bezak berilgan. Matoning bir uchi bilan yuz yopib yuriladi. Turli mamlakatlarda ayollar yopinchig‘i har xil nomlar bilan ataladi. O‘rtta Osiyoda ayollar yopinchig‘i paranji, Arab mamlakatlarida esa hijob deb atalgan. Uyda hijob ishlatilmagan, ko‘chaga chiqqanda yopilgan. Saudiya Arabistonining shimoliy mintaqalarida yashovchi ayollar yopinchig‘i – **milfu** bo‘lib, u ensiz chiziqli, qora matodan parda bo‘lgan. Odatda, milfu bilan og‘iz va iyaklar yopib yurilgan.

Taomilga ko‘ra arab ayollarini gandura ostidan shirvap kiyganlar. Ayollar uydan ko‘chaga chiqqanlarida boshlariga katta qora ro‘mol o‘rab, yuzlarini gishua bilan berkitgan (2-rasm). Oddiy chekka qishloq oilalari ayollarini **birgu** – yarim niqob bilan yuzlarini yashirishgan. Oilali boyvuchcha ayollarining bosh kiyimi – tantur, deb atalgan. Tantur o‘ziga xos konus shaklida 70 sm.li, uchiga harir ro‘mol ulangan bo‘ladi. Tantur mis, ba’zan kumushdan yasalgan taqinchoqlar bilan bezalgan. Tantur tunda yotganda ham yechilmagan, yostiq o‘rniga bosh tagiga bir parcha yog‘ochdan yasalgan kichkina qolip qo‘yilgan.

Xanubora qabilasi ayollarining liboslari bayramona ruhda serhashamligi bilan ajralib turgan. Qabila xotin-qizlarining kiyimlari tabiiy muhitga moslashgan; boshga qora, ko‘k rang qalpoqcha kiyib, ustida uzun yopinchiq tashlangan. Yopinchiq dalada ishlayotgan kishini chang-to‘zondan saqlagan. Ayollar bo‘yinlariga tangachalardan tizilgan qadimiy taqinchoqlarni osib, bilaklariga tilla yoki kumush bilaguzuklar taqib yurgan. Ular chap oyog‘iga ikkita qo‘ng‘iroqli bilaguzuk, boshlariga esa peshonasigacha tushib turadigan tangachali taqinchoq taqqanlar.



*2-rasm. Arab qabilalari ayollarining libosi*

Ayollar yurganlarida ushbu taqinchoqlardan jarang-jurung qilib sado bergen. Birlashgan Arab Amirligi ayollari qora, umuman, to'q rangli uzun ko'yak - abayda kiygan. Qadimda aksariyat arab ayollari ustma-ust, qavat-qavat ko'yaklar kiyib, yalangoyoq yurganlar.

Ayollar yog'ochdan yasalgan, kab-kab deb atalgan poyabzal kiygan. Kab-kabda yurish qiyin bo'lsa-da, ushbu oyoq kiyimi ayollarning an'anaviy ajdodlardan qolgan poyabzal ekanligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Arab libosining shakllanishi haqida so'zlab bering.
2. Mato turlari, liboslardagi rang va bezaklar haqida nimalarni bilasiz?
3. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Ularni ta'riflab bering.
4. Erkaklar bosh kiyimlarining o'ziga xos tomonlarini, jumladan, bular nimadan tikilgan va qanday vazifani bajarganligini tavsiflab bering.
5. Arab qabilalarining liboslarida farq bo'lganmi? Ana shu jihatlar haqida gapirib bering.
6. Qadimda arab ayollarining libosi qanday ko'rinishga ega edi, hozirda bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi?

## HIND LIBOSI


Hindiston qadimiy Sharq davlatlaridan biridir. Zero Hindiston san'ati va madaniyati qadimiyligi bilan ajralib turishining boisi ham shundandir. Hindiston me'moriy obidalari, haqli ravishda, Osiyo durdonalaridan biri hisoblanadi. Bu haqda hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy obidalar, ibodatxonalar, haykaltaroshlik asarlari va qadimiy yodgorliklar dalolat beradi. Buyuk temuriylar (boburiylar) sulolasi davrida Shoh Jahon tomonidan suyukli rafiqasi Mumtozbegimga atalib, me'morchilikning ajoyib namunasi, muhabbatga qo'yilgan haykal, deb ta'riflan mish takrorlanmas san'at durdonasi "Toj-mahal" maqbarasi barpo etildi. "Toj-mahal" maqbarasi san'at asari sifatida jahonning yetti mo"jizasidan biri, deb e'tirof etilishi ham bejiz emas. Hind san'at-madaniyati zamirida diniy aqidalar yotadi. Hindistonda ko'p diniy oqimlar mavjud. Shular orasida eng qadimiy din vedaizmdir. Keyin braxmanizm, buddizm, induizm, islom dini va keyinchalik Yevropadan nasroniy dini kirib keladi.

Hindistonda miniatyura tasviriy san'ati, xalq amaliy san'ati qadim-qadimdan rivojlangan. Hind hunarmand ustalari tomonidan yaratilgan buyumlarning nafisligi, go'zalligi hamon san'at muxlislarini hayratga solib kelmoqda.

Hindiston tarixida, xalqning hayot kechirishida Ind va Gang daryolari katta ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlarda hindlar Ind vodiysiga ko'chib kelgan, turmush kechirgan, odamlar, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan.

**Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o'ziga xos yechimi.** Hindiston – paxtaning vatani. Necha-necha asrlardan buyon Hindistonda paxtadan mato ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Hindistonda matolarni bo'yashni o'rganishgan, ular ko'zga yaqqol tashlanadigan - ko'k, qizil kabi yorqin ranglardan foydalanishgan. Dastlab paxtadan ip mayin yigirilib, nafis va shaffof matolar ishlab chiqarilgan. Bu mato o'zining tashqi ko'rinishi, fakturasining boyligi, sifatining a'lолиги bilan o'zini oqlagan. Chunki matolar o'ta nafis, juda yupqaligidan hatto kiyim ostidan taqinchoqlar ham aniq -

tiniq ko‘rinib turgan. Qadimdan tabiiy ipakka qiziqish katta bo‘lgan. Hind shoyisi avvaldan barcha rivojlangan mamlakatlarda qadrlanib kelgan. Shoyining serjilva ranglari va tilla, kumushrang tolalari azal-azaldan o‘z go‘zalligi bilan hammani rom etib kelgan. Odatda, shoyi kiyimlarni biror tantanali tadbirlar, bayramlarda, misol uchun nikoh to‘yi yoki farzand tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlarda kiyilgan. Bu marosim hozirgacha saqlanib qolgan. Qadimgi yozma manbalarda keltirilishicha, Iuga matosining har xil turlari bo‘lgan. Bular sirasiga kiruvchi champa - oppoq, zarhal ipakdan tikilgan ko‘ylaklarni, shoh va saroy a’yonlari kiyishgan. Hindistonda eng ko‘p ishlab chiqariladigan matolar bu - paxta, shoyi va batist hisoblanadi. Aksariyat matolarga tilla va kumush iplar qo‘shib to‘qilgan (1-rasm).



*1-rasm. Hind matolari*

**Hind an’anaviy liboslari va ularning o‘zgarishiga ta’sir etgan omillar.** Arxeologik qazilmalarda topilgan miloddan avvalgi uch ming yillikka oid yodgorliklar, zamonaviy hind libosi asos-poydevorini qadimiylar erkak va ayollar kiyimlari unsurlar tashkil etishidan dalolat beradi. Qadimiylar erkaklar va ayollar liboslari, asosan, badanga mato bo‘lagini taxlamalar yordamida o‘rash orqali hosil bo‘lgan. Bunga tikilmagan yelka kiyimlarini, yopinchiqlar ko‘rinishidagi orxniy, dupatta, chunni va tikilmagan bel kiyimlar dho’tiy, sari, nivi misol qilib keltirsak bo‘ladi.

Markaziy Osiyodan Hindistonga islom dinining kirib kelishi, boshqa elatlarning bu hududga ko'chib kelishi natijasida, liboslarni tikib kiyish odatga aylanadi. Haligacha oddiy xalq orasida tikilmagan kiyim kiyish an'analari saqlanib qolgan. Tikilgan liboslar asta-sekin kundalik turmushda o'z o'mini egalladi. Hind liboslarining rivojlanishiga G'arb madaniyati o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu ayniqsa, erkaklar libosida yaqqol ko'zga tashlandi. XIX asrda ingilizlar Hindistonga syurtuk, shim va hatto bosh kiyim - pilotkani olib kirdilar. Yevropa modasiga yaqinlashish hind ayollar kiyimi siluetining o'zgarishida yaqqol sezildi. Shunga qaramay, ayollar hind an'anaviy liboslariga bo'lgan o'z e'tiqodlarini hamon saqlab kelmoqdalar.

**Erkaklar libosi.** Qadimda hind ustki kiyimlari tanaga o'ralgan yoki yelkaga tashlab yurilgan. Hind milliy libosining bir bo'lagi, erkaklarning tikilmagan bel kiyimi - *dho'tiy* hisoblanadi. Dho'tiyni har xil uslubda taxlab, drapirovka qilishgan. U ham ishton va peshband ko'rinishida bo'lgan, 2-5 metr uzunlikdagi matoni bo'ksa atrofiga taxlab, old tomonga bog'langan (tugun hosil qilingan) va orqa tomonda osilib turgan uchini oyoqlar orasidan oldinga o'tkazib mahkamlangan. Dho'tiyni bir necha shaklda o'rash mumkin. Xalq orasida dho'tiy hozirga qadar saqlanib qolgan (2-rasm).



2-rasm. Erkaklar bel kiyimi - *dho'tiy*

Hind erkaklari ustki kiyim dupatta yopinchig'i bo'lib, u to'g'ri to'rtburchak matodan iborat bo'lgan. Odatda dupatta yelkaga tashlangan, old tomoni kesishib, yana yelkadan orqaga tashlab yurilgan.

Jamiyatning yuqori qatlami sanalagan shoh, saroy a'yonlari va harbiylar yopinchiq yopingan. Ba'zan yopinchiq ustki kiyim o'mida ham qo'llanilgan. Hind liboslarida ijtimoiy jihatdan tabaqlanish farqi sezilib turgan.

Hindistonda tikilgan yelka va bel kiyimlarining bo'lganligi bizga ma'lum. **Joma** – hind erkaklarining uzun yengli, tor ko'ylagi bo'lgan. Jomani musulmonlar, hattoki hindiyilar ham kiyganlar.

**Adxivasa** – erkaklarning tikilgan yelka kiyimining yana bir turi hisoblanadi. Kurta – keng tarqalgan yelka kiyimi. Kurta keng ko'yak bo'lib, u ko'pincha bel kiyimning ustdan tushirib kiyiladi.

**Kamis** – erkaklarning uzun ko'ylagi sanaladi. Qadimda u kurta, deb atalgan. Kamis, erkaklar kurtasidan farq qiladi. Musulmonlarning kamis ko'ylagi gavdada erkin turgan va ancha keng bo'lgan, ko'rinishi Kashmir ko'ylagini eslatgan.

Ustki kiyim turlaridan yana bir turi achkandir. Achkan pidjak shaklida bichilgan bo'lib, uncha katta bo'lmanik tik yoqali, uzunligi tizzagacha bo'lgan. Old yoqa o'mizidan belgacha qator taqilmali bo'lib, etagini yon tomonidan qirqimlar ochilgan.

**Payjoma** - erkaklarning tikilgan bel kiyimi bo'lib, u tor, tizzadan yuqori qismi xiyol kengaygan ishton bo'lgan. Panjobliklar tikilgan ishton-shalvor ham kiygan. Bu shalvor nomi - suthna, deb atalgan.

Erkaklar kiyimida har xil ranglar ishlatalgan. Lekin ranglar kiyim egasining jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab farqlangan. Sariq rang amaldorlar kiyimlariga xos rang sanalgan. Aksariyat shoh va saroy a'yonlari sariq rangli libos kiyishgan.

Erkaklarning eng ommabop va sevimli bosh kiyimi salsa hisoblangan edi. Salla turli shaklda o'ralgan. Soch turmagiga mos ravishda salsa har xil shaklda bo'lgan. Soch turmaklari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Sochlari har xil uzunlikda: kalta, o'rtacha, uzun sochlari silliq taralib, yuqoriga yig'ilgan. Erkaklar soqol-mo'ylov qo'ygan.

Hindlarning asosiy poyabzali sandaldir. Ba'zida uchi yopiq tuqli, qamishdan to'qilgan kavush ham kiyilgan.

**Ayollar libosi.** Qadimda hind ayolining jamiyatda egnidagi kiyimidan bo'lak hech qanday mavqeyi ham, boyligi va haq-huquqi ham bo'lмаган.

**Sari** - hind ayollarning nazokatli, an'anaviy milliy libosidir. Sari har xil usullarda o'ralgan va o'ziga xos drapirovkalanishi bilan ajralib turadi (3-rasm). Sarini o'rashni bir necha xil usullari mavjud bo'lib, ulardan biri: sondan tizzagacha yoki to'piqqacha 1-2 marta o'rab keyin tugib bog'lanadi. Tepa qismi yelkaga tashlanadi, sarining bir uchi ko'krak yonlarigacha chiroyli qilib qistirib qo'yiladi. Sari qanday o'ralishi, taxlamalari qanday shaklda ekanligiga qarab, libos egasi boshqalardan ajralib turadi. Aksariyat hollarda naqshin hoshiya yoki rangli yo'l-yo'l chiziq bilan to etakkacha bezatiladi.

Hind ayollari kalta kofta - choli va yubka kiyishgan. Choli - kaltagina yengchali, ko'krakka yopishib turadigan juda tor yelka kiyimidir (3-rasm). Ko'krak qismini orqa tomonidan qattiq tortib, ip tasma bilan bog'lanadi. Hatto sari o'ralganda ham tana ko'rinx turadi. Kichkina choli koftasi sernaqsh qilib bezatiladi.



3-rasm. Hind ayollari kiyimi - sari va choli

Aksariyat ayollar kiyimi ipakli shohi, batist, juda nafis, nozik kiseya matolaridan tikiladi. Hind ayoli yurganida oyoqlari atrofida tillarang mato tovlanishi bilan zaytunrang ayollar badaniga alohida nafosat bag'ishlaydi va ularni yanada maftunkor qilib ko'rsatadi.

**Nivi** - ayollar libosining asosiy elementi bo'lib, mato bo'lagi bel atrofidan aylantirilib, qorin qismida taxlamalar hosil qilib yig'iladi.

Hindistonning shimoli-g'arbiy mintaqasida aksariyat panjobliklar va kashmirliklar yashaydi. Panjobda an'anaviy kiyim sanalgan sari va dho'tiy kam uchraydi. Bu yerda istiqomat qiluvchi ayollar libosi: ko'yvak- kamis, ishton - sutxni va sharf iborat. Kashmir erkak va ayollar ko'ylagi deyarli ko'rinishi bir xil bo'ladi. Kamis ko'ylagining bo'yi sal kaltaroq bo'lishi bilan erkaklarnikidan farq qiladi.

**Sutxni** - shalvor - ishton bo'lib, bel kiyimi sanaladi, u keng-mo'l bo'lib, to'piqqa tushib turadi. Hindistonda erkaklar ham, ayollar ishton ham kiyadi.

Ayollar bosh kiyim o'rniga boshlariga sarining bir uchini yopib yurgan. Hozirda Hindistonning ko'p joylarida bosh kiyim kiyilmay qo'ydi.

Hind ayollarining taqinchoqlari, zeb-ziynatining o'ziga xosligi, nafisligi, chiroyi bilan ta'rifga sazovordir. Boyvuchcha ayollar qimmatbaho tilla va kumush metallardan taqinchoqlar taqqan. Oddiy ayollar - birinj, mis, ganch va shishadan yasalgan taqinchoqlar taqqan. Fil suyagi, rangli shisha, gavhar, nozik, chig'anoq, meva va danaklardan turli marjonlar, taqinchoqlar yasalgan.

Ayollarning oyoq kiyimi huddi erkaklarnikiga o'xshash bo'lган. Poyabzalga kelsak, musulmonlar charm; panjobliklar uchi qayrilgan, chiroli bezalgan tuqli, yog'och va charm shippak kiygan; qishda to'qima poxol oyoq kiyimi, mahalliy charmdan baland etik va pataua - kigiz etik kiygan. Kashmiring hindiy ayollar yunon sandaliga o'xshash peleyen poyabzalini kiygan.

## **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Hindistonda qanday san'at turlari rivojlangan?
2. Hind an'anaviy liboslari va ularning o'zgarishiga ta'sir etgan omillar haqida so'zlab bering.
3. Hindistonda qanday turdag'i matolar ishlab chiqariladi?
4. Hind erkaklar libosi haqida nimalarni bilasiz?
5. Hind erkaklarining qanday bel kiyim turlari mavjud?
6. Hind ayollarining qanday kiyim turlarini bilasiz?

## **XITOY LIBOSI**

Qadimiylar Xitoy madaniyati miloddan oldingi II-III ming yilliklarda Xuanxe daryosi bo'yida vujudga kelgan edi. Xan imperiyasi milodning 220-yilgacha hukm surdi. Xitoy madaniyati va san'ati tashqi ta'sirsiz rivojlandi. Milodgacha I asrning ikkinchi yarmigacha Xitoy boshqa davlatlar bilan aloqa qilmadi. Har bir shahar bir davlat bo'lib jamlanib, yagona Xitoyni tashkil etdi. Shunday shahar-davlatlardan eng yirigi Shan davlati edi. Tan, Sun, Lyao, Yuan, Min, Sin sulolalari qadimiy Xitoy tarixida asosiy o'rinnegallagan.

Xitoyliklar miloddan ikki ming yil avval rangli shoyi matolar, kanop va paxtadan yigirilgan yupqa gazlama ishlab chiqarganlar. Mamlakat shimoli juda sovuq, janubi esa juda issiq bo'lgani, iqlimi almashinib turganligi uchun qadimda xitoyliklar libosi bir necha qavat kiyimni tashkil etgan.

Tan davrida (VII-X asrlar) Xitoy gullab-yashnadi. O'rta asrlar Xitoy me'morhiligi Hindistondan kirib kelgan buddizm dini bilan bog'liqidir. Bu pagodalar, ya'ni ko'p yarusli, ko'p qavatli, og'ir devorli va mo'jazgina imorat maydoniga ega Buddha ibodatxonalaridir.

Sun davrida (X-XIII asrlar) azaldan mavjud hunarmandchilik: ipak to'qish, sopol va chinni ishlab chiqarish rivojlandi. Xitoy-ipakning vatani hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida ipak to'qish sirlari yevropaliklardan qattiq sir tutib kelingan.

Har tomonlama yuksak taraqqiy etgan Xitoy madaniyati Yaponiya va qo'shni davlatlarga ta'sir etmay qolmadi.

Xitoyliklar bobokalon ajdodlariga qurbanlik qilganiday, osmon va yerga ham qurbanlik qilgan. Inson qayta tiriladi, otamiz bo'lgan – Osmon, onamiz bo'lgan – Yer bunga izn beradi, dunyo shunday bino bo'lgan. Ba'ki shundandir, erkak kishi – Yan hamda ayol kishi - In shu tariqa muloqotda bo'ladi, deb tasavvur etgan qadimiy xitoyliklar.

Xitoy san'ati va madaniyatining rivojlanishida ramziylikka juda katta ahamiyat berishgan. Bu ramziy belgilar, ranglar, naqshlar liboslarda ham aks etgan.

**Ramzlar.** *I szin*, ya'ni yaxlit chiziq orqali erkak kuch - Yan, ayol - In yorug'lik chizig'i - ikkita qisqa chiziq bilan tasvirlanadi.

Ikkita yaxlit chiziq, erkak kuchning mutloq hukmronligini ifodalaydi. Buyuk Yan - bu yozni anglatadi. Ikkita kesma chiziq, ziyon chegarasidagi - ayol kuchi, bu buyuk In - qishni aks ettiradi.

Endi Osmon va Yerning sonlar ramzini ko'rib chiqaylik.

*I szin* da: "Ko'k, Osmon - bir, zamin, Yer: ikki, Osmon - uch, Yer - to'rt"; toq sonlar - Yanni, juft sonlar - Inni bildiradi.

Ranglar ramzi, so'zlar insonga kuchli ta'sir etadi. "Osmon - Yan" shimoli-sharqdan boshlanadi, shuning uchun ham uning rangi syuan (ya'ni sehrli shimol rangi deyarli qora; tabiatning beshta kuchi sharqning birlashuvi natijasida shunday rang hosil bo'ladi). Yer - In janubi-g'arbdan boshlanadi, shuning uchun u qizg'ish-sariq rangdadir. Ranglar ramzi tabiatning beshta kuchi birlashib, koinot olamini tashkil qilishi va tabiat mavjudotlari ustidan hukmronlik qilishini ifoda etadi. Bu kuchlar bo'linib ketib, dunyoning besh tomonini boshqaradi.

**Yashil** - bahor rangi. Bo'rtib turgan kurtaklar yaproq yozilishi demakdir. Mu daraxti, ya'ni o'simliklar kuchni yaxshi ifodalaydi. Bahor - yil boshi, sharq - kun chiqish joyidir. Shuning uchun ham yashil rang sharq, yoshlik va tug'ilishni ifoda etadi. Jupiter sayyorasining jilosi ko'kish-yashil tusda.

**Qizil**, yoz rangidir. Bu olov kuchi - Xo bo'lib, u janub va Mars sayyorasi ramzidir.

**Oq** - kuz ramzi. Kuzda xirmonlar oppoq guruchlar bilan to‘ladigan fasl, kuzga metall - szin kuchi to‘g‘ri keladi. Bundan oq - o‘tkir tig‘li bolta rangi bilan qiyoslanishini anglash mumkin. Bundan tashqari, g‘arb nafaqat kun botayotgan tomonni bildiribgina qolmay, balki marhumlarni u dunyoga kuzatish tomoniga ham ishora qilinadi. Ehtimol, Xitoyda motam liboslari oq rangda bo‘lishi shu tarzda paydo bo‘lgandir.

**Qora** - bu qish fasli rangi bo‘lib, yilning eng qora davrini ifoda etadi. Shimol rangi - zulmat hukmronligi, suv - Shuy, Merkuriy sayyorasi ramzi.

**Sariq** - oxirlab borayotgan yoz rangi bo‘lib, bu faslda bug‘doy pishib yetiladi. Sariq tuproq rangi, yer kuchi - Tu ramzidir. Sariq rang - dunyo tomonlari hisoblanmish sharq va g‘arb, janub va shimol tutashgan markaz ramzi. Yana bu rang Saturn sayyorasini ham aks ettiradi.

**Erkaklar libosi.** Xitoyliklar yomg‘ir yoqqanda kundalik rasmiy liboslar ustidan plash-yomg‘irpo‘sh yopingan. Oddiy xalq poxol, turli o‘simpliklar, masalan, bambuk daraxti po‘stidan to‘qilgan chjusi kiygan, bu kiyimlar so suy, deb atalgan. Badavlat kishilar qushlar pati yoki ipak matodan tikilgan xechan kiygan.

Erkaklarning bel kiyimlaridan biri shalvordir. Aksariyat hollarda xitoyliklar shalvorni osig‘liq (ya’ni osilib turudigan) holda kiygan. Ba’zan shalvorning tizzadan pasti o‘rab qo‘yilgan.

Xitoy liboslarining juda zarur qismi day belbog‘i sanaladi. Day rangi, matosi va bezagi bilan aksariyat tabaqalar orasidagi farqni ajratuvchi belgilardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Xilma-xil marosimlarda bog‘lanadigan yumshoq belbog‘lar kengligi, butun belni o‘rab turuvchi bog‘ichlarsiz qilingan. Ya’ni oldinda osilib turuvchi kengroq bezakli tasma - pyaoday yoki chanday bo‘lgan.

**Shou** - xitoy tantanali libosining o‘ziga xos jihatni hisoblanadi. Shou bilan zich bog‘liq nefritli osmalar peyyuy hisoblanadi. Bu buyumlar liboslarga dabdaba ruhini baxsh etgan (2.5-ilova).

Qadimdan xitoyliklar sochlarni oldirmagan va qirqmagan, sochlari uzun bo‘lgan. Soch orqaga silliq qilib taralib, bosh tepasiga

tugun qilib turmaklangan. Turmak sochto‘g‘nag‘ich szi yoki szan bilan mahkamlangan.

Miloddan avvalgi 213-yilda, Xitoy qadimiy an'analariga ko‘ra, yigirma yoshga yetgan yigitga birinchi marta rasmiy guan bosh kiyimini kiyg‘izish marosimi o‘tkazilgan. Xitojlik erkaklar bosh kiyimining turlari ko‘p bo‘lgan. Bosh kiyimsiz yurish nojoiz hisoblangan. Manchjurlar<sup>11</sup> Xitoyni bosib olgach, xitojliklarning tashqi qiyofasi keskin o‘zgargan.

**Myan** - xitoy bosh kiyimlari orasida murakkabligi, ko‘p ma’noni anglatishi bilan ajralib turadi. Myan - toj bo‘lib, imperatorlarning tantanali marosimlarda kiyadigan bayramona bosh kiyimi sanaladi. Lekin shunisi ham borki, qadimda myanni amaldorlar ham kiygan.

Xitoy erkaklar libosida belbog‘ va bosh kiyim asosiy rol o‘ynagan, ular o‘z egasining qaysi tabaqaga mansub ekanligini bildirgan. Xitojliklar poyabzalining aksariyati yengilgina bo‘lib, mato va poxoldan to‘qilgan. Bu poyabzallar qadimda szuy, so‘ng’ra li, keyinroq *se*, deb atalgan. Matodan to‘qilgan aksariyat **semyan** poyabzaliga bezak berilgan. Poyabzal poshnasi bir necha qavat qog‘oz yoki matodan qilingan. Tantanali *si* tuflisi mag‘izlar, hoshiyalar bilan bezalgan. Yomg‘irli kunlarda yog‘ochdan yasalgan skameykasimon usti ochiq szi poyabzali kiyilgan.

**Ayollar libosi.** Xitoy ayollar erkekler singari uzun ko‘ylak va keng ishton kiygan. Ustki kiyim ishan ham erkaklarnikiga o‘xshash bo‘lgan. Faqat Tan davriga kelib, ayollar kofta va yubka kiya boshlaganlar.

Ayollar libosi erkaklarnikidan aksariyat rang-barang bezaklarga boyligi bilan ajralib turgan. Bunday bezaklar odatda *tuan* deb atalgan va doiraga olingan. Bu doiraga kirgan bezaklar o‘z ramziy ma’nosiga ega bo‘lgan. Olcha va nargiz gullari qish, sallagul - bahor, nilufar - yoz va quyosh, xrizantema - kuz faslini anglatgan. Keyinchalik oilaviy baxt ramzi hisoblanmish kapalakni tasvirlash keng urf bo‘ladi. Tasvirdagi o‘rdaklar juftligi er-xotin baxtini bildiradi. Bora-bora *tuan* - bezaklar doirasida qiz va yigit, qariya va bola tasviri badiiy asar ko‘rinishida chizila boshlanadi. Manchjur

<sup>11</sup> Manchjurlar – Xitoyning Dunbey o‘lkasida yashovchi elat.

ayollarli libosi erkaklarnikidan unchalik farq qilmaydi. Ayollar yozda, ba'zan hatto qishda ham bosh yalang yurishni ma'qul ko'rgan. Shunga ko'ra, manchjur ayollarining soch turmaklari murakkab bo'lib, gullar, osilmachoqlar bilan bezalgan. Ayollar kiyimi *chaofu*, o'ziga xos, yengsiz *chaogua* va *chaopao* xalatlaridan tashkil topgan. Ayollar faqat erkaklar xalati *paodan* sal farq qiladigan *szifu* shaklidagi libosni kofta o'mnida kiygan. Bu ko'ylik erkaklarning *bafusidan* uncha farq qilmagan. Xitoy ayollarining kundalik *chanfu* ko'ylagi erkaklarnikidan bezagining serhashamligi va rang-barangligi bilan ajralib turgan. Erkaklar aksariyat bir xil rangdagi xalatlar kiygan. Ayollar kiyimi esa kashtasi yoki turfa rangda to'qilganligi bilan farq qilgan. Bundan tashqari odatda ayollar bir yoqali *guatsza* o'mniga yengsiz *kanszyar* yoki *beysin*, yoki ikki yoqali kalta kofta kiygan. Xitoy ayollar manchjur ayollaridan farqli o'laroq, unchalik uzun bo'limgan ikki yoqali, keng yengli *ao* koftasini kiygan. Turli tantanalarda *ao* ustidan *syapey* nimchasi kiyilgan.

Ko'pincha oddiy tabaqa ayollar aksar hollarda *ao* kiyganlarida ostidan ishtonlari ko'rinishi turgan. Jamiatning oliy va o'rtta tabaqa ayollar ao ostidan o'ziga xos *plaxta-syunsza* kiygan. Bu kiyim silliq, old tomonidan to'g'ri burchakli, orqa tomonidan yon tomonlariga qaratib qayrilgan drapirovkali bo'lgan.

Xitoy ayollar faqat to'y va boshqa tantanalarda Min davridan meros bo'lib qolgan, *fenguan* deb atalgan bosh kiyimni kiyganlar. Boshqa vaqt ayollar bosh kiyim kiyishmagan. Soch murakkab ko'rinishda, lekin yengil va nozik turmaklangan (2-rasm).

Sochning o'rtasidan bir necha farq ochilib, tugun shaklida turmaklangan. Soch turmaklaridagi baland tugunlar peshona yoki ensaga yig'ilgan. Har bir soch turmagida ikki-uch bog' bo'lgan. Chakkalardan soch yuqoriga taralgan, peshonaga bir tutam pat



2-rasm. Ayollar libosi

tushib turgan. Ayollar chakka sochlarini uzun tushirib, ularga taqinchoqlar ham ilib yurgan. Kibor xonimlar parik ham kiyishgan. **Taqinchoqlar va pardoz ashylari.** Xitoyda qadimdan pardoz va parvarishga alohida e'tibor berilgan. Ayollar sochlariga har xil malham va moy surtganlar, lok va mum bilan yaltiratganlar. Soch turmaklari gul bargli novda va mayda g'unchalar bilan bezatilgan. Kelinlar sochi inju tolalari, rangli ipak iplar, mayda gullar shodasi qo'shib o'rilgan. Manchjur ayollari bayram poyabzallarini xitoylik ayollardan farqli ravishda oyoqqa tasma bilan bog'lamaganlar. Ularning poyabzali to'rtburchaksimon, pastga qarab kengaygan, o'rtacha poshnali ko'rinishida bo'lgan.

**Manchjurlar hukmronligi davri liboslari.** Manchjur istilosidan keyin xitoy liboslari ko'zga tashlanarli darajada o'zgardi. 1759-yil Xitoyda erkaklar va ayollar kiyimlarining shaklini belgilovchi qonun e'lon qilinadi. Mazkur qonun imperator, saroy a'yonlari, zodagonlar birinchidan to'qqizinchi darajagacha bo'lgan aksariyat amaldorlar, shuningdek fuqarolar liboslarini o'z ichiga oladi. Ushbu qonunga ko'ra liboslarning beshta asosiy turi aniqlanadi:

1. **Chaofu** - saroy libosi; qurbanlik qilish ma'rakasi hamda saroyda o'tkaziladigan boshqa tantanali marosimlarda kiyilgan.
2. **Szifu** - bayram libosi, ya'ni tor, rasmiy doira uchun mo'ljallangan.
3. **Chanfu** - kundalik libos.
4. **Sinfu** - safar yoki yo'l libosi.
5. **Yuii** - yomg'irli kunda kiyiladigan libos.

Manchjurlar xitoyliklar tashqi qiyofasini shu darajada o'zgartirib yuborishga erishgandilarki, ulardan oldingi bosqinchilardan hech biri bu ishni uddalay olmagan edi. Manchjurlar Xitoyda o'zlarining hukmronligini o'rnatish hamda o'z rasm-taomillarini joriy qilishga intiladilar. Aksariyat erkaklar soch old qismini qirib, orqa tomonida qolgan qismini uzun qilib o'rib yurishga majbur qilinadi. Bunday shaklda soch qo'yish **byan**, deb atalgan. Manchjurlar xitoy bosh kiyimlaridan keskin farq qiladigan o'zlarining bosh kiyimlarini amalga kiritadi va xizmatchi amaldorlarni esa, manchjurlarga xos liboslarni kiyishga majburlaydi. Faqat ayollargina o'zlarining milliy soch turmag'i va liboslarning bir necha unsurlarini saqlab qolishga

muvaffaq bo'ladilar, xolos. Shunday bo'lsa - da, poytaxtda xizmat qiluvchi xizmatchilarning ayollarasi rasmiy tadbirlarda manchjurlar ayollariga o'xshab kiyinishga majbur bo'lganlar. Xitoy ayollarini uchun milliy libos kishilik libosi sifatida saqlab qolinadi. Bosqinchilar zulmidan ozod bo'lgachgina, xitoy erkaklari soch o'rimini qirqib tashlaydilar. Ajablanarlisi shundaki, ayollar orasida manchjurlarning uzun xalatini kiyish ursiga aylanadi. Bunday xalatlar sipao, deb nomlanadi.

Shuni eslatib o'tish joizki, azal-azaldan xitoy libosi tarixi, mamlakatning shimoli va g'arbida (ma'lum bir qismi) ko'chmanchi xalqlar istiqomat qilganlari sababli liboslar borasida bo'lib o'tgan munozaralar aslida shakllar o'rtaсидagi kurash tarixiga aylanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Manchjurlar koftasi – *guatsza* edi. *Chaofu* va *szifu* – erkaklarning ustki kiyimlari sanaladi. Guatsza koftasi ham ustki kiyim sifatida kiyilgan.

Bufanlar kvadrat shaklida tikilgan kashtadir, Sin davri bufusi orqasida - fuqarolik xizmati hamda oliymaqom harbiylarning to'qqiz darajasini farqlab turuvchi belgilar bo'lgan.

Erkaklar xalati - *chaofu* qurbonlik keltirish ma'rakasi va saroyning tantanali marosimlarida guatsza ostidan kiyilgan. Min davrida lunpao tantanali libos hisoblangan. Xitoy imperatori tez-tez liboslarni ayrim davlatlarga sovg'a qilishni xush ko'rgan. Sovg'a olganlar lunpaoning dabdabali bezaklarini yaxshi ko'rgan. *Chaofu* - dabdabali kiyim hisoblangan. Juda qimmatbaho ekanligidan hamma ham bunday xalatlarni kiya olmagan.

*Lunpao* ham erkaklar xalati bo'lib, yarim rasmiy yoki bayram libosi sanalgan. Odatda rasmiy marosimlar vaqtida, tantanali vaziyatlarda lunpao bilan chaofu almashib kiyilgan.

Imperatorlar xalatlari uzunligiga ko'ra besh guruhga bo'lingan.  
Erkaklarning kundalik liboslarida rangli naqshlar bo'limgan.

### Nazorat uchun savol vaamaliy topshiriqlar

1. Xitoy ramziy belgilari haqida nimalarni bilasiz?
2. Xitoyda ramziy ranglar nimalarni bildiradi?
3. Xitoy erkaklar libosini ta'riflab bering.

4. Xitoy libosiga assimetrik taqilma qaysi mamlakat libosidan kirib kelgan?
5. Manchjurlar hukmronligi davridagi liboslar haqida so‘zlab bering
6. Xitoy ayollar libosi haqida qanday ma’lumotga egasiz?

## YAPON LIBOSI

Yaponiya ko‘p asrlar davomida urug‘larga bo‘linib yashab kelgan. Yaponiya davlatga aylanishi uchun ko‘p asrlar kerak bo‘ladi. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, davlatni imperator emas, balki harbiylar boshqargan. 1190-yilda esa taxt harbiy samuraylar olyi qo‘mondonligi qo‘liga o‘tadi. Samuraylar nomi nasldan nasnga o‘tib, yuz yillik janglardan so‘ng yagona Yaponiya davlatiga asos solinadi. Yaponiya uncha katta mamlakat emasligiga qaramay, tabiiy sharoiti murakkab. Yaponiya hududi zilzilalar, suv toshqinlaridan hosil bo‘lgan murakkab relyefli o‘lka hisoblanadi. Tabiat bilan uyg‘unlik, ya’ni ana shu go‘zallikni his qilish betakror yapon uslubini vujudga keltiradi.

Yapon tamadduni qadimiyligi jihatidan nafaqat jahon, balki Sharq madaniyatida ajralib turadi. Bu fikrimizga shu kungacha saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar dalil bo‘la oladi. Masalan: mazkur me’morchilik yodgorliklariga IX-XII asrlarda qurilgan Xeyan Feniks ibodatxonasini eslatadi.

Hozirgacha yapon tilining qanday paydo bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Qadimda yaponlarning o‘z yozuvlari bo‘limgan. VII asrga kelibgina yaponlar xitoy iyerogiflariga asoslanib, o‘z yozuvlarini yaratgan. Hattotlik bobida mahorati oshgan yapon yozushi, kalligrafiyasi, husnixati yozuv san’ati darajasiga ko‘tariladi. Buddaga sig‘inish natijasi o‘laroq, xitoy hikmatli so‘zlar, she’rlar kalligrafiyada yozila boshlanadi. Qog‘ozga so‘z yozish katta ahamiyatga ega san’at hisoblanadi. Keyinchalik yapon adabiyoti dunyoga keladi va VII asrda ilk she’rlar yozila boshlanadi.

Yaponiyada san’at, hunarmandchilik rivojlanishiga xitoy san’atining ta’siri katta bo‘lsa-da, yaponlar bu borada betakror uslub

yaratadilar. VII asrda Koreyadan Yaponiyaga qog'oz tayyorlash san'ati kirib keladi. Qog'ozning yengilligi va chidamliligi yaponlarga bejirim qurilish materiallari tayyorlashlarida qo'l keladi. Yaponlar uylar, xonalarni ajratib turuvchi siljima eshik, fonarlar, yelpig'ichlar, hatto ruhoniylari uchun kiyim - **kamiko**, suvyuqmas qog'ozdan soyabonlar yasaydilar. Qog'ozni taxlash san'ati - **origami**, deb ataladi.

**"Yapon rokoko"**si deb hisoblangan Xeyan davrida Yaponianing Xitoy bilan aloqasi susayadi, bu esa yapon madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xitoy madaniyatining ta'siriga qaramay, yapon me'morchiligi, ayniqsa, turarjoy va interyerining o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi. Yaponlarning uyi katta ham, baland ham bo'limgan, to'siqlar yordamida yengil transformatsiyalangan.

Yaponlar go'zallik, nafosat tuyg'usiga o'zgacha nazar soladi, ular go'zallikni san'atda aks ettira oladilar. Bu jihat yapon millatiga xos xususiyatga aylangan. Yapon milliy san'atining dovrug'i jahonga ketgan. Yapon bog'lari, choy tayyorlash marosimi, hamda gullarni saralab, dastalash san'ati - ikevana shu jumladandir.

Yaponiya tarixi musiqa va o'yinlar, diniy marosimlar bilan bog'liqligi bizga tarixiy manbalardan ma'lum. Dastlab yaponlar hind, xitoy va koreys musiqalaridan ko'p foydalanadilar.

**Go'zallik timsoli.** O'rta asrlarda Yaponianing rivojlanishi Xeyan davrida go'zallik timsoli haqida tushuncha paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Yaponlar asrlar davomida turli o'zgarishlar sodir bo'lishiga qaramay, go'zallik haqidagi asosiy tasavvurlarini saqlab qoladilar. Qomatni yopib turuvchi, qavat-qavat, keng-mo'l libos, yuz oqartirish ayollarga ham, erkaklarga ham xos bo'lgan. Chunki saroy etiketi - odob-nazokat qoidalari shuni taqozo etardi. Yaponlarning estetik didi ayollar go'zalligi, turmush tarzi va odob-nazokat qoidalari ta'sirida shakllanadi. Yaponlar oq tanli ayollar qarshisida bosh egganlar. Shu sababli kibor xonimlar yuzlarini oqartirib yurgan. Bu yaponlarning turmush sharoitiga, uylariga mos tushgan, ayollar gul tasviri tushirilgan pardalar ortida, nimqorong'i pastak xonalar ichida qop-qora sochlari, oppoq yuzlari bilan jonsiz emas, balki nozik bo'lib ko'ringan.

Asrlar o'tishi bilan go'zallik timsoli, go'zal ayol obrazi o'zgarib borgan. XVII- XVIII asrlarga oid suratlarda biz oppoq yuz, qirra burun, pistaday g'uncha lab va qisiq ko'z ayol noz-istig'no qilib turgan holatlarini ko'ramiz. Suratda ayolning pardek yengil, nafis ipakdan tikilgan, yergacha tushib turgan ko'yaklari ko'rinish turadi. Yapon ayollarining qaddi-qomati o'ziga xos. Ularning bo'yinlari uzun, oyoqlari nisbatan kaltaroq bo'ladi. Shu sabab bo'lsa kerak, yapon ayollari qavat-qavat libos kiyib, qomatlaridagi kamchlikni ustalik bilan yashirganlar. Yapon ayollari belbog'ni beldan yuqoridan bog'lagan. Ayollarning obi belbog'i keng-mo'l bo'lib, tanaga o'ralganda qomatni kengaytirib, tik, to'g'ri ko'rsatgan. Ayol bunday libos va baland poyabzal kiyib mayda qadam tashlab yurganida xushqomat ko'ringan. Ayollar sochni tasma yoki gulsimon qilib baland turmaklaganlarida yanada malohatli va maftunkor ko'rinishgan. Ayollarning qo'llari, barmoqlari va oyoq panjalari kichik bo'lsa, chiroyli hisoblangan.

**Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o'ziga xos yechimi.** Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, III asrda yapon to'quvchilari parcha matosini to'qishni yo'lga qo'yganlar. Imperator va saroy ahli uchun parcha asosan, yaltiroq iplar bilan tikilgan, rangli ipak va nafis yupqa mato kiyim tikishga ishlataligan. Yaponiya qadimdan ipak vatani hisoblangan va bu sanoat juda rivojlangan qo'shni Xitoy davlatidan kirib kelgan. Nara davrida Yaponiyadan keltirilgan pishiq gulli mato shtaf juda qimmat baholangan.

Yapon liboslarda rang tanlash ham o'ziga xos kechgan, ya'ni tabiat bilan uyg'unlikda rang tanlangan, masalan: oq-binafsha rang - "olxo'ri", ko'k rang - "qo'ng'iroqcha", pushti rang - "shaftoli", oq-pushti rang - "piongul, sallagul", olxo'ri daraxti gullari qish tugashi ramzi hisoblangan. Piongul va sakura bahorni, nilufar - yoz, xrizantema - kuzni bildiradi. Mavsumga qarab, ana shu gullar tasvirlangan kiyimlar kiyilgan. Kelinchakning qizil rangli libosi yoki ko'ylagida qizil rangga xos belgilar bo'lgan. Faqat imperatorning sariq rangli libos kiygan. Yapon libosi bezaklarida bulutlar, to'lqinlar, o'simliklar, qushlar, hayvonlar va tabiatning boshqa unsurlari, shuningdek, gerblar tasviri uchraydi. Bularning hammasi

o'zining ramziy ma'nosiga ega. XIV asrga kelib, saroy libosi ancha soddalashadi, kiyimdag'i unsurlar va kiyimlar soni kamayadi.

**Yapon an'anaviy liboslari.** Yapon liboslari asrlar davomida xalqning estetik didi, tashqi omillar, ijtimoiy voqe'a - hodisalar va iqlim ta'siri ostida shakllandi.

Yapon an'anaviy libosi bir yarim ming yil davomida rivojlandi. Birinchidan, aslzodalar qatlami liboslarga katta ahamiyat beradi, kichik bir detal ham ularning nazaridan chetda qolmaydi. Libosning sipoligi, rangi, kashtasi, silueti juda noqulay bo'lsa-da, bir-birini takrorlamagan.

Ikkinchidan, dehqonlar kiyimi badanning har bir a'zosiga mos tikilgan. Dehqonlar kiyadigan kiyimlari qulay, chidamli va arzon bo'lishini xohlaganlar. Kiyim o'z egasining tabaqasi, boyligi va jamiyatda tutgan mavqeyidan dalolat berib turgan.

**Erkaklar libosi.** Erkaklarning milliy liboslari jamiyatda qabul qilingan estetik qarashlar, ya'ni, botirlilik, jasorat haqidagi tasavvurlar ostida shakllanadi.

Erkaklar libosi ichki va ustki kiyimlardan iborat bo'lib, yelka va bel kiyimlariga bo'linadi.

Erkaklar ichki yelka libosi - dzyuban hisoblanadi. Dzyuban ko'rinishi jihatidan xalatni eslatadi, kimono ostidan kiyiladi. U jamiyatning barcha tabaqalariga xos bo'lgan milliy libos hisoblanadi. Dzyuban shohi yoki ip gazlamasidan tikiladi, uzunligi bo'ksagacha tushib turadi va chapdan o'ngga qarab o'raladi.

Ichki yelka kiyimining yana bir turi - **nagadzyuban** deb ataladi. Nagadzyubanning dzyubandan farqi - uzunligida. Yengning eni o'miziga nisbatan kengroq olinadi. Ortiqcha eni yeng o'miziga tikilmaganligi bilan farq qiladi.

Erkaklar bel kiyimi turlariga **fundosi** va **kosimaki** kiradi.

**Fundosi** - to'g'ri to'rtburchak mato, oppoq ip gazlama bo'lib, u oyoqlar orasidan o'tkazilib, belda mahkamlanadi. Fundosining ikki turi mavjud. Birinchisi uzun, keng mato parchasi belga o'raladi, tugun qilib tugiladi, uchi osilib turgan qismi oyoqlar orasidan o'tkazib, belbog' bilan bog'lanadi. Ikkinchi turi ettyu fundosi bo'lib, uning bo'yi kaltaroq bo'ladi va belga tasma bilan mahkam bog'lanadi.

**Kosimaki**, deb ko'rinishi tikilmagan yubkaga o'xshash, tizzagacha keng mato bo'lagiga aytildi. Kosimakini bo'ksa atrofida aylantirib o'rab, belga datemaki belbog'i yordamida bog'lab qo'yiladi.

Yaponlar milliy ustki kiyimi **kimono** sanaladi. Kimono - qimmatbaho libos. Kimononing ko'rinishi xalatni eslatadi. Bo'sh, erkin, yopinchig'i keng belbog' bilan bog'lanadi .

Sovuq kunlarda bir necha qavat paxmoq kimono kiyilgan. Oddiy xalq qulay kiyim kiygan. Yil fasliga qarab, necha qavat kimono kiyishgan. Liboslarning ko'p qavatli bo'lishi, kishining jamiyatdai tutgan o'rmini, nufuzini bildirgan.

Tabiat fasli liboslar tikilishida muhim ahamiyat kasb etgan. Yozgi kimono astarsiz, bahorgi-kuzgisi astarli, qishkisi paxmoq bo'lgan. Yozgi astarsiz kimono - *xiroe*, bahorgi-kuzgi, ya'ni astarli kimono - *avase*, qishki kimonolar - *kosode* astarli qilib tikilgan. Astar orasiga xom shohi ipak solingan va *vata-ire* astarli, astar orasiga paxta solib qavilgan. Kimononing eng asosiy detallari bu - *obi* va *mon* gerbi hisoblanadi. Erkaklar obisi ayollarnikidan hajmi, eni, rang va bezagiga qarab farqlangan. Monlar esa kimono yelka qismining oldiga ikkita va orqaga uchta mon tikiladi.

**Obi** belbog'i - libosning eng asosiy qismidir. Obining ikki turi bor. **Kaku obi** - bayram hamda tantanali marosimlar uchun mo'ljallangan belbog'; **xeko obi** esa kundalik kiyim belbog'i.


Yana bir an'anaviy ustki kiyim **xaori** sanaladi. Xaori kimononing ustidan kiyiladi. Xaori - keng, mo'l tikilgan bo'lib, u erkin osilib turuvchi etak, keng yengdan iborat.

**Xakama** - erkaklarning ustki bel kiyimi. Xakama belbog'li, keng, uncha uzun bo'lмаган yubka-ishtonga o'xshash kiyim sanaladi. Xakama belbog'li qopsimon, keng ishtonga o'xshab, boldirning bir qismini yopib turgan. Oddiy kishilar keng, uzun yubka-xakama kiygan.

Oddiy xalq ustki yelka kiyimi - **xanten** va bel kiyimi - **momoxiki** ishtonini kiygan.

**Kammuri** - asosiy bosh kiyim hisoblangan. Kammuri kiygan kishiga qarab, uning jamiyatdagi mavqeyini bilsa bo'lardi. Oqsuyaklar ochiq tusdagi, to'q, siyoh rangli kammuri kiysalar, past

tabaqaga mansub odamlar esa to'q, qora rangli kammuri kiygan. Kishining jamiyatdagi tutgan o'rni, nufuzi soch turmagida ham aks etgan. Samuraylar yuzlarini silliq qilib, qirib yurgan (1-rasm).



1-rasm. Kamakura va Muromachi davri, samuraylar libosi

Ruhoniylar esa sochlarni ol'dirib, yuzlaridagi tuklarini ham yilib tashlaganlar.

Erkaklar ham pardoz qilgan, oq, tiniq yuzli kishi xushro'y sanalgan. Shu sababli boobro', nufuzli erkaklar huddi ayollar kabi pardoz qilib, yuzlarini oqartirib yurganlar.

O'rta asrlarda yuqori tabaqa shaharliklar libosini qo'shimcha aksessuarlarsiz tasavvur qilish qiyin edi. Yelpig'ich, shamshir, *netske*, *inrolar* kimono ni bezab turgan. Yog'och, suyak, tosh yoki metalldan yasalgan jajji haykalchaga *netske* deyiladi. *Inro* deb, hamyon yoki suyuq idishchalarni solib qo'yadigan qutichaga aytilgan.

Oddiy odamlar poxol poyabzal kiygan. Milliy poyabzallarning yana bir turi getadir. Geta tagcharmi yog'ochdan, skameykasimon yasalgan poyabzal bo'lib, yog'ingarchilik paytida kiyilgan. Oyoqlarga tabi bosh barmoq chiqib turadigan paypoq qiyilgan.

**Ayollar libosi. "Dzyuni - xitoe"** - Xeyan davriga mansub ayollar libosi sanalgan. Ushbu libos rangli, to'qilgan, o'n ikki qavatdan

tashkil topadi. Buni saralangan liboslar nomi desa ham bo'ladi. Ya'ni ushbu ko'ylak shundayki, birining ustidan biri kiyilgan; har biri har xil rangda va ustidagi ostidagiga nisbatan bir oz kaltaroq kiyimlardan iborat bo'lgan (2-rasm).

- **Kami** - oq ipakdan tikilgan ichki kiyim;
- **utibokama** - burmali qizil ipak yubka;
- **xitoe** - astarsiz yengil ko'ylak;
- **itsutsiginu** - beshta, har xil rangli ipak libos;
- **utiginu** - yaltiroq qizil xalat;
- **uvagi** - ustki xalat;
- **kariginu** - yaltiroq parcha xalat;
- **mo** - yubka.



2-rasm. Xeyan va Kamakura davri. Saroy xonimlarining tantanalarida kiyadigan kiyimi: o'n ikki qavatli kimono - dzyunixitoe

XII asrda liboslar o'n ikki qavatli bo'lgan bo'lsa, bora-bora u besh qavatga tushadi. Ushbu kiyim quyidagi tartibda kiyiladi:

- oyoq tepasi, son oq mato bilan o'raladi;
- ustidan badanga yopishib turuvchi xalat - dzyuban;
- dzyuban ustidan jun xalat - sitagi;
- uning ustidan kimono;

- kimono ustidan - xaori kiyilgani. Xaori ko'krakdan tasma bog'ich bilan bog'lanadi.

XIV asrga kelib, zodagonlar libosi ancha soddalashadi, kiyimlar va uning unsurlari soni kamayadi. Ayollar libosi erkaklarnikiga nisbatan uzunroq bo'lib, yerga tegib turgan.

Ayollar ichki yelka kiyimi - **xadadzyuban** va **dzyuban** sanaladi. Bu kiyimlar uzunligi va enida farq qiladi. Ayollar dzyubanida yeng o'mizining ost qismi ochiq qoldiriladi, erkaklar dzyubanining yeng o'mizi to'liq tikiladi.

**Futano** va **kosimaki** - ichki bel kiyimi hisoblanadi. Futanoning uzunligi kalta, tizzagacha keladi. Bu kiyim ohorli ip gazlamadan qilinadi, tikilmagan yubkadan iborat bo'ladi. **Kosimaki**, deb tovongacha tushib turadigan, uzun, tikilmagan yubkaga aytildi. Yoshi ulug' ayollar oq rangli, yosh qiz-juvonlar esa ko'zga tashlanadigan, yorqin rangli yupqa muslin gazlamasi yoki krep matosidan kosimaki kiygan. Faslga qarab, sovuq tushganda **kosimaki** o'miga **xadadzyuban** ustidan kimonoga o'xshash **nagadzyuban** kiyilgan va belga **datemaki** belbog'i o'rالgan.

**Kimono** va **xaori** ustki kiyimlar sanaladi. Xaori tunikasimon bichimli, oldi ochiq, ko'krakkacha **okumi** yoqasi tushib turadi va tasma bilan mahkam bog'lanadi, ko'pincha ort qismi oldiga nisbatan kaltaroq bo'ladi.

Ayollar kimonosi erkaklarnikidan uzunligi, yeng bichimi va tikilishida farq qiladi. Ayollar kimonosi yengining ichki tomoni va yeng o'mizining osti ochiq qoldirilgan, tikilmagan. Yukata - ayollarning yozgi kimonosi. Umuman, ayollar kimonosi fasllar o'zgarishi, biror tadbir yoki marosim turiga qarab o'zgargan.

**Obi** belbog'i orqa tomonga katta kapalak shaklida bant qilib bog'lanadi. Belga bog'lanadigan belbog'lar soni yettitagacha bo'ladi. Odamga kerakli ashyolar, mayda-chuydalar belbog' orasiga qistirilgan, unga sig'magani esa burmalar orasi yoki yeng ichiga solib qo'yilgan.

**Kosode** ustki kiyim hisoblanadi. Kosode VII - XVIII asrlarda (o'yiq yoqali) dekolte va (ort bo'lak etagi uzun) shleyfli qilib tikilgan (3-rasm).



*3-rasm. Saroy xonimlari libosi. Muromachi va Adzuchi-Momoyama davri (1568-1600): kosode va uchikake*

**Xanten** – oddiy, ishchi ayollarning ustki kiyimi; **fundagi** esa tunikasimon shakldagi libosdir; mompe - bel kiyimi.

Ayollarning bosh kiyimi ahyon-ahyonda uchraydi. Ayollar sayr chog'i va ishlaganlarida poxol shlyapa kiyganlar. Sovuqda ro'mol o'ranganlar va qaytarma qalpoqqa o'xshash yopinchiq yopganlar.

Yapon ayollarining soch turmaklari o'ta nazokatli ekanligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Timqora va qalin uzun sochlар ayollarga alohida husn bag'ishlagan va bu go'zallik ramzi sanalgan.

Qadimda ayollar sochlарini yoyib yurgan, so'ng boshga yig'ib, katta tutam qilib turmaklagan. Ayollar soch turmagи turli sochto'g'nag'ich va yog'och, marjon, suyak, metall, toshbaqa kosasidan yasalgan taroqlar bilan bezalardi. Bundan tashqari, gullardan ham bezak o'rnida foydalanilgan. Belboqqa bezak sifatida netske taqilgan. XII asrda netske jajji haykalcha ko'rinishida bo'lgan. Shamsiyalar urf bo'lgan. Soyabon - shamsiyalar juda urf bo'lgan. Kibor xonimlar issiqda ham, yomg'ir yog'ayotganda ham gul tasviri tushirilgan yelpig'ichlarni qo'llaridan qo'ymasdi.

Ayollar tabi deb atalgan oq paypoq kiygan. Tabining osti qalin jun matodan tepasi esa ipak yoki paxtadan qilingan. Ular bunday

qalpoqlarni kiyib, uyda yurgan, mehmondorchilik hamda teatr va ibodatxonalariga borgan. Ayollar poyabzali geta har xil bo‘lgan. O’sha davrlarda ko‘rinishi skameykasimon va tagcharmi keng, 10 sm.li baland yog‘och o‘rindiqqa o‘xhash geta urf bo‘lgan. Yomg‘irli kunlarda, ivib ketmasligi, iflos bo‘lmasligi uchun geta ustiga g‘ilof kiydirilgan. Ayollar poyabzalining yana bir turi - dzori edi. O‘lchami bir xil, tagi yumshoq, poshnasiz shippakka o‘xhash bo‘lgan.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Yaponiya san’ati va madaniyatini ta’riflab bering. Mamlakat san’at va madaniyatining gullab-yashnashiga turtki bo‘lgan omillar haqida nimalarni bilasiz?
2. Yaponiyada go‘zallik timsoli qay tariqa baholanadi?
3. Mato turlari, liboslarda rang va bezaklarning o‘ziga xos yechimi haqida so‘zlab bering.
4. Yapon an’anaviy liboslari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yapon erkaklarining qanday kiyim turlarini bilasiz? Ularni ta’riflab bering.
6. Ayollarning Xeyan davriga xos bo‘lgan libosi va kiyinish uslubi haqida so‘zlab bering.

# BESHINCHI BOB

## MARKAZIY OSIYO HALQLARI LIBOSI

### QOZOQ LIBOSI

Qozoq xalq san'ati tarixi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Bu haqda Qozog'iston Respublikasi hududidan topilgan birinj asriga oid tarixiy obidalar ham guvohlik beradi. Geometrik tasvirlar tushirilgan sopol idishlar, suyakdan yasalgan buyumlar, birinj va tilla taqinchoqlar bunga misoldir.

Fanda qozoq xalq san'ati milodgacha Qozog'iston hududida yashagan sak, usun, xunn kabi elatlar san'ati bilan genetik jihatdan bog'liqlik bor, degan taxminlar yuradi. Mazkur elatlarning yashash tarzi va xo'jalik yuritishlari qozoqlarnikiga juda o'xshash va yaqin bo'lgan. Ular ham ko'chmanchilikda hayot kechirgan, chorvadorlik bilan shug'ullangan.

**Qozoq xalq naqshlari – ornementi.** Qozoq xalq san'ati tarixiga razm soladigan bo'lsak, qadim zamonlarda chizgi - ornament biror diniy ma'noni anglatganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, birinj va kumushdan yasalgan tumorlarda turkiy elatlar quyosh, oy, osmon sajda qilayotganligi tasvirlangan.

Liboslar uchun tanlanadigan matolar rangi va naqshlar grafikasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ranglar kontrast usulda ham tanlangan (oq va qora). Har bir rang esa o'z ma'nosiga ega bo'lgan:

- havorang - osmon ramzi;
- qizil - olov ramzi;
- oq - haqiqat, baxt, xursandchilik ramzi;
- sariq - aql-idrok ramzi;
- qora - yer ramzi;
- yashil - bahor ramzi.

**Qadimiylar qozoq an'anaviy liboslari.** Ko'p asrlar davomida qozoq liboslarining matolari o'zgardi, bichimlarga o'zgarishlar kiritildi, kiyimda bezaklar paydo bo'ldi. Tabaqalar orasidagi farq

asosan kiygan kiyimlaridan yaqqol ajratish mumkin edi. Shuni aytish mumkinki, bu farq, ayniqsa, mato turi va tayyorlanish sifatida bilinib turgan.

G'arbiy Qozog'istonda bayramlarda kiyiladigan ayollar va qisman erkaklar kiyimlari qimmatbaho duxoba, ipak-shohi matolardan tikilgan, kumush tangachalar bilan bezalgan. Ko'yylaklar zarli iplar bilan kashta qilib tikilgan, bosh kiyimlarga esa kumush qimmatbaho toshlar qadalgan, patlar qistirilgan va marjonlar terilgan.

**Erkaklar libosi.** Erkaklarning ichki kiyimi ko'yylak va ishton, yelkaga tashlanadigan ustki kiyim hamda shalvordan iborat bo'lgan. Shalvorlar, asosan, etikning qo'njiga tiqib qo'yilgan.

Qozoqlar XVIII asrning oxirlari – XIX asr boshlarida egnilariga *jeyde*, *jegde*, *jelde* kabi kiyimlarni kiyishgan.

Odatda ko'yylakning yon qismiga yengning tagidan pastga qarab kengayib ketgan hishtak solingan. Hishtakning tepe qismi uchburchak shaklida bo'lib, bu *qo'ltiqsha*, deb atalgan. Ko'yylaklar asosan paxta tolasidan olingan, asosan sidirg'a, oq rangli, ba'zan gul bosilgan ipli gazlamalardan tikilgan. Jeyde old tomondan ikki yoki uchta tasmacha yordamida bog'langan.

Ustma-ust kiyiladigan bunday ko'yylaklar aksariyat O'rta Osiyo xalqlari – qirg'iz, o'zbek, tojik, uyg'urlarda urf bo'lgan. Ko'p xalqlarda bu ko'yylak yengilgina bo'lib, bichimi jihatidan bir-biridan farq qilmagan. O'zbeklar va tojiklar bu ko'yylakni yaxtak (yaktak) yoki aktay deb atagan. Janubda yashaydigan qirg'izlarda jegde deb atalgan.

Aksariyat qozoq urug'lari orasida, asosan, sharqiy va janubi-sharqiy Qozog'iston aholisi orasida *jeyde* nomi saqlanib qolgan va yangi rusumdag'i ko'yylaklar ham shunday atala boshlangan. Qozog'istoning ko'p tumanlarida esa u ko'yylak deb yuritiladi.

XIX asr oxirlariga kelib, qaytarma yoqali ko'yylaklar, asosan, sharqiy va qisman janubiy Qozog'istonda, Mangishloqda urf bo'ladi. Respublikaning boshqa viloyatlarida esa bunday ko'yylaklar tikyoqali qilib tikilgan.

Ko‘ylakning ko‘krak qismi qirqimining ichki tarafiga chok berib, qaytarib tikilgan va uning ikki tarafidan huddi shu matodan bostirib tikilib, yoqa oldiga bog‘ichlar bilan chatib qo‘yilgan. Keyinchalik XIX asr oxiri va XX asr bo‘sag‘asida ko‘ylakning qirqimi planka bilan qoplanadi va tugma uchun izma ochiladi.

**Dambal** – erkaklarning ichki ishtonini hisoblangan. Erkaklarning ichki va ustki ishtonlari bir-biridan uncha farq qilmagan. Ishtonlar qadam tashlashga qulay bo‘lishi uchun keng qilib, bel qismida ham katta bichilgan va belboqqa tikilgan keng uzun bog‘ich - tasma yordamida belga tortib mahkamlangan.

Qishda qo‘y terisidan mo‘ynasi ichki tarafga o‘girib tikilgan ishton – **teri shalbar** (*teri shalvor*) yo bo‘lmasa, paxta yoki jun solib qavilgan shalvor kiyilgan.

Boylar esa ipak bilan kashta tikilgan, naqsh chekilgan, qizil yoki sariq rangli, maxsus ishlov berilgan, ya’ni oshlangan mayin, baxmalsimon charmdan tikilgan ishton kiygan (1-rasm).



*1-rasm. Yigitlarning(djigit) qishki libosi: ustki kiyim-ishik, shapan, ton, bosh kiyim - borik, bel kiyim - jarg‘aq shalbar, belbog‘ - belbeu, etik-saptama yetik*

Ustki ishtonlar Semirechye, markaziy va sharqiy Qozog'istonda sim (shim) deb atalgan va yozgi va qishki turlarga bo'lingan. XIX asrda yozgi ustki ishtonlar oshlangan, mayin, baxmalsimon mato, charmdan va jun matolardan tikilgan.

XIX asrda turkiy xalqlar orasida juda keng tarqalgan ichki ishtonlar **dambal**, **tambal** yoki **ishton**, ustki ishtonlar esa **shalbar** deb atalgan.

Ko'yak ustidan erkaklar yengil, oldi ochiq, tugma taqiladigan, gavda qomatiga moslab bichilgan, etak tomoni xiyol kengaygan - **kemzal** (*kamzul*) kiygan. Kamzul astarli qilib tikilgan. Sovuq tushganda kamzul astari jun matodan qalin qilib, avrasi bilan birga qavilgan. Qishda esa kamzul astari mo'ynali qilingan.

Qozoqlar yilning qaysi fasli bo'lishidan qat'iy nazar, ustki kiyim - **shapan** (chopon) kiygan. Choponlar har xil, yupqa va qalin, ranglari ham turli matolardan, ko'pincha astari junli matodan tikilgan. Oshlangan mayin, baxmalsimon teri, charm choponlar ham bo'lган. Erkaklarning ustki kiyimlari: mo'ynadan ikki qavat qilib tikilgan chakmon - shekpen; plash-yopinchiq - kebenek; kigiz yopinchiqlar, avrasiz po'stin - ton (to'n), mo'ynali po'stin - ishik hisoblangan. Ustki kiyim turlari, uzunligi va eni, yupqa va qalinligi bilan farq qilgan. Ayrimlari, kigiz yoki mo'ynali qilib tikilgan (2-rasm).

Erkaklar libosiga qo'shimcha detal sifatida charm kamar taqilgan. Kamar tilla, kumush va misdan naqsh chekib, bezak berilgan.


Aksariyat katta yoshli kishilar bosh kiyim kiygan. Ular sochlarni qirib, kichkina qalpoqcha - do'ppi, uning ustidan boshqa bosh kiyimlarni kiyganlar. Do'ppilarning - taqiya va kepesh kabi turlari ham bo'lган. Yozda do'ppi va boshqa bosh kiyimlar o'rniga boshga oramat - kichik oq ro'mol bog'langan. Yoshlarning ro'mollariga kashta tikilgan. Do'ppi baxmal, movut, ipak, sidirg'a va yo'l-yo'l matolardan tayyorlangan.



2-rasm. Erkaklarning ustki kiyimlari: 1) mo'ynali po'stin(ishik);  
2) avrasiz po'stin (ton); 3) chakmon (shekpen); 4) chopon  
(shapan)

Yozgi yengil qalpoq; kigiz qalpoq va chekkasi mo'ynali bosh kiyimlar; qishki timak, maxsus bichimli, mo'ynali telpak qozoqlarning ustki bosh kiyimlari sanalgan.


Timak (tumoq) orqasi uch bo'lakdan iborat, peshona qismi bo'rtib chiqqan, orqa tarafidagi bo'lagi kattaroq bo'lib, bo'yin va yelkalarni yopib turgan (3 - rasm).



3-rasm. Erkaklar bosh kiyimi - timak (tumoq)

Erkaklar bosh kiyimiga chit astarli, qora movutdan tikilgan jalbag‘ay ham kiradi. Jalbag‘ay qattiq bo‘ron turgan vaqtarda timak ustidan kiyilgan, To‘rg‘ay va Markaziy Qozog‘iston hududlarida qor va yomg‘irdan himoya qiluvchi vosita sifatida keng tarqalgan. O‘lchami kichikroq, shunga o‘xshash boshqa bir bosh kiyimi dalbay, deb ataladi. Dalbay Qozog‘istonning janubiy qismida keng tarqalgan bo‘lib, u erkaklarning yozgi bosh kiyimi hisoblanadi.

Hukmdorlar, sultonlarning bosh kiyimlari konussimon uzun qalpoq shaklida bo‘lib, hoshiyasi keng va qayrilib turgan. Qalpoq och pushti yoki qizil rang kimxbob bilan qoplanib, hoshiyasiga yashil rangli zar iplar bilan kashta tikilgan. Yo bo‘lmasa, qalpoq kumushrang parcha bilan qoplanadi va do‘ppi ustidan kiyilgan (4-rasm).



*4-rasm. Erkaklar bosh kiyimi*

Qozoq erkaklari oyoqlariga yumshoq poshnasiz mahsi - **masi** ichkaridan tashqariga chiqqan kavush - **kebis** kiyigan.

Erkaklar poyabzalidan yana biri - **kiiz yetik** (kigiz etik) hisoblanadi. Erkaklarning kishki etiklari - saptama yetik, dau yetik, baypaq yetik bo‘lib, ular bir-biridan balandligi va eni, qo‘njining kengligi bilan farqlangan. Etiklar atayin shunday keng tikilgan, chunki qishda etiklar kigiz paypoqlar bilan kiyilgan.

**Ayollar libosi.** Qadimda qozoq ayollarari *ish ko'ylek* (ichki ko'yak) - ich kiyimini kiygan. Ich ko'yak uzun, keng, yengsiz bo'ladi, yelkasi ensiz, yoqa o'mizi keng o'yiladi. Oldi qirqimli, bog'ich bilan bog'lab qo'yiladi, ko'yak uzunligi tizzagacha keladi, yengil, oq matodan tikiladi.

Ayollar ichki ko'yak ustidan ko'ylek (ko'yak) kiygan. Ko'yakning oldi yopiq, yoqali, old qismida qirqimi bo'lgan, bo'yniga bog'ich bog'lab qo'yilgan. Keyinchalik bog'ichlar o'rmini tugmachalar egallaydi. (5-rasm).

Kundalik kiyim uchun paxtalik matolar tanlangan. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida qizil va ko'k rangdag'i matolar urf bo'ladi.

Qizlarning ko'krak oldi ochilib qolmasligi uchun maxsus ko'krakpech - alqa o'nirshe kiyilgan. Turmushga chiqqan juvonlar esa ko'krak qismini kimeshek yopib, bekitgan.

Ayollar ko'yak ustidan - *kemzal* (kamzul) kiygan. Kamzullar tikilishiga qarab turlicha atalgan. Ba'zan yengsiz kiyim kemzal, yengligi esa *beshmet* deb atalgan. Bunday kamzulning boshqa nomlari ham bo'lib, lekin ular kam tarqalgan. Dambal va shalbar ishton qozoq ayollarining bel kiyimi hisoblanadi. Bichimiga ko'ra bu ishton erkaklarnikidan farq qilmagan. Ustki ishton - shalbar (shalvor) turmushda juda asqotadigan zarur kiyim sanalgan. Bunday ishtonlar qog'ozli qalin matolar yoki qo'lbola movut va qo'y terisidan tikilgan. Badavlat xonardon qizlarning shalvorlari kimxob, ipak va boshqa qimmatbaho matolardan tikilgan, bezaklar berilgan.

Qizlar ikki xil bosh kiyim kiygan. Do'ppi, asosan, qizlarning bosh kiyimi hisoblanadi. Bunday do'ppining keng tarqalgan nomi – taqiya, Mangishloqda telpek, sharqiy Qozog'istonda - kepesh,



5-rasm. Ayollar libosi

deb atalgan. Ikkinchı bosh kiyim - bo'rik bo'lib, uning chekkalari mo'ynali, issiq qalpoqdir.

**Saukele** - kelinlarning eng qadimiylaridan, bosh kiyimi shunday ataladi. Odatda saukele to'ylerda kiyilgan (6- rasm).

**Timak** - kichik bosh kiyimi hisoblanadi. Uchi qirrali, baland ushbu bosh kiyim tepe qismi bilan ajralib turadi.

**Taqiya borik** - ayollar bosh kiyimining eng qadimiylaridan biri sanaladi. Ushbu bosh kiyim baland, uchli bichimdagi do'ppi shaklida bo'lib, to'q qizil kimxob va 6-rasm. *Ayollar bosh* mo'yna bilan bezatiladi.



*kiyimi - saukele*

Odatga ko'ra, ilk bor ona bo'lgan yosh juvon birinchi farzandi dunyoga kelgach, uvali-juvali ayollarning bosh kiyimini kiyadi. Ayollarning ushbu bosh kiyimi ikki qismdan iborat: ichkisi kimeshek va ustki salde - salsa u ichidagisi ustidan o'raladi. Bosh kiyimning ikki qismi ham, asosan, oq matodan qilinadi. Ayollarning bosh kiyimi - kimeshek bosh, ko'krak, yelka va orqani yopib turadi (7- rasm).



*7-rasm. Ayollarning bosh kiyimi - kimeshek*

Ayollarning zargarlik buyumlari ham xilma-xil: rang-barang ichsirg'a, taqinchoqlar bo'yin va ko'krak ustiga, soch va boshga taqiladi. Taqinchoqlar, uzuk, bilaguzuklar shular jumlasidandir.

Qozoq ayollarining poyabzali erkaklarnikidan deyarli farq qilmagan. XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib, qozoq ayollarini poyabzallarining ko'rinishi va shakli o'zgaradi. Qiz-juvonlarning ko'pchiligi yetik - etik kiyganlar. Ular aksariyat masi va kebisni (mahsi va kavush) ma'qul ko'rghan. Keksa ayollarning asosiy poyabzali ichigi va kalish hisoblangan.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Qozoq xalq san'ati, madaniyati va tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qozoq xalqining urf-odatlari va an'analari haqida gapirib bering.
3. Qozoq erkaklar ko'ylagining bichimi qanday bo'lgan?
4. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Shular haqida ma'lumot bering.
5. Qozoq erkaklarining bosh kiyimlari haqida ma'lumot bering.
6. Qozoq ayollar va qiz-juvonlar bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

### **QIRG'IZ LIBOSI**

Qadimda qirg'izlar ko'chmanchilikda turmush kechirgan. Qirg'izlarning urf-odatlari va an'analari ko'chmanchi hayot tarzida shakllangan. O'tovlar ko'chmanchi bo'lib yashashda qo'l kelgan. Bir joyga ko'chib o'tganda o'tov qurish ko'ngilga yaqin tantana hissini uyg'otgan. Ana shundan o'tov qurish va unga ko'chib o'tish rasmi paydo bo'lgan. O'tovga kirib yashashgacha bir necha marosim va tantanalar o'tkazilgan (1-rasm). Qadimda ko'chmanchi qavmlarning urf-odatiga ko'ra, egasining naslnasabi, nufuzidan kelib chiqib, o'tovlar qurilgan. O'tovga kiraverishdan chap tomoni er jak - erkaklarniki hisoblangan.

Erkaklar chap tomonga o‘zlariga xos ashylar, ya’ni ov quroli, ot qamchinini osib qo‘ygan. O‘tovning kiraverishdan o‘ng tomonini esa epchi jak - ayollar egallagan, demak, bu tomon ularga tegishli sanalgan.

O‘ng tomonda sandiq, kiyim-kechak, oziq-ovqat turgan, oshxona bo‘lgan. Odatda o‘ziga to‘q odamlarning bir nechtalab katta va kichik o‘tovlari bo‘lgan. Kichik o‘tov ashxana-uy - oshxonadan iborat bo‘lib, bu yerda idish-tovoq va oziq-ovqat saqlangan. Yana vaqtinchalik, omonat o‘tov - meyman-uy, ya’ni mehmonxona ham bo‘lgan. Keyin boyning ikkinchi va uchinchi xotinlari uchun ham maxsus o‘tovlar barpo etilgan. Yangi turmush qurgan o‘g‘illarga ham o‘tov berilgan. Jamiyatdagi tabaqalar qatlamiga ko‘ra, avom xalq o‘tovi boy odamlarnikidan o‘tovining bezalishida farq qilgan. Vaqtlar o‘tib, qirg‘izlar o‘troq hayot kechira boshladi.



*I-rasm. Qirg‘iz xalqi an’ana, urf-odat va tantanalari*

Ayollarning xilma-xil taqinchoqlarini ayol taqinchoqlarini ko‘zdan kechirsak, unda uchta asosiy etnik va tarixiy-madaniy

aloqalar yo‘nalishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yo‘nalishlar: shakli, ishlanish usuli va bezalishi, ya’ni taqinchoqlarga o‘yilgan chizgi-ormentlardir. Bular qozoq va yarim ko‘chmanchi bo‘lgan o‘zbek xalqida ham uchraydi. Mazmunan bu taqinchoqlarda Sintszyan uyg‘urlari va mo‘g‘ullarga xos chizgi ifodalari ham o‘rin olgan. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari bir-birlari bilan madaniy aloqada bo‘lgan, ya’ni ularning madaniyat va san’atida mushtaraklik bo‘lgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Borib-borib o‘zbek va tojik xalqlari san’ati va madaniyatida ham ayni shu yaqinlikning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Qirg‘iz libosi oradan necha asrlar o‘tibdiki, o‘z milliyligini saqlab kelmoqda.

**Erkaklar libosi.** Ko‘ylak bilan ishton - qirg‘iz erkaklarining ichki kiyimi. Erkaklar ko‘ylagi ko‘proq tunikani eslatadi, uzunligi beldan pastga tushadi va yenglari uzun, qo‘l panjalarini yopib turadi.

**Kementay** - keng, astarsiz kigiz to‘n. Yana kementay astari qavilgan to‘n ham bo‘lishi mumkin. Kementay tikilgan matosiga qarab, pashayi ton (poshshoyi to‘n), kimkap ton (kimxob to‘n), zarbarak ton (zar to‘n) deb nomlanadi. Kementay cho‘ponlarni yomg‘irli va sovuq kunlarda nam-sovuqdan saqlagan. Qadimda o‘ziga to‘q, badavlat qirg‘izlar serbezak, oq rangli kementay kiygan. Qishda kementay ustidan qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyilgan.

Erkaklarning ustki kiyimi chepken hisoblanadi. **Chepken** maxsus ishlangan movutdan tikilgan bo‘lib, u boshqa kiyimlar ustidan kiyilgan. Sovuq tushganda chepkenning o‘rni uni boshqa hech qaysi kiyim bilan bosolmaydi. Chunki chepken shamoltoto‘zonga dosh bergen. Movut chepkendan nam o‘tmagan, bo‘kmagan, sovuqdan ham, quyosh nuridan ham bir xilda himoya qilgan. Pishiq-puxtaligi uchun ham u kundalik kiyim sifatida kiyilgan. Tuya junidan tikilgan bu ustki kiyim ko‘proq ko‘chalik, ya’ni kishilik bo‘lgan. Chepkenning narxi juda qimmat bo‘lgani uchun uni badavlat qirg‘izlar kiygan. O‘ziga to‘q kishilar tuya junidan to‘qilgan ishtonlar ham kiygan.

Erkaklarning yana bir uzun ustki kiyimi - ***chapon*** (chopon), deb atalgan (2 - rasm). Ko‘chaga choponsiz chiqish mumkin bo‘limgan. Bu beodoblik sanalgan. Qadimda choponlar ichiga paxta, tuya juni solib qavilgan. Avrasi baxmal, movut chitduxoba, astari mata (mato) yoki chitdan qilingan.

Choponlarning ***naygut chapon***, ***kaptama chapon*** degan bir necha turlari bo‘lgan. Ular etnik ko‘rinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Keng, tunikasimon to‘g‘ri bichimli, yenglariga hishtak solingan chopon naygut chapon, deb ataladi.

Yeng o‘mizi yumaloq shakldagi o‘tkazma yengli, to‘g‘ri bichimli, etagining ikki yon tomoni qirqimli, tor chopon kaptama chapon, deb atalgan. Kaptama choponning etagi va yengiga ipdan jiyak tikilgan.



*2-rasm. Erkaklar libosi*

***Shalvor*** - jargashim erkaklarning bel kiyimi hisoblanadi. Ushbu shalvor jun, chit, ba’zida oshlangan mayin, baxmalsimon charm va teridan ham tikilgan.

Qirg‘iz erkaklarining bosh kiyimiga to‘xtalganda, dastlab qalpoqlarni qayd etish mumkin. Qalpoqlarning bichimi har xil

bo‘lgan. Kalpak (qalpoq), haqli ravishda, qadimiy qirg‘iz bosh kiyimlaridan biri sanaladi. Qalpoq to‘rt qiyiqli bo‘lib, yuqoridan pastga tomon kengayib borgan. Ikki yonining uch qismi tikilmagan. Quyosh nuridan saqlash uchun uni yuqoriga qayirib qo‘yish yoki pastga tushirish mumkin bo‘lgan. Qalpoqning uch qismi shokila bilan bezatilgan. Zodagonlar qalpoqlarining tepe qismi baland bo‘lib, chekkalariga qora baxmal tikib, jilo berilgan. Oddiy xalq qalpoqni satin, bolalar qalpog‘ini qizil baxmal yoki qizilrang mato qo‘yib bezagan.

XIII asrlarda kigiz qalpoqlar O‘rta Osiyo xalqlarining bosh kiyimlari safidan o‘rin oldi. Oq kigiz qalpoq qirg‘izlarda eng keng tarqalgan bosh kiyim hisoblanadi.

**Malaxay** - bosh kiyimning bir turi. Ushbu bosh kiyim kurakkacha tushib turganligi, orqasi uzun, chakkasi yon qismiga ulanib ketganligi bilan qalpoqdan farq qiladi. Malaxay tulki mo‘ynasi, qo‘zi yoki bug‘u mo‘ynasidan tikilgan, ustiga mato qoplangan.

Qirg‘iz milliy erkaklar libosining bir qismini tashkil etadigan, keng tarqalgan qishki bosh kiyim - **tebetey** hisoblanadi. Tebeteyning tepe qismi tekis to‘rtta qiyiq bo‘lakdan iborat bo‘lib, baxmal yoki movut matosidan tikilgan, unga tulki yoki suvsar mo‘ynasi bilan bezak berilgan. Agar biror kishi xonlikka ko‘tarilganda, ya’ni mavqeyi oshganda boshiga qizil - tebetey kiygan. Qadimda qirg‘iz xalqining bir udumi bo‘lgan. Bu udumga ko‘ra, nufuzli boyon xizmat vajidan tegishli joyga o‘z choparini yuboradi. Chopari esa xo‘jayinining tebeteyini kiyib oladi.

Erkaklar ilgari tagi qalin **kigiz etik** kiygan. Qirg‘iz poyabzalining yana biri turi - ichigi hisoblanadi. Ichigi yumshoq, poshnasiz charm etik bo‘lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiygan. Etik ustidan kepich - poshnali kalish kiyilgan.

Odatda kiyimlar tayyorlanishi va mato sifatiga qarab tabaqalar farqlangan. Qabila ulug‘lari, oqsoqollar, martabali kishilar - a’lo sifatli qizil charm poyabzal kiygan, avom esa xom charmdan etik kiygan.

Etiklarning bir necha turi bo‘lgan. Uchi qayrilgan - ***chokoy***; qo‘nji kalta, g‘ijim, xom charmdan charik (choriq); yumshoq, oshlanmagan charmdan tikilgan paycheki shular jumlasidandir.

Mo‘ynali, qo‘nji qayrilgan ***maasi*** (mahsi) qishki poyabzal hisoblangan.

**Ayollar libosi.** Ayollar ko‘ylagi uzun, keng, uzun yengli, tik yoqali ko‘ylak bo‘lib, yorqin rangli matolardan tikilgan. Qirg‘izlar yashagan joyiga qarab, ko‘ylaklarning yoqa shakli va bezagida farq qilgan.

To‘q rangli, tanaga yopishib turuvchi, yengsiz kamzul - beshmant ko‘ylak ustidan kiyiladi.

**Beldemchi** - qirg‘iz ayollarining an’anaviy libosiga kiradi. Tantana va bayramlarda beldemchi qora, yaltiroq matolardan tikilgan. Shohi, ba’zan uyda to‘qilgan movutga kashta bilan bezak berilgan. Maxsus chevarlar bu kashtalarni tikkani. Beldemchi keng belboqqa tikiladi, unga kashta va kumush bezaklar bilan bezak beriladi. Unga mo‘yna ham qo‘yilib, sernaqsh kashta tikilgan. Beldemchi bayramlarda milliy libos bilan birga to‘y, mehmondorchilikka borganda, uyda mehmon kutganda, oilaviy bayramlarda taqilgan. Kundalik taqiladigan beldemchiga kashta tikilmagan. Beldemchi kamzul, ko‘ylak ustidan belga bog‘langan.

***Ichik, kemsal*** - ayollarning ustki kiyimiga kiradi, qishki po‘stin desa ham bo‘ladi (11-rasm).

***Elechek*** - ayollar bosh kiyimi bo‘lib, to‘liq ko‘rinishi uch qismdan tashkil topadi: do‘ppi; uning ustidan to‘g‘ri to‘rtburchak mato bo‘lagini yopib, u bilan bo‘yin va iyak yashirilgan; ularning ustidan esa oq matoli dastor o‘ralgan.

Oq matodan o‘ralgan salsa ko‘rinishidagi elechek, eleki, kolyak ayollar bosh kiyimlari bo‘lib, xalq orasida keng tarqalgan. Elechek necha marta o‘ralishiga qarab bezalgan. Shimolda elechekka marjon tizilgan, tangachalar tikilgan ipak mato bog‘langan. Boyvuchcha juvonlar boshlariga naqsh chekilgan, kumush plastinkali kumush kirkak kiyganlar (3-rasm).



*3-rasm. Ayollar libosi*

Qadimda to‘y-ma’rakalarda kiyiladigan bosh kiyimi -shokyulo turli marjonlar bilan bezalgan. Janubda elechekka saymo қыргак degan mato tikilgan. Ba’zan elechekning bezagi ham bo‘lgan. Qirg‘iziston janubida yashovchi qirg‘izlarning qalpoqlari ham to‘rtburchak yoki dumaloq shakllli plastinkalar bilan bezatilgan.

Ayollar va qisman erkaklarning milliy liboslarida kashta alohida o‘rin egallaydi. Yana ayollar orqasiga taqib yuradigan arkaliq mashhurdir. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ilgarilari arkaliq bosma bahyalar, toshlar bilan bezatilgan. Qadimda bunday taqinchoqlarni qizlar yelkalariga tushib turgan, o‘rilgan sochlariiga taqib yurganlar. XX asrning birinchi choragidan boshlab qirg‘iz qiz-juvonlari arkaliq taqmaganlar. Boshqirdlar arkalig‘i - yo‘l-yo‘l matodan tikilgan bo‘lib, unga tangalar qadab chiqilgan.

Qirg‘iz ayollari soch uchlariga osilchoq osib yurganlar. Shimolda yashaydigan qirg‘izlarning qadimgi shokildalari: chach ushtuk yoki chach monchoq (uzunligi 60sm va undan ortiq) bo‘lgan, yana kumush shokilda - cholpu urf bo‘lgan. Chach

monchoq - soch munchog'i uchburchak yoki figurali plastinka shaklida, Issiqko'l cholpulari esa katta-katta plastinkali, jimjimador yoki silliq bo'lgan. Cholpular yumaloq, naqshin tangalardan iborat bo'lib, bunday shokildalar - zeyer deb atalgan.

XIX asr oxirida chalpu o'rnini marjonlardan ishlangan chach ushtuk egallaydi. Bu turdag'i taqinchoqlar qozoqlarda shalpi, Qozon tatarlarida cho'ipi va boshqirdlarda sulpsi deb yuritilgan.

Zirak-isirg'alar - iymek, kulol soyka o'zining turli xilda ishlanishi, shakllarining har xilligi bilan ajralib turadi.

Qadimda shimoliy qirg'izlar orasida murakkab shakldagi ko'krak-osilchoq taqinchoqlari tarqalgan va bezaklarining o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Bu taqinchoqlar soyko jelbyurooch, deb nomlangan. Uning ikki turi ma'lum: eng qadimgisi - soyko jelbyurooch juft konussimon shokildalardan iborat; yuqori qismi ilgaksimon taqilmali bo'ladi.

Soyko jelbyurooch - kundalik taqadigan taqinchoq hisoblanmaydi. Soyko jelbyuroochni qiz-juvonlar to'y-hasham, bayramlarda taqqanlar. Bir necha marjon tizilgan iplardan tashkil topgan shuru bo'yin taqinchoqlaridan biri hisoblanadi.

Ko'krak taqinchoqlarining yana bir necha turi mavjud: birinchisiga qizlar taqinchog'i, marjonlardan tizilgan ko'krak taqinchog'i - ala tashak kiradi. Kumushdan ishlangan uchburchak va to'rtburchak shakldagi boytumor ham shu jumladandir. Boytumor ichida faqat taqinchoqlar emas, balki "Qur'on" suralari ham saqlangan. Boytumorga ornament-naqshlar chekilib, bezak berilgan. Bu turdag'i taqinchoqlarni O'rta Osiyoning qozoq, o'zbek, turkman, uyg'ur va boshqa xalqlarida, hatto mo'g'ullarda ham uchratish mumkin.

Bilerek bilaguzugi esa mahalliy ustalar tomonidan ishlanib, hozirgi davrgacha ayollar taqinchog'i sifatida xizmat qilib kelmoqda. Qirg'iz ustalari yana topchu degan kumush tugmalarni ham yasaganlar. Kumush tugmalar qiz-juvon liboslarida bezak o'rnida qo'llanilgan. Qirg'izlarda karga tirmak nomi bilan mashhur uch yaproq mazmunidagi chizgilar urf bo'lgan.

Boshqa turdag'i bezakli tugmalar ham bo'lib, ular tuyme, shuuru, topchu yoki chok topchu, deb ataladi. Issiqko'lda bunday tugmalar ikki xil ko'rinishda bo'lgan.

O'shning janubi-sharqi hamda shimoliy tumanlarda ayol liboslari, ayniqsa, ustki ko'yaklarining ko'krak qismiga onur kashta tikilgan.

Qirg'iziston janubida turmush qurgan ayollar qadimiy bosh kiyimlari - chach kep yoki kep takiya hisoblanadi. Kep takiya kashtasining nafisligi, nozikligi bilan katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Qalpoq aksariyat nafis, oq rangli surpdan tikilgan. Yuqori qismiga oq rangli salsa (elecheck, eleki, kalyak) o'rab qo'yilgan. Kashta, asosan, ko'rinaligan joylarga: yuz, orqa, yelka, peshona qismiga tikilgan.

Qirg'izlar ro'mollari tojiklarnikiga tikilishi jihatidan juda yaqin. Ularning nomi ham bundan dalolat berib turibdi. Masalan: duriya; tojikchasi: duruya.

Ayollar poyabzali erkaklarnikiga o'xshab ketadi. Ayollar poyabzali naqshin bezak berilgani va poshnali ekanligi bilan erkaklarnikidan farq qilgan.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Erkaklar ko'yagi qaysi qismi, ya'ni detaliga qarab turlicha nomlangan?
2. Qirg'iz erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Ularga ta'rif bering.
3. Erkaklar bosh kiyimlari o'ziga xos bo'lgan. Ular nimadan tikilgan va qanday vazifani bajarganini tavsiflab bering.
4. Qadimda qirg'iz ayollarining kiyimi qanday ko'rinishga ega edi? Hozir bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi?
5. Qirg'iz ayollarining bosh kiyimlarini tavsiflab bering.
6. Ayollar ko'yaklarining bichimida farq bormi? Agar bo'lsa, qaysi bo'laklarida?

## TOJIK LIBOSI

Biz tojik milliy liboslarini o'rganish bilan birga O'rta Osiyo xalqlari liboslarining bir-biriga mushtarak tomonlari, kelib chiqishi tarixi va ularning farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Tojik an'anaviy milliy libosi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida aniq ko'rinishga ega bo'ldi. Kiyim erkin, keng tunikasimon bichimli bo'lib, inson qomatini yashirib turgan. Erkaklar, ayollar va bolalar libosi shakli va bichimi jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Shunga qaramay, kiyimlar uchun ishlatilgan matolar sifati, bezakliligi asosiy ahamiyatga ega edi. Bunda boy va rang-barang xalq amaliy san'ati sezilib turardi.

**Erkaklar libosi.** Tojik kiyimlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Yelka kiyim sifatida ko'yak, chopon kiyishgan. Erkaklarning ichki kiyimiga tunikasimon ko'yak - kurtai mardona, kiftaki yoki ko'yak kiradi. Ko'yak oldi gorizontal va vertikal kesik bo'lgan. Ko'yak kesigi xoh gorizontal bo'lsin, hoh vertikal bo'lsin, ko'yak oldiga tasma qo'yilgan. Ko'yaklar orasida oldi kesilmagan yaxtak - ko'yaklar ham kiyilgan.

Uzun va keng ishton shalvor va ezor - ishton bel kiyimi bo'lib, xizmat qilgan.

Bu ko'yak, *yaxtak* yoki *jelak* bir-biriga o'xshab ketadi. Tojikistonda ko'yak ustidan nimcha - voskat kiyiladi. Ko'yak ustidan chopon, chakmon, bir nechta xalat kiyilgan. Xalatlar uch xil tikiladi. Buxoroda keng, uzun, tik xalatlar tikilgan, ularning yenglari uzun, keng va to'g'ri bo'lgan, ikki yonida cho'ntagi bo'lgan. Xalat yarmiga astarlik qo'yilgan, yarmiga qo'yilmagan. Qishki xalatga paxta solib qavilgan, xalat astarli ham bo'lgan.

Tojik erkaklar ichki kiyimi - *yaxtak* va *joma* - ustki kiyim bo'lib, ularning bir necha turlari mavjud: yengil, astarli, issiq qavilgan. Yaxtak, asosan, yorqin va rang-barang matolardan bichilgan bo'lib, xalat bichimi, kiyadigan odamning yoshidan qat'iy nazar, bir xilda tikilgan. Kiyim butun mato parchasidan bichilgani uchun old va ort bo'lakning yelka qismi choksiz yaxlit, bichilgan. Yeng o'mizining qirqimi bo'lмаган. Unga uzunasiga

pastga qarab torayib ketgan yeng ulangan, qo'l yengi (qo'ltiq) orasiga hishtak solingan. Kiyimning ikki yonini kengaytirish uchun kiritma (qiyiq, uloq, kulfak) qo'yilgan (ilgari matolar eni tor bo'lgan) va etagining ikki yon tomonidan vertikal qirqim qiyilgan. Bort chetlari, etak qirqimi va yeng uchi qo'lida to'qilgan zehi dasti - ensiz tasma bilan ishlov berilgan, ko'krak oldi kamarcha bog'ichi bilan bezalgan. Erkaklarning kundalik chopon, asosan, satin va chitdan, katta-katta guldor, naqshli va ko'k, yashil tusli movut matosidan tikilgan. XX asr boshlarida kamzul kiyish urf bo'ldi. Tog'liklar qishda qavilgan paxtalik chopon ustidan mo'ynali po'stin va uy sharoitida to'qilgan movutdan chakmon kiygan.

Ensiz uzun gazlama bo'lagi fo'ta belbog' sifatida xizmat qilgan. Yosh yigitlar kashta tikilgan qiyiqchalar - miyonband, badavlat kishilar va amaldorlar kamarband - baxmalga zar iplar bilan kashta yoki iroqi tikilgan keng belbog' bog'lagan.

Erkaklar bosh kiyimi toqi - do'ppi yoki kuloh qalpog'i ustidan salsa o'rالgan. Asosiy bosh kiyim do'ppi hisoblanib, u - to'ppi, qalpoq, kallapo'sh, deb har xil atalgan. U oddiy matodan tikilgan. Shohiga tillarang, kumush iplar bilan kashta tikib, bezak beriladi, chetlariga mag'iz tikiladi. Yigitlar bezak berib tikilgan bunday do'ppilarni to'ylarda kiygan. Erkaklarning bosh kiyimiga yoshiga mos ravishda rang va bezak berilgan. Katta yoshdag'i erkaklar sipo, kashtasiz bosh kiyim kiygan. Pomirda hozirgi vaqtarda ham qishda do'ppi o'rniga qalpoq, poxol kiyiladi. Uning shakli uzun qalpoqqa o'xshaydi.

Bundan tashqari, taqvodor kishilar, domla-imom, mullalar, qariya baland yumaloq qalpoq kiyardi. Qariyalarning bosh kiyimlari shakli har xilligi, yumshoq matolardan tayyorlanganligi bilan farq qilgan. Qariyalar do'ppisi ustidan matodan salsa, dastor o'rالgan.

Qish faslida aksariyat tumanlarda do'ppi ustidan telpak kiyilgan. Dumaloq mo'ynali qalpoq ikki xil bo'lgan. Buxoroda yarim konusli mo'ynali qalpoq kiyilgan. Yuqori qismi qorako'l

terisidan tayyorlangan. Qalpoq uchun ko‘proq qo‘zichoq mo‘ynasi terisidan foydalanilgan. Dokadan salsa o‘ralgan. Salla o‘rashning har xil usullari bo‘lib, har bir viloyatning o‘ziga xos o‘rash uslubi bo‘lgan.

Erkaklar va ayollar poyabzali mahsi ommabop hisoblangan. Mahsi charm kavush bilan birga kiyilgan. Bu poyabzalning echki terisidan tikilgan qayroqi xili ham bo‘lgan. Qishloqlarda turli poyabzallar kiyilgan. Yengil etiklardan tashqari baland poshnali etiklar ham kiyilgan. Qish fasli tog‘lik tumanlarda kafshi chubin - taxtadan uch oyoqli boshmoqlar kiyilgan. Terini oshlab, tayyorlangan yumshoq etik XX asrning eng zamonaviy poyabzali sanalgan. Loklangan teridan tikilgan ushbu etik juda qadrlangan.

**Ayollar libosi.** An’anaviy tojik ayollarli libosi to‘piqqacha tushadigan uzun ko‘ylak bo‘lgan. Bu ko‘ylak - kurta deb atalgan. Kurta tunikasimon bichilgan, uning yon-etak qismi va yeng uchlari xiyol kengayib borgan. Ko‘ylakka solinadigan kvadratsimon shakldagi kulfak yoki hishtak boshqa rangli matodan qilingan. Kulfakning har xil rangda qilinishi zamirida ko‘ylak egasi bo‘lgan juvon serfarzand bo‘lsin, degan tilak yotadi.

Qizlar ko‘ylagi yoqasi - kitfaki gorizontal qirqimli bo‘lib, unga old va ort o‘ng yoqa o‘mizining yon qismidan pastga qarab, katta bo‘limgan qirqim beriladi. Agarda ko‘ylak kir bo‘lib qolsa, orqasini oldiga aylantirib kiyib olinishi uchun shunday qirqim qo‘yilgan. To‘ydan so‘ng yosh kelinchaklar ayollarning peshkusho yoki peshyala vertikal qirqimli ko‘ylagini kiygan.

Qadimda tojik ayollarining kurtai marmar yoki kurtai peshmarmar ko‘ylaklari ham bo‘lgan. Bu ko‘ylaklar nafis, oq matodan tikilgan bo‘lib, yengil harir kiseya, biyor yoki axobonigi matosidan tikilgan. Ko‘krak qismini yopish uchun siynapo‘shak yoki siynabandak taqilgan. Siynapo‘shak ustiga iroqisimon kashta tikilgan. Ayollar ko‘ylak ustidan kurtacha kiygan. Kurtachaning uzunligi belgacha tushgan, yenglari ko‘ylaknikiga nisbatan kalta bo‘lgan. Albatta, oddiy xalq bunday kiyimlarni

kiya olmagan. Bunday serhasham liboslarni boyvuchcha ayollar kiygan.

Ayollarning kishilik hisoblangan, to‘y-hashamlarda kiyadigan kiyimi uch qavatdan iborat bo‘lib, o‘zida uch xil ko‘ylakni namoyish etadi. Ushbu ko‘ylaklar yenglarining uzunligi va eni har xil bo‘ladi. Yenglar uchi mohiri kashta usulida tikilgan gullar bilan bezaladi. Bezaklar bir-biriga o‘xshamaydigan, betakror naqshlari bilan e’tiborni tortadi. Bunday ko‘ylaklar bezagi, matosining hashami bilan ajralib turadi. Ushbu ko‘ylakni kiygan ayol, avvalo, libos dabdabasi bilan birga o‘z-o‘zini ham ko‘z-ko‘z qiladi. Davrlar o‘tadi, vaqt o‘tishi bilan birga kiyimlar ham o‘zgaradi. Endi bu ko‘ylaklarni faqat kelinchaklarga to‘y-hashamlarda kiya boshlaydi.

Chakion xalati ko‘proq uy sharoitida kiyishga mo‘ljallangan. Bu xalat uyda ham, ko‘chada ham kiyilgan. Chakionni ko‘proq qishda katta yoshdagи ayollar belbog‘siz kiygan.

Ayollar kiyimining ikkinchi asosiy qismi shalvor bo‘lib, u poyjoma, lozim, azor, tambon, deb ataladi. Bunday lozim va shalvorning yuqori qismiga rezinka tasma qo‘yiladi. Shalvor, asosan, ikki xil matodan tikiladi, pastki qismi ko‘ylak ostidan ko‘rinib turadi. Shuning uchun lozimning tizzadan past qismi qimmatbaho matodan, tizzadan yuqori qismi esa mayin, arzon matolardan tikiladi. Lozim pochasiga matoning o‘zidan manjet qilinadi. Yoki bo‘lmasa, lozim pochasiga boshqa matodan manjet qilinadi, yoki jiyak qo‘yiladi.

Tojik ayollari lozimi pochasiga bir xil matodan bezak beriladi. Lozim eni va uzunligi har xil bo‘ladi. Tog‘li hududlarda yashaydigan ayollar uzun, to‘g‘ri shalvor kiyadilar. Bunday ishtonlarning pocha qismi torroq bo‘ladi.

Yuqoridagi kiyimlardan ustidan paxtali uzun xalat, joma, chopon ham kiyilgan. Ayrim vohalarda uzun va kalta kamzul kiyilgan. Bundan tashqari, ayrim tojiklar kamzul va nimcha astarligi, ya’ni rasposhonkasini (ichki ko‘ylak) kiygan. Bu kiyim yengsiz, yoqasiz, ikki yonida qirqimi bo‘ladi. Uning nomi

munisak yoki xaltacha, deb ataladi. Ayollar ko'chaga chiqqanlarida paranji yopingan. Paranji uzun va yolg'onidakam yengi bo'lgan. Ayollar paranjisi bilan birga yuzni yashirish uchun qalin va tikka, to'rli chachvon ham taqilgan va u chashmband, deb atalgan. Chashmband qora ot yolidan to'qilgan. Chashmband ba'zan munchoqlar bilan ham bezalgan.


Ma'lumki, musulmon davlatlarida paranji yopinish shariat talabi hisoblanib, bu yopinchiq ayolning qaddi-qomatini yashirishga mo'ljallangan.

Tog'li tumanlarda ayollar, jumladan, kelinlar xalatning hamma turlari, shuningdek, paranji yopingan. Borib-borib bu paranjilar o'rniga shohi ro'mol - duband yoki chashmband taqilgan. Bu kelinni yomon ko'zlardan asragan.

Pomirda ustki kiyim sifatida gilamnusxa qilib bosilgan rasposhonkali xalat kiyilgan. Ayollar to'rtburchak ro'molni sevib o'ragan. Bu ularning bosh kiyimi hisoblangan. Har bir viloyatning o'ziga xos ro'moli bo'lgan. Yosh juvonlar sharfga o'xhash ro'mol o'ragan. Bu ro'mol uzun bo'lib, chekkalariga naqshli kashta tikilgan. Do'ppi XX asr o'rtalarida kiyilgan. Do'ppi ayollarning ko'chalik bosh kiyimi sanalgan va keyinchalik kelinchaklarning bosh kiyimi bo'lib qoldi.

Keksa va o'rta yoshli ayollar kulutapo'shak qalpog'ini (1-rasm), kichkina ro'mol bilan birga o'ragan. Tog'li tumanlarda keksa ayollar bunday qalpoq ustidan salsa o'ragan. To'g'ri to'rtburchak yoki uzun mato bo'lagi bilan tomog'i va bo'ynini o'ragan va uning ustidan yana bitta katta ro'mol yopib yurgan. Qizlar yumshoq matodan tikilgan bunday do'ppi ustidan ro'mol o'ragan. XX asrga kelib, asta-sekin salsa o'rash, qalpoq kiyish urfdan chiqa boshladi. Xo'jakentda hozir ham asosiy bosh kiyim asosini katta to'rtburchak ro'mol tashkil etadi. Bosh rangi qora yoki to'qrang, eni 15-17 smli kichkina ro'mol bilan o'raladi. Bu ro'molni o'raganda ko'ylik burmalari ko'rinxaydi, gulli va qora ro'mol bir-biriga xoch shaklida bog'lanadi. Odatda bunday bosh

kiyimni ayollar o‘g‘illarining sunnat to‘ylarida o‘raydilar. Buxoroda bunday ro‘mollar ustidan uzun doka tashlab yuriladi.



1-rasm. Tojik ayollarining bosh kiyimlari

Bu bosh kiyimlardan tashqari, yosh juvonlar, asosan, turmushga chiqqan qizlar birinchi marta mehmonga borganlarida har xil bosh kiyimlar kiyadilar. Bu sarbandak yoki mandil, tilla va kumushrangda tikilgan peshonabandlardir. Buxoroda qoshi tillo, bilak, barmoq, boshga taqadigan kumush va tilladan yasalgan har xil qimmatbaho toshli taqinchoqlar taqilgan. Taqinchoqlar aksariyat kumush va tilladan yasalgan.

Qadimda oddiy doka va kashta tikilgan ro‘mol o‘ralgan. Eng sevimli bosh kiyim shohi matodan tayyorlangan. Kashmiri ro‘mol, kamarut ro‘mol, sholro‘mol. Sholro‘mol to‘ylar, har xil tadbirlarga o‘ralgan.

Poyabzal - juda xilma-xil bo‘lib, kavush, charm etikshular jumlasidandir. Etikning qo‘nji uzun bo‘lib, ichiga shalvorlar kirgizilgan. Badavlat odamlar sirti shohi iplardan tikib bezalgan iroqi tuqli kiygan. Etik qo‘njli bo‘lib, oyoqqa paytava o‘ralgan.

Paytava yumshoq paxmoq matodan qilingan, paypoq bilan ham kiyilgan. Tog‘li tumanlarda, qishloqlarda ko‘proq charm etik, tuqli kiyilgan. Qishda kalish, cho‘bi, kavush kiyilgan. Pomir va Darvoza mintaqalarida issiq kunlarda poshnali tuqli payzor - afg‘on tuqli kiyilgan. Afg‘on tuflisi chiroyli kashtalar bilan bezalgan.

Qishda ko‘chaga chonus, choruk - yumshoq etik kiyilgan, uning ichki qismi jundan tikilgan.

**Matolar.** Ayollar, asosan, tabiiy paxta va shohi matolardan kiyimlar kiygan. Parcha, kimxob, kundal, baxmal-duxoba, atlas, bulardan tashqari, yarim ipak matolarning har xil, rang-barang, yo‘l-yo‘l turdag'i matolar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga Tojikistonda ipak mato, qattiq mato, kanausa urf bo‘ladi. Bu mato katta-katta yo‘lli, markazi boshqa rang, cheti boshqa rangli bo‘lgan. Tojikiston shohi baxmali, katak-katak va har xil bosilgan, yo‘l-yo‘l rusumda matolar ishlab chiqarila boshlangan. Rangli mato ham urf bo‘ladi.

Ayollarning kashtali ko‘ylaklari, ya’ni har xil naqshli ipak matolardan tikilgan ko‘ylaklar urfga kiradi. Ko‘ylaklarning, asosan, yengi, etagiga mijozning didiga mos ravishda kashta tikila boshlandi. Lozimlar pochasiga ham kashta tikiladi.

### Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar

1. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topgan? Ularga ta’rif bering.
2. Erkaklar ustki kiyimlariga nimalar kiradi?
3. Erkaklar bosh kiyimlarining o‘ziga xosligi, nimada ko‘zga tashlanadi, ularni tavsiflab bering.
4. Qadimda tojik ayollarli libosi qanday ko‘rinishga ega edi?
5. An’anaviy liboslar haqida gapirib bering.
6. Tojik ayollarining bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

## TURKMAN LIBOSI

Turkman xalq liboslari madaniy, an'anaviy merosga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Liboslarga o'ziga xos etnografik guruh, qadimiylar urug'larning ta'siri katta bo'lgan. Ayniqsa ana shu o'ziga xoslik ayollar libosi va bosh kiyimlarda saqlandi. Qadimiylar urug'larning shakllangan, ildizi mustahkam an'analari uzoq davrlarga borib taqaladi. Aksariyat urug'lar liboslarining o'ziga xos xususiyatlarini turkmanlarga qo'shni bo'lgan davlatlar turmushi bilan bevosita bog'liqligi bilan izohlash mumkin.

Turkman liboslari unsurlari va nomlanishiga ko'ra O'rta Osiyodagi boshqa o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va tojik xalqlariga yaqin. Ayniqsa, xivalik turkmanlar liboslarida ana shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi. Qo'shni yashagan millatlar, xalqlar bir-biriga bog'liq holda rivojlandi. Ammo liboslardagi ayrim unsurlar etnografik jihatdan kelib chiqqanligini inkor etib bo'lmaydi.

**Erkaklar libosi.** Erkaklar ichki kiyimiga ko'yjak va ishton kiradi. Erkaklar ko'ylagi koynek - tunikasimon bichimli, o'rtacha uzunlikda (bo'ksadan pastroq), keng, uzun yengli, etak qismining ikki yon tomonida yartmach - qirqimi bo'ladi.

XIX asr boshlarida ko'yjaklar yoqa o'mizi ko'ngdalang, ya'ni gorizontal o'yilgan va bir yoki ikki tomonidan tizimcha bilan bog'langan. Bunday yoqali, tegeyelek yaka ko'ylagini aksariyat qariyalar va bolalar kiygan. Mazkur ko'yjak turi hozirgacha saqlanib qolgan.

Bundan tashqari erkaklar ko'ylagi yoqa o'miziga qarab turlicha nomlanadi: sopi yaka koynek, kurta-i-mullocha, sha yaka koynek. Yoqalar nomi ham har xil: epleme yaka, oris yaka, golbi, chek yaka, sopi yaka, sha yaka. Turkman erkaklar ko'yjaklarini etagi erkin tushib turadi, belga belbog' bog'lanmaydi.

Oxirgi yuz yil ichida ko'yjaklar bichimi sezilarli darajada o'zgardi. Ularning alohida qismlari va rangiga o'zgarishlar kiritildi. XIX asrda ko'yjaklar oq ipli matodan tikilar edi. XX asr boshlarida turkman (qariyalardan tashqari) erkaklar ko'yjaklarida ma'lum o'zgarishlar bo'ldi. Ko'krak qismi o'ng tomonidan

vertikal kesimi - chek yaka qo'yildi. Turkmaniston janubida yosh yigitlar qizil ipakdan ko'ylaklar kiygan, ularning yoqasi qismi va yeng uchlariga (manjetlariga) nozik qilib kashta tikilgan.

Qariyalar paxta tolali ip matoli ko'ylak ustidan, sovuq tushgan paytlar yoki bayramlarda kurta ko'ylagini kiygan. Kurta - ipak matodan bichilib, astarli, paxtasi yupqa solib qavilgan, yoqasi gorizontal o'yilgan ko'ylak.

Ko'ylak va xalatning asosiy detali hishtak-be-geyik hisoblanadi. Be-geyik uchburchak shaklida qilinadi.

Erkaklar bel kiyimi ikki turda bo'lган: ichki - **balak** (baloq), dizdan ishton (ishton) va ustki - **jalbar** (shalvor).

Turkman ishtonlari - balak, deyiladi. Balaklar katta qadam tashlab, bemalol yurishga mo'ljallangan. Buning uchun mato katta, yaxlit qilib bichiladi. Unga bog'ich taqiladi. Katta tikilgan bu ishton tasma yoki bog'ich bilan bog'lanadi .

XVII-XIX asrlarda erkaklar otda yurgan. Otliqqa qulay bo'lishi uchun ishtonlar keng-mo'l qilib tikilgan. Aksariyat turkman urug'i erkaklari oq rangli ishton kiygan. Faqat yosh yigtlargina yashil yoki ko'krang ishton kiygan. Qishda issiqroq matodan to'qroq rangdagi kiyim kiyilgan. Badavlat kishilar jalbari qimmat matolardan tikilgan. Oddiy xalq esa arzon matolardan tikilgan jalbar kiygan yoki ustki ishton kiymagan.

Erkaklar ustki kiyimi ayrim xususiyatlarga ko'ra ikki xil: issiq va yengil kiyim bo'lgan. Issiq ustki kiyimga quyidagilar kiradi: **don** (to'n) - turkman erkaklarining keng tarqalgan ustki kiyimi sanaladi; qo'y terisidan tikilgan po'stin - ichmek, postun. Yengil ustki kiyim: astarli va ayrim turlari astarsiz - paxtasiz don bo'lgan.

Turkmanlar yengil ustki xalatlar ustidan ko'k, qora va havo rangli movutdan tikilgan mavut don (movut to'n) ham kiygan.

Tunikasimon bichimli **yektay** astarsiz, ustki kiyim - **chekmen** juda keng tarqalgan. Plashga o'xshash chekmen qo'y yoki tuya junidan ishlangan movutdan tikilgan. Kundalik kiyish uchun mo'ljallangan - yegin chekmen, dag'al movutdan tikilgan (1-rasm).

O'rta Amudaryoning shimoliy tumanlarida qishda yo'l-yo'l matodan, yelkadan belgacha bo'lgan qismiga avra-astar orasiga paxta solib qavilgan - lenke don kiyilgan.

Kundalik po'stin - deri ichmek bo'lib, uni tikish uchun 6-7 ta qo'y terisi ketgan, to'y-hashamlarda kiyiladigan qishlik po'stin - silkme ichmek esa 10-11 ta hali juni olinmagan yosh qo'zilarning jingalak terisidan tikilgan. Qo'y terisidan tikilgan, erkaklar qishki kiyimi - ichmek , postun ovullarda hozirgacha kiyiladi.

Turkman ustki kiyimlarining hammasi tunikasimon bichimda bo'lган. IX asr oxirlarida tunikasimon bichimda bo'lмаган, ustki kiyim- guppi-kemzor kiyilgan. Bu kamzul paxtalik bo'lган.

Qadimda xalatlar bo'yи ham, yenglari ham uzun bo'lib, kiyganda yeng qo'l barmoqlarigacha tushib turgan. XIX asr oxirlariga kelib xalatlar uzunligi qisqardi va shunga qarab, ularning yenglari ham kalta qilindi. Ushbu xalatlarning ko'krak qismiga tasmalar tikilgan bo'lib, bular kiyim old qismini bog'lash uchun mo'ljallangan.

**Ersarin** turkmanlari sidirg'a, kulrang xalat kiygan. Amudaryo taraflarda buxorocha xalatlar kiyilgan. Xalatlar yorqin tus berilgan gullar bilan bezatilgan. Kundalik kiyish uchun mo'ljallangan xalatlar yektay bir xil rangda bo'ladi.

Turkmanistonning ko'pgina tumanlari, ya'ni sharqiy va janubiy tomonlarida - girmizidون deb atalgan, to'y-tantanalarda kiyiladigan xalatlar bo'lган. Ushbu xalatlar qizil ipak, qora va oq, yo'l-yo'l matodan tikilgan. Aslzodalar qimmatbaho matolar, ya'ni movut va baxmal girmizidон xalatlar kiygan.

Erkaklar bosh kiyimlari o'ziga xos qadimiy xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu bosh kiyimlarda turkman xalqi an'analari saqlanib qolgan. Turkman erkaklari ham aksariyat O'rta Osiyo xalqlari kabi, birdaniga ustma-ust ikki xil bosh kiyim: ichki - mayin do'ppi, bir necha qavat matodan tikilgan, shakli har xil va turli shakldagi ustki - mo'ynali telpak kiygan. Erkaklarning ichki bosh kiyimi dumaloq, konussimon shaklda bo'lган. Har xil

turkman elatlari yashagan joyiga qarab, bosh kiyimlar ham turlicha nomlangan: taxya yoki tayxa, borik, kalpak va h.k.

Erkaklar ustki bosh kiyimi mo'ynali bo'lib, kishi yashayotgan joyi, bichimi va mo'ljallangan o'rniga qarab har xil nomlangan: ***telpek, borik, chovre, chulakchin*** va h.k. Bosh kiyim yechilmagan. Yilning qaysi fasli bo'lishidan qat'iy nazar, mo'ynali telpak quyoshning jazirama issig'idan, qishning qahraton sovug'idan asragan. Telpak uchun qora, oq, sarg'ish rangli, qo'y va qorako'l terisi ishlatalig'an (1-rasm).



*1-rasm. Turkman erkaklar libosi*

Turkmanistonning ayrim tumanlarida qariyalar salsa - selle o'ragan, salsa uchun uzunligi 3-4 metrli, rangli ipli mato olingan. Oq sallani, aksariyat, din peshvolari, domla-imomlar va taqvodor qariyalar o'ragan.

Turkman erkaklarining milliy oyoq kiyimi har xilligi bilan diqqatga sazovor. Chokoi va charik, chepekk yoki yelken, edik, kaush, mesi - ana shunday erkaklar poyabzal sirasiga kiradi.

***Chokoi*** - ushbu poyabzal uchi tepaga qayrilgan tumshuqli bo'lib, buzoq terisidan tikiladi. Chepek - cho'ponlar poyabzali hisoblanadi. O'ziga xos bu sandalning poshnasi charmidan yasalib, jun bog'ich yordamida bog'lanadi. Erkaklar qish-u yozda

etik kiyganlar. Aksariyat, badavlat kishilar otda yurishga qulay bo‘lgani uchun etikni ma’qul ko‘rgan. Bunday etiklar baland, ingichka poshnali bo‘lgan. Ayrim erkaklar o‘zlariga poshnasiz yumshoq etik tiktirib olganlar.

**Ayollar libosi.** Qadimdan turkman ayollari ichki kiyim sifatida - *koynek* (ko‘ylak) kiygan. Koynek - tunikasimon bichimli, etagining uzunligi to‘piqqacha tushadigan qilib, erkaklar ko‘ylagiga o‘xhash tikilgan.

Ayollar ko‘ylagini hammasini bichimi bir-biriga o‘xhash bo‘lib, old bo‘yin o‘mizining o‘rtasidan ko‘krakkacha vertikal qirqim beriladi (2-rasm). Ko‘ylaklar yoqali, ba’zida yoqasiz ham bo‘ladi. Turkman ayollarining kundalik ko‘ylaklari uyda to‘qilgan alaja (olacha) - mayda pushti-siyohrang katak - katak ipli gazlama yoki yarim ipaklik matodan tikiladi. Turkmanistonning janubi-sharqiy tumanlarida ayollar uyda to‘qilgan mata - ipli matodan, ko‘k-havorang ko‘ylaklar kiygan.



2-rasm. *Ayollar libosi*

**Girmizi keteni** - qizil rangli, pishiq va zich qilib to‘qilgan ipak bo‘lib, u boshqa ipaklardan ustun turgan. Turkmanlarda qizil rang ramziy ma’noni anglatadi. Keten - matosi qadimiy bo‘lib, Misrda ishiab chiqarilgan va XVI asrda O‘rta Osiyoga olib keligan.

To'y-tantanalarda kiyish uchun qizil ko'ylak - girmizi keteni koynek tanlangan. Bo'yiga yetgan qizlar sepida kamida ikkita-uchta girmizi keteni ko'ylagi bo'lishi shart edi.

Ayollar ko'ylaklarining yoqasi va ko'krakkacha bo'lgan qirqimlari jexek deb atalgan ensiz, qizil va yashil rangli shohidan tasma qilib tikilgan. Ko'ylakning old qirqimi - ko'krak qismiga gurtikin yoki pugtama deb atalgan har xil, zich, sidirg'a mayda geometrik naqshlar bilan kashta tikilgan.

Ayollar bel kiyimi - ishton bo'lib, guruhiga qarab, u turlicha nomlanadi: balak, dizdan, ishtan va h.k. Balak (baloq) - erkaklar ishtonlari o'xshab ketadi, lekin pastki qismi torayib boradi.

Aksariyat, badavlat xonadon ayollarigina issiq ustki kiyim kiygan. Shunga qaramay, ayollar ustki kiyimlarining bir qancha turlari shakllangan.

Ichmek - po'stin; ayollar ichmegini mayda hayvonlar terisi yoki tulki panjasidan tayyorlangan. Ichmek erkaklar po'stinidan kaltaroq qilib, sirtiga qizil rangli shohi yoki baxmal qoplab tikilgan.

XIX asr o'rtalariga kelib, Turkmaniston g'arbida qiz-juvonlar paxta solib qavilgan issiq kiyimning boshqa turini kiya boshlagan. Bu kiyim kurte, deb atalgan. **Kurte** - oldi yopiq, uzun, tunikasimon bichimda, yonlari trapetsiyasimon shaklda bo'ladi. **Kurte**ga ba'zan hishtak solinmaydi.


Ba'zan esa rombsimon hishtak qo'yiladi. Kurta etagining yon tomonlariga qirqim beriladi.

Etagi va yon qirqimlariga zanjir chokda rangli kashta tikib bezaladi. Yengil ustki kiyimlar bichimi va ko'rinishi jihatidan har xil bo'lgan. Turkmanistonning markaziy, janubiy va janubiy-sharqi tumanlarida don, chabit va kurte kabi yengil ustki kiyimlar - qizil va sariq rangdagi ensiz, yo'l-yo'l yoki sidirg'a ipakdan tikilgan, astari yashil satindan, keyinchalik chitdan qilingan. XX asr boshlarida Turkmanistonning shimoliy tomonida kemzor kiyilgan. Kemzor tik yoqali, qirqma cho'ntakli, astarli bo'lgan.

Odatda Toshovuz turkmanlari kemzorni yoqasiz tikkani, ko'krak qismiga oq ip bilan xiyol bezak berilgan.

**Kemzor** kundalik va to'y-hashamlarda kiyilgan. XX asr boshlarigacha xivalidon kiyimi kiyilgan. Toshovuz turkmanlari tizzalarigacha uzunlikdagi nimcha kiyigan. Bunday nimcha kolmak, deb atalgan.

Qizlar do'ppilarini - **taxya**, **borik** hisoblanadi, uchida keng tarqalgan asosiy bezak taqinchog'i - **kupbasi** (qubba) bo'ladi. Taxyaning qubba shaklida yuqoriga chiqib turgan kichkina kumush naychasi bo'lib, kumush shokildasi osilib turadi. Taxya kumush tangachalar bilan zich va chiroyli qilib bezatiladi (3-rasm).




3-rasm. Turkman qizlari do'ppisi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida do'ppi ko'rinishi va konussimon shakldagi baland qalpoqlar urf bo'ladi. Ushbu bosh kiyimi qizil movut yoki ipakdan, astari ip gazlamasidan tikiladi.


Ko'pgina turkman urug'larida qizlar turmush qurgunlariga qadar oddiy, mayin do'ppiga o'xshash bosh kiyim kiyigan.

Peshona tepasiga - *sinsile* (silsile, sunsule, sumsule) taqilgan. Bu taqinchoq juda nafis, kumushdan yasalgan zargarlik buyumi bo'lgan. Sinsilega o'xshash peshonaga taqiladigan taqinchoqlarning alinshai, ilgich kabi mayda osilchoqli bezaklari ham bor. Bundan tashqari yana peshonabog' taqinchoqlar eurme (sorme), egme, manlayik - kumush taqinchoqlar ham bo'lgan (3-rasm).

Ersarinlik turkman ayollarini sinsile taqinchog'ini **bogmak**, **bogmach** bosh kiyimlari ustidan taqib yurganlar (4-rasm).



3-rasm



4-rasm

Turkman ayollarining to'y-hashamda kiyadigan asosiy bosh kiyimlari - *hasaba* yoki *havasa* baland, qattiq karkasga qo'yilgan. Kundalik bosh kiyimlar yumshoq asosda bo'lib, bitta ro'moldan salsa o'ralgan va kumush bezaklarsiz kiyilgan.

To'y-hashamlarda kiyadigan *hasaba* bosh kiyimi esa aksariyat tilla va kumush bezaklar bilan bezalgan. Ayollar bu bosh kiyimni to'ng'ich farzandlari dunyoga kelguncha kiyishgan (5-rasm).



*5-rasm. Ayollar bosh kiyimi*

Turkmanistonning janubiy qismida ayollar xalat-yopinchiqda yurgan. Hozirgacha saqlanib qolgan *chirpi* kiyimi to'y-hashamlarda astarli xalat-yopinchiq bo'lib xizmat qilgan. Bu kiyim, asosan, sariq, yashil yoki oq rangli ipakdan tikilgan.

Yaqin-yaqinlargacha ayollar, qizlar libosini zeb-ziyinatsiz taasavvur etish qiyin edi. Hattoki kundalik turmushlarida ham qiz-juvonlar zeb-ziynat taqib yurganlar. Ushbu taqinchoqlar bo'yin va ko'krak oldiga, bosh kiyim va ko'ylak, ustki xalatlar ustidan taqilgan.

Ayniqsa, katta va boytegin, nomut, sariq, ersar urug'lariga mansub qiz-juvonlar ko'plab zeb-ziynat, taqinchoqlar taqqan. Bunday taqinchoqlar asosan tilla, kumush, misdan yasalgan va feruza - pirusa, sedolik, yashma, marjon toshlari bilan bezalgan.

Qadimda turkman ayollarining poyabzal turi kam bo‘lgan. Bu hol ularning turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Ilgarilari ayollar oldin ko‘proq uyda, ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘lib, ovuldan tashqariga kam chiqqan. Ko‘p tarqalgan poyabzal turi kaush (kavush) bo‘lib, keng, yog‘och poshnali yoki baland, charm poshnali bo‘lgan. Bu poyabzal yilning sovuq faslida paypoq bilan kiyilgan. Kavush bilan yumshoq (mahsi) etik-mesi kiyilgan. Poshnasiz ana shu etik erkaklarnikiga o‘xshab ketadi. Bundan tashqari, yana ayollar qizil yoki jigarrang charmdan baland poshnali, qo‘nji bezalgan etik ham kiygan.

### **Nazorat uchun savol va amaliy topshiriqlar**

1. Turkman erkaklar ko‘ylagi qaysi detaliga ko‘ra nomlanadi?
2. Erkaklar ko‘ylagining bichimi qanday?
3. Erkaklar libosi qanday kiyim turlaridan tashkil topadi?

Ularga ta’rif bering.

4. Erkaklar bosh kiyimlari xususiyatlarini tavsiflab bering.
5. Qadimda turkman ayollarining kiyimi qanday ko‘rinishga ega edi? Hozir bunday kiyim turlari saqlanib qolganmi?
6. Turkman qiz-juvonlar bosh kiyimlarini tavsiflab bering.

## **OLTINCHI BOB O'ZBEK LIBOSI**

O'zbek xalqi ham boshqa etnoslar singari ancha chigal va murakkab etnik jarayonni boshdan kechirgan. Bu jarayon eng qadimiy ibtidoiy davrlarda va butun o'rta asrlar davomida Yevroosiyo, ayniqsa, O'rta Osiyo va Qozog'istonning bepoyon hududida migratsiya (ko'chish) va aralashish natijasida muayyan qabilalar ittifoqi yoki davlat hududlari davrasida ro'y berган.

Tarixiy manbalarning xabar berishicha, mintaqada bir necha ming yillar davomida chegaralari o'zgarib turgan quyidagi tarixiy-madanli va etnik birikmalar yuzaga kelgan:

- 1) yarim o'troq baliqchi elatlar;
- 2) daryo quyi oqimida va vodiylarda yarim o'troq chorva-dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi;
- 3) sug'orma va bahorgi yerlardagi omoch dehqonchiligi bilan chorvachilik xo'jaliklari;
- 4) chuqur iqlimli dasht va yarim daschlarda qisman dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi etnik guruhlar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bu yerda ibtidoiy jamiyat tashkil topgan Neolit, ayniqsa Eniolit davridayoq (miloddin avvalgi IV-III ming yilliklar) mazkur xo'jaliklar bir joyda paydo bo'lib, keyin butun mintaqaga tarqalgan. Juda ko'p topilgan neolit davri makonlari xususan, Xorazmdagi Kaltaminor, Zarafshondagi Chinkeldi, Markaziy Farg'ona va Ustyurtdagi Jaytun va boshqa madaniyatlar turli qabilalarning o'zaro bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlarida jez (bronna) davrida fanda skif-sarmat, sak-massaget nomi bilan mashhur ko'chmanchi va yarim o'troq hind-eron qabilalarining bir qismi Qozog'istonga, O'rta Osiyoning shimoliy qismiga joylashib, o'ziga xos yuksak madaniyat yaratganlar. Sug'diyona, keyinchalik ko'hna Xorazm, Marg'iyona va Baqtriyada

yashovchi o'troq sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, qadimiy tillarda gapiruvchi xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan sak-massagetlar butun Yaqin va O'rta Sharqni larzaga keltirib turgan.

O'sha davrdagi sak-massaget qabilalari metalldan har xil mehnat qurollari va yarog'-aslahalar, xanjar, bolta, nayza, o'q-yoy uchi, xilma-xil badiiy bezaklar, katta g'ildirakli uch-to'rt ot qo'shiladigan og'ir aravalar va harbiy yurishlarda ishlatiladigan yengil aravalar yasaganlar. Ular yangi chidamli ot turlarini parvarish qilganlar, ilg'or urush taktikasiga ega bo'lganlar, aravali lashkarlar esa ayrim tabaqaga ajralgan. Bepoyon Yevrosiyo dashtlarida u yer-bu yerda uchraydigan juda ko'p tepaliklarda dafn qilingan boy qabila boshliqlari va harbiylarning dabdabali qabrlarini qazib tekshirish natijasida skif-sak qabilalarining yuksak madaniyatiga va qudratli harbiy kuchga ega bo'lganligi isbotlandi. Qabrlarda jasad bilan ko'milgan turli harbiy qurollar, bezakka boy yugan va egarli ot-aravalar, ajoyib naqshli sopol buyumlar, go'zal haykallar, qimmatbaho tosh va metallardan afsonaviy bezaklar bunga yorqin dalildir.

Temirning kashf etilishi butun mintaqada ishlab chiqarishning rivojlanishiga zo'r turtki bo'ldi. Oqibatda keng hududda, jumladan, O'zbekistonda ham aholi o'sdi. Bu davrda irqiy jihatdan ancha o'zgarishlar ro'y berdi. Dastavval antropologik jihatdan mongoloid elementlari kuchayadi va evropeoid yaxlitligi o'zgara boshlaydi. Ammo mongoloid bclgilar hamma erda bir xil bo'lmasdan, faqat ayrim rayonlarda ko'proq jamlangan. Mazkur tiplar, asosan, keng tarqalgan Sibir va Markaziy Osiyo ko'chmanchi elatlari bilan aloqador bo'lib, bunga Orolbo'yi va qadimgi Buxoro vohasi rayonlari ham kiradi. Shunday qilib, miloddan avvalgi I ming yillikka kelib, morfologik jihatdan mongoloid elementlari ta'siri o'tgan va hozirgi o'zbek irqlarining shakillanishiga asos bo'lgan guruh yuzaga kelgan. Ilk temir davridan keyingi madaniyatga o'tish davri miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan yangi eraga o'tishgacha

butun O'rtta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham murakkab etnoantropolopik jihatdan jiddiy jarayon ro'y bergan. Arxeologik obidalardan Dalvarzintepa, Ayrитom, Eski Termiz va boshqa yerlarda o'tkazilgan tadqiqotlar mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi I ming yillikda O'rtta Osiyoda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz beradi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar-qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshoatlarining qurilishi qo'l mehnatisiz mumkin emas edi. Qo'shni Eron, ayniqsa, Madiya davlati (miloddan avvalgi VII-VI asrlar). Ahmoniyalar sultanati (miloddan avvalgi VI-V asrlar) tashkil topishidan oldinroq O'rtta Osiyoda ikkita quldorlik davlati – Baqtriya va Xorazm paydo bo'lganligi to'g'risidagi fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Mazkur manbalar va tosh qabrlarga bitilgan bitiklar (Persepol saroyi), zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da, Rim, Yunon va Xitoy mualliflarining asarlarida hozirgi O'rtta Osiyoliklarning qadimiy ajdodlari sak-massagetlar, yuechji, kangyuy (qang'ar), usun va boshqa elatlar tilga olinadi. Shularning ichida eng katta elat saklar juda keng hududni-Tyanshan va Pomir etaklaridan Kaspiy dengizi sohillargacha bo'lgan yerlarni egallagan, ularning eng zich joylashgan yeri Sirdaryo havzasini bo'lgan.

O'zbekistonda shahar va qishloqlar miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida paydo bo'la boshlagan. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da, qadimgi sug'd yozuvlari va fors manbalarida, makedoniyalik Iskandar davriga oid ma'lumotlarda bu yerda juda ko'p shahar va qishloqlar, qasr va qal'alar mavjudligi to'g'risida xabar qilinadi. Arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan o'zbek elidagi shahar va qishloqlar bilan birga ayrim katta-kichik hovlilar, ulardagi boy dekorativ bezaklar va bo'yoqli rasmlar ham diqqatga sazovordir. Salavkiylar va Baqtriyaliklar zamонida O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillik oxirida Sug'diyona, Marg'iyona va Choch viloyatlaridagi shaharlar bilan bir qatorda tevarak-atrofi

mustahkamlangan qishloq qo'rg'onlari va ayrim dehqonlarning hovilari borligi aniqlangan. Bunday qo'rg'onlar Qarshi vohasida, Samarqand atrofida, Xorazmda ko'plab uchraydi. Kushon davlati vaqtida shahar madaniyati ancha rivojlangan bo'lib, unda hunarmandchilik va savdo-sotiq katta o'rinn tutgan. Bu davrga oid Afrosiyobda, qadimgi Termizda va ayniqsa, Ayrитom va Xolchayon, Qarshi va Xorazmda (Tuproqqal'a va Bozorqal'a) qazib olingan ko'shk va saroylar me'morchilik va san'at jihatidan g'oyat muhim obidalardir. Masalan, Xolchayonda katta xonaning uch tomonidagi devori uch metr balandlikda oq ganch bilan suvalgan, devorlarning yuqori qismi esa mahobatli haykal-taroshlik rasmlari bilan to'lgan. To'q qizil rangda bo'yalgan devorlarga oq gajaklar, barglar, uzumlar, bir necha erkaklar surati katta mahorat bilan ishlangan. Uch metrli oq panel tepasidagi haykallarning usti mineral bo'yoqlar (qizil, qora rang) bilan bo'yalgan. Ayvonnинг janub tomonidagi qazib olingan ayol haykalining chehrasi ochiq va keng, oq dubulg'a tagidan uning qalin tutam sochlari ko'rinish turibdi.

**Milliy liboslar, bezaklar va pardoz-andozlar.** O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim-kechaklari to'g'risida ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob namunalardir. Xalqning kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar, asosan, XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformasiya, asosan, shaharlarda ochiq ko'zga tashlandi.

An'anaviy o'zbek libosi asosan, ustki ko'ylak, ishton va chopondan, boshga do'ppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat bo'lgan. Erkak-ayol va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit

matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab yelka tomoniga ko'ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to'rt burchak xishtak (qo'ltig'iga solingan)ni tikib kiyilavergan.

Erkaklarning an'anaviy yaktak ko'ylagi uzunligi tizzagacha, ayollar va qizlarniki to'pig'igacha bo'lgan. Farg'ona vodiysida yaktak xildagi erkaklar ko'ylagining qiyiq joyi vertikaliga (yirmochi) belgacha yetsa, yana bir turining yirmochisi gorizontal holda bir egnidan ikkinchisiga qiyib cho'zilgan. Har ikki turda ham uzunasiga yoqa o'rnatilgan. Ba'zi viloyatlarda yoqa kashta bilan bezaklangan. Gorizontal yirmochi yoqali ko'yak Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida, Toshkent, Buxoro va Xorazmda keng tarqalgan. Ayollar ko'ylagining yoqasiga ham kashtalangan yoki bezatilgan tasma tikilgan.

Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yiga gulli jiyak (tasma) tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryoda jiyak ipak ip bilan but shaklida to'qilgan. Buxoroda qimmatbaho kiyimlarga tilla ipda to'qilgan jiyak tikilgan.

Qator viloyatlarda yoshi katta ayollar oddiy jun, chilvir yoki qoramfir yo'l-yo'l mato parchasini jiyak qilib ishlatganlar. Asrimiz boshlarida bunday ayol ko'yaklari kam saqlangan. Turkiston o'lkasida dastlab shaharlarda, keyinroq qishloqlarda tik yoqali yirmochi ko'yaklar rasm bo'la boshlagan. Bunday ko'yaklarga "No'g'ay yoqa" deb nom berilgan. Oddiy bichimdag'i ko'yaklarni, asosan, ellik-oltmis yashar ayollar kiygan. Hozir ayollar libosi nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'pchiligi yevropacha ko'rinish kasb etadi. Shu bilan birga milliy ruhdagi ko'krak burma bichimdag'i ko'yak bugungi kunda ham turli ko'rinishlarda keng tarqalgan. Atlas va adradsdan tikilgan liboslarni bugungi kunda nafaqat qizlar, shuningdek, o'rta yoshdagi va keksa yoshdagi ayollar ham kiyadilar.

Qadimiy ko'yak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan. Masalan, Buxoro va Xorazm

vohasida ular guppi, jubba, guppicha, Farg'ona vodiysida guppi ko'yak yoki guppicha degan nomlar bilan ma'lum. Qadimiy ko'yaklarga oq matodan gorizontal ochilgan yoqali mullacha ko'yak, musulmon ko'yak ham kiradi. Juda keng tarqalgan (Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida) va qisman saqlangan (Xorazmda) mursak, munisak yoki kaltacha o'tgan asrda kundalik ayol kiyimi sifatida diqqatga sazovor. Bunday kiyim chopon shaklida uzun yoqasiz engil astar bilan tikilgan.

Ishton ham oddiy shaklda bo'lib, uni matoni ikkiga buklab, oldi va orqasidan tikilgach, og'i yopishtirilgan. Erkaklarning ishtonini ayollarnikidan uncha farq qilmagan. Erkak va ayollar ishtonining bichimi bir bo'lsa-da, ayollarniki matosining turli tumanligi bilan farqlangan. Ayollar ishtonini, ya'ni lozim nafaqat ip gazlamadan, shuningdek ipak, jun matolardan ham tikilgan. Shu bilan birga ular erkaklarnikiga nisbatan uzunroq bo'lib, pasti ya'ni pochasi jiyak (tasma) bilan bezatilgan. Ayollar ishtonini (lozim) ilgari ikki qismdan: yuqori qismi oddiy matodan, pastki qismi qimmatbaho materialdan (ba'zan ko'yakka moslashtirilib) tikilgan, pochasiga jiyak tikilgan.

Umuman olganda, erkaklarning ko'yak-ishtonini, odatda, bir rangda (asosan, oq), ayollarniki rang-barang materialdan tikilgan. O'tgan asrning oxirlarigacha kiyim-kechaklar mahalliy kosiblar to'qigan matodan (bo'z, kalomi, alachi) tikilgan. Keyinchalik kiyim-kechaklar rus fabrikantlari mahsulotlaridan tikila boshlangan (ayollarga gulli chitdan, erkaklarga oddiy chitdan). Hozirgi davrda milliy va yevropacha kiyimlarning turlari nihoyatda ko'p. Ayniqsa, keyingi paytlarda o'zbek ayollar yaltiroq, kumush, tilla ipli gazlamalardan zamonaviy modaga moslashtirib kiyim tiktirib kiymoqdalar. Ichki kiyimlar butunlay yangicha trikotaj va sun'iy matolardan tikilgan mahsulotlardan iborat.

Chopon – qadimiy ustki kiyim hisoblanadi. Chopon ochiq yoqali yaktak shaklida astarli va paxtali qilib tikilgan. Chopon

uzun engli, yuqori qismi keng, pastki tomoni torayib ketgan, ayrimlari o'tirishga qulay bo'lsin uchun etagining o'ng va so'l tomonidan qiyiq joyi bo'lgan. Odatda, chopon belidan belbog' bilan bog'langan, unga erkaklar pichoq (qini bilan) osib yurganlar. Yozgi choponlar qavilmagan (avra-astar chopon) yoki, umuman, astarsiz (avra chopon) ham bo'lgan. Namanganda dala ishlari vaqtida oq matodan yupqa qavilgan kalta chopon kiyiladi. U kishilarni issiqliqdan saqlaydi. Surxondaryo va Zarafshon bo'ylarida o'rashgan yarim ko'chmanchi o'zbeklarda ham tizzagacha keladigan, astarsiz kalta (avra) chopon ko'p uchraydi.

O'zbek choponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyish uslubiga ko'ra farqlanadi. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida gavda silueti keng va uzun, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon, Farg'ona yoki Toshkentda yashil yoki ko'k – yashil chopon urf bo'lgan. Asrimiz boshlarida qora satindan tikilgan chopon keng tarqalgan. Yoshlar orasida bayram libosi sifatida ochiq rangli katta yo'l-yo'l beqasam to'n urf hisoblangan. Qishloq joylarda bunday chopon kuyov sarposiga kirgan. Biroz tor va kalta, kambar yo'lli naqsh berilgan, yaltiroq alachadan tikilgan Xorazm choponi qadimdan keng tarqalgan. Choponni yaktak ustidan kiyib belbog' bog'lash, asosan, Farg'ona vodiysida odat bo'lgan, boshqa joylarda belbog'siz yaktakchasigina kiyilgan.

Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi – mursak ilgari juda keng tarqalgan.

Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentda (1-rasm) uzun, yengsiz, bilakkacha bo'lgan yengi bilan farqlangan, xolos.



*1-rasm*

Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan. O'tgan asrning boshlarigacha u oddiy ko'chalik libosi sifatida kiyilgan bo'lsa, keyinchalik mursak motam libosi sifatida belbog' bilan kiyilgan. Ayrim ayollar uni to'yga yoki mehmonga borganda ham kiyganlar. Hozirgacha Toshkentda mursakni dafn marosimida tobut ustiga yopadilar.

**Matolar.** XIX asrda o'zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar qatoriga ip gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi. Ip gazlamalarning turlari juda ko'p. Ayniqsa, och jigarang, sariq tusli bo'zlar keng tarqalgan bo'lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun choponlar, shuningdek, ichki kiyimlar, sallalar tikilgan. Ayollarning ro'mollari, dakana va lachaklarini tikish uchun doka ishlatilgan. Erkaklarning ko'yylaklari xomsurp, sidirg'a chit, ip gazlamali kalamidan tikilgan. Yo'l-yo'l ip gazlama mato – olachalar ko'proq chopon tikishda qo'llanilgan.

Chopon tikishda shuningdek bo'z yoki karbos (oddiy bo'yalmagan ip gazlama), bosma (ko'proq qizil tusdag'i gulli bo'z), olacha (bo'yalgan ipdan to'qilgan yo'l-yo'l ip gazlama), yo'l-yo'l nimshoyi matolardan ham foydalanilgan.

Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o‘zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adres) gazlamalardan tikilgan turfa kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida rasm bo‘lgan.

Quyida mana shu matolarning ayrimlariga ta’rif beramiz.

**Beqasam** – yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, ko‘rpa-ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan.

**Banoras** – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo‘lmish paranji tikilgan.

**Parpasha** – beqasamdan qalinqo mato bo‘lib, u paranji, shuningdek, chopon tikishda ishlatilgan.

**Adras** – abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo‘llanilgan.

**Shoyi va nimshoyi matolar** – beqasam, adres, yakruyo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va h.k. turli-tuman gullar solingan.

XIX asrning birinchi yarmida O‘rtta Osiyoga Rusiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayerlangan ip gazlamalar: chit, bo‘z, kolenkor, xom surpdan tikilgan kiyim-kechaklarni kiyish rasm bo‘lgan. Boy-badavlat kishilar esa kimxob, ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib ola boshlaganlar.

Shunga qaramay, kosiblar dastgoxidan chiqqan mahalliy gazlama: mato, bo‘z, nimshoyi kabi gazmollar (adres, beqasam, podshoi, kimxob, xonatlas, katakshoyi kabilar)ning turli xillariga ehtiyoj katta bo‘lgan.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zining milliy marosimlarida alohida kiyinadi. Nikoh yoki xatna to‘yida kelin-kuyovlar liboslari, to‘y bolaning kiyimi, dafn marosimida marhumni yodlash davrida kiyiladigan liboslarga bo‘linadi.

**Erkaklarning milliy liboslari** ham ichki (ichdan kiyiladigan) va ustki – yelkaga kiyiladigan, belga bog‘lanadigan turlardan iborat.

Erkaklarning ichki libosiga yengsiz mullayoqa ko‘ylak, ko‘ylak-xalat (yaktak) va ishton kirgan. Ustki libosga turli-tuman xildagi yengil, issiq (paxta solib qavilgan) choponlar (to‘nlar), mo‘ynadan tikilib, gazlama bilan qoplangan po‘stinlar, chakmonlar, kamzullar, uzun yoki qisqa nimchalar kiradi.

Ustki kiyimlar ichida to‘n-choponlar eng ko‘p tarqalgan va hozirgacha yetib kelgan libos turidir. Tikilishga ko‘ra to‘nlar avra to‘n, astarli to‘n, paxtalik to‘n deb atalgan. Tikilgan matosiga ko‘ra to‘nlarning qator turlari mavjud. Bular kalami to‘n, banoras to‘n, beqasam to‘n, kimxob to‘n, surra to‘n va hokazo. Shuningdek, ular kimga mo‘ljallanganligiga qarab, bola to‘n, kuyov to‘n, quda to‘n kabi nomlar bilan atalgan. To‘n-choponlar ustidan bog‘lash uchun belbog‘lar, chorsilar, charm, duxoba kamarlar ishlatilgan.

Bosh kiyimlar do‘ppilarni, sallalarni, turli-tuman telpaklarni (qo‘y mo‘ynasidan tikilgan chugirmalar) o‘z ichiga olgan.

Poyabzallar charmdan tikilgan xilma-xil etik, mahsi, choriq, ko‘n va yog‘ochdan ishlangan kavush va zardo‘zi etiklardan iborat bo‘lgan.

**Ayollarning milliy liboslari** ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo‘lgan.

Ustki kiyimlar – kamzul, yengil xalat (mursak, kaltacha), yengsiz nimchalardir.

Paranji ham ayollarning an’anaviy ustki kiyimi sanalib, u to‘n va ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvondan iborat. XX asrning 30-yillarigacha shaharlik o‘zbek ayollar paranji yopinganlar. Paranji soxta yengli, to‘nsimon, uzun yopinchiqdan iborat bo‘lib, otning dum qilidan to‘qilgan to‘r parda – chachvon betga tutilib, ustiga paranji yopilgan. Chachvon yuzni bekitib, belgacha yetgan. Odatda, paranji uydan ko‘chaga chiqqanda yopinilgan. Qishloq joylarda paranji kam ishlatilgan, uni bayramlarda va uzoq safarga chiqilgandagina yopinganlar. Ba’zi qishloqlarda ayollar uydan ko‘chaga chiqqanda bola choponi

yoki oq bekingich bilan yuzini bekitganlar. Shahrisabz va Samarqand viloyatida yarim ko‘chmanchi o‘zbek qabilalar yo‘l-yo‘l matodan tikilgan chopon (jelak) yopinganlar. Uzun va tor soxta yengli yoping‘ich – *ja’dani* Xorazm ayollarini kiygan. Bunday yoping‘ich Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida ham uchraydi.

O‘zbek ayollarining bosh kiyimlari ham turlichadir. Xususan, ro‘mol, peshonabog‘, do‘ppilar ular sirasiga kirib, ularning har biri o‘ziga xos matodan, rang-barang ip-ipaklardan to‘qilgan, tikilgan.

Ayollar poyabzali – mahsi, kavush, kalish kabilalar ko‘n yoki rezinadan (so‘nggi asrlarda chetdan kirib kelgan) ishlangan (2-rasm).



2-rasm

Zeb-ziynatlar ayollar kiyim-kechagini tarkibiy qismi sanaladi. Ular orasida sochga taqiladigan shokilali marjon-munchoqlar, popuklar, tangalar, qadama bezaklar, gajimlar, zalvorli kumush ziynatlar, ikki chekkaga va qulooqqa taqiladigan peshonaband, tillaqosh, zulf, shokilador ziraklar, isirg‘a va buloqilarni sanab ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga bo‘yin va ko‘krakka taqiladigan marvaridlar, zebigardon, tumor va boshqalar, qo‘lga va barmoqlarga taqiladigan bilakuzuk, uzuklar,

kiyim ustiga taqiladigan xilma-xil tugma, marjon, tumorlar, bosh kiyimga qadaladigan ukpar, jig'a kabilar keng tarqalgan.

Zamonaviy kiyimlarda milliy an'analar bilan yevropa uslubi qo'shib ketgan. Milliy matolardan zamonaviy ruhdagi turli bichimlardagi ko'ylak va kostyumlar xotin-qizlar o'rtasida urf bo'lган. Milliy kiyimlar hayot tarzimiz va iqlim sharoitga moslangani bois, qishloq xo'jaligidagi mashg'ul kishilar hozirgacha oq yaktakni ish kiyimi sifatida kiyadilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yevropacha kamzul (kamzo'l) paydo bo'lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiygan. Erkaklar kamzuli tik yoqali, uzunligi tizzagacha yetadigan, asosan qora matodan tikilgan. Ayollarning kamzuli rang-barang duxobadan yoki beqasamdan beli tor qilib tikilgan. Ko'ylak ustida yengsiz nimcha, ya'ni jiletka kiyish urf bo'lган. Ingliz libosi tipidagi jaket ham yevropacha libos, palto va makintosh kabi ziyolilar orasida tez tarqala boshlagan.

Qadim davrlardan bosh kiyimiga qarab, o'zbeklarning etnik va lokal guruhlari farq qilingan. Erkaklar boshiga, asosan, turli xildagi do'ppi (to'ppi, taxyo) kiygan, ayollar esa, ko'pincha, rang-barang ro'mol yopingan. Do'ppining dastavval tagini va gardishi (kizagi)ni ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda qavib qo'shib tikanlar. Odatda, do'ppi nozik gulli, qadab tikiladi, ayrim ayollarning do'ppisiga mayda munchoq, marjonlar, xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do'ppilar Toshkent, Samarcand, Shahrisabzda tarqalgan, bugungi kunda Shahrisabzda saqlangan. Ayniqsa, "bodom" yoki "qalampir" naqshli oq ipak ip bilan tagi qora matoga kashtalangan Chust do'ppi nafaqat vodiyda, balki undan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rang-barang to'pbarggul shaklidagi Xo'jand-O'ratega do'ppilarini butun O'zbekistonga tarqalgan.

Erkaklar kiyadigan uchli qalpoq – kuloh to'rt bo'lak uchburchak matodan, gardishsiz tikilgan. Konus shaklidagi baland kulohni ilgari qalandarlar kiygan, tuxum shaklidagi

chakkasi bir oz yumaloq kulohni Buxoroda yoshi ulug‘ qariyalar qishda kiyganlar. Bunday bosh kiyimi o‘rtta asr miniyaturlarida ko‘p uchraydi. Asli kulohni ruhoniylar va dindor kishilar ko‘proq kiyganlar. Kulohga o‘xhash teridan tikilgan qishki telpak Samarqand va Buxoroda uchraydi. Farg‘ona vodiysida va Toshkent viloyatida telpak duxoba va movutdan tikilgan, tepasi tulki yoki suvsar mo‘ynasi, ba’zan qo‘y terisidan tikilgan. Telpak bichimidagi kigizdan tikilgan qalpoqni, asosan, dashtda yashovchi aholi kiygan. Qalpoqning ikki chetida keski (qiyiq joyi) va soyabon uchun keng hoshiyasi bo‘lgan. Odatda, qalpoq oq kigizdan, hoshiyasining chekkasi esa qora chitdan tikilgan.

O‘zbekistonning turli mintaqalaridagi liboslar bir-biridan farq qiladi. Shu ma’noda o‘zbek liboslarini quyidagi mintaqalarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq: Toshkent – Farg‘ona, Buxoro – Samarqand, Qashqadaryo – Surxondaryo.

## **TOSHKENT – FARG‘ONA LIBOSI**

Toshkent yirik markaz sifatida azaldan O‘rtta Osiyo va boshqa qo‘shni mamlakatlar, ayniqsa, Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalarida vositachi rolini bajarib kelgan. Bundan tashqari, Turkiston o‘lkasining poytaxti sifatida Toshkent o‘lka aholisining iqtisodiy va siyosiy hayotida katta ta’sirga ega bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi muhim xomashyo bazasi bo‘lgan. Toshkent va Farg‘ona vodiysi aholisining turmush tarzi va tartibi, kiyimlari bir-biridan deyarli farqlanmagan.

Toshkent va Farg‘ona vodiysida an‘anaviy milliy kiyimlar aholining turli toifasi ijtimoiy holatini bildirib turgan.

Chunonchi, Toshkent, Farg‘ona vodiysi hunarmandlarining kiyimi (4-rasm), mahalliy ziyolilarning kiyimi: jadidlar, mullalar va diniy tabaqa kishilar – masjit imomi, so‘fi, darvishlar kiyimi va boshqalar.



3-rasm



4-rasm

Urf-odat yoki marosim kiyimlari: to'y, o'g'il bolalarning sunnat to'yida kiyadigan kiyimi, dafn marosimi kiyimlari, yodga olish marosimlari kiyimlari.

Kiyimlar jins belgisi bo'yicha — erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari, yosh belgisi bo'yicha — yosh kelinchaklar, kuyovlar, o'rta yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar kiyimlariga bo'linadi. Ular boshqa mintaqalar kiyimlaridan ranglarining sokinligi bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi va Toshkent kiyimlarida qora va yashil ranglar ko'proq ishlatilgan.

Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi va Toshkent O'zbekiston Respublikasining boy mintaqalari qatoriga kiradi. Ular qadimiy Ipak yo'lida asosiy bo'g'in hisoblangan.

## BUXORO – SAMARQAND LIBOSI

Buxoro va Samarqand milliy kiyimlarida qo'shni davlatlarning madaniy ta'siri kuzatiladi, uning asosiy shakllari va ayrim elementlari asrlar davomida yaratilgan.

O'zbekistonda qadimdan ip gazlama, yarimipak, ipak va jun gazlamalar ishlab chiqarilgan. Ular butun sharqda o'rta asrlardan, ya'ni Xitoydan qadimiy Turkiston orqali "Buyuk Ipak yo'li" o'tgan vaqtidan beri mashhur bo'lib kelgan. Buxoro va Samarqand gazlamalarining shuhrati to'g'risida Narshaxiy,

Maqdisiy va qator X asr tarixchilarining asarlari dalolat beradi. Ularning xabar berishicha, mahalliy gazlamalar Bag'dod, Xuroson, Misr, Suriya, Vizantiya kabi shaharlarda ishlab chiqarilgan.

XIX asr o'rtalarida ko'p shaharlarda (Buxoro, Samarcand, Shahrисабз, Marg'ilon va boshqalar) milliy o'ziga xos va yuqori sifatli gazlamalarning turli xillari ishlab chiqarilgan. Bizning mamlakatimiz va undan tashqarida og'ir yarim ipak gazlamalar – beqasam, banoras va adres; ayollar kiyimi uchun yengil va yupqa ipak mato – shoyi, ranglarining mutanosibligi bo'yicha juda ajoyib abrli gazlamalar mashhurdir. Buxoroning abrli gazlamalarida asosan uchta rang – to'q-qizil, sariq va pushti ranglardan foydalanilgan (5-rasm).



*5-rasm  
Erkaklar libosi. Samarcand*

Buxoro va Samarcandning milliy kiyimlari O'zbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi va noyob zardo'zi kashtalari bilan ajralib turadi.



6-расм  
*Buxoro libosi*



7-расм  
*Samarqand libosi*

XIX asrda Buxoroda zardo'zlik san'ati gullab-yashnagan. Zardo'zi kashtalar bilan, asosan, saroy a'yonlari, ayollar va erkaklar kiyimlari: chopon, belbog'lar, bosh va oyoq kiyimlar bezatila boshlandi. Zardo'zlik san'atida zardo'zi – zamindo'zi texnikasi keng tarqaldi, bunda asos sidirg'asiga kashta bilan tikib chiqiladi.

XX asrda zardo'zi-guldo'zi texnikasi rivojlandi, bunda naqsh gullari qattiq qog'oz yoki kartondan qirqib olinib, mato ustiga qo'yiladi va zar ip bilan tikib, qoplanadi.



8-расм  
*Erkaklar libosi. Buxoro*



9-расм  
*Ovchilar cholvoi va  
zardo 'zi etik. Buxoro*

Xozirgi vaqtida zardo'zlik san'ati an'analari yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Buyumlarning turlari ko'paydi, kompozitsiyalar ishlab chiqish sifati yaxshilandi. Do'ppilar, ayollarning yengsiz nimchalari, shippaklar, belbog'lar, sumkachalar, kartmonlar va boshqalar keng tarqaldi (10-rasm).



10-rasm

Shunday qilib, Buxoro va Samarqand O'zbekistonning zargarlik va zardo'zlik san'ati rivojlangan markazlaridan hisoblanadi.

## QASHQADARYO-SURXONDARYO LIBOSI

Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi O'zbekistonning janubida joylashgan. Ular iqlimining issiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o'lka aholisining milliy kiyimlari ham tabiat sharoitlariga mos bo'lishi lozim. Kiyimlarning yorqin ochiq bo'yoqlari, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori dididan dalolat beradi. Surxondaryo vohasida asrlar osha turli etnik guruhlar yashab kelmoqda, u yerda o'ziga xos tarixiy-madaniy etnografik voha vujudga kelgan bo'lib, an'anaviy madaniyatning yuragi hisoblanadi. 2001-yilda Boysun YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan xalq madaniyatining durdonasi deb tan olinganligi tasodifiy emas. Ushbu mintaqqa uchun an'anaviy, o'ziga xos

Surxondaryoning ayollari qizil, olcha ranglarni juda yaxshi ko'rganlar. Kiyim uchun yo'l-yo'l, sidirg'a va yirik gulli abrli gazlamalarni tanlaganlar. Kiyimlarga kashtalar nafaqat go'zallik va estetik did berish uchun tikilgan, shuningdek ular diniy asoslarga ham ega bo'lgan. Xususan bunday bezaklar ayollar, bolalar va kelinchaklarni yomon ko'zdan asraydi, deb hisoblangan.

Ayollarning kiyimlarini zargarlik bezaklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Surxondaryoda zargarlik buyumlari xuddi kiyimlar kabi ushbu mintaqaning etnik turmush tarziga xos bo'lgan, alohida ajralib turadigan xususiyatlarga ega. Kumushdan ishlangan peshona bezaklari "sinsila" (sil-sila) deb atalgan. Ayollarning ziraklari turli-tuman bo'lgan. Burunga taqiladiganlari "letuva" va "natti" deb atalgan. Surxondaryo ayollari zargarlik buyumlarini juda sevganlar va ko'plab taqib yurganlar.

Qashqadaryo va Surxondaryo aholisi milliy kiyimlarining noyob namunalari aholining ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqqan holda taqdim etilgan: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari; yosh ayollar, o'rta yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar kiyimlari (12-rasm).



*12-rasm  
O'rta yoshli kishilar kiyimi. Surxondaryo*

Surxondaryo yana qadimiy yerosti saroylari va moddiy-madaniyat yodgorliklariga boy bo'lib, ushbu o'lkaning qadimiy madaniyati bundan dalolat berib turadi. Surxondaryo xududida arxeolog olimlar tomonidan topilgan Dalvarzintepa, Ayrитom, Sopollitepa, Fayoztepa, Bolaliktepa kabi qadimiy tarix, madaniyat va san'at obidalaridan topilayotgan nodir ashyolardagi tasvirlar bu joydagи liboslar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Qashqadaryo va uning yirik tarixiy shaxri Shaxrisabz (Kesh) milliy kiyimlarining uziga xos xususiyatlari ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini turli kashtalar bilan bezatishdan iborat, zero bu kashtalar yuzlab yillar mobaynida haqiqiy san'at asarlariga aylanib ulgurdi.



*13-rasm  
Ayollar ko'ylagi. Surxondaryo*

XIV-XV asrlarda Shahrisabz Temuriylar sultanatining yirik siyosiy, ma'muriy va madaniy markazi hisoblangan. Bu ko'p jihatdan Shahrisabz kashtalarining o'ziga xosligi va badiiy xususiyatlarini belgilab beradi. Qashqadaryo va Shahrisabzning kashta tikilgan buyumlari o'zining yorqinligi, ranglarining uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu erkaklarning chaponlari, shalvarlari, do'ppilar, kuloh va turli-tuman ayollar buyumlari, ya'ni ro'mol, sumkachalar, dastro'mol, oynaxalta, taroqxalta va boshqa buyumlari bo'lib, ular qarama-qarshi ranglar: yorqin qizil, to'q-sariq, to'q-jigarrang, binafsharang, yashil ranglar bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo va Shahrисabzda kashta tikishning "yo'rma" va "kandaxayol" usuli qabul qilingan bo'lib, kashtaning "iroqi" usuli keng tarqalgan.

## XORAZM LIBOSI

Xorazm — qadimiy voha bo'lib, O'zbekistonning shimalida joylashgan, keskin kontinental iqlimi, yozi issiq va qishi qattiqligi bilan ajralib turadi.

Qadimiy Xorazm madaniyati neolit (eramizdan avvalgi IV ming yillik boshidan III ming yillikkacha) davridan boshlab feodalizm boshigacha (XI—XIII asrlar) kuzatilgan, bu davrda vohada shahar madaniyati va shunga yarasha hunarmandchilik va savdo-sotiq gullab-yashnagan.

Xorazmiylar to'g'risidagi yozma tarixiy manbalar "Avesto" orqali bizgacha yetib kelgan (eramizdan avvalgi ming yillikning birinchi yarmi), u yerda "Hraizizem" mamlakatining nomi uchraydi.

X asr tarixchilari Xorazm to'g'risida shunday yozadilar: "Xorazm — serhosil, oziq-ovqat va mevalarga boy shahar, u yerda paxta va jundan ko'plab buyumlar tayyorlanadi, ular boshqa joylarga olib ketiladi. Shahar katta boylikka ega bo'lib, u yerdan yostiqlar uchun jildlar, qavilgan kiyim-kechak, kigiz va boshqalar chetga chiqariladi".

Xalq, san'atining eng yaxshi an'analarini Xiva - muzey-shaharning XIII-XIX asrlardagi me'moriy tarixiy obidalarida aks ettirilgan, bunda xorazmlik qadimiy me'morlarning yuksak san'ati ansambllarning uygun birligida mujassamlashgan. Qadimiy shahar Xiva - Amudaryoning o'ng qirg'og'i va qadimiy Ipak yo'lida joylashgan bo'lib, hammadan ko'proq o'z milliy xislatlarini saqlab qolgan. Bu belgililar genetik jihatdan ularning qadimiy ota-bobolariga borib taqalishidan dalolat beradi.

Kiyimlarning o'ziga xosligi uni kiyadigan kishilarning yoshi, ijtimoiy ahvoli, dunyoqarashi, hayotdagи qayg'uli va quvonchli hodisalar, xo'jalik yuritishi va tabiiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu me'yor va talablar kiyimlarni tikishda

foydalaniładigan matolar, ularning gullari, bezatilishi, ranglari, kiyimlarning bichilishi va katta-kichikligiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Xorazm xalqining milliy kiyimlari quyidagi xususiyatlari: uyg'unlashib ketgan ranglarning an'anaviyligi, erkaklar va ayollar bosh kiyimlari (mo'ynalari uzun katta shapkalar) shaklining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunday bosh kiyimlar chugirma telpak deb ataladi, u qo'y terisidan tikilgan bo'lib, uni erkaklar yil davomida kiyib yuradilar (14-rasm).




14-rasm

Lachak deb ataladigan marosim bosh kiyimi va o'ziga xos zargarlik buyumlari milliy libosning elementlarini tashkil qiladi (15-rasm).



15-rasm. Lachak bog'lagan yosh ayol

Xorazmda misga zarb berib, naqshlar solib buyumlar tayyor-lash va zargarlik san'ati juda rivojlangan. Boshqa mintaqalardan farqli ravishda Xorazm zeb-ziynatlari shakllarining turli-tumanligi va mukammalligi bilan ajralib turadi.




*16-rasm.*

*Taxyado 'zi, manglaydo 'zi va jig 'alar. Yarim-tirnoq – qulog  
orqasiga taqiladigan ayollar bezagi*



*17-rasm. Ayollarning bezaklari*

Xorazm ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli tahya (do'ppi) (16-rasm)ga ipdan yoki qush patidan popuk o'rnatib tangalar osganlar.



*18-rasm. Tahyalar*

Tahyo ustidan, odatda, ro'mol yopingan. Bu yerda ro'mol turlari ko'p bo'lgan: mahalliy ustalar to'qigan oq takana va ipak ro'mol (chitkor gul bosgan), jundan to'qilgan naqshli serjun ro'mol, chetdan keltirilgan boku ro'mol, parang (fransuz yoki yevropa) ro'moli va hokazolar. Erkaklarning qadimdan kelgan bosh kiyimi cho'g'irma bir necha turda qo'y terisidan tikilgan. Qorako'l terisidan tikilgan sherozi popoq va qulochchin keyingi davrlarda paydo bo'lgan.

## MAROSIM KIYIMLARI

Marosim turiga qarab to'y va motam kiyimlari farqlangan.

Tuy kiyimlari asosan yorqin ranglarda, aksar oq rangda bo'lgan. Zero, ushbu rang baxt-saodat timsoli hisoblangan. Shu sababli ip gazlamadan maxsus oppoq libos tikilgan, uning bichimi uzun olinib, etaklari to'piqqacha tushib turgan, yoqalari zamonaviy uslubda, yenglari esa keng va barmoqlarni yopib turadigan darajada uzun bo'lgan. Bu kabi oppoq kelin libosi hozirgacha rasm bo'lib kelayotir. Kelinning ro'moli ham shunday tusda, ba'zan gul-kashtalar bilan bezatilgan jiyaklar solingan, ip gazlamadan tikilgan; poyabzallar esa an'anaviy mahsi-kavush, tuflidan iborat.

Kelin kuyovning uyiga uzatilayotgan paytda boshiga paranji yoki chopon kiydirib, yuzini harir ro'mol bilan yopib qo'yilgan (mazkur odat Samarqand va Buxoroda keng tarqalgan). To'yning ertasi kuni "kelin salom" paytida kelin gul-naqshlar bilan bezatilgan ro'molni o'ng qo'lida ushlab turgan (Samarqandda). Kelin sarposi maxsus bichilgan, etaklari uzun bo'lib, ustidan mursak, kamzul, nimchalar kiyib yurilgan.

Erkaklarning to'y sarposi odmiroq va xillari kamroq bo'lgan: oq ko'ylak va ishton, oq salla, do'ppi. Ko'ylak ustidan kiyish uchun mahalliy kosiblar dastgohida tayyorlangan gazmoldan charm qavima to'n, belbog-ro'mol, kon poyabzal, etik kabilar ham to'y kiyimlari sirasiga kirgan.

To'y kiyimlari kelin-kuyovlarning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra farqlangan. Oddiy oilalar sarpolarni odatda qo'lda to'qilgan ip gazlamalardan, o'ziga to'q xonadonlar esa nimshoyi, ipak, boshqa mamlakatlardan keltirilgan farangiy matolardan tikdirishgan.

O'zbeklarning motam marosimlarida kiyadigan liboslar asosan ayollarga mo'ljallangan bo'lib, erkaklarda maxsus ta'ziya kiyimi bo'lmasa-da, belga belbog' bog'lab, boshiga do'ppi kiyish odat sanaladi.

Salla o'zbek ayollarining qadimiy bosh kiyimi hisoblangan. 19-asr oxirlariga kelib Samarqand, Toshkent va Andijonda bu odat qolib ketgan. Ayollar sallasi o'zaro biroz farq qilgan. Ayollar aksar uni o'ziga xos shakldagi maxsus bosh kiyimi-lachak ustidan o'raganlar. Xorazmliklarning lachagi uzun matodan o'ralib, ko'krak va orqa tomonini bekitib turgan. Toshkentliklarda ham xuddi shu bichimda lachak kiyilgan. Samarqandliklar lachakni uzunroq matodan bir oz boshqacha shaklda tikanlar. Janubiy Xorazm o'zbeklari sallani lachak kiymasdan o'rama salsa shaklida aylantirib, bir uchini ko'kragiga tashlaganlar. Odatda, ilgari uydan tashqariga chiqilsa, ayollar salsa ustidan mursak yoki uchburchak ro'mol shaklida oq yoki qizil ip matodan tikilgan charchi yopinib chiqqanlar.

Ayollarning aksari vaqt o'tib an'anaviy bosh kiyimi salladan voz kechib, har xil rangdagi turli materialdan to'qilgan ro'mol yopina boshlaganlar. Ro'mol o'rash yoki yopinish ham turlicha. Faslga qarab, katta, rangli, ko'p gulli ipak, jun yoki to'qilgan tivit ro'mol keng tarqalgan. Yoshi katta ayollarining oq doka ro'mol o'rash odati hozirgacha saqlangan.

An'anaviy kiyimlarga xos taqinchoq va bezaklar yaqin davrlargacha saqlanib kelgan. Odatda ayollarning bosh va ust kiyimlari zargarlik zeb-ziyнати buyumlari bilan bezatilardi. Kiyim-kechaklarning yangilanishi taqinchoqlarning yo'qolishiga sabab bo'lgan. 19 asr oxirlarigacha ayollar uchun zargarlar ishlab chiqargan zeb-ziynat buyumlari juda xilma-xil bo'lgan. Masalan, Farg'ona vodisida bezak-ashyolar eng ko'p tarqalgan. Ularning har biri bir necha shaklda maxsus nomga ega: bo'yin va ko'krakka taqiladiganlari – paykoncha, arpa jevak, zeb gardon, nozigardon, tanga jevak, tumor, bozvand, tilla tumorcha, bo'yin tumor, ko'krak tumor, sochning ikki tomoniga taqib, ikki yelkaga tushirib qo'yiladigan zarkokil, orqaga taqiladigan tanga cho'lpi, peshonaga taqiladigan tilla bargak, tilla qosh, jag'a va har xil soch popuk (par soch popuk, naycha soch popuk, panjara soch popuk, bekokil va besh kokil, qubbali soch popuk va x.k.), qo'ltiqqa taqiladigan qo'ltiq tumor va burunga taqiladigan aravak va lativa. Isirg'a turlari ham ko'p bo'lgan: kanazira, uch kokilli yoki uch oyoqli zirak, zuluk zirak, ko'zli zirak, oybaldoq, Farg'onacha baldoq, Turkiston baldoq, Qashqar baldoq, shaldiriq baldoq, arava baldoq (yumaloq shaklda), anjir baldoq va hokazo. Uzuk turlaridan: avg'oncha uzuk, ko'zsiz uzuk, rumcha uzuk, ayri band uzuk, shaxonak, quyma uzuk, o'rama uzuk, mis uzuk, tilla uzuk, xoji uzuk. Bilaguzuk turlari: suqma bilaguzuk, qo'chqor shoxli rasmana uzuk, chog'roq bilaguzuk, ilon boshi bilaguzuk, tugmali bilaguzuk, baqa bosh bilaguzuk, bodomcha bilaguzuk va hokazo. Zeb-ziynatlar o'yma usulda yasalib turli rangdagi toshlar: marjon, shisha, sadaf kabilar bilan bezalgan.

Surxondaryo qishloqlarida ko'krakka taqiladigan rangli mayda munchoqlardan tizilgan bezaklar keng tarqalgan. Ko'p joylarda ipga

tizilgan marjon shodasi, Toshkentda, durdan yasalgan munchoq, marjon va shishadan ishlangan isirg'a, uzuk va bilaguzuk taqish odat bo'lган. Ko'ylak yoqasiga har xil to'g'nag'ichlar osulgan yosh bolalarga ko'z tegmasin deb qora munchoq taqqanlar. Buxoroda oltin isirg'a shibirmak yaproqsimon shaklda katta yoqut ko'zli marvarid yoki dur bilan bezalgan. Barcha bezaklar boy tabaqalarda oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan, qambag'al tabaqalarda esa mis, jez yoki tilla suvi berilgan metallardan yasalgan. Ayniqsa, tillaqosh, osmondo'zi, tillabargak va boshqa zeb-ziynatlar juda qimmatbaho bo'lган.

Husnni ochirish maqsadida o'zbek ayollari orasida qosh va kiprikka o'sma, qo'lga xina, yuzga upa-elik surib o'ziga zeb berish, oynaga qarab gul suvi bilan pardozlanish keng tarqalgan.

Bolalar kiyimi kattalarnikidan uncha farq qilmagan. Ammo bola tug'ilishi bilan unga ko'ylak kiygizish odatiga binoan yumshoq matodan kipta, ko'ylakcha tayyorlangan. Bunday ko'ylakni yetti uydan to'plangan matodan tikib bolaning chillasi chiqquncha kiygizish urf bo'lган. Shuning uchun unga chilla ko'ylak deb nom berilgan. Bir yoshga yetgan bolaga to'g'ri bichim uslubida tikilgan ko'ylak, issiq kiyimdan qishda guppicha (to'ncha, jamocha) tikib kiygizilgan. Bolaga to uch-to'rt yoshga yetguncha etakcha ham tikilgan. Qipchoq, turk, sart yoki qurama bolalarning do'ppisi shaklan farq qilgan – hammasiga tumor taqilgan. Qish paytlarida qalpoq kiygizilgan yoki chorsu, qiyiq o'ralgan. Ko'p joylarda besh-olti yoshdan keyin o'g'il-qiz kiyimlari farqlana boshlaydi. O'g'il bolalar uchburchak (Toshkent vohasi) yoki (Farg'ona vodiysi), yoqali ko'ylak kiyganlar. Diniy mакtab talabalari ruhoniylardek mullacha yoki musulmon ko'ylak kiyganlar.

XX asr boshlarida yoshlар orasida tik yoqali no'g'ay yoqa, bo'g'ma yoqa ko'ylak kiyish odati paydo bo'lган. Oyoq kiyimlardan erkak va ayollar kiyadigan an'anaviy mahsi-kalish hozirgacha saqlangan. Ilgari kambag'allar charmdan tikilgan mukki oq etik kiygan, boy tabaqalarda yumshoq teridan tikilgan

yevropacha etik va mahsi kiyilgan. Kalish (kavush) ham keng tarqalgan, uni o‘zini yoki mahsi bilan kiyganlar. Keyinchalik rezina kalish paydo bo‘lgach eski kalish yo‘qolib ketgan. Ammo ayrim joylarda hozirgi kunda ham u keksalarda uchraydi. Yangi davrda aholining barchasi zamonaviy fabrikalarda tikilgan poyabzal kiyadi. Ilgari jundan qo‘lda to‘qilgan paypoq (jo‘rob) bo‘lgan, endi ommaviy fabrika paypoqlari kiyiladi. Lak berilgan poyabzal erkak va ayollarda moda bo‘lgan. Farg‘ona vodisida rangli ip bilan naqsh berilgan etik, past poshnali rangli tuqli kiyish odati yaqin vaqtlargacha saqlangan.

Bugungi kun zamonaviy o‘zbek liboslari shaklan katta o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, an’anaviy bichim yangi ko‘rinishlarda yashashda davom etmoqda.

Ayniqsa mustaqillik yillarda milliy hunarmandchilikka bo‘lgan e’tiborning kuchayishi milliy mato to‘quvchiligining girkirab rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada milliy matolardan tikilgan liboslar qayta urfga kirdi. Milliy matolardan turli bichim va shaklda tikilgan liboslar kundalik va bashang liboslar qatoridan o‘rin olib, an’ana va qadriyatlar asrlar osha yashab qolishini yana bir bor tasdiqladi.

## ATAMALAR LUG'ATI<sup>1</sup>

**Abas** – arab erkaklarining ustki yopinchig‘i

**Avangard** yo‘nalishi (fransuzcha “oldinda yuruvchi” ma’nosida) – yangicha ko‘rinishdagi, oldingilarini inkor etuvchi, ommabop buyumlarga qarama-qarshisini tanlovchi oqim.

**Avase** – salqin mavsumda, astarlik qilingan, kimono.

**Adras** – abr iplar bilan gul solingen nimshoyi gazmol.

**Adxivasa** – hind erkaklar ustki kiyimi.

**Ayshik** – doira yoki yarim oy shaklidagi ziraklar.

**Alqa o‘nirshe** – qozoq ayollar ko‘krak ustki bezagi.

**Anaksarides** - fors erkaklar bel kiyimi, charmdan tikilgan ishton.

**Ansambl** (fr.) – to‘liq, tekis, uyg‘un, turli qismlardan yoki bo‘laklardan yig‘ilgan bir butun manosini bildiradi.

**Asil** – qimmatbaho tosh.

**Babush** – arab erkaklarning oyoq kiyimi - shippak

**Bakay** – ko‘ylakning etak qismidagi burmalar.

**Balak** – turkman erkaklar ichki bel kiyimi.

**Banoras** – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi bo‘lmish paranji tikilgan.

**Bey sin** – xitoy ayollarning kofta ustidan kiyiladigan nimchasi.

**Beqasam** – yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, ko‘rpa-ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan.

**Belda turuvchi kiyim** – bel chizig‘ida mahkamlanib, bo‘ksalar sirtiga tayanuvchi kiyimlar. Bunday kiyim odam gavdasining quyi qismi va oyoqlarni qisman yoki to‘liq qoplab turadi. Belda turuvchi kiyimlarga yubkalar, shimlar va yubka-shimlar kiradi.

**Beldik** – kumush taqinchoqlar bilan bezatilgan kamar.

**Belyo uslubi** – retro uslubining ko‘rinishlaridan biri. Yuqa och rang shoyi va paxta matosidan kishilik uchun tikilgan kuylak, bluzka va sarafanlar. Ular tagdo‘zi, gulduzi kashta yoki oddiy

<sup>1</sup> Atamalar lug‘ati S.Rasulmuxamedova tomonidan tayyorlangan.

to‘rdo‘z, ko‘z-ko‘z gul, ingichka gul chok bilan hashamlangan. Ayollar ich ko‘ylagini eskitdan shunday bezaganlari uchun uslubning nomi ham shundan tarqagan.

**Bi** – Xitoyda gamash

**Bilezik** – bilakuzuk.

**Bichim** – kiyimning yeng ulanish chizig‘i, old va ort bo‘laklarining vertikal (bo‘ylama) yoki gorizontal (ko‘ndalang) bo‘linishlarining chiziqlari kabi – konstruktiv chiziqlar hosil qilgan tashqi ko‘rinishi.

**Blio** – belning pastidan ajralgan yopinchiq shaklidagi ilk o‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa libosi. Yuqori qismi yelka, ko‘krak va belga yopishib turib, bo‘ksa tomon kengayadi. Etak tomoni ikki yarim doira shaklida bichilgan. Ular old va orqa tomon beletaklariga qo‘shib tikilgan. Ushbu kiyimning umumiy uzunligi boldirning o‘rtalariga qadar boradi. Blioning yenglari yaxlit tor, past tomonga qarab voronka shaklida kengaygan. Yon yiriqlari orasidan rang jihatdan keskin tafovutli yorqin rangdagi tunika ko‘rinib turadi. Blio odatda orqa tarafidan shnurlangan.

**Borik** – atrofiga mo‘yna tikilgan qozoq erkaklar bosh kiyimi.

**Day** – xitoyliklarda – belbog‘, aslzoda va amaldorlarning boylik ramzi.

**Dalmatika** – keng yengli, ancha uzun, yoyilgan holatda kreatni eslatuvchi kiyim. Bu kiyimni asosan rimlik xristianlar (1-asr boshiga kelib rimga xristian dini kirib kela boshladi. Dastlab ezilgan sinflarni qamrab olgan ushbu din vaqt o‘tib, yuqori sinflar doirasida ham tarqala boshladi) kiyishgan.

**Datemaki** – yapon libosida belbog‘.

**Dzori** – yapon libosidagi oyoq kiyim.

**Dzyuban** – yapon erkak va ayollarining libosidagi ichki yelka kiyimi.

**Diploidalar** – bu qaytarmalardir. Qadimgi yunon ayollar libosi bezak o‘rnini bosib, u boshqa rangdagi matodan qilingan turli tuman kashtalar, applikatsiyalar, bezakli detallar bilan bezaklangan. Qaytarmaning uzunligi turlicha bo‘lgan. Xususan,

ular ko'krakkacha, bo'ksagacha, tizzagacha bo'lishi mumkin edi. Xuddi erkaklar xitonlari singari ayollarniki ham yelkaga fibulato'g'nog'ichlar ila mahkamlanib, belda kolpos deb nom olgan belbog' bilan mahkamlanib, ayol tanasi go'zalligini bo'rttirib turgan.

**Disko** – yoshlar libosidagi kichik bir uslubiy oqimcha. Diskoning ko'yak va kostyumlari ishlatilish maqsadi juda tor, ya'ni faqat diskotekaga borish va raqs tushish. Aksariyat bu liboslar yarqiroq, "baqiroq" va ola-chalpoq bo'ladi. Trikotajdan ham foydalaniladi. Ularning shakli, bichimi shu davrdagi modaning talabiga mos o'zgaruvchan. Disko-ko'yak (yoki diskotek-ko'yak) bu raqs va o'yining tantanavor libosidir.

**Diffuz uslubi** (lotincha – "bir-biriga o'tish") – XX asr 70-yillari mahsuli. Avvaldan bilib turib, o'ylab, libosdagi qismlarni turli uslublardan tanlab terish. Romantik uslubdagi ko'yak ustidan ishchanlik pidjagi; folklor uslubidagi bluzkaga sport shimini kiyish va hokazo. Ammo, har narsaga ruxsat ko'ngilga kelganini qilish degani emas, har xil uslublardan kostyum yig'ilarkan, libosning mo'ljallangan maqsadi, adresi, talablari mustahkam ushlanishi zarur. Bema'ni bachkanalik bachkanaligicha qolaveradi.

**Duy szin** – erkaklar xitoy libosidagi Sharqiy simmetrik bichimga ega ichki kiyim.

**Dupatta** – hind libosidagi yopinchiq.

**Dxoti** – hind erkaklar bel kiyimi.

**Elechek** – qirg'iz ayollarining bosh kiyimi.

**Eri** – yapon libosida yoqa.

**Erkaklar yelkada turuvchi maishiy ustki kiyimlari** – ko'yak, nimcha (jilet), pidjak, kurtka, plashch, palto, shuningdek, nisbatan kam kiyiladigan bluzon, syurtuk, frak va shu kabilar.

**Ettyu fundosi** – yapon libosidagi fundosining ikkinchi turi, u kaltaroq bo'lgan.

**Folklor uslubi yoki etno-uslub.** Zamonaliviy kiyimda milliy va an'anaviy libos elementlarining ishlatilishi. Boshqacha qilib

aytganda milliy libos asosida zamonaviy kiyimni uslublashtirish. Bunda libos ansambli butunlay yoki uning bir qismi uslublashtirilishi mumkin. Ba'zan esa modellarga an'anaviy libosning rostmana haqiqiy elementlari kiritilishi mumkin.

**Fontanj** – jingalak lokonlar va yuqoriga tugun qilib bog'lab ko'tarilgan va jamalak (jingalak), kraxmallangan qadałmadan iborat soch turmagi.

**Frak** – tanaga yopishib turuvchi, kengaygan etakli, tor yeng va uncha katta bo'lman stoyka yoqali kostyum.

**Fundosi** – yapon erkaklarning tikilmagan bel kiyimi.

**Futano** – yapon ayollar ichki bel kiyimi, uzunligi tizzagacha tikilmagan yubka.

**Gimatiy** – Qadimgi Yunonistonda eng keng tarqalgan ustki kiyim, ya'ni yopinchiqlar gimatiy deb atalgan. Gimatiylarning razmeri 1,7 x 4 metr bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklidadir. Gimatiylar inson tanasiga turli usulda o'ralib, burmalanib, tashlanib mustahkamlanadigan yopinchiqlardir. Matoning taxlanish, burmalanish, mustahkamlanish va o'ralish uslubiga ko'ra gematiylar turli xil ko'rinishda yaratilgan. Yelkaga tashlangan uchi sirg'alib ketmasligi uchun unga bir bo'lak og'ir metall mahkamlanib, ilib qo'yilgan. Spartada jun matosidan qilingan gimatiylar tanaga xitonsiz kiyilgan.

**Girmizidon** – turkman erkaklarining ustki yelka kiyimi bo'lib, u to'y-tantanalarda kiyiladigan xalat.

**Graffiti** – 60-yillardagi pop-artning o'ziga xos davomi sifatidagi yoshlar kiyimi uslubining davomidir. Yozgi maykalar, jinsi kostyumlari kashta, "shahar folklori" mavzularidagi bosma rasmlar, bolalar chizgan rasmga o'xshatmalar, turli matnlar (tekstlar) va yozuvlar bilan bezaladi.

**Gutra** – arablarning bosh kiyimi.

**Geta** - taxtadan bo'lgan, skameykasimon Yaponiya oyoq kiyimi.

**“Haute Couture”** (farangcha talaffuzda “ot - kutyur”) – yuqori darajadagi tikish, yoki yuqori san’at darajasidagi tikish ma’nosida.

**Inro** – yapon erkaklar libosidagi belbog‘ining majburiy qismi.

**Ichik** – qirg‘iz ayollarning ustki kiyimi.

**Ichmek** – qo‘y terisidan tikilgan, turkman erkaklar qishki ustki kiyimi.

**Ishbop kiyim uslubi.** Dam olish, bog‘ ishlari bilan shug‘ullanish va qisman mehnat faoliyati uchun mo‘ljallangan liboslarda ishchilarining maxsus kiyimlarining shakli va hususiyatlari saqlanadi. Misol uchun, modaga sexdan “kelgan” kombinezon uyda va ko‘chada ham o‘zining qulay cho‘ntak va pistonlarini saqlab qoladi.

**Ishik** – Qozoq erkaklarning mo‘ynali ustki kiyimi.

**Jaga** – qozoq libosidagi yoqa.

**Jalbag‘ay** – qozoq libosidagi bosh kiyim.

**Jalbar** – turkman erkaklar ustki bel kiyimi.

**Jargak** – qozoq libosida mo‘ynasi tashqariga qaratib, echki yoki ot terisidan tikilgan ust kiyim.

**Ja’dani** – uzun va tor soxta yengli yoping‘ich, uni Xorazm ayollari kiygan.

**Jeyde** – qozoq erkaklari ko‘ylagi, o‘tmishda ustma-ust kiyilgan.

**Jen** – qozoq libosida yeng.

**Jyustokor** – XVII asr Fransiyada qirol va yuqori tabaqa vakillari kiyimi bo‘lib, bu kiyim bel chizig‘idan sharf-belbog‘ dan pastga qarab kengaytirilgan, mayda tugmachalar va petlyalar bilan qadaladigan tor, tizzagacha bo‘lgan uzunlikdagi kiyim turidir. Yenglarining yuqori qismi tor bo‘lib, u pastga qarab kengaytirilgan va keng qaytarma manjetga ega. Ranglar yechimi yorqin va jilvador, oltin va kumush bilan kashtalangan. Jyustokor yoqasiz bo‘lib, uning o‘rnini oq matodan uchlariga to‘r o‘rnatilgan galstuk egallagan. Jyustokorda dastlabki kesma cho‘ntaklar paydo bo‘ldi. Ular pastda joylashgan. Uning tagidan

kamzol - yengsiz va yoqasiz, jyustokor bilan bir xil bichimdag'i kiyim kiyishgan. Kamzol jyustokordan 10-15 sm. kalta bo'lib, ularning ranglari bir-biriga kontrast qilib tanlangan.

Jinsi modasi va jinsi uslubidagi kiyim. Kurtkalar (ular issiq, paxtali, mo'ynali bo'lishi ham mumkin), shim, ko'yak, yubka, bosh kiyim, sumka va hatto poyabzal va paltolarning ham jinsi matosidan tikilishi. Sport kiyimiga o'xshashlik; cho'ntaklarning, "molniya" qulf-tasmalarining, bezama choklarning, metall tugmalarning, pistonlarning borligi; tejamkor bichim - bularning bari jinsi uslubining o'ziga xos hususiyatidir. Ba'zan duxoba, charm va boshqa matolardan jinsi kiyimiga o'xshatmalar chiga boshlaydi. Hozirgi kunda jinsi uslubidagi ba'zi kiyimlarni o'ziga xos mumtoz kiyimlar qatoriga kiritish mumkin.

**Joma** – hind erkaklar yelka kiyimi.

**Jubba** – arab erkaklarning ustki kiyimi.

**Kavsh** – ayollar tovonsiz oyoq kiyim.

**Kaku obi** – Yaponiyada tantanali marosimlar uchun bog'lanadigan belbog‘.

**Kalaziris** – ayollar libosi tananing ko'krak qismidan to boldirgacha qismini bekitib turadigan chodirsimon matodan iborat bo'lib, u bir yoki ikki tasma ila yelkadan o'tkazilib kiyilgan. Kalaziris deb ataluvchi ushbu sarafanni eslatuvchi kiyim Qadimgi Misr ayollarining ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, u xoh malika bo'lsin, xoh kanizak, barcha ayollar uchun bir xil shaklda bo'lган. Ayollar kiyimi faqat matoning sifati va qimmati ila farqlangan.

**Kamarband** – baxmalga zar iplar bilan kashta yoki iroqi tikilgan tog'ik keng belbog'i.

**Kamis** – rangli, naqshli ipak matodan tikilgan hind yelka kiyimi.

**Kandis** – Fors shohining ustki kiyimi – plash.

**Kantri-luk** – ("vatanga qarash, sog'inish, vatanni ko'rish" ma'nosida). Qishloq uslubidagi kiyim. Unda xalq uslublari ustun. Ko'pincha bu libos dam olishda, uyda, bo'sh vaqtida kiyiladi.

**Kan szyan** – Xitoy ayollar ichki nimchasi.

**Kan szyar** – ayollar ichki yelka kiyimi.

**Kaptama chapan** – qirg‘iz erkaklar ustki kiyimi, yeng o‘mizi yumaloq shakldagi o‘tkazma yengli, to‘g‘ri bichimli, etagining ikki yon tomoni qirqimli, tor chopon.

**Karmanola** – erkaklar kostyumi oq ko‘ylak ustiga kiyilgan kalta kurtka. Qizil tasma bilan bezalgan uzun ko‘k pantalon va milliy kokardali qizil frigik qalpoqdan iborat. Bo‘yinga rangli sharf-galstuk bo‘sib qilib bog‘langan. Karmanola tagidan kalta jilet kiyilgan. Uni XVII asrda G‘arbiy Yevropada kiyishgan.

**Kaftan** – Fors erkaklar yelka kiyimi.

**Kebenek** – kigizdan tikilgan qozoq erkaklarining ustki kiyim.

**Kebis** – teridan tikilgan qozoq erkaklar oyoq kiyimi, kovush.

**Kementay** – qirg‘iz erkaklar ustki kiyimi, u keng, astarsiz kigiz to‘n.

**Kemsal** – qirg‘iz ayollarning ustki kiyimi.

**Kiiz** – namat, kigiz.

**Kiygich, bosh** – Surxondaryo ayollarining bosh kiyimi.

**Kiyim** – odam tanasini butunlay yoki qisman o‘rab turuvchi buyumlar yig‘indisi.

**Kiyimni konstruksiyalash** – tuzilmasini qurish – yassi materialdan odam gavdasini qoplab turuvchi hajmiy qobiq yaratish jara’yon.

**Kiyimni modellashtirish** – kiyim shakllarini hosil qilish jara’yon.

**Kimeshek** – qozoq ayollarining bosh kiyimi.

**Kimono** – yapon erkak va ayollarining milliy kiyimi.

**Klassik uslub** (mumtoz uslub, mumtoz kostyum, mumtoz moda) – shunday kiyimlar borki, insonning didi, talablari, qiziqishlari, odatlarining o‘zgarishiga qaramay, ular ma’lum ma’noda o‘zgarishsiz qolaveradi. Mumtoz modaga taalluqli va hatto ba’zan mumtoz moda deb ataluvchi ingliz kostyumi ana shunday kiyimlardandir. Umumjamоatchilik uni hamisha ajoyib, zo‘r, o‘rnak bo‘ladigan deb hisoblayveradi. Fransuz modelyeri

Gabriel Shanel taklif etgan ayollar kostyumi va “kichkina qora ko‘ylak” ham shunday kiyim qatoriga kiradi. Mumtoz kiyim pishiqlik, estetik tarafdan to‘kis, o‘ktam va mukammal bo‘lgani uchun kiyim modasida uzoq yashaydi.

**Kolet** – tik yoqali, tor va kalta, belgacha yoki bo‘ksagacha tushib turuvchi, old qismida tugma yoki tasma bilan qadaladigan uyg‘onish davri Italiya erkaklar ustki kiyimi. Kolet ko‘krak, bel, bo‘ksaga yopishib turadigan kiyim turi bo‘lib u beldan ajratilgan. Bo‘yin o‘mizi turlicha bezaklangan. Yoqasi tik, chuqur o‘mizli, oval vstavkasi bilan. Uning yengi o‘mizga tikilmagan, balki alohida o‘rinlarda (o‘mizning tagi yelka qismi, yonidan). Bu holat harakatlar erkinligini ta‘minlashda yordam bergen. Yengning yelka qismi va tirsaklar kesib yoriqlar qilingan. Barcha yoriqlarning ichki sorochkaning matolari, keyinchalik dekorativ matolardan qilingan bezaklar shishib turadigan buflar tashkil qilinib, chiqarib qo‘yilgan. Paypoqli ishton elastik matodan bo‘lib oyoqqa yopishib turgan. XV asrda uning har ikki bo‘lagi yuqori qismidan va yonidan tugmalar ila qadaladigan yoki shnur bilan tortib qo‘yiladigan gulfik bilan qadalgan. Paypoqli ishton koletga maxsus teshiklar orqali shnurlar yordamida mahkamlangan. Paypoqli ishton orasida ichki ko‘ylak ko‘rinib turgan. Uzoq vaqt davomida miparti modasi saqlanib qoldi: ishtonning bir oyog‘i sidirg‘a, ikkinchisi yo‘l-yo‘l.

**Kolleksiya** (lot. yig‘ilish, yig‘ma, terma) – uslubi, konstruksiyasi, shakli, materiallarning o‘xshashligi asosida terilgan yoki ma’lum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi.

**Kolombium** – keng bo‘laman, belidan bog‘lanadigan yengi kalta tunikadir. Kolombiumni Qadimgi Rimda erkaklar kiygan.

**Klopos** – Qadimgi Yunonistonda enlik belbog‘ bo‘lib, uni odatda tugun qilib bog‘langach, qolgan qismi uzun qilib tashlab qo‘yilgan. Kloposlar odatda belga bog‘lansada, uni ko‘krak pastidan yoki bo‘ksadan bog‘lash keng tarqalgan. Kloposlar nafaqat belda, shuningdek, bo‘ksadan yoki ko‘krak qismida

xochsimon (krestsimon) shaklda bog‘lanib, ular yeng shaklini bera boshlagan.

**Konstruktiv uslub** – shunday uslubki, bunda kiyimning tuzilishi, shakli (konstruksiyasi) maxsus dekorativ bezaklar va usullar bilan bo‘rttirib ko‘rsatiladi. XX asrning 50-60-yillarida fransuz dizaynerlari Andre Kurrej bilan Pyer Kardenlar konstruktiv uslubda qiziqarli libos to‘plamlarini (kolleksiyalarini) ko‘rsatgan edilar.

**Konstruktiv chiziqlar** – kiyim sirtini alohida qismlarga bo‘luvchi chiziqlar. Kiyim sirti quyidagi asosiy detallarga bo‘linadi: old va ort bo‘laklar; yeng; yoqa; yubka old bo‘lagi; yubka ort bo‘lagi; shim old bo‘lagi va shim ort bo‘lagi.

**Kosimaki** – yapon erkaklar tikilmagan bel kiyimi, uzunligi tizzagacha bo‘lgan, matoni bo‘ksaga aylantirib o‘rab, tasma bilan mahkamlangan.

**Kosode** – qishlik, astar va avra orasiga xomashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmagan yapon ustki yelka kiyim.

**Kostyum** – vazifasiga, mo‘ljaliga binoan ma’lum darajada terilgan kiyimlardir.

**Kostyum kompozitsiyasi** – shu kostyumni tashkil etuvchi elementlarning ma’lum g‘oyani, badiiy obrazni aks ettiruvchi yaxlitlikka biriktirish.

**Kotardi** – old tomonidan tugmalanadigan va bo‘ksada bezakli belbog‘ bilan qadaladigan, bo‘ksa uzunligidagi kech o‘rta asrlar davri erkaklar tor kiyimdir. Kotardinig yengi turlichcha – tor ham, keng ham, qanot shaklida va bezakdor bo‘lgan. Yuqori qismi tor yenglar past tomon kengayib, tishchalar yoki kengligi 10 sm, uzunligi 1,5 metrga boradigan mato bo‘laklari bilan bezaklangan.

**Kuloh** – to‘rt bo‘lak uchburchak matodan, gardishsiz tikilgan tojik erkaklari kiyadigan uchli qalpoq.

**Kundik** – keksa ayollar va qariyalarning salsa sifatidagi boy kiyimi.

**Kurtai mardona** – Tojik erkaklarining ichki kiyimi, tunikasimon ko‘ylak.

**Kurte** – turkman ayollar yelka kiyimi, oldi yopiq, uzun, tunikasimon bichimda, yonlari trapetsiyasimon shaklda.

**Kuffiya** – arablarning bosh kiyimi.

**Kutsza** – Xitoy erkak va ayollar bel kiyimi, ishtonii.

**Kyulot** – XVII asr Fransuz erkaklari kiyimi. Erkak kishiga qat’iylik, xushmuomalik, kelishgan qomat, plastikani qaytarib bergen jestyukor bilan birga duxoba, shoyi, jun matolardan kyulotlar kiyishgan. Bu tizzagacha uzunlikdagi, yonlarida kesmasi bor va tugma yoki to‘qa bilan qadaladigan tor ishton. Kyulotlar ko‘p hollarda jyustokor bilan bir xil rangda bo‘lgan. Shuningdek kyulotlarga o‘yma cho‘ntaklar ham qilingan.

**Latserna** – Qadimgi Rimda marosim plashlaridan biri. U hajman ancha kichkina bo‘lib, oltin va kumushdan gul qilib bezalgan matoning qimmatbaholigi bilan ham izohlanadi. Latsermani orqadan ikki yelkaga shunday tashlanganki, uning ikki uchi bo‘yinga kelib turgan. U kalta bo‘lib, tizzaga qadar bo‘lgan.

**Lekif** – atirlar saqlanadigan flakon. Lekiflar ham haqiqiy san’at namunasi darajasida bo‘lgan.

**Letuva va natti** – burunga taqiladigan ziraklar (Surxondaryo).

**Lorum** – Vizantiyada qimmatbaho toshlar bilan bezalgan oltinrang parchadan qilingan keng uzun sharf. Sharfning kengligi, odatda, 15-35 sm, uzunligi esa – 4-5 m. bo‘lgan. Lorum rim togasi kabi turli usulda o‘ralgan. Lorum amaldorlar libosining muhim elementlaridan biri sifatida asosiy bezak vositasi ham edi. Shuningdek, keng doirasimon oltin va qimmatbaho toshlar bilan dabdabali bezalgan yelka-yoqa ham muhim bezak vositalaridan bir edi. Galda lorum va yoqa bo‘yindan kiyiladigan orqasi uzun, old tomoni biroz kalta (boldirga qadar) yopinchiq shaklini oldi.

**Mantilya** – yupqa qora yoki oq mato yoki to‘rdan qilingan yopinchiq. Ispaniya ayollar va erkaklar kostyumida osma taqinchoqlardan keng qo‘llanilgan. Ular orasida durli marjonlar, zargarlik belbog‘lari, ziraklar, uzuklar, zanjirlar, kameyalar keng urf bo‘lgan.

**Matroscha (dengizcha) uslubdagi kiyim** – (“matros” – gollandcha, kemadagi eng quyi lavozimdagи ishchi yoki askar) kiyimlar ichida mutlaqo o‘ziga xos go‘zallikka ega kiyimlardan biri.

**Maforiy** – Vizantiyada ayollar boshini yuqori qismini berkitib turuvchi yopinchiq. Yopinchiqning uchlari old tomonda to‘qnashib, bir-birining ustidan o‘tib yelka osha orqaga tashlangan. Uzun stolalar bilan birgalikda bu yopinchiq qomatga asketik ko‘rinish bergen. Bu kostyum xristian dinining qonun-qoidalari va estetikasiga juda mos kelar edi va shu sababli bu libos ikonalarda avliyolarning doimiy kiyimi bo‘lib qoldi.

**Mahsi** – erkaklar va ayollar poyabzali.

**Militari** – harbiylar formasidagi elementlarni boshqa kiyimga ko‘chirish, yoki zamonaviy kiyimni harbiy forma asosida uslublashtirish.

**Mitra** – Fors shohining ramziy bosh kiyimi.

**Moda** (frans. me’yor, usul ma’nosida) – bu inson faoliyatining ixtiyoriy sohasida: san’at, kiyinish, xulq-atvor va boshqa sohalarida ma’lum shakllarning tinmay o‘zgarishidir.

**Mon** – oq gerb.

**Nagadzyuban** – yapon erkaklar ichki yelka kiyimi.

**Naygut chapan** – qirq‘iz erkaklar ustki kiyimi, u keng, tunikasimon to‘g‘ri bichimli, yenglariga hishtak solingan chopon.

**Naramnik** – o‘rtalarda ko‘plab erkaklar va ayollar libosi asosidir. U to‘rtburchak yoki oval shakldagi mato bo‘lagi bo‘lib, yelkadan buklab tashab qo‘yilgan. Uning bosh uchun o‘mizi bo‘lib, yonlari tikilmagan. Kiyimning ushbu turi turli uzunlik va ko‘rinishga ega bo‘lib libosning turini boyitgan.

**Nivi** – hind libosining asosiy elementi.

**Nimdxoti** – hind erkaklar bel kiyimi.

**Obi** – yapon libosidagi belbog‘.

**Okumi** – yapon libosidagi qaytarma yoqa.

**Onirjyek** – qozoq ayollarining ko‘krak ustki kumushdan yasalgan bezagi.

**Onirshe** – Qozoq ayollarining o‘krakpechi.

**Op-art** (inglizcha “optikal art” – optik san’at) – ranglar kontrasti, kesishuvchi egri chiziqlar yordamida hosil bo‘luvchi illyuziyalar ishtirokida rangtasvir, grafika asarlarini yoki liboslar yaratish yo‘nalishi. Kiyimda bunday illyuziyalar juda ko‘p ishlatalidi.

**Oramal** – Qozoq ayollarining ro‘moli

**Orxni** – tikilmagan yelka kiyimi (miloddan avvalgi III ming yillik).

**Payjoma** – hind erkaklarning tepasi keng, pochasi tor ishton.

**Pantalon** – uzunligi boldirgacha bo‘lgan tor tekis ishton bo‘lib, uni yon choklari bo‘ylab kashtado‘zlik bilan, past qismini esa to‘r burmali qo‘shetaklar bilan yoki tasmali choclar bilan bezalgan. Pantalonlar ostidan tor paypoq-ishton kiyilgan.

**Pao** – xitoy libosidagi assimetrik bichilgan ayollar koftasi.

**Parpasha** – beqasamdan qalinroq mato bo‘lib, u paranji, shuningdek, chopon tikishda ishlataligan.

**Penula** – Rim erkaklarining ustki kiyimi, doira yoki yarim doira shaklida bo‘lib, bosh kirishi uchun yirig‘i bo‘lgan va u yerga kapyushon tikilgan. Qalin va dag‘al junli matodan tikilgan penulalar dehqonlar kiyimi hisoblanib, qimmatboho matodan tikib, bezatilgani yuqori tabaqa vakillari tomonidan kiyilgan.

**Pigash** – Kech o‘rtta asrlarda G‘arbiy Yevropa oyoq kiyimi. XIV asrga kelib pigashlar uchi judayam uzayib, ular uzunligi egasining jamiyatdagи o‘rniga qarab 70 santimetrgacha borgan. Oyoq kiyim rangi ustki libos rangiga qarab alohida e’tibor bilan tanlangan: oq, qizil, qimmatbaho bezaklar bilan bezalgan oltin rang charm va h.k. Oyoq kiyim tuzilishi har ikki, ya’ni o‘ng va chap oyoq uchun bir xilda. Inson tanasining tik va adlligini bo‘ttirib turuvchi tor kiyim uzun yoki kalta, etagi yengining past qismi juda keng ustki kiyim bilan kiyilgan. Bu ikki qarama-qarshi siluetlar sabab erkak figurasi estetik jihatdan yanada ko‘rkamlik kasb etardi.

**Pijama uslubi** – qachonlardir kamzul va shimdan iborat pijama faqat erkaklarning uxlayotganda kiyadigani edi. Keyin u ayollar libosiga ham qo'shildi-da, ko'yakning taqdiriga uchradi. Ammo, pijama o'ziga xos uslubdagi ust kiyimi yaratilishiga turtki bo'ldi. Aslida ular ayollar libosidagi eng odatiy shim, bluzka (kofta), jaket va hokazolar bo'lib, faqat hajmi ancha keng, qomat qiyofasi berilmagan (qomatlashтирilmagan) va ehtimol xuddi shu tufayli juda qulay kiyimga aylandi. Keng, qo'yma cho'ntaklari bo'lib, yirik, yapasqi katta tugmalari serob kiyimdir.

**Polison** – korsetning pastki va orqa qismiga profilni bukilgan siluetini berish uchun bog'lanadigan unchalik katta bo'limgan paxtali yoki junli prokladka.

**Polonez** – eklektik formalardan iborat, dekorativ rokoko va dabdabani saqlab qolgan «inglizlashgan» ayollar ko'ylagi. U ichki tor ko'yak (lif va yubka) va butun bichimga ega ustki oldi ochiq ko'yakdan iborat bo'lgan. Uni fijma va polison bilan kiyishgan.

**Pop-art** (inglizcha "popular art" – populyar, ommaviy san'at) – XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida AQsh va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan badiiy oqim; kompozitsiyalar real buyumlarni, fotorasmlarni, reproduksiyalar, illyustratsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Postun** – qo'y terisidan tikilgan turkman erkaklarining qishki ustki kiyimi.

**"Pret-a-porter"** (farangcha talaffuzda "pret-a-porte") - tayyor ko'yak industriyasi, tayyor ko'yak ishlab chiqarish sanoati ma'nosida.

**Rengrav-ishton** – XVII asr G'arbiy Yevropada ikki qavatli yubka-ishtondir. Bunda sharovar – keng ishton ustidan kiyilgan taxlama (skladka)li yubkadir. Sharvarning belbog'i, yon choklari tesma, bant, pirpirak, to'r singari bezaklar bilan bezaklangan.

**Retro uslub** – zamonaviy modaning o'tgan zamonlar modasidan amalga oshiradigan mayda-chuyda "o'g'irliliklari" shunday deb ataladi. Masalan, XX asrning 80-yillarida moda 20-

50-yillardagi liboslarning ayrim g‘oyalarini o‘zlashtirishni odat qilgan. Albatta, bunda detallarning ko‘rinishi ancha-muncha o‘zgartiriladi, zamonaviyylashtiriladi. Har holda bu ishni uslub emas, uslublashtirish, desa ham bo‘ladi. Balki bu narsa - eski zamonlarni sog‘inish, qo‘msash, deyish mumkin.

Romantik uslub o‘tgan asrlar bezaklarning barchasini o‘z ichiga olgan: to‘rlar, nozik kashtalar, gullar, burmalar, pirpiraklar, qo‘shetaklar, bantlar. Bu uslubdagi kiyimlar uchun murakkab bichim; chiroqli, ammo amaliy jihatdan befoyda detallar; nafis yoki murakkab ranglar, matolarning g‘ayrioddiy fakturalari xosdir. An'anaga ko‘ra, oqshom liboslari romantik uslubda tikiladi.

**Ropa** – tugmalari taqilmaydigan, dekorativ osilib turgan yengli libos. Uni bo‘yin ostidan taqilgan yoki taqilmagan holda “Uyg‘onish davri”da ispan erkaklari kiyishgan.

**Sabi** – Yaponiyada go‘zallik va tabiiylik tushunchasi.

**Salde** – salsa. Qozoq ayollarining bosh kiyimi.

**Sarapis** – fors erkaklarning ustki kiyimi.

**Sari** – hind ayollarining milliy libosi.

**Saukeli** – Qozoq kelinlarining nikoh bosh kiyimi, konus shaklida bo‘lib, u qimmatbaho toshlar va turli naqshlar bilan bezatilgan.

**Safari** – (arabcha so‘zdan kelib chiqqan, “safar” ma’nosida). Yevropada bu Afrikaning ichkarisiga yurish, savannaga yoki jungilarga ovga borish mazmunida ishlatiladi. Ov ishtirokchilari safar uchun qulay, mo‘ljallangan ishlariga moslashtirilgan kiyimlar kiyganlar. Fazilatlaridan eng muhimi esa bichig‘idagi hamma narsa qulaylikka, yurganda va harakat qilganda badanning hech bir a’zosiga to‘sinqilik keltirmaslikka bo‘ysunganligidir. Safar chog‘ida kerak bo‘ladigan qopqali va qopqasiz cho‘ntagu-cho‘ntakchalar, ilgaklar, kiyimni istagan paytda sharoitga moslab shaklini o‘zgartirish mumkinligi (boshqacha qilib aytganda, transformatsiyalanishi), o‘q soladigan joylari bor keng kamarlar, dubulg‘ani eslatuvchi, chivinga qarshi

chachvonli bosh kiyim; zaharli ilonlar bilan uchrashuv ehtimolini nazarda tutgan qo'nji baland botinka yoki etik - bularning bari libosda mujassam edi. Nihoyat, libosning o'zi qalin va pishiq paxta matodan tikilib, unga sintetika aralashtirilmaydi. Jungli va savannada ko'zga tashlanmaydigan moshrang (xaki) yoki qum rangida bo'ladi.

**Se szin** – Xitoyda erkaklarning assimmetrik bichimdag'i ichki yelka kiyimi.

**Siluet chiziqlari** – kiyim shaklini chegaralovchi chiziqlar. Bu buyumning yelka, ko'krak, bel, etak, yon chiziqlaridir. Siluet chiziqlari kiyimning siluetini hosil qiladi.

**Simara** – tugmalari taqilmaydigan har xil uzunlikdagi keng uzun yengli ko'yak. Uni "Uyg'onish davri"ga italyan erkaklari kiyishgan.

**Sinsila** (sil-sila) – kumushdan ishlangan peshona bezaklari (Surxondaryo).

**Sintaizm** – Yaponiyadagi din, sin – Xudo, tao-yo'l.

**Sitagi** – yapon dzyubanining ustidan kiyilgan ayollar yelka kiyimi – xalat.

**Si pao** – xitoy ayollar xalati.

**Sode** – yapon libosida yengning uchi.

**Sport uslubi** – bu uslub professional va havaskor sportchilarning gigiyenik va qulaylik jihatidan mukammal va chiroqli kiyimining modaga ta'siri va ommalashuvi oqibatida tug'ilgan. Sodda konstruksiyalar, nisbatan arzon materiallar (sintetik materiallar va sun'iy charm bundan mustasno emas) qulaylik, universallik, yorqin ranglar, turli yozuvlarning bezak sifatida qo'llanishi sport uslubining tashkil etuvchilaridir. Bu yerda sport kiyimi va sport uslubidagi kiyimni farqlash darkor. Agar sport kiyimi sport kiyimi professional va havaskor spotchilarning ma'lum sport turi bilan shug'ullanishlari uchun mo'ljallangan maxsus kiyim bo'lsa, sport uslubidagi kiyimlar esa, mo'ljallangaligiga va badiiy yechimiga qarab yo kundalik kiyim,

yo uy-ichi kiyimi, yoki dam olish kiyimi , va hatto bashang kiyim ham bo‘lishi mumkin.

**Sutxna** – Hind erkaklar bel kiyimi.

**Sutxni** – hind ayollar bel kiyimi.

**Sxenti** – peshband, Qadimiy Misrda asosan erkaklar kiyganlar. Sxentilar shaklan to‘rtburchak, yoki trapetsiyasimon bo‘lib, turli xil o‘lchamlarda bo‘lgan. Sxenti belga ingichka charm belbog‘ bilan bog‘lab, mahkamlab qo‘yilgan. Sxenting ustidan yoki tananing ustidan to‘rtburchak shaklidagi peshband kiyilgan.

**Tabar** – orqa tomoni keng, belidan bog‘lanadigan kalta yopinchiq ko‘rinishidagi ustki kiyim. Uni uyg‘onish davrida Italiyada erkaklar kiygan.

**Tabi** – yapon libosida oq paypoq.

**Tapert** – ham beldan qattiq siqib bog‘langan va uning ham past qismi burmali yoki taxlamali (skladkali) bo‘lgan. Tapertlar jaketdan uzunroq bo‘lgan (tizzagacha uzunlikda), chetlari boy bezatilgan. Belbog‘, yoqa, yeng, yeng va yelka choklarga qo‘ng‘iroqchalar taqilgan. O‘miz old tomonda ham, orqada ham bo‘lishi mumkin edi. Asr oxirlarida tapertlarning ko‘krak qismiga va yelkaga mardonavorlikni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun paxta qistirmalar (prokladka) qo‘yilgan.

**Taxyä** – Turkman qizlar do‘ppisi.

**Tebetey** – keng tarqalgan qirg‘iz erkaklarining qishki bosh kiyimi.

**Toga** – Qadimgi Rim erkaklar ustki kiyimi. U katta bo‘lak mato bo‘lib, u to‘rtburchak yoki ellips shaklida bo‘lgan. Togalarning o‘lchami taxminan  $6 \times 1,8$  m bo‘lgani sababli, uni kiyib olish birmuncha mushkul bo‘lgan. Odatda, ushbu libosni qullar xo‘jalariga kiydirib qo‘yishgan. Togalarni o‘rashning bir necha usuli bo‘lgan. Xususan, matoning uchdan bir qismi yelka orqali chap yelkaga tashlangan. Toganing bu qismi chap yelka va gavdaning chap tomonini yergacha berkitgan. Matoning qolgan qismi tananing orqa qismini yopib, o‘ng qo‘lning pastidan oldinga tortilgan. Togalarning husni ularning qordek oqligi va

burmalarning nozikligida edi. Burmalar an'analar asosida shakllangan bo'lib, qonun bilan mustahkamlangan edi. Burmalar matoga maxsus tarkibli moddani shimdirlish orqali mustahkamlangan.

**Tokau** – tojik libosidagi ishton, paypoq.

**Uniseks** (fransuzcha), yoki **oneseks** (nemischa) – bu so'zlarning tarjimasi bir jinsli yoki jinsdan tashqari ma'nosini bildiradi. Oddiy qilib aytilsa, bu shunday uslubdagi kiyimki, uni erkaklar ham, ayollar ham kiyaveradi. Jinsi kiyimlari buning uchun yorqin misoldir. Ham erkak, ham ayolning libosiga kiruvchi bunday kiyimlar keyingi paytda ancha seroblashgan: sviter, pulover, kurtka va hokazolar.

**Upavasa-paridxana** – hind erkaklar va ayollar yopinchig'i.

**Upelyand** – qoplama va tugmalari qadalmaydigan, turli uzunlikdagi ustki kiyim bo'lib, uni belbog' bilan yoki belbog'siz kiyib yurishgan. Uzun upelyandning etaklari kengligi 7 metrgacha, yengi pastining kengligi 3 metrgacha borishi bilan xarakterlidir. Uni kech o'rta asrlarda G'rbiy Yevropada kiyishgan.

**Uslug** – qandaydir vaqt oralig'ida umumiyo vosita va usullar bilan badiiy ifodalananishga aytildi.

**Utiva** – yaponlarda qog'oz yelpig'ich.

**Va** – Xitoy etiksimon paypog'i.

**Vata ire** – qishki, astar avra orasiga paxta solinib qavilgan yapon kimonosi.

**Vertugaden** – Ayollar gavdasining past qismini yubka tortilgan voronka shaklidagi ikkinchi metal konus.

**Xan'eri** – yapon libosida olib qo'yiladigan yoqa.

**Xaori** – yapon ustki kiyimi, faqat kimononing ustidan yoki xakama bilan kiyilgan.

**Xasaba** yoki **havasa** – turkman libosidagi ayollar bosh kiyimi.

**Xeko obi** – yapon libosidagi belbog', kundalik kiyimlar uchun ishlatalilgan.

**Xiton** – bizning tasavvurimizdagи ich kiyim bo‘lib, u, asosan, zig‘ir yoki junli toladan to‘qilgan matodan tayyorlangan. Xitonning yelka qismi tikilishi, yoxud fibula deb ataluvchi to‘qalar ila mahkamlangan. Xitonning ikki yonboshi tikilgan, ba’zan bir yonboshi ochiq qoldirilgan. Xitonning uzunligi turlichа bo‘lsa-da, asosan tizzagacha bo‘lgan shakli keng tarqalgan.

**Xitoe** – yozlik, astarsiz kimono.

**Yoqa** – yelkada turuvchi kiyimlarning odam gavdasining bo‘yin asosida joylashgan detali. Yoqaning bo‘yinga yopishib turadigan qismiga yoqa ko‘tarmasi deyiladi. Agar yoqaning barcha qismi bo‘yinga tegib tursa, bunday yoqa tik yoqa deyiladi. Yoqaning bo‘yinga yopishib turadigan qismiga yoqa ko‘tarmasi deyiladi.

**Yelkada turuvchi kiyimlar** – yelkalarda ushlanib va yelka kamariga tayanib turuvchi kiyimlar.

**Yeng** – yelkada turuvchi kiyimlarning odam gavdasining qo‘l va ba’zan yelka qismlarini to‘liq yoki qisman qoplab turuvchi detali.

**Shossa** – elastik movutdan tanaga yopishib turadigan tor ishton-paypoq. Ust kiyim belbog‘iga ip yordamida qotirilgan. XV asrga qadar ishtonlar bir-biriga qo‘shib tikilmagan. Keyinchalik ularni old va orqa klinlar yordamida bir-biriga qo‘shib tikila boshlandi. Uni ilk o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada erkaklar kiygan.

**Chakmon** – erkaklar ustki kiyimi.

**Chan pao** – xitoy erkaklar ustki kiyimi, xalat.

**Chirpi** – turkman ayollar kiyimi, to‘y-hashamlarda astarli xalat-yopinchiq bo‘lib xizmat qilgan.

**Choli** – hind libosi; ayollar yelka kiyimi - koftasi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T: “Ma’naviyat”, 2008
2. Xasanbayeva G. K., Chursina V.A. Kostyum tarixi. -T., O‘zbekiston, 2002.
3. Захаржевская Р.В. История костюма – М., 2005.
4. Пармон Ф.М. Композиция костюма – М., 2002.
5. Горбачёва Л.М. Костюм XX века – М., 1996.
6. Терешкович Т.А. Словарь моды – Минск., 1999.
7. Джоан Нанн. История костюма 1200-2000 – Москва., 2003.
8. Кибалова Л. и др. Иллюстрированная энциклопедия моды – М., 1985.
9. Пармон Ф.М. Европейский костюм: стиль и мода – М., 1982.
10. Sadikova N. O‘zbek milliy kiyimlari: XIX-XX asrlar – T., 2006.
11. Литвинский. Б.А. Восточный Туркестан и Средняя Азия, система культур древнего и среднего Востока – М., 1986.
11. Энциклопедия. Искусство стран народов мира. Том-5, 1962-1918.
12. Кон-Винер. История стилей изобразительных искусств – М., 2000.
13. Абдуллаев Т. А., Хасanova С.А. Одежда узбеков – Т., Фан, 1978.
14. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии – М., 1978.
15. Костюм народов Средней Азии (под редакцией Сухаревой О.А. – М: Наука, 1975.

16. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М: Наука, 1975.
17. Градова Е., Гутина Е. Театральный костюм – М., 1967.
18. Эрика Тиль. История костюма – М., 1971.
19. Киреева Е.В. История костюма – М., 1976.
20. Сычев Л.П. Китайский костюм. Восточная литература, 1975.
21. Козловская А .Д. Женская мода XX века. – М., 1977.
22. Градова Е., Гутина Е. Театральный костюм – М., 1967.
23. Современная энциклопедия Мода и стиль. Издательство Аванта+. Москва, 2002.
24. Плаксина Э.Б., и др. История костюма. Стили и направления. Москва, 2003.
25. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va ma’daniyati. – T.: “O‘qituvchi”, 2003.

## RANGLI ILOVALAR



*Fir'avn rafiqasi Nefertiti. Misrdagi muzeyda  
saqlanayotgan haykalcha*



*Fir'avn Tutanxamoning dafn niqobi, oltin, mil.avv. 14-asr.  
Misrdagi muzey*



*Tutanxamon sag 'anasidan topilgan quti  
qopqog 'idagi relyef*



*Arslonni yengayotgan qahramon (mil. avv. VIII asr)*



*Lagashlik Gudeanining haykalchasi*




*Doroning lashkarboshilar*



*Fors askarlari*



*Akropoldan topilgan haykalcha*



*Telba Menada. Brig ishiga mansub hisoblanadigan oq fonli kilik.  
(Mil.avv. 490-480-yillar)*



Fidiy. Afina Parfenos (eramizdan avvalgi 447-438 yillar)



*Poliklet. Yaralangan amazonka (eramizdan avv. 460-420 yillar)*



*Leoxar. Versal Artemidasi (mil.avv. 4 asr oxirgi choragi)*



*Mondragon koshonasidan topilgan Antinoy (eramizning 130 yili)*



*Klavdiya Oktaviya*



*Bog 'li koshonadagi devoriy surat (miloddan avvalgi I asr)*



*Ma'buda qiyofasidagi Liviya haykali (eramizning I asri)*



*Imperator Avgustning haykali (I asr boshlari)*



*Peyta Erot bilan Pompeydan topilgan devoriy surat (eramizning  
25 yillari)*



*Saroy ayollari. Devoriy surat. Krit-Mikken davri*



*Mikken boy ayoli. Devoriy surat (Krit-Mikken davri)*



*Leonardo da Vinchi. Oq suvsarli xonim (1485-1490-yillar)*



*Federigo Barochchi. Kvintili Fischiyeri portreti (1600-yil)*



*Francesco Parmigianino. Ayol portreti (1530-yil. Parma)*



*Allori Alessandro. Izabella Medichi kuchukcha bilan.  
(1560-yil)*



*Francesco Parmigianino. Anteyla (1530-yil)*



*Federico Barochchi. Gertsog Urbino, Franchesko II della Rovere portreti (1572-yil)*



*Yakoro Pontormo. Yosh inson portreti (1525-1526-yillar)*



*Angelo Bronzino. Kozimo Medichi I (1545-yil)*



*Titsiano Vechellio. La Bella (1536-yil)*



*Bellini Djentile. Doja portreti (XV asr oxiri)*



*Paolo Veroneze. Erkak portreti (1580-yil)*



*Titsiano Vicellio. Karl V (1548-yil)*



Domeniko Venetsiano. Yosh xonim portreti,  
Fragment (1465-yil)



Domeniko Girlandayo. Djovanna Tornabuoni portreti  
(1488-yil)



Dosso Dossi. Al'fonso d'Este (1510-yillar)



Pyero della Francesko. Urbinskiy gersogi Federigo da Montefeltro va uning rafiqasi Battista Sforsa (1466-yil)



*Van Loo. Lyudovik XV (1760-yillar)*



*Piter Paul Rubens. Lyudovik XIII (1625-yil)*



*Rigo Giasint. Sintsendorf Knyazi (1712-yil)*



*Philippe de Champaigne Lyudovik XIII (1630-1639-yillar)*



*Isaak Oliver. Yosh yigit portreti (1590-1595 yillar)*



*Nikolas Xilliard. Djordj Klifford portreti,  
graf Kamberlendsk III (1590-yil)*



Gang Golbeyn. Genrix VIII (1540-yil)



Nikolas Hilliard. Elizavetta I portreti (1575-yil)



V.Skrots. *Malika Elizavetta I portreti* (1546-yil)



Nomalum rassom. *Elizavetta I portreti* (1575-yil)



*Alonso Sanches Koelo Infanta Izabella  
Klara Euxenii portreti (1549-yil)*



*Xuan Pantoxa de la Krus. Filipp III portreti (1605-yil)*



*Sanches Koel' o. Don Karlos portreti (1557-yil)*



*Antonis Mor. Filipp II portreti (1653-yil)*



*Jan van Eyk. Arnol'finilar oilasi (1434-yil)*



*Antonis Mor. Zolim Mariya portreti (1554-yil)*



*Rober Kampen. Ayol portreti (1430-yillar)*



*Rogir van der Veyden. Portugaliyalik Izabella portreti (1500-yil)*



*Rogir van der Veyden. Yosh ayol portreti (1445-yil)*



*Lukas Kranax. Kleviyalik Sibilla malika (1526-yil)*



*Al'brext Al'tdorfer. Ayol portreti (1530-yil)*



*Katta Lukas Kranax. Anna Kuspinian portreti (1502-1503-yillar)*



*Katta Lukas Kranax. Yosh ayol (1530-yil)*



*Katta Lukas Kranax. Ioachim Ikkinchin portreti*



*Jan Perreal. Lyudovik XII (XV asr)*



*Jan Fuke. Fransiya qiroli Karl VII (1450-yil)*



*Bokkachcho Bartelemi dEyk. «Tezeida» miniatyurasidan  
(1470-yil)*



*Bartelemi dEyk. Qirol Renening "Turnirlar kitobi" dan  
miniatyura (1460-yil)*



*Jan Klue. Navarriyalik Margarita (1530-yil)*



*Yekaterina Medichi (1559-yil)*




*Jermen Pilon. Valentina Balbiani, marmar, Qabr ustiga  
ishlangan haykal*



*Jan Klue. Frantsisk I (1525-yil)*



*Fransua Klue. Otliq Fransisk I portreti (1540-yil)*



*Jan Klue. Kłod Lorrain, gersog Giz (1528-1530-yillar)*



*Fransua Klue. Fransiya qiroli Genrix II portreti*



*Imperator Yustinian izdoshlari bilan. Rovennadagi San Vitale ibodatxonasi mozaykasi*



*Noma'lum rassom. Qirol Genrix VII (XVI asr 2-yarmi)*



*Noma'lum rassom. Genrix IV portreti*



*Limpieza. Barseloniyyadagi ibodatxona*



*Uta fon Ballenshted va Ekkexard. Naumburiyyadagi ibodatxona  
(1250-60-yillar)*



*Uoltoniyalik diptix (14-asr)*



*Buyuk Karl va Bukur Pipin*



*Iso hayotidan lavha (XII asr. Italiya)*



*Genrix va Kunigunda - Bamberg ibodatxonasi asoschilari.  
Altar Xertnida, Xof (Zaale), Avliyo Lavrentiy cherkovi*



Diyego Velaskes. *Shahzoda Baltazar Karlos ovda* (1635-yil)



Diyego Velaskes. *Avstriyalik infanta Margarita* (1659-yil)



*Frans Purbus. Mariya Medichi (1610-yil)*



*Diyego Velaskes. Izabella Burbon qirolichasi otda (1634-yil)*



*Antoni van Deyk. Genriyetta Mariya (XVIII asr boshlari)*



*Diyego Velaskes. Burbon qirolichasi Izabella (1632 yil)*



*Entoni Van Deyk. Anna Dalkit va Anna Kerk portreti,  
(1630-yillar oxiri)*



*Entoni Van Deyk. Mariya Luiza de Tassis (1632-yil)*



Giasint Fransua Onore Rigo. Fridrix Avgust II portreti



Giasint Fransua Onore Rigo. Lyudovik XIV portreti (1701-yil)



*Entoni Van Deyk. Genri Denvers portreti (1630-yillar)*



*Sharl Lebren. Kansler Segyur Lyudovik XIV ning Parijga kirish vaqtida (1660-yil)*



*Entoni Van Deyk. İkki Gertsog*



*Diyego Velaskes. Filippa IV portreti (1636-yil)*



Piter Paul Rubens. Sevgi bog'i (1632-yil)



Nikola Larjilyer. Lyudovik XIV va uning vorislari portreti (1710-yil)



*Karvadjo. Fol ochish (XVI-asr oxiri)*



*Fransua Bushe. Markiza de Pompadur (1756-yil)*



*Fransua Bushe. Markiza de Pompadur portreti (1735-yil)*



*Reynolds Djoshua. Dartmutiyalik grafinya Frensis (1757-yil)*



*Ivan Vishnyakov. Yelizavetta Petrovna portreti (1743-yil)*



*Toke Lui. Mariya Leshinskaya, qirolichcha (1740-yil)*



Fedor Rokotiv. Yekaterina II (1763-yil)




Tomas Geynsboro. Gersoginya de Bofor (1770-yillar)



*Tomas Geynsboro. Ertalabki sayr (1785-yil)*



*Tomas Geynsboro. Djordj va Luiza Bim qizi Sara bilan.*



1) Barxatdan tikilgan ball libosi. Kiritmalari Nozik to'r dan, gortenziya butalari shaklidagi applikatsiya va kashta bilan bezatilgan. Lamanova ustaxonasi. 20-asr boshi. Ermitaj, Sankt-Peterburg.

2) Yaxlit bichilgan baland tik yoqali movut sukno ko'y lak. Jigo ko'ri nishidagi yenglar. Kashta va tangachalar bilan bezatilgan. 19-asrning 90-yillari




Bulon o'rmonidagi velosipedlar saroyi. jan Bero. 1900-y. Ermitaj, Sankt-Peterburg



*Lyuchil. Moda illyustratsiyalari jurnalining (nashri) muqovasi,  
1909-yil. CSM arxividan*



*Pol Irib. Pol Puare uchun bajarilgan gravyura, illyustratsiya.  
Trafaretli bosma usuli qo 'llangan liboslari to 'yingan ranglarda  
hajarilgan. Direktoriya uslubi, tunikasimon ko 'ylaklar*



Dyufi yog'och gravyura bosmali naqshlarni Pol Puareninng  
“Forscha uslubidagi” boy mo ‘ynali paltosi uchun ishlab  
chiqqan. “La perse” jurnalidan foto, 1911-yil.  
Fransiya Milliy kutubxonasi





B



V

G

*"Pol Puareninig Pol Irib ko 'rgan ko 'ylaklari" nomli albomdan  
illyustratsiya (1908-yil)*



*Pol Puare yaratgan liboslar*



*Janna Lanvenning modellari*



*XX asr 20-yillari. Qopsimon kenglikdagı «flapper dresses» ko 'ylakları*




HARRODS

*1930-yillardagi modalar jurnalining muqovasida  
taklif etilgan model*



*Xemjik, jentlmenlar kostyumi (1930-yillar)*




*Polli Tigu Fransis. 1932-yilda chop etilgan amerikancha Vog jurnalidan olingan illyustratsiya. "Praktikal dressmeking" uchun yaratilgan dizayn.*



*Li Krilman, amerikancha "Voge", 1932, Redfern va Lyusil Perey dizaynerlari uchun yaratilgan(chizilgan) ko'ylak-plashchlar.*

Elegant, ko'zga tashlanuvchi, benuqson bichimli, uzun yubkalar (etagi) plashsimon ko'ylaklarning ansamblini (kompozitsiyasini) tashkil etgan. Li Krilmanga taqdir taqozosi bilan Vog jurnalining eng zo'r, taniqli illyustratori hisoblanmish turmush o'rtog'i Karl Erik Eriksondan o'zib ketish, uni soyasida qoldirish berilgan edi.



*Rut Sigrid Grafstrom. 1933-yil, fevral. Ayollarning yo'l-yo'l jaketi.*

*Grafstrom 1930-yildan boshlab Vog da illyustrator bo'lib ishlab kelgan. Uning jozibador uslubi ko'p jihatdan Matiss rangtasvir asarlarining ta'siridan shakllangan edi.*



*XX asr 40-yillari. Ikkinchi jahon urushi davrigacha bo'lgan siymo*



*Ikkinchı jahon urushi paytida ayollar o'zları turli ashylar - sochiq, gazeta, ro'mol, mebel va yostiq jıldlarini qo'llab yasagan bosh kiyimlari ommalashgan*



*Buyuk Britaniyadagi "Utiliti" rejasi natijasida yaratilgan liboslar*



*1947-yilda ilk bor Parijda namoyish etilgan "Moda teatri"*



*Kristian Diorning "nyu-luk" kolleksiyasi uchun Kristian Berard tomonidan chizilgan eskiz. "Bar" jurnali, 1947-yil, akvarel. Kristian Diorning shaxsiy jamlamasidan*



*"Bar" jurnalining 1947-yilda chop etilgan sonidagi libos modelining fotosurati. Suratkash: Villi Meyuold*



A



B

*A) René Gruoning 1966-yildagi "Vogue" jurnalining nemischa nusxasida chop etilgan original illyustrsiyalari, tush va guash. 20 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Gryuo va Dior hamkorlikda ishlab ijod qilishgan.*

*B) Kristian Dior modellariga "L'Officiel" jurnalining 1948-yil oktyabr soni uchun ishlangan eskizlar. René Gryuo. Tush, akvarel va guashda ishlash texnikasidan mohirona foydalanilgan.*



Daranining Modelyanide Raux uchun chizilgan eskizi. "L'Officiel" jurnali, 1949 yil. Shu davrda taklif etilgan yangicha obraz (imidj) - sariq rangdagi jun jaket va yangicha (yoki shu davr uchun o'zgacha) uzunlikdagi mayda katakli shim - dam olish va sayrlar uchun mo'ljallangan kiyim



Kristian Dior yaratgan libos. Bunday libosga ba'zan 30 metrdan ziyod mato sarflangan va uning og'irligi 30 kg gacha yetgan



*60-yillar modası*



*1969-yıl*



*70-yillar modası*



*70-yillar modabop siymosi*



*Pako Rabbanning libosi*



*Emilio Puchchi yaratgan libos*



*XX-asr 90-yillari*



*Filip Treysi tomonidan yaratilgan model*



*1990-yıl*



*Bu rasmda druzlik turmushga chiqqan boy arab ayoli tasvirlangan. Bosh kiyimi balandligi 70 smgacha bo'lgan konussimon - tantur. Tantur metalldan, ba'zan kumushdan qilingan bo'lib, osilma tangachalar bilan bezalgan*



*Rasmda Arab ayolari libosi tasvirlangan*



*Arabistonning Xanubora qabilasi ayollari libosi*



*Fors shohi va uning a'yonlari*



*Sin davrida (1644-1911-yillar) Xitoy imperatorining libosi. Ushbu rasm ensiklopediya "Modi I cnbkz" kitobidan olingan bo'lib bu rasmiy ravishda manchjurliklar libosini qabul qilgandagi ko'rinishi.*

*Sin davrida Xitoy imperatori ayolining tantanali libosi*



*Qadimgi Xitoy imperatorining diniy marosimlar uchun  
mo 'ljallangan libosi*



*Samuray va ularning qavmi ayollari libosi*



*Kitagawa Utamaroning «Suhbat» nomli gravyurasi . Bu asar 1800yillarda ishlangan bo 'lib, unda yapon ayollarining shu davrdagi ko 'rinishi (obrazi) aks etgan*



*Ogata Korin tomonidan 1704-yilda ishlangan portretda, shu davrning aslzoda kishilaridan biri Nakamura Kuranosuke tasvirlangan*



*Ushbu san'at asari XIII asrda shoyi matosida ishlangan bo'lib, unda ruhoniy Kukay bola obrazida tasvirlangan*



*Ushbu rasmida Yapon ayollarining libosi tasvirlangan*



*Qozoq ayollar va erkaklar libosi*



*Tojuk erkaklar va ayollar libosi*



*Qirg'iz erkaklar va ayollar libosi*



*Turkman ayollar milliy kiyimi*



*Saroy devoriga chizilgan rasm. Surxondaryo,  
Bolaliqtepa (V-VI asrlar)*



*Saroy devoriga chizilgan rasm.  
Samarqand, Afrosiyob (VII-VIII asrlar)*



Pavel Ben'kov. Jangchiga sovg'a (1945-yil)



Chingiz Ahmarov. Buxoro raqsi (1976-yil)



Bahodir Jalolov. *Raqsning tug'ilishi* (1981-yil)

# MUNDARIJA

<b>Kirish. JAMIYAT HAYOTIDA LIBOSNING O'RNI KIYIM VA LIBOS TUSHUNCHALARI .....</b>	<b>3</b>
<b>Birinchi bob. QADIMGI DAVR LIBOSI</b>	
<b>Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kiyimlarning asosiy turlari</b>	<b>6</b>
<b>Antik davr libosi</b>	
Qadimgi Misr libosi .....	7
Qadimiy Yunon libosi .....	14
Qadimiy Rim libosi .....	22
Qadimiy Rus libosi .....	34
<b>Ikkinchchi bob. O'RTA ASRLARDA G'ARBIY YEVROPA LIBOSI .....</b>	<b>42</b>
Vizantiya libosi .....	42
O'rta asrlarda g'arbiy Yevropa libosi .....	51
Uyg'onish – renessans davri libosi .....	65
Italiya libosi .....	67
Ispan libosi .....	74
G'arbiy Yevropa libosi. XV-XVI asrlar .....	78
XVII asr libosi .....	82
Fransiya libos .....	86
XVIII asr Yevropa libosi .....	94
XIX asr libosi .....	105
1800-1825-yillar libosi. Ampir uslubi. ....	109
1830-1860-yillar libosi. Modanining keskin o'zgarishi. ....	111
1870-1890-yillar libosi .....	114
<b>Uchinchi bob. XX VA XXI ASR LIBOSLARI .....</b>	<b>117</b>
XX asr 10-20-yillarda modanining rivojlanishi .....	121
XX asr 20-30-yillarda jahon modasining rivojlanishi .....	125
XX asr 30-40-yillarida moda .....	129
XX asr 50-60-yillaridagi jahon modasi .....	136

XX asr 70-yillari modasi .....	143	
XX asr 80-yillari modasi .....	149	
XX asr 90-yillari modasi va xxi asr boshida jahon modasining konseptual yo‘nalishlari .....	155	
 <b>To‘rtinchii bob. JANUBIY VA SHARQIY OSIYO</b>		
<b>XALQLARI LIBOSI</b> .....	164	
Fors libosi .....	164	
Arab libosi .....	167	
Hind libosi .....	173	
Xitoy libosi .....	179	
Yapon libosi .....	186	
 <b>Beshinchi bob. MARKAZIY OSIYO HALQLARI</b>		
<b>LIBOSI</b> .....	196	
Qozoq libosi .....	196	
Qirg‘iz libosi .....	204	
Tojik libosi .....	213	
Turkman libosi .....	220	
 <b>Oltinchi bob. O‘ZBEK LIBOSI</b> .....		230
Toshkent-Farg‘ona libosi .....	242	
Buxoro-Samarqand libosi .....	244	
Qashqadaryo-Surxondaryo libosi.....	246	
Xorazm libosi.....	250	
Marosim kiyimlari .....	253	
 <b>Atamalar lug‘ati</b> .....		258
<b>Adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	276	
<b>Rangli ilovalar</b> .....	278	

*Qayd uchun*

# **LIBOS TARIXI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan darslik sisatida tavsija etilgan*

*Muharrir:* A.Tilavov

*Texnik muharrir:* Yu.O'rinov

*Badiiy muharrir:* I.Zaxidova

*Musahhih:* D.Kenjayeva

*Dizayner:* Yu.O'rinov

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.

Terishga 01.10.2015-yilda berildi. Bosishga 21.10.2015-yilda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times» garniturasi. Shartli b.t. 23,0.

Nashr b.t. 22,25. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №80.

Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Telefon: (371) 228-07-94, faks: (371) 228-07-95.

«Sano-standart»  
nashriyoti

ISBN 978-9943-348-84-4

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-348-84-4.

9 789943 348844